

ZEBINISO ALLAYOROVA

**DAVLAT TILI– JAMIYATNING MA’NAVIY
TARAQQIYOTI OMILI**

Toshkent - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

ALLAYOROVA ZEBINISO

**DAVLAT TILI– JAMIYATNING MA’NAVIY
TARAQQIYOTI OMILI**

Toshkent - 2025

Zebiniso Allayorova. Davlat tili– jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti omili. Monografiya. Oliy o‘quv yurtlarining falasafa va o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlari talabalari uchun. –Toshkent. 2025. 164 bet.

Mas’ul muharrir

Qiyomiddin NAZAROV

Falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

Baxtiyor MENGLIYEV

Filologiya fanlari doktori, professor

G‘ofir HAMROYEV

Pedagogika fanlari doktori, professor

Mazkur monografiya o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarish – jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti omili, ma’naviy asoslarini, davlat tilining shaxs tafakkurini rivojlantirish, milliy o‘zligini anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini hosil qilishdagi o‘rni shaxs ma’naviyatini yuksaltirishdagi tarbiyaviy maqomini belgilab beruvchi tamoyil va mezonlarini yaratish va ularni ommalashtirishga bag‘ishlangan.

Monografiyadan til siyosati, falsafasi va ta’limi bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilar, magistrantlar, ona tili va adabiyot o‘qituvchilari, metodistlar, darslik yozuvchilar foydalanishi mumkin.

TOSHKENT – 2025

KIRISH

Jahon xalqlari ma'naviy-axloqiy qiyofasining takomillashuvida ijtimoiy-falsafiy muammolarni o'rganishga, bugungi axborot rivojlangan davrda jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy g'oyalar orqali umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan pozitiv munosabatini mustahkamlashga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Til inson ma'naviyatini boyituvchi, namoyon etuvchi muhim omil, milliy qadriyat hisoblandi. Xususan, davlat tilining jamiyat va davlat miqyosidagi nufuzi, unga amal qilish, qadrlash masalasi, rivojlantirish bosqichlari, ijtimoiy borliqda insonning o'z-o'zini anglash strukturasi, til va jamiyat, axloqiy tamoyillar, davlat tilining tarbiyaviy maqomini tahlil qilish globallashuv jarayonida keng ildiz otgan davlat tiliga, milliy qadriyatlarga hurmatsizlik illatlarga qarshi kurashishda konstruktiv ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fanida XXI asrga kelib til siyosati muammolarini, til va ma'naviyat, tilning jamiyat orasida tarbiyaviy maqomini ko'tarishga doir ilmiy-nazariy, amaliy o'rganishlar dolzarblashdi. Ijtimoiy hayotda davlat tilidan foydalanish, davlat tilini muhofaza qilish, uning qo'llanilishini nazorat qilish hamda "Davlat tili to'g'risida"gi qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikni ta'minlash masalalarini tartibga solish maqsadlarida ko'p mamlakatlarda davlat tili haqida maxsus qonunlar qabul qilinmoqda. Globallashuv jarayonida dunyodagi millatlar, xalqlar, jamoalarning muloqotini kuzatish, taraqqiyotning tilga ta'siri, tilning rivojlanishga ta'siri masalalarini yoritish, svilizatsiya jarayonida olamning lisoniy manzarasi ko'rinishi, yer shari aholisi o'rtasida ko'p qo'llanayotgan tillar va ularning keng qo'llanilish omillari, bilingvizm, pluralingvizmning ijobiy va salbiy xususiyatlari kabi jihatlarni falsafiy kategoriya sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol yillarida O'zbekistonning til siyosati, mamlakatdagi lingvistik hodisalar, til siyosati modellari tadqiqi, bilingvizm va multilingvizm hodisalari borasida qator ishlar amalga oshirilgan. Binobarin, barcha ilmiy yo'nalishlar qatorida tilshunoslikda ham «...Davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vazifasi» ning¹ belgilanishi o'zbek tilining taraqqiyot modellarini tadqiq etish bilan bog'liq izlanishlar olib borish muhimligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda davlat tiliga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga o'zbek tilining mustahkam qonuniy himoyasini ishlab chiqish, alifboni isloh etish, o'zbek tili me'yorlarini zamon talablari asosida takomillashtirish kechiktirib bo'lmas masalaga aylandi. Milliy qadriyatlarimiz,

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони // www.xabar.uz

madaniy boyliklarimiz bilan birga ma'naviy yuksalishimizda, xalqimizning dunyoqarashi kengayishida muhim ahamiyatga ega ona tilimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, respublikamizda olib borilgan til siyosati va bu sohada erishilgan yutuqlar hamda ayrim kamchiliklar, mamlakatimizdagi lisoniy vaziyat, ikki tillilik va ko'p tillilik hodisalarining istiqloq yillaridagi holati, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish tendensiyasi, uning strukturasida yuz berayotgan o'zgarishlar singari masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda chop etilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmonlari, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi, 2019-yil 3-maydagi **PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 340-son qarori**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 dekabrdagi «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 984-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Dunyo ma'naviyatshunosligida tillarning davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish – jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti omili o'laroq vazifalarni belgilashga qaratiladi. Odatda til va ma'naviyat birligida til boshqaruvini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkil etilgan agentliklar, organlar, yuqori mas'uliyatni zimmasiga olgan tashkilotlar, vakolatli shaxslar farqlanadi. Chunki ular til menejmentida muayyan farqli funksiyalarni amalga oshirishadi.

Xalqaro tadqiqotlarda muayyan tilning davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish – jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti omili, til siyosati, tilni rejalashtirish, til menejmenti masalalari turlicha tadqiq etilganligini, ushbu terminlar

ostida turlicha tavsiflar keltirilganligini, shuningdek, ushbu tushunchalarni ifodalash uchun til muhandisligi, glottopolitika, tilni rivojlantirish, tilni tartibga solish birliklaridan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tadqiqotlarda qayd etilgan tushunchalarni qo'llash bilan bog'liq xilma-xilliklar ko'zga tashlanadi. Shunday bo'lsa-da, ular o'zaro aloqador tushunchalar sifatida talqin qilinadi va mazkur tushunchalar ostida mujassamlashgan jarayonlar atroflicha tadqiq etiladi.

Jahon mamlakatlaridagi tilning davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish – jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti masalalari doirasida tadqiqotlarini olib borgan olimlar sifatida Das Gupta, Charlz A.Fergyson, Joshua A.Fishman, Einar Haugen, Bjiirn Jernudd, Xaynts Floss, Jiff Neustupny, Kuper, Spolskiy, Joan Rubin, Gorman Tomas P(1973), Gumperz Jon J (1968), Xoll Robert A(1951), Xockett Charlz F(1958), Jernudd Byorn H(1997), Kachru Braj B(1986), Karam Frensis X(1974), Kopeliovich Shulamit(2006), Kymlicka Will, Patten Alan(2003), Labov Uilyam(1966), Markee Numa, Piers Filipp(1986), Miller Jorj A(1950), Nekvapil Jiri(2006), Neustupny Jiff V(1983), Noss Richard(1967), Vaynshteyn Brayan(1980) kabilarni e'tirof etishimiz mumkin. Ushbu olimlarning ayrimlari mavzuga doir ko'plab maqolalar nashr etgan bo'lsa, ba'zilar til menejmenti yuzasidan o'quv qo'llanma va monografiyalar chop ettirganlar. Mazkur tadqiqotchilarning bir nechta til siyosati, tilni rejalashtirish, til va jamiyat muammolari borasida ham ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, jahon tilshunosligida mavzuga aloqador tadqiqotlar, Jan Baudouin de Courtenay, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, V.M.Alpatov, Y.D.Desheriyev, U.Ammon, A.I.Baskakov, E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy, L.I.Jirkov, D.V.Bubrix, N.N.Poppe, N.K.Dmitriyev, A.M.Suxotin, K.K.Yudaxin izlanishlarida mujassamlashgan.

Bugungi kunga kelib til masalalariga bo'lgan qiziqish olimlar o'rtasida, lingvist va boshqa soha vakillari orasida yuksalib bormoqda. Bu esa tillarning taraqqiy etishiga katta imkoniyat yaratib bermoqda. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyati, jamiyat, shaxs ma'naviyatida tutgan o'rni va taraqqiyoti masalasining turli jihatlarini hamisha diqqatni tortib kelgan. Bu hol nafaqat lingvistika sohasiga tegishli, balki, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, siyosatshunoslik va hatto kibernetika fanlari uchun ham e'tiborga molikdir².

²Абдуазизов А. Тиллар оламига саёҳат. – Т.: 1988; Алиев А., Назаров К. Ўзбек тили маълумотномаси; Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.:1994; Адабий тил ва бадиий талқин. – Т.:1987; Баскаков Н. А. Социолингвистический анализ языковой ситуации в регионе Средней Азии и Казахстане. Нукус: 1992; М.: 1988; Джаббаров Ж. Язык как фактор вазимообогашения духовной культуры парадов. – Т.:1991; Иброҳимов А. Тил – тақдир демак. – Т.:1990; Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Т.:1992; Муҳиддинов Н. А. Она тилим – жони дилим. – Т.: 1998; Неъматов Х. И., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.:1989; Хоназаров Қ. Тил ва дил. – Т.: 1991.

Davlat tilining ma'naviy, falsafiy masalalari bilan N. Shermuhammedova, A.Hamdamaova, N.Bekmirzayev, A.Siddiqova, Z.Xolmonovalar shug'llangan³.

O'tgan asrning 80-yillari o'rtalari va 90-yillardan boshlab xalqlarning milliy o'zlikni anglash darajasi kuchayib, til muammolariga, davlat tili masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarning salmog'i oshdi. Ularda til ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etilib, xususan, o'zbek tili turli aspektlarda o'rganildi. Shu davrdan boshlab bir qator muhim tadqiqotlarda milliy til muammolari milliy o'z-o'zini anglash jarayonlarini tahlil etish doirasida o'z ifodasini topdi⁴.

O'zbek tilshunosligida til siyosati, davlat tilining ijtimoiy, qisman tarbiyaviy maqomi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni biz N.Mahmudov, E.Begmatov, M.T.Irisqulov, H.Ne'matov, M.Mirtojiyev, E.Y.Yusupov, I.Q.Qo'chqortoev, B.Karimov, A.Nurmonov, Q.Xonazarov, M.Zokirov, Sh.Usmonova, Z.Ochilova singari olim va olimalarning ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Bu muammolar jahon tilshunosligida ham atroflicha o'rganilgan, jumladan: I.A.Baudouin de Kurttenay, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, V.M.Alpatov, Y.D.Desheriev, J.Fishman, Ch.Ferguson, U.Ammon, A.I.Baskakov, E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy, L.I.Jirkov, D.V.Bubrix, N.N.Poppe, N.K.Dmitriev, A.M.Suxotin, K.K.YudaxinA. A.Leontev, A.E.Suprun, A.R.Luriya, E.M.Vreshchagin, L.S.Vigotskiy, U.Vaynrayx, Y.A.Iluktenko, Y.A.Zemskaya, X.M.Grigorevna, L.V.Shcherba, A.Zaleviskata, M.M.Mixaylov, A.Y.Sorokin, V.N.Teliya kabi tadqiqotchi olimlar ishlarida qayd etilgan.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng yurtimizda tadqiqotchilar ishlarida milliy munosabatlar va ularning lisoniy jihatlari keng tadqiq etila boshlandi. O'zbek faylasuflari, siyosatshunoslari, sotsiologlari demokratik jamiyat qurish amaliyoti ilgari surayotgan ijtimoiy muammolar, xususan, jamiyat hayotida milliy tilning o'rni masalalariga e'tibor qarata boshladilar⁵.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan o'zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish tendensiyalarini va muammolarini tadqiq etishga diqqat qilindi⁶.

³ N. Shermuhammedova. Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent, 2008; Hamdamova A. Falsafa. – T., 2008; N. Bekmirzayev. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari (o'q'uv q'o'llanma) Toshkent «Fan» nashriyoti, 2007; Siddiqova A. Til tushunchasining falsafadagi ahamiyati// Konferensiya materiallari. –T.: 2023; Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish Toshkent-2007.

⁴Атамуратов С. Национальное самосознание и интернациональное шенитанис. – Т.: Узбекистан, 1991; Ачилдиев А. С. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. – Т.: 1997 ва б.

⁵Алиев А., Содиков К, Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1994; Джаббаров Ж.Ж. Язык как фактор взаимообогащённости духовной культуры народов. – Т.: Ўзбекистон, 1991; Ирискулов М. Т. Тилшуносликка кириш.–Т.: Ўкитувчи, 1992 ва б.

⁶Агзамходжаев А. А. Правовые основы государственной независимости Республики Узбекистан. – Т.: Ўзбекисон, 1993; Алиев А., Содиков К. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т.: Ўзбекисон, 1994;

Mustaqillik yillarida o'zbek tili taraqqiyoti muammolarining turli jihatlarini o'rganish sohasida o'zgarish yuz berdi. Bu, ayniqsa, vaqtli matbuot sahifalarida, ommaviy axborot faoliyatida yaqqol ko'zga tashlandi. Shuningdek, millatimiz tarixi, madaniyati va tilining muhim yutuqlari, rivojlanish xususiyatlari va muammolari aks etgan bir qancha muhim tadqiqotlar yuzaga keldi⁷.

Tilning shakllanishi, taraqqiyoti va xususiyatlariga doir ko'plab ilmiy ishlar mavjud bo'lishiga qaramay, nazarimizda, til muammolari yetarlicha tahlil va tadqiq etilmagan. Ayniqsa, huquqiy davlat qurish jarayonida davlat tilining amal qilish mexanizmlarini tadqiq etish ehtiyoji sezilmoqda. Davriy matbuotda, ayrim ilmiy maqolalarda davlat tili muammolarining u yoki bu jihatlari tahlil etilsa-da, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish muammolari, uning tarbiyaviy maqomini aniqlash yaxlit tarzda, ijtimoiy-ma'naviy aspektda tahliliy o'rganilmagan.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish – jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti omili, ma'naviy asoslarini, O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasiga kirib borishi jarayonida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va rolini aniqlash davlat tilining tarbiyaviy maqomini aniqlab berishdan iborat. Bu boradagi vazifalar: O'zbekistondagi davlat tili bo'yicha islohotlar mohiyati, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini aniqlashga doir ijtimoiy, ma'naviy jarayonlar falsafiy tahlil etilgan, tilning shaxs ma'naviyatining shakllanishidagi ahamiyatini ochib berish;

davlat tilining shaxs tafakkurini rivojlantirish, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini hosil qilishdagi o'rni shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi tarbiyaviy maqomini belgilab beruvchi tamoyil va mezonlarini ishlab chiqish;

ma'rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo'nalishlari Jamiyatimiz ma'naviy hayotidagi innovasion jarayonlar – davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish omili, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirish - ma'rifatli jamiyatni barpo etish muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy asoslash;

milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillarini o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishdagi ahamiyati, o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy mexanizmi va uni optimallashtirish imkoniyatlarini dalillash;

ijtimoiy sohaga doir islohotlar – davlat tili tarbiyaviy maqomini oshirishning optimal mexanizmi, jamiyatimizning hozirgi ma'naviy taraqqiyoti jarayonida o'zbek tilini obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish yo'llari va vositalari, ilm-fan va

⁷Мухилдинов Н. А. Она тилим –жони дилим.-Т.:Фан, 1993 ва бошқалар; Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. –Т.: Ўзбекистон 1996; Жўраев Н. Агар огоҳ сен... Портретга чизгилар. Сиёсий эссе. – Т.: Шарқ, 1998.

ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar jarayonida davlat tili qadrini ko'tarish mexanizmlarini takomillashtirish.

O'zbekistondagi davlat tili bo'yicha islohotlar mohiyati, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini aniqlashga doir ijtimoiy, ma'naviy jarayonlar falsafiy tahlil etilgan, tilning shaxs ma'naviyatining shakllanishidagi ahamiyati ochib berilgan;

davlat tilining shaxs tafakkurini rivojlantirish, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini hosil qilishdagi o'rni shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi tarbiyaviy maqomini belgilab beruvchi tamoyil va mezonlar ishlab chiqilgan;

ma'rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo'nalishlari Jamiyatimiz ma'naviy hayotidagi innovasion jarayonlar – davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish omili, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirish - ma'rifatli jamiyatni barpo etish muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy asoslangan;

milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillarini o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishdagi ahamiyati, o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy mexanizmi va uni optimallashtirish imkoniyatlari dalillangan;

ijtimoiy sohaga doir islohotlar – davlat tili tarbiyaviy maqomini oshirishning optimal mexanizmi, jamiyatimizning hozirgi ma'naviy taraqqiyoti jarayonida o'zbek tilini obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish yo'llari va vositalari, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar jarayonida davlat tili qadrini ko'tarish mexanizmlari takomillashtirilgan.

Davlat tili bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mohiyati, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini aniqlashga doir ijtimoiy, ma'naviy jarayonlar falsafiy tahlil etish, tilning shaxs ma'naviyatining shakllanishidagi ahamiyatini tushuntirishga doir seminarlar tashkil etilgan;

davlat tilining shaxs tafakkurini rivojlantirish, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini hosil qilishdagi o'rni shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi tarbiyaviy maqomini belgilab beruvchi tamoyil va mezonlar ishlab chiqilgan;

ma'rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo'nalishlari jamiyatimiz ma'naviy hayotidagi innovasion jarayonlar – davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish omili, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirish - ma'rifatli jamiyatni barpo etish muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy asoslangan metodik qo'llanma yaratilgan;

milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillarini o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishdagi ahamiyati, o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishning

ijtimoiy-ma'naviy mexanizmi va uni optimallashtirish imkoniyatlarini mavzusida davra suhbatlari tashkil etilgan;

ijtimoiy sohaga doir islohotlar – davlat tili tarbiyaviy maqomini oshirishning optimal mexanizmi, jamiyatimizning hozirgi ma'naviy taraqqiyoti jarayonida o'zbek tilini obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish yo'llari va vositalari, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar jarayonida davlat tili qadrini ko'tarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlari olib borilgan.

Tahlilga tortilgan materiallar o'zbek adabiy tili tabiati va O'zbekistondagi lisoniy vaziyatdan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, metodologik mukammalligi, qo'yilgan masalalarning aniqligi, til siyosatida va davlat tilining tarbiyaviy maqomini aniqlash, til siyosati, ijtimoiy, falsafiy hodisalarini ochib berishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot O'zbekistonda til siyosatining zamonaviy modellarini shakllantirilishida, davlat tiling tarbiyaviy maqomini oshirishga doir taraqqiyotining innovatsion strategiyalarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, falsafa yo'nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati falsafa, lingvistika: sotsiolingvistika, lingvodidaktika, lingvokulturologiyaning fan sifatida o'qitilish jarayonida dastur, reja tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o'tashi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, "Davlat tilining davlat va jamiyat qurilishidagi o'rni" va shu kabimavzularda o'qiladigan maxsus kurslarni nazarda tutadi. Mazkur maxsus kurslar filologiya, falsafa, tarix, sotsiologiya, sotsiolingvistika, siyosatshunoslik, davlat va jamiyat qurilishi muammolari bilan shug'ullanadigan mutaxassislariga tavsiya etilishi mumkin. Shuningdek, bilingvlar nutqini kuzatishda, ikki tillilik va ko'p tillilik hodisasini yoritishda foydalanish, ushbu hodisalar tadqiqi jarayonida, turli tahliliy va nazariy tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin.

I BO‘LIM.
O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI TARBIYAVIY
MAQOMINI KO‘TARISH DIALEKTIKASINI ILMIY-FALSAFIY
O‘RGANISH MASALALARI

1.1. Zamonaviy O‘zbekistonda “O‘zbek tili” va “Davlat tili” tushunchalari
hamda ular aloqadorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili

Inson ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblangan til jamiyatda turli maqomlarga ega. Muayyan tili undan foydalanuvchilar uchun ona til, davlat tili, ikkinchi til sifatida muomalada bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek tili ham tilni tashuvchi xalq uchun ona tili, ko‘p millatli mamlakat uchun davlat tili, ikkinchi til sifatida amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqlaridan birida “Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta’limning barcha bosqichlarida o‘zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o‘rgatishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o‘zbek tilida ravon o‘qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin”⁸ degan edi. Darhaqiqat, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarish dialektikasini ilmiy-falsafiy o‘rganish masalalari bugun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qoilanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Ma’lumki, o‘zbek tili asrlar davomida arab yozuvi asosida rivojlanib kelgan. Ayni paytda buyuk ajdodlarimiz, tilimizning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ulkan imkoniyatlariga mos yozuv tizimini yaratish haqida doimo bosh qotirib kelganlari ham tarixiy manbalardan yaxshi ayon, deb o‘ylayman⁹.

⁸ <https://president.uz/oz>

⁹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б.67.

Germenevtik yondashuvga ko'ra til bu borliqning mustaqil qismi hisoblanadi. Unga ko'ra tajribaning shakllanish mexanizmi ham tilda "joylashgan"dir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, til insonning dunyoga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Chunonchi, til yordamida inson voqelikni nazariy bilibgina qolmay, uni hayotiy-amaliy "sinovdan" o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda, uchlik: dunyoning mohiyati - til - yashashga amal qilinadi¹⁰.

Jahonda 200 dan ziyod mamlakatlar bo'lsa, ularning ko'pchiligida bir necha tildan foydalanuvchi kishilar istiqomat qiladi. Olamda mavjud aholi tillari turlicha bo'lgani tufayli bir-birlarini tushunishda muammolarga duch kelib kelishgan. Bu esa xalqaro tillarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Dunyodagi mavjud tillarning maqomi, asosan, uch mezon bilan belgilanadi:

- 1) so'zlashuvchilar sonining miqdori;
- 2) tilning imkoniyati va funktsionalliligi;
- 3) moslashuvchanligi hamda lug'at boyligi.

Globalizatsiya davrida ularga qo'shimcha ravishda yana uchta mezon shakllanayotganligini qayd etishimiz mumkin:

- 1) tilning internet tarmog'i hamda elektron platformalardagi o'rni (tilning elektronlashtirilganlik darajasi va undan foydalanish imkoniyatlarining qamrovi);
- 2) tillarning imtiyozlilik darajasi;
- 3) hukumatlar tomonidan tilga bo'lgan iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy e'tibor.

XXI asrda dunyoning ijtimoiy-kommunikativ voqeligida tillarning mavqeini o'rganish, zamonaviy sivilizatsiya tendensiyalari tarkibini hisobga olgan holda diskursiv amaliyotlar va lingvistik hodisalarning ijtimoiy-gumanitar tomonini tahlil qilish dolzarb masalalar sirasida e'tirof etila boshlandi. Zamonaviy globallashtirilgan dunyoda til hodisalarini ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ular bilan hamohang ravishda yuzaga keladigan muammolar bilan birga o'rganish ko'p jihatdan turli munosabatlarni o'rnatish, til va kommunikatsion xususiyatlarni belgilashga yordam beradi. Ta'kidlash lozimki, dunyoda taraqqiy etgan davlatlarning tillari, asosan, texnologiyalar orqali yanada rivojlanishga yuz tutib, qamrov doirasini kengaytirish bilan birga, ma'lum guruhlar tomonidan turli xil maqsadlarda o'z mafkuralarini singdirish hamda boshqa millat vakillarini ham shu tilni ixtiyoriy majburiy ravishda o'rganib, turli jamoalarning gegemon tillarda berilgan g'oyalarga ergashishlariga asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu o'rinda ayrim tillarning funksiyalari kengaysa, ayrimlari ushbu raqobatga dosh berolmay vazifalari qisqarmoqda.

¹⁰ Xudoyberganov R. Tilning ilmiy-falsafiy xususiyatlari// SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(1/2), Jan., 2023

Bunday bo'lishiga sabab, asosan, nufuzi oshayotgan yoki tushayotgan tillar vakillarining o'z tiliga bo'lgan e'tibori va yuksaltirishga bo'lgan harakatidir.

Lingvistik falsafa bilishning mohiyatini uning tildagi shaklidan ajratib qo'yib, falsafiy va lingvistik tadqiqotlarni qorishtirib yuboradi. Til kishilik jamiyatida yaratilgan aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi. Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir. Jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o'xshatish noto'g'ridir. Til o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o'zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo'ladi¹¹

Svilizatsiya jarayonida tilga yangicha yondashuvlar shakllandi. Jumladan, A.D.Shvaytser til masalalarida fikrlarini bayon etar ekan, shunday deydi: "Ba'zi hollarda ijtimoiy hayotning muayyan jarayonlari va hodisalariga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillardan biri sifatida ishlaydi"¹². Bu o'rinda til ijtimoiy omil sifatida talqin etilmoqda. Ya'ni til jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga, turli xil jarayonlarning qay yo'sinda borishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib yuzaga chiqishi mumkin ekanligiga urg'u berilmoqda. Haqiqatan ham bugungi globallashtirish davrida tilning roli ortayotganligi har jabhada namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, ko'p millatli mamlakatlarda "til siyosati har doim u yoki bu siyosiy yo'nalishning tarkibiy qismi bo'lib yuzaga chiqadi. Bu har xil davlatdagi muayyan sinflarga yoki ijtimoiy guruhlariga nisbatan ichki siyosat bo'ladimi yoki muayyan davlatlar, guruhlariga nisbatan tashqi siyosat bo'ladimi, ko'pincha, shu holatda namoyon bo'ladi"¹³. Shuning uchun ham tadqiq jarayonida zamonaviy ko'p millatli davlatlarning o'quv amaliyotida qayd etilgan til siyosatining amaliy jihatlariga e'tibor qaratish lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, uchun ushbu masalaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanini nazarda tutib, alohida ta'kidlagani kabi: "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"¹⁴.

¹¹ Siddiqova A. Til tushunchasining falsafadagi ahamiyati// Konferensiya materiallari. 2023. 23-noyabr.

¹² Швейцер А. Д. Современная социолингвистика: Теория, проблемы, методы. - Изд. 4-е. - М., 2012. - С .61.

¹³ Швейцер А. Д. Современная социолингвистика: Теория, проблемы, методы. - Изд. 4-е. - М., 2012. - 148 с.

¹⁴ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.457.

Butun insoniyat tarixida biror bir til bunday keng miqyosda tarqalmagan va dunyoda ingliz tili kabi mashhurlik darajasiga erishmagan. Jahonda bugungi kunda 7 mingga yaqin til mavjud, ammo dunyo aholisining yarmidan ko‘pi atigi o‘nta tilda gaplashadi.

Bu borada “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin, degan edi Sh.Mirziyoyev¹⁵

Shaxsiyatni ifoda etish zarurati, muloqot qilish uchun ona tilini tanlashda, o‘zaro tushunish zaruratida suhbatdoshlar bilan aniq tilda boshqa tilni aralashtirmasdan muloqot qilish istagida yotadi. Zamonaviy kommunikativ sharoitda ushbu ehtiyojlar doimo muammosiz amalga oshirilmaydi. U.Ammon tilning iqtisodiy qudrati konsepsiyasini kiritgani bejiz emas¹⁶.

Tillar taraqqiyoti haqida so‘z borar ekan, dunyoda tillarni real vaziyatda tadqiq etish va ularning holati haqida xulosalar berishda sotsiolingvistik izlanishlarni ko‘paytirish va amaliy tadqiqotlarga keng e’tibor qaratish lozim. Til holati - bu ma’lum bir geografik mintaqalar yoki ma’muriy subyektlar chegaralarida bitta tilning yoki bir nechta tilning mavjud bo‘lishi va turli shakllarining tarqalishi¹⁷. Vaholanki, “avlod” toifasi sotsiologik tahlilning konseptual apparatida hali joriy etilmagan. E.Neuland fikricha, avlod tushunchasi ijtimoiy harakatlar va til o‘zgarishlarini hisobga olishning kalitidir. Bu til tarixiga oid so‘nggi izlanishlarda nasl tushunchasidan faol foydalanish bilan tasdiqlanadi, chunki bu til yangiliklarining paydo bo‘lishi va tarqalish vaqti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin¹⁸.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maqomlarga ega:

¹⁵ <https://president.uz/oz>

¹⁶ Ammon U. Schwierigkeiten bei der Verbreitung der deutschen Sprache heute // Mutter- sprache. - Wiesbaden, 1997. - № 1. - S. 17-34.

¹⁷ Словарь социолингвистических терминов / Отв. ред. Михальченко В. Ю. - М., 2006. - 266 с.

¹⁸ Neuland E. Soziolinguistische Dimensionen (inter)generationellen Sprachgebrauchs // Vielfalt, Variation und Stellung der deutschen Sprache. - B.; Boston, 2013. - S. 209-223.



Mamlakatda huquqiy maqomni olgan tilning rivojlanish darajasi, ushbu tilning imkoniyatlari hamda funksionalliligi muhimdir. Sotsiolingvistikada huquqiy maqom tushunchasi bilan bir qatorda, tilning "amaliy (funksional, kommunikativ) holati" tushunchasi mavjud bo'lib, bu tilning rivojlanish darajasini, uning turli aloqa sohalariga xizmat qilish qobiliyatini anglatadi. "Davlat tili" tushunchasi "rasmiy til" tushunchasidan ancha kengroqdir: davlat tili - ijtimoiy aloqaning barcha sohalarida faoliyat ko'rsatadigan madaniyat, siyosat, fan tili; davlat idoralari, ish yuritish ishlarida qo'llanadi¹⁹.

Ma'lum bir davlatda biror tilga rasmiy til maqomini berishda shu mamlakat hududida mavjud millatlarning tillari hisobga olinishi darkor. Avvalambor, eng ko'p aholi so'zlashuvchi tilga e'tibor qaratiladi. Shu tilning imkoniyatlari rasmiy til maqomi darajasiga javob bersa, anashu til mamlakatning rasmiy tiliga aylanadi. Bu jarayon bir millat ko'pchilik bo'lib istiqomat qiluvchi mamlakatlarda qiyinchiliksiz amalga oshadi.

Davlat tili. Ma'lum bir tilning rasmiy maqomga ega bo'lishi uning nufuzini oshiradi. **Davlat tili** — muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til. Odatda, ko'p millatli mamlakatlarda, mas, Hindiston, Kanada, Shveysariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan. Davlatlarning ko'pchiligida rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til davlat tili maqomidan farqlanadi. Mas, Shveysariyada konstitutsiyaga binoan nemis, fransuz, italyan tillari — rasmiy til; nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari — davlat tili sanaladi²⁰. O'zbekiston Respublikasida davlat tili o'zbek tilidir. Aksariyat davlatlarda (Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya, Grmaniya va b.) mamlakatning ona tili davlat tili maqomidadir.

¹⁹ Словарь социоллингвистических терминов / Отв. ред. Михальченко В.Ю. - М., 2006. - 311 с.

²⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa

Shu jihatdan ham davlatlar vujudga kelgach o'z tiliga rasmiy til maqomini beradi va shu tilda davlat siyosati, ishlari olib boriladi. Jahonda yettingga yaqin tillar borligi aytilsada, ko'pincha dunyo lingvistik xaritalari tuzilganda faqatgina ma'lum bir davlatdagi rasmiy til maqomiga ega bo'lgan tillar qamrab olinadi. Mamlakat doirasidagi tadqiqotlarda ushbu davlatdagi mavjud tillar statistikasi keltiriladi, ammo aksariyat hollarda lingvistik xaritalarda aniq ifodalanmaydi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, hozirgi kunda dunyodagi mavjud barcha tillarning holati to'liq tadqiq etilmagan. Buni amalga oshirish dunyo lisoniy qiyofasini to'la aks ettirish uchun imkon beradi. O'z rasmiy tiliga ega bo'lgan davlatlar esa ona tilini nufuzini oshirish, rivojlantirish yo'lida turli harakatlarni olib boradilar, til siyosatini yuritadilar.

Til siyosati – bu tilning mavjud funksional taqsimoti va til quyi tizimlarini saqlab qolish yoki o'zgartirish maqsadida umumiy, yangi til normalarini shakllantirish uchun davlat, partiya, sinf va jamoat guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan chora-tadbirlar majmui, siyosatlari va ularning maqsadlari²¹. Til siyosatining obbekti, avvalambor, rasmiy yoki tartibga solinadigan aloqa sohalarida u yoki bu darajada ishlatiladigan tillardir. Til siyosatining funksional modeli bir yoki boshqa etnik guruh hududida davlat tomonidan (yoki ma'lum bir sinf) rejalashtirilayotgan va qo'llab-quvvatlanadigan tillar va ularning mavjudlik shakllarining yig'indisi. Shunday qilib, til siyosatining modellarini aniqlash uchun aholining etnik tarkibi, turli etnik guruhlarining joylashishi usullari, ona tiliga sodiqlik, qadriyat yo'nalishlari va boshqa ko'plab xususiy ijtimoiy omillarni aniqlash kerak. Shu o'rinda ona tili tushunchasiga ham to'xtalish zarur.

Ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq²²

Ko'p millatli davlatlarda esa doim ham bir tekisda amalga oshmaydi. Bir millatning tili yaqqol ustun bo'lgan mamlakatlarda til siyosatini yuritish osonroq kechadi. Ko'p millatli davlatlarda bu jarayon aksar hollarda qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Garchi ushbu davlatda nufuzi va qamrovi jihatdan yuqori millatning tili rasmiy til maqomini olgan bo'lsa ham. Shuningdek, ko'p millatli davlatlarda til siyosati masalasi ham alohida e'tibor bilan yuritiladi. Olimlar etnik va til xilma-xilligi kuzatiladigan har qanday mamlakatda ikki yo'nalishni amalga oshirish uchun ijtimoiy ehtiyoj mavjudligini ta'kidlashadi. 1. Mamlakat aholisi va

²¹ Словарь социолингвистических терминов / Отв. ред. Михальченко В.Ю. - М., 2006. - 312 с.

²² [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000. 58 b.

davlatning til birligi. Ushbu real hayot bilan bog'liq bo'lib, mamlakat aholisi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqishda ishtirok etishi munosabati bilan doimiy aloqalarni talab qiladi. 2. Til jamoalarining o'zlarining milliy tili va milliy madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirish istagi. Muvaffaqiyatli, ziddiyatsiz lingvistik siyosat olib borish uchun ushbu ikki qarama-qarshi yo'nalishni hisobga olish va jamiyatning tilga ongli ravishda ta'sir ko'rsatishi jarayonlarida ularga e'tibor qaratmoq lozim.

Davlat tili har qanday jamiyatning ma'naviy asoslarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu milliy o'ziga xoslik, madaniy meros va ijtimoiy birlikning muhim vositasidir. Ushbu ishda davlat tilining jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

1. Davlat tili va milliy o'ziga xoslik

Davlat tili milliy o'ziga xoslikning asosidir. U madaniy an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarining uzluksizligini ta'minlash orqali avlodlarni bog'laydi. Tarixiy bilimlar, folklor, adabiyot va millatning ma'naviy merosini shakllantiradigan madaniyatning boshqa elementlari til orqali uzatiladi.

2. Ta'lim tizimida tilning o'rni

Davlat tilida ta'lim o'quvchilarning o'z millati va madaniyatiga tegishlilik hissini shakllantirishga yordam beradi. Bu vatanparvarlik va o'z mamlakati bilan faxrlanish uchun zamin yaratadi. O'rganishda ona tilidan foydalanish bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy birlik va integratsiya

Davlat tili ijtimoiy birlik va integratsiyaning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. U turli xil ijtimoiy guruhlar, etnik va diniy jamoalarning odamlarini birlashtiradi. Umumiy til aloqa va hamkorlikni osonlashtiradi, jamiyatda o'zaro tushunish va uyg'unlikni ta'minlaydi.

4. Til ma'naviy rivojlanish vositasi sifatida

Davlat tili shaxsning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi. U dunyoqarashni, qadriyatlarni va axloqiy tamoyillarni shakllantiradi. Til orqali inson o'z xalqining ma'naviy an'alarini tushunadi, axloqiy me'yorlar va madaniy standartlarni o'zlashtiradi. Bu uyg'un, rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Davlat tili jamiyatning ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu milliy o'ziga xoslikni mustahkamlaydi, ta'lim va madaniy rivojlanishni rag'batlantiradi, odamlarni birlashtiradi va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Davlat tilini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish jamiyatning barqaror ma'naviy va madaniy taraqqiyotining kalitidir.

Dunyo davlatlari til siyosati borasida o'zining alohida modellariga ega. Ko'p millatli mamlakatlarda olib boriladigan til siyosati yanada murakkab til taraqqiyoti modellarini ishlab chiqishni va hayotga tatbiq etishni talab qiladi. Bu borada ko'p millatlar istiqomat qiluvchi Rossiyadagi lingvistik holat va mamlakatda rus tilining roli hamda boshqa tillarga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyatlidir(qarang²³). Qayd etish lozimki, til siyosati borasida ishlab chiqilgan modellar doim yangilanishga muhtoj bo'ladi. Chunki dunyo yuqori sur'atda rivojlanib bormoqda, bu esa tilga ta'sir etmay qolmaydi. Tillar qanchalik globallashuv talablariga moslashib, sivilizatsiyaga yuz tutsa, uning mavqeyi nafaqat mamlakat doirasida, balki, jahonda ham yuksak nufuzga ega bo'ladi. Til modellari rivojlanish strategiyalari yangilab borilmas ekan, uning maqomi pasayib, boshqa tillarning ta'siriga uchraydi.

Jahonda ayrim tillar borki, ular bir necha mamlakatda rasmiy davlat tili maqomiga ega. Jumladan, ingliz tili 55, fransuz tili 30, arab tili 24, ispan tili 20, portugal tili 7, nemis tili 6 va boshqa tillar.

O'zbek tili. O'zbek tili jahon lingvistik xaritasida qanday o'rin tutadi?
O'zbek tili (O'zbekcha) — Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi til. Ushbu til O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra davlat tili hisoblanadi. O'zbek tili ham barcha turkiy tillar kabi agglyutinativ tildir²⁴. Bugungi kunda O'zbekistonda o'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab amaliy harakatlar olib borilmoqda. Uning nufuzini yuksaltirish maqsadida hukumat tomonidan qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib amaliyotga tatbiq etilmoqda. O'zbek tilining ilmiy tadqiqi borasida ham ko'plab izlanishlar olib borilayotganligi tilning yanada yuksalishi uchun xizmat qilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlarida o'zbek tilining mustaqillik davridagi erkin taraqqiyoti va uning jamiyat hayotida tutgan beqiyos o'rni alohida e'tirof etilgan: "Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda»²⁵.

Har qanday til doimo shu til egalarining hayotidagi barcha voqeliklarni aksettirgani holda, mavjudshart-sharoit, davr bilan bog'liq ravishda o'sib, rivojlanib boradi. Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining tafakkurida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Huquqiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy kamolot oldingi davrlarga

²³Алпатов В. М. 150 языков и политика, 1917-1997. - М., 1997. - 191 с. Михальченко В. Ю. Языковая ситуация и языковая политика в Российской Федерации // Национальные языки в эпоху глобализации. - М., 2011. - С. 29-56.

²⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa

²⁵Каримов И. Юсакмаънавият - энгилмаскуч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - Б. 86.

solishtirganimizda sezilarli darajada yuksalganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, qadriyatlarga, urf-odatlarga, madaniy-ma'naviy meroslarga hurmat bilan qarash shakllandi. Ona tilimizga bo'lgan mehr-muhabbat yuksalish bilan birga tilning xalq hayotida tutgan o'rni, bugungi globalizatsiya jarayonida til orqali millat o'zligini saqlab qolish mumkin ekanligi chuqur anglab yetildi.

O'zbek tili jahon aholisining 0.7% ni so'zlashuv tili hisoblanib, hozirda ushbu tilda 50 millionga yaqin aholi muloqot qiladi. Jahonda yetti mingta til mavjud bo'lsa, ularning atigi bir foizidan dunyo aholisi faol foydalanadi. Qolganlari kichik millatlar, turli etnik guruhlariga tegishli tillar hisoblanib, ular faqatgina ma'lum qamrovda qo'llanadi. O'zbek tili anashu 1% ning orasida ekanligi quvonarlidir. O'zbek tili dunyoda mavjud sanoqli rasmiy davlat tillaridan biridir. O'zbekistonning 80% aholisi o'zbek tilini ona tili deb bilsa, mamlakat tashqarisida, O'rta Osiyo davlatlari hududida hamda jahonning turli mintaqalarida ushbu tilda muloqot qiluvchi ko'plab etnik guruhlar istiqomat qiladi. Shuningdek, o'zbek tili Afg'onistonning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Bu mamlakatdagi sakkizta viloyat: Balx, Faryob, Juzjon, Bag'lon, Tahor, Samangon, Saripul va Qunduz hududlari aholisining katta qismini o'zbeklar tashkil qiladi. Qayd etish joizki, ushbu mamlakatda yashovchi o'zbeklar O'zbekiston hududidan tashqaridagi o'zbeklar eng ko'p istiqomat qiluvchi qismidir²⁶.

Shu o'rinda o'zbek tilining jahon miqyosidagi nufuzi, kengayishi va tadqiqi masalalariga to'xtalib o'tsak. O'zbek tili Yaponiyaning 8, Turkiyaning 10 dan ziyod, Amerikaning 8, Germaniyaning 4, Janubiy Koreyaning 2, Xitoy Millatlar universiteti, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Hindiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 70 ga yaqin universitetlari va 100 lab maktablarida o'rganilmoqda. Jumladan: Tojikistonda ta'lim jarayoni o'zbek tilida olib borilayotgan maktablar soni 272ta, tojik va o'zbek tillarida faoliyat yuritadigan umumta'lim muassasalari 597tani tashkil etmoqda. Shuningdek, tojik-o'zbek-rus, tojik-o'zbek-qirg'iz va tojik-o'zbek-turkman tillaridagi maktablar mavjud. Bundan tashqari, Tojikiston Respublikasi oliygohlarida o'zbek tili va adabiyoti fakulteti hamda bo'limlarining faoliyat yuritayotgani, o'zbek tilidagi o'nlab gazeta-jurnallar, teleradio dasturlarning efirga uzatilayotgani tojikistonlik o'zbeklar uchun o'z ona tilidan erkin foydalanish borasida yaratib berilgan imkoniyatdir²⁷. Afg'onistonning Balx, Faryob, Juzjon, Bag'lon, Tahor, Saripul hududlaridagi oliy ta'lim muassasalarida filologiya fakultetlari qoshida tashkil etilgan o'zbek tili va adabiyoti kafedralarida, o'zbek tili

²⁶ Zaripov R. Mustaqillik yillarida o'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm. Fil.fan.fal.dr.diss.avtoreferati. –Toshkent, 2021. 26 b.

²⁷http://uza.uz/uz/society/tojikistonda-o-zbek-tili-bayrami-nishonlandi-22-10-2019?sphrase_id=17973405

tadqiqi borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi va o'zbek tilidan afg'on yoshlari, ushbu mamlakatda yashovchi o'zbek millati farzandlariga ta'lim beriladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, qo'shni Tojikiston aholisining 13, Qirg'izistonning 15, Qozog'istonning 4, Turkmanistonning 6 foiz aholisi o'zbek tilida gaplashadi²⁸. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan mamlakatlar bilan birga Eron, Shvesiya, Latviya, Mo'g'uliston, Pokiston, Saudiya Arabistoni singari mamlakatlarda ham o'n minglab millatdoshlarimiz yashaydi. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. Mamlakatimizda ham milliy tilni o'rganish va targ'ib qilish ma'naviy taraqqiyot tamoyillari asosida olib borila boshlandi.

“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasi jamiyatning tabiiy-tarixiy rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan, ko'plab umumiy jihatlar bilan tavsiflanadigan va o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan ijtimoiy mazmun va mohiyatni ham o'ziga xos tarzda ifodalaydi.

Ushbu tushuncha davlat siyosatining bu boradagi siyosiy me'yorlar va texnologiyalar tizimini yaratish, ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning o'zaro aloqasini ta'minlash, jamiyat tafakkuri va kelajak tamoyillarini barpo etishga qodir bo'lgan keng qamrovli ma'naviy jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishda muayyan shaxslar, ayniqsa rahbarlarning ongi va tafakkuriga bog'liq jarayonlarnida ham aks ettiradi²⁹.

“Muayyan davrda yoki biror bir davlatda yashayotgan har qanday kishi, ayniqsa, yoshlar umumiy qonun-qoidalar, tartiblar va talablar bilan birga, o'zi yashayotgan jamiyatning ma'naviy taraqqiyot mezonlarini anglash va o'z faoliyatini uning umumiy mezonlariga uyg'unlashtirishda ushbu jihatlarga e'tibor qaratadi va ular bilan bog'liq talablarga rioya qiladi. Bu esa, o'z navbatida, har qanday jamiyatni isloh qilishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatiga alohida ahamiyat berish zarurligini anglatadi”³⁰.

Bularning barchasi jamiyatning ma'naviy hayoti va barkamol avlod tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa yo'nalishlari, sohalari bilan o'zaro bog'liqligi, aloqadorligini anglatadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab mutaxassislar va tadqiqotchilar duch keladigan masalaning muhimligi jamiyatning ma'naviy hayoti barkamol avlod tarbiyalashning omili sifatida faqatgina inson ongining o'ziga xosliklariga bog'liqmi yoki moddiy makon bilan aloqadormi? degan savolga borib taqaladi. “Aslida, har qanday holda ham,

²⁸<http://uza.uz/uz/society/o-zbek-tilining-mavqei-o-z-qo-limizda-14-10-2019>

²⁹ Бегматов А., Алиева К., Абдушукуров Б. Рахбар ва янгича тафаккур. – Тошкент: “Akademiya”, 2005. – Б.65.

³⁰ Шопўлатов А. Жамиятни ислоҳ қилишда маънавий қадриятларнинг ўрни //Миллий ғоя – бизнинг ғоя (Матн). – Тошкент: “Турон замин зиё”, 2016. – Б.54-56.

moddiylik va ma'naviylikning o'zaro aloqadorligi, uyg'unligi va dialektik bog'liqligi o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladi"³¹.

Masalaga lisoniy yondashuvga ko'ra fikr yuritilsa, ma'naviylik tamoyili asosidagi qarashlar jamiyat ma'naviy hayotning mavjudligi inson ongining turli shakllariga bo'ysunganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi, ya'ni til insonni ma'lum bir xalqqa, jamiyatga, ma'naviy –ma'rifiy qadriyatlarga mansubligini namoyon qiladi. Davlat tilining maqomi haqidagi tasavvurlar ham kun sayin rivojlanib bormoqda.

Shu ma'noda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida til haqida alohida to'xtalib, shunday fikrlarni bayon qiladi: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatningruhidir"³².

"Ma'naviy hayot bilan uzviy bog'liq bo'lgan jamiyatning siyosiy hayoti marakazida "davlat", "hokimiyat" va "hokimiyat munosabatlari" turadi va ular ushbu sohaning eng muhim elementlari sifatida siyosat va ma'naviyat aloqadorligini tushunish uchun o'ziga xos "kalit" bo'lib xizmat hiladi. Ayni shu asosda jamiyat ma'naviy hayotining milliy davlat va ijtimoiy-falsafiy munosabatlar majmuida tutgan o'rnini to'g'ri tushunish mumkin"³³. Davlat siyosatini yuritishda til ham muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-ma'naviy va ilmiy-ma'rifiy sohalarini yanada takomillashtirish, jamiyatdagi ma'naviy barqarorlik va hamjihatlik, qonun ustuvorligi va xavfsizlik kafolatlarini mustahkamlash, Uchinchi Renessansni barpo etuvchilarning yaksak ma'rifatli avlodini tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish mamlakatimizda ma'rifatli jamiyat barpo etish mazkur yo'nalishdagi faoliyatning asosiy mazmunini belgilaydi. Bu jihatdan, tarix fanlari doktori, professor A.Mavrulov ta'kidlaganidek: "Boy o'zbek madaniyati bugun o'zining milliyligini saqlab qolgan holda, barkamol shaxsni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy-madaniy muhitni barpo etish, jamiyatda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish, odamlarda tafakkur o'zgarishlarini sodir etsagina o'zining asosiy vazifalarini bajargan bo'ladi. Ana shundagina bugun yurtimizda keng jaranglayotgan "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" shiorini real harakatga keltira olamiz"³⁴.

³¹ Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2010. – Б.337.

³² Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: "Маънавият", 2008. – Б.67.

³³ Жўраев Т. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Тошкент: "Akademiya", 2007. – Б.252.

³⁴ Маврулов А. "Маданият ва Учинчи Ренессанс ёхуд бекиёс ирода кучи ва виждон амри билан..." - "Янги Ўзбекистон" газетаси 2021 йил 10 декабрь.

M.Imomnazarov ma'naviyat haqida fikr yuritir ekan, yana shunday deydi: "Ma'naviyat aslo mavhum narsa emas. Ahli bashar ma'naviyatsiz bo'lmaydi, chunki aslida inson o'zi moddiyat va ma'naviyatning birligidir, xolos. Unda tabiiy ehtiyojlar bor va ma'naviy dunyo bor. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlarining o'z ma'naviyati bor. Bu ma'naviy dunyo zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi"³⁵.

Ma'lumki, ma'naviyat kategoriyasi keng qamrovli, nihoyatda teran mazmunlidir. Shuning uchun ma'naviyat deganda barcha xalqlarga tegishli, umuminsoniyatga taalluqli axloq me'yorlari, inson uchun mo'tabar qonun-qoidalar tushuniladi. Shunday ekan, ma'naviyat haqida fikr yuritayotganda milliy ma'naviyatni ham unutmaslik kerak. Milliy ma'naviyat har bir millatga tegishli, uning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi belgilar majmuasidir. Milliy ma'naviyat bo'lmasa, millatlar o'rtasidagi mavjud ma'naviyatni anglab bo'lmaydi. Milliy ma'naviyat deganda, biz o'zbeklarda, ularning qadimiy tarixiga borib taqaladigan, o'tmishimizning buyuk allomalari hayoti, ijodidan o'rin olgan ma'naviy meroslar, ong va o'z-o'zini anglash, axloq-odob qoidalari, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar yig'indisi, dialektik birligi, mushtarakligi tushuniladi. Albatta, bular umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga kiradi. Ular, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va boshqa g'oya, fazilatlardir. Bu o'rinda biz yana M.Imomnazarovning "Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari" asari haqida to'xtalib, unda milliy ma'naviyatimiz haqida yuritilgan mulohazalari ustida o'z munosabatimizni bildirmoqchimiz. Muallif milliy ma'naviyatning tarbiyalanishi jarayonini bayon etar ekan, uning avvalo tarixiy hodisa ekanligini va u bir kunda va hatto bir asrda ham mukammal shakllanmasligini ta'kidlaydi. Jumladan, uning fikricha, "Markaziy Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ularning necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini bosib o'tganligini aniqlash bugun uchun murakkab muammodir"³⁶.

Vaziyatning shu tariqa borishi oxir-oqibat xalqlarning milliy uyg'onishiga olib keldi. Ittifoq hududidagi mamlakatlar ozodlik uchun kurashni kuchaytirdilar. Shu tariqa o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab SSSR tarkibidagi xalqlar o'z mustaqilliklarini e'lon qildilar va buning natijasida qator sohalarda erkinlikni qo'lga kiritdilar. Milliy tillarning tiklanishi va adabiy me'yorlariga ega bo'lib, rasmiy maqomga ega bo'lish voqealari ham yuz berdi. O'zbekiston ham anashunday murakkab holatlardan mehnatkash xalqining jonbozligi evaziga o'z erkinligini qo'lg

³⁵ Имомназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил bosqichlari. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1996. – Б.6.

³⁶ Имомназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил bosqichlari. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1996. – Б.7.

kiritgan holda chiqdi. O'sha davrlarda o'zbek xalqining birdamlik bilan kurash olib borganligi va hukumat rahbarlarining oqilona siyosati tufayli O'zbekiston o'z mustaqil yo'lini barpo etdi hamda erkin siyosat yurita boshladi³⁷. Barcha sohalarda bo'lgani kabi til masalalarida ham yangicha til siyosati shakllantirildi hamda olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach ona tilimiz takomili yanada tezlashib ketdi. Bunda xalqimiz ongi va tafakkurida yuz bergan o'zgarishlar ham muhim rol o'ynadi. Istiqloq qo'lga kiritilgach, aholi o'rtasida har jabhada o'sish boshlandi va bu qator sohalarda aks etdi. Qiyinchiliklar girdobidan muvaffaqiyatli chiqqan ona xalqimiz, endilikda, ozodlikka erishgach, respublikamiz rivoji uchun imkon boricha harakat qila boshladi. Bu harakatlar esa tez sur'atlarda o'z samarasini ko'rsatdi. Eng quvonarlisi shunda ediki, o'zbek xalqi o'zbek tili erkinligiga ham ega bo'lgan. Bu esa fuqarolarimizni ruhlantirib yuborgan edi. O'zbekiston aholisining o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga bo'lgan qarashlari, ma'naviy yuksalishlari kuchayib bordi.

Har qanday faoliyatning vositalari va usullarini tanlash va tushunish, albatta, e'lon qilingan maqsad bilan oldindan belgilanadi. Falsafiy yondashuv nuqtai nazaridan, universitetlarda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish vositalari va usullari nuqtai nazaridan tushunish vazifasi ham xuddi shunday.

Bugungi kunda, dunyoda va mamlakatda insoniyat hayoti mazmunli o'zgarganda va uning "maydoniga" kirgan har bir kishi uning oldida doimiy ravishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilishga tayyor bo'lishi kerak, buning uchun amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim olish kerak.

Ya'ni, zamonaviy ijtimoiy amaliyotni allaqachon "tushungan" va insoniyat hayotining zamonaviy jarayonlariga moslasha olmaydigan, balki ularning natijalarining tabiatga va insonning o'ziga salbiy ta'sirini minimallashtiradigan talabalarni o'qitish, tarbiyalashni amalga oshiradigan ta'lim.

Zamonaviy ijtimoiy amaliyotga inson va insoniyat xavfsizligini ta'minlashga, har bir insonda inson tamoyillarining ijtimoiy taraqqiyoti va rivojlanishiga e'tibor berishga qodir bo'lgan bunday ta'lim.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim – bu murakkab dialektik jarayon va inson tomonidan tizimlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish, uning o'ziga xos ko'nikma va malakalarini shakllantirish, uning ongi va xatti-harakatlarida yuqori axloqiy qadriyatlarni tasdiqlash, uning faoliyati, vakolatlari uchun muhim bo'lgan aniq, shuningdek, ijtimoiy etuk va ishonchli shaxsning fazilatlarini rivojlantirish

³⁷ Zaripov R. Mustaqillik yillarida o'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm. Fil.fan.fal.dr PhD dissertatsiyasi avtoreferati, –Toshkent. 2021. 18-b.

natijasidir. muayyan ijtimoiy guruhning hayoti va faoliyatiga qo'shilishga qodir va tayyor, jamoa, o'z kasbi bo'yicha, ularga va o'ziga xavfsizlik, o'zini o'zi ta'minlash va suverenitetni ta'minlash bilan taraqqiyot shaklida ijobiy o'zgarishlarga turtki berdi³⁸.

Tarkibida u quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

a) kasbga yo'naltirilgan ta'lim;

b) muayyan jamiyat, mamlakat uchun ijtimoiy etuk va ijtimoiy ishonchli shaxsni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy shakllantiruvchi ta'lim;

v) har bir odamda yuqori axloqiy fazilatlar va shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan gumanistik yoki ma'naviy-axloqiy ta'lim;

D) insonda o'ziga, jamiyatga va davlatga xavfsizlikni ta'minlaydigan bunday munosabatlar va harakatlarni yaratishga imkon beradigan xususiyatlar va xususiyatlarni shakllantirishga qaratilgan xavfsiz ta'lim;

e) jismoniy va psixologik ta'lim, odamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning tanlangan tarkibiy qismlarini samarali va samarali bajarishga imkon beradigan fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni shakllantirishning asosini talabalar o'rtasida ilmiy falsafiy dunyoqarashni, fikrlash va amaliy harakatlarning uslubiy madaniyatini, shuningdek tajribaning keng palitrasini rivojlantirish bo'yicha darslar tashkil etadi. Ta'lim nafaqat tinglovchilarga tajriba orttirmasdan, balki uning to'g'ri ilmiy tafakkuri va zarur kompetentsiyalarini rivojlantirmasdan ham amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin emas.

Ya'ni, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dastlab o'rganilgan tegishli fikrlash turini shakllantirishni talab qiladi. Gap shundaki, insoniyat rivojlanishining hozirgi sharoitida faqat mutaxassis bilan fikrlashning ma'lum darajasi va sifatining mavjudligi unga ilmiy, haqiqiy bilimlarga asoslanib, tegishli ko'nikmalarni, ko'nikmalarni, kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon beradi.

To'g'ri fikrlash ilmiy falsafiy dunyoqarashga, insonning uslubiy madaniyatining bir xil darajasiga asoslanadi.

Agar bunday bo'lmasa, "amaliy mutaxassis" o'rniga biz "operator texnologii"ni tayyorlaymiz. Ya'ni, ijodiy shaxs o'rniga biz mashinaning ba'zi protsessual harakatlarining "o'rnini bosuvchi" ni tayyorlaymiz.

³⁸ Михалкин Н. В., Аверюшкин А. Н. Культура, образование и проблемы формирования личности в глобализационно-атомизированном обществе // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Философские науки. 2019. № 3. С. 58-59.

Ijtimoiy va gumanitar kasblar universitetlari bitiruvchilari o'rtasida to'g'ri fikrlashni shakllantirish ayniqsa muhimdir, chunki ular raqiblarini tinglashlari va "eshitishlari", o'z fikrlarini unga tushunarli va ishonchli tarzda "etkazishlari" shart. Ular ziddiyatli vaziyatlarni oldini olish va hal qilish uchun argumentatsiya va polemika, "vositalar" ko'nikmalariga ega bo'lishlari shart.

Bundan tashqari, ushbu Profil mutaxassislari etakchining xususiyatlari va xususiyatlariga, hayotda va kasbiy faoliyatda etakchining potentsialini shakllantirish va undan foydalanish qobiliyatiga, jamoani shakllantirish va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishlari shart.

Ular ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni shakllantirishga, ushbu aqliy tuzilmalarni "moddiylashtirishga" qodir va tayyor bo'lishlari, buning uchun Iroda, yo'nalish, jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishlari shart.

Agar biz amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni haqida o'ylasak, unda til unda aniq rol o'ynashi kerak, degan fikr aniq bo'lib, unda til o'rganuvchilarda to'g'ri fikrlashni to'liq rivojlantirish vositasi va usuli sifatida o'ynaydi.

Bu holda tilga falsafiy qarash nafaqat universitet bitiruvchisining amaliy faoliyati va uning dunyoqarashining yuqori darajasiga asoslangan tafakkuri o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, balki maqsadga erishishda samarali qo'llab-quvvatlash vositasi va usuli sifatida ona tilining potentsialini aniqlash va ta'limga kiritish bilan ham bog'liq.

Shu bilan birga, til, fikrlash, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, ushbu ish mualliflarining fikriga ko'ra, insoniyat mavjudligining nisbatan mustaqil, ammo o'zaro bog'liq hodisalari sifatida qaralishi kerak.

Til, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim va fikrlash o'rtasidagi biz ajratib ko'rsatgan aloqalarga bunday qarash bilan tilning epistemologik holati, ya'ni uning talabalarning fikrlash, ko'nikma va amaliy-transformatsion faoliyatini rivojlantirishda "vosita" bo'lish potentsiali aniq bo'ladi., va shu bilan birga, talabalarda zarur xususiyatlarni shakllantirish va uni professional o'qitilgan mutaxassis va mamlakatning ijtimoiy etuk fuqarosi sifatida tavsiflaydigan shaxsiy xususiyatlar. Va hodisani shakllantirish uchun: universitetda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning "vositasi" va "usuli" bo'lish uchun biz ushbu mavzu bo'yicha adabiyotda mavjud bo'lgan umumlashmalarni ko'rib chiqamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, til falsafasida tilning uchta asosiy qarashlari farq qiladi, bu uning semantik, sintaktik va pragmatik jihatlariga foyda, mazmun nuqtai nazaridan urg'u beradi:

tilni "semantik" tushunish kontekstida" ism falsafasi " shakllandi, bu tilni uning borliqqa bo'lgan munosabati nuqtai nazaridan baholashni va uni odamlar, insoniyat hayoti va faoliyatiga qo'shishni o'z ichiga oladi;

"Ism falsafasi" doirasida til insonning mavjudligi va uning faoliyati, uning faoliyatining namoyon bo'lishining butun jihati, uni faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirish vositasidir.

tilni "sintaktik" tushunish kontekstida hukm predikatining xususiyatlaridan foydalangan holda "predikat falsafasi" shakllantirildi, ya'ni fikrimizning predmetining xususiyatlarini ochib beradigan bayonotning tarkibiy elementi.

Tilning o'z hududida davlat tili maqomini olishda o'sha millat vakillarida shakllangan milliy ong taraqqiyoti muhim omil hisoblanadi. Tilga davlat tili maqomining berilishi bu millatchilik emas, balki, o'sha millat vakillarining o'z tilini muhofaza etishi, qolaversa, davlat tomonidan uni saqlash va rivojlantirish borasidagi g'amxo'rlikdir.

Tabiiyki, ko'p millatli davlatlarda, ayniqsa, milliy siyosatga, xususan, uning bevosita tarkibiy qismi bo'lmish til siyosatiga jiddiy ehtiyoj seziladi. Shubhasiz, normal til siyosatisiz milliy masalani, biror-bir darajada bo'lsin, hal qilish mushkul. Shuning uchun ham davlatlarning o'ziga xos til siyosati mavjud. Til siyosati deganda davlatda, jamiyatda til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy tartibga solish tizimi, til muammolarini hal qilish bo'yicha mafkuraviy tamoyillarning rasmiy-amaliy tadbirlari majmui, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir qilish mexanizmlari nazarda tutiladi.

Davlat tili jahonning ko'plab siyosatshunoslari va siyosatchilari tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra bir necha yo'llar bilan belgilanishi mumkin:

a) tarixiy an'analarga asoslangan holda mustaqillikka erishgan davlat hududida yashovchi xalqlar, millatlar tillaridan birini umumxalq tili, davlat tili deb tan olish; bunday til, ko'pincha, shu davlatdagi eng yirik yoki hukmron millatning tili bo'ladi;

b) hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlar tomonidan davlatning rasmiy tili deb e'lon qilingan xalqaro yoki jahon tillaridan biri; davlat organlarida, hukumat idoralarida va rasmiy tashkilotlarda, ko'rsatmalarga binoan yozishmalar faqat shu tilda qabul qilinadi yoki jo'natiladi, barcha uchrashuv, muhokama, majlis, sessiya, konferensiya, tadbirlar va shu kabilar ana shu rasmiy tilda o'tkaziladi;

c) davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan yoki mamlakat prezidenti tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qo'llanilishi kerak, deb e'lon qilingan til;

d) mamlakat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar o'rtasida muhokamaga qo'yilib, referendum natijalariga ko'ra belgilangan rasmiy davlat tili.

Davlat tili – davlatning asosiy aholisi tomonidan davlat ichida umumiy qoʻllaniluvchi tildir. U siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va maʼnaviy hayotning barcha sohalarida keng qoʻllaniladi. Til vositasida davlat oʻz fikrini ifodalaydi, faoliyatini olib boradi va xalq bilan muloqotda boʻladi. Davlat tili – milliy davlat suvereniteti belgisi. U davlat irodasini koʻrsatuvchi, harakatlarni amalga oshishi uchun xizmat qiluvchi, davlatchilikning funksiyalovchi elementidir³⁹. Shunday qilib, til mustaqil davlatning milliy tili boʻlgach, oʻzining anʼanaviy funksiyalaridan tashqari (muloqot, voqelikni inʼiko ettirish, oʻzlikni ifodalash va hokazo), muhim funksiyaga ham ega boʻladi. U milliy davlatchilik belgilaridan biri sifatida yuzaga chiqadi. Tabiiyki, u shunchaki muloqot vositasi emas, balki, qonun tomonidan muhofaza qilinuvchi davlat ramzlaridan (bayroq, tamgʻa va boshqalar) biri sifatida qabul qilinadi: «Agar millat oʻz milliy davlatchiligiga ega boʻlsa, bu holatda u konstitutsion huquqiy darajada, qonuniy yoʻl bilan oʻzining ijtimoiy-madaniy qadriyati sifatida milliy tilni har tomonlama rivojlantirish uchun gʻamxoʻrlik qiladi⁴⁰. Shu maʼnoda, oʻzbek xalqi ham oʻz davlat tiliga, yaʼni ona tilining rasmiy maqomga ega boʻlishiga XX asr boshlarida jiddiy harakat qildi.

1.2. Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini koʻtarish dialektikasining ijtimoiy-falsafiy mezonlari

Fuqarolik ongi va milliy oʻziga xoslikni tarbiyalash davlat tilining ahamiyatini anglamasdan mumkin emas. Oʻzbekiston kontekstida oʻzbek tili jamiyatning maʼnaviy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Ushbu ishda oʻzbek tilining davlat tili sifatida tarbiyaviy maqomini oshirish dialektikasining ijtimoiy-falsafiy mezonlari koʻrib chiqiladi.

1. Shaxsni tarbiyalashda tilning ijtimoiy funktsiyasi

Oʻzbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki muhim taʼlim vositasidir. Bu fuqarolar orasida milliy gʻurur tuygʻusini, madaniy anʼanalar va qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Tilning tarbiyaviy vazifasi tarixiy tajriba, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy meʼyorlarning avlodlarini etkazishdir.

2. Til va tarbiya dialektikasining falsafiy jihatlar

Til va tarbiya dialektikasi madaniy meros va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar oʻrtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Ushbu munosabatlarni oʻrganishga falsafiy yondashuv tilning dunyoqarash va shaxsning qadriyat koʻrsatmalarini shakllantirishga taʼsir qiladigan mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi. Oʻzbek

³⁹ Каримова Л. А. Актуальный вопросы определения статуса языка и его функционирования // ОНУ, 1996. – С. 34.

⁴⁰ Агзамходжаев А., Саидов А. О статусе государственного языка // Правда Востока. 28 июня 1989 г.

tilining tarbiyaviy roli uning tarixiy an'analar va zamonaviy tendentsiyalarni birlashtirish qobiliyatida yotadi.

3. O'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish mezonlari

Milliy o'ziga xoslik va vatanparvarlik: o'zbek tili ma'naviy tarbiyaning asosi bo'lgan milliy o'ziga xoslik va vatanparvarlikni shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimi: o'zbek tilini ta'lim dasturlariga joriy etish uning yosh avlodni tarbiyalashning asosiy vositasi sifatidagi maqomini oshiradi.

Madaniy meros: o'zbek tilini adabiyot, san'at va folklor orqali saqlash va ommalashtirish jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy integratsiya: O'zbek tili turli ijtimoiy guruhlarini birlashtirib, ijtimoiy totuvlik va birlikka hissa qo'shadi.

4. An'analar va innovatsiyalar dialektikasi

O'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish an'anaviy qadriyatlarni saqlashni zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish bilan birlashtirgan dialektik yondashuvni talab qiladi. Bunga tilni ommalashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish va undan ijtimoiy hayotning turli sohalarida faol foydalanish uchun sharoit yaratish kiradi.

O'zbek tilining davlat tili sifatida tarbiyaviy maqomini oshirish ijtimoiy-falsafiy mezonlarga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbek tili milliy o'ziga xoslikni shakllantirish, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash va jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish O'zbekistonning barqaror ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining kalitidir.

1989-yilning 21-oktyabr kuni o'zbek xalqi tarixiy adolatga guvoh O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni faqatgina o'zbek xalqininggina emas, balki, respublikadagi boshqa xalqlarning ham milliy-madaniy taraqqiyoti kafolatini ta'minlaydi: "Davlat tili haqida"gi Qonun mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining manfaatlarini ham himoya qiladi, ularning ona tillarini, madaniyatini rivojlantirish, milliy urf-odat va an'analarini saqlab qolish, yashash hamda ishlashlari uchun tengma-teng sharoit yaratib berishni ta'minlashni ham ko'zda tutadi»⁴¹.

O'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi jarayoni mustaqillik yillarida o'zbek tilining har tomonlama takomiliga xizmat qildi. Xususan, o'zbek tili leksikasiga jiddiy e'tibor qaratildi: mustaqillikning ilk yillarida respublikamizda milliy atamashunoslik shakllana boshladi. Bu tashkilot tilimizning terminalogik muammolari bilan shug'ullanib borgan. O'zga tillardan olingan yoki muomaladan

⁴¹ Фозилов Э. И. "Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида"ги Қонунини амалга ошириш юзасидан белгиланган тадбирларнинг бажарилиши ҳақида // "Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида"ги Қонунини олий ва ўрта махсус таълим юртлирида амалга оширилиши. – Т.: ТДТУ, 1991. – Б. 7.

chiqqan soʻzlar oʻzgartirilib, yangi, milliy atamalar shakllana boshladi, oʻzbek tilidagi unutilib ketgan soʻz va iboralar muomalaga qaytarildi. Keyinchalik ushbu tashkilotning faoliyati tugatilgan edi.

Soʻnggi yillarda tilga boʻlgan yondashuvlarning yangicha tus olishi natijasida, bu masalaga hukumatimiz tomonidan alohida eʼtibor qaratildi. OʻzRVMning OʻzRVMhuzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi Qarori qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Ushbu hujjat yangi soʻz va atamalarni rasmiy isteʼmolga kiritish borasidagi ishlarni tartibga solish bilan shugʻullanadi. Bu tashkilotning naqadar muhim ekanligini hayotning oʻzi koʻrsatmoqda. Buning isbotini Prezidentimizning quyidagi soʻzlarida koʻrishimiz mumkin: Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada, hayotimizga chetdan koʻplab yangi tushuncha, soʻz va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lugʻat boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning oʻzbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qoʻllanishini taʼminlash dolzarb vazifa boʻlib turibdi⁴².

Tilni takomillashtirish jarayonida til va tafakkur munosabatlari, milliy mafkuraning shakllanishi va bu maqsad uchun yetarli til bazasini yaratishning ahamiyati oshadi. Zero, til – muloqot vositasigina emas, milliy til – millatning tafakkuri, fikr yuritish vositasi, uning qurolidir.

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida milliy tillarga munosabat qoniqarli emas edi. Chunki milliy tilni har tomonlama rivojlantirish, kerakli darajada va shaklda oʻrganish, barcha ijtimoiy sohalarda amaliyotda qoʻllash uchun imkoniyatlar kafolatlanmagan edi.

Maʼlumki, har bir millatning milliy oʻz-oʻzini anglashida etnosni saqlab qolishga intilish ham bor. Milliy oʻzlik va uni anglash unsuridan bexabar millatlar XX asrning birinchi yarmida etnik fojiga uchradi. Ammo bu fojia sunʼiy faktorlar asosida keltirib chiqarildi. «Sotsialistik», «baynalmilal» davlatning milliy siyosati shunday ediki, har bir respublikada yashagan mahalliy millat va elatlar uchun rus tilini oʻrganish majburiy edi. Lekin rus va rus tilida soʻzlashuvchi aholida milliy tillarni oʻrganish uchun obyektiv, subyektiv ehtiyoj yoʻq edi. «Tillar tengligi» faqat nazariy prinsip sifatida qolib ketib, amalda esa rus tili ishlatilgan edi. Milliy tillar taraqqiyoti imkoniyatlarini cheklash «ruslashtirish» siyosatining bir tomoni boʻlgan.

Til boʻyicha siyosat «barcha tillar kelajakda bir tilga aylanib ketishi lozim» degan gʻayriilmiy, notabiiy, mantiqsiz fikrga asoslangan edi. Shuning uchun baʼzi kam sonli xalqlarning milliy tillari, milliy madaniyatlari umuman rivojlanmagan.

⁴²Prezident Shavkat Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tilimaqom berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanalima rosimdagi nutqi. 21-Oktyabr 2019- yil. <http://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

B.R.Karimov va K.Mira'zamov yozganidek: «Rossiya imperiyasida rus tili davlat tili deb e'lon qilingan va rus bo'lmagan tillarga nisbatan shovinistik ... siyosat olib borilgan... Turg'unlik mafkurasi va psixologiyasi hukmronlik qilgan davrda qo'yilgan shovinizm ruhidagi nazariy hamda amaliy xatoliklar sababli, milliy tillarning qo'llanish ko'lami va rivojlanishi nuqtayi nazaridan tengligi va teng huquqliligi ta'minlanmadi»⁴³.

O'zbekiston uchun milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yaqin yillardagi hodisa emas. U qadim ildizlarga ega bo'lgan milliy tuyg'udir. Rus sharqshunosi L.N.Gullilev yozadi: «Dunyoda uchta: xitoy, fors va turkiy millat, milliy xususiyatlarni saqlashni qadim-qadimdan ilk rejaga qo'yib kelgan. Ayniqsa, bu borada turkiy xalq qat'iy yo'l tutgan. Xitoy solnomalarida saqlangan turkiylar hayotiga oid bitiklarda turkiylarning o'ta millatparvarliligiga ko'p urg'u berib o'tilgan»⁴⁴. Yana bir rus sharqshunosi I.Bichurin deydi: «Men dunyoda milliylikni saqlash va uni taraqqiy ettirishda turkiylardek ulug' millat ko'rmadim»⁴⁵. Demak, biz uchun milliy o'zlikni anglash tuyg'usi milliy ongimizga xos xususiyatdir.

Shu ma'noda O'zbekistonda milliy o'zlikni qayta anglash jarayoni milliy taraqqiyotga zamin bo'ldi. 80-yillarning oxirida kechgan bu boradagi jarayon o'zining natijasini berdi. U istiqlol uchun ma'naviy-siyosiy zamin hozirladi. O'shanda 130 yil istiloda bo'lgan millat o'z o'tmishi, buguni va kelajagi haqida fikrlay boshladi. Dunyoda tenglar ichida teng bo'lish g'oyasi o'rta tashlandi. Millatning bu uyg'onishi ko'p masalalarda, jumladan, til masalasida to'g'ri munosabatning belgilab olinishiga olib keldi. Bu hol o'sha davr uchun muhim xususiyat edi.

Istiqlolga erishganimizdan keyingi o'n yillikda mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi arafasidagi, mustaqillikning dastlabki davr tahliliga oid bir qator ishlar⁴⁶, kitoblar dunyo yuzini ko'rdi, ularda jamiyatimiz hayotining yaxshilanishi, turli sohalaridagi o'sishlar, xususan, milliy tilga munosabatlardagi o'zgarishlar tahlil qilingan.

Darhaqiqat, mustaqillik o'z mohiyatiga ko'ra nihoyatda chuqur va teran voqelik bo'lib, ong-u tafakkurda keskin burilish yasash bilan bog'liq. U birinchi navbatda, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantiradi. Har bir vatandoshimiz, har birimiz o'z taqdirimizni mamlakat taqdiri bilan yaxlit jarayon ekanligini anglasakgina, milliy o'zlikni anglash yuz ko'rsatadi. Ana shundagina millatga, uning milliy tiliga muhabbat shakllanadi.

⁴³Каримов – Б. Р, Мираъзамов К. Миллат равнаки ва тил муаммолари. – Т.: 1993. – Б. 3.

⁴⁴Гуллилев Л. Н. Древний тюрки. – Москва: Наука, 1967. – С. 90-91.

⁴⁵ Бичурин И. История народов обставних в Средней Азии древний времена. Том I. Москва, ИВЛ, 1950. – С.105.

⁴⁶Ахмедов Б. А. Темурнинг давлатни идора қилиш сиёсати // Мулоқот, 1994, №5-6; М. Махмудов. Маънавият-бепоён олам // Гулистон, 1996, №3.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach dastlabki yillardan boshlab hozirgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy muhit va uning dinamikasini chuqur tahlil etganimizda, shu narsa ayon bo'ladiki, O'zbekistonda Birinchi Prezidentimiz I. Karimov tashabbusi hamda rahnamoligida milliy til siyosati birdan-bir to'g'ri yo'l bilan amalga oshirildi. U nimalarda namoyon bo'ladi?

Aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda turli soxta demokratik harakatlar, milliy bayroq ostida hokimiyatga intiluvchi qator qing'ir niyatli guruhlarining harakatlariga avval-boshdanoq chek qo'yildi, bu, avvalambor, o'zbek tilining davlat tili maqomiga erishishi uchun barcha zaminlarni yaratdi.

Shuningdek, "Davlat tili haqida"gi Qonun g'oyasining kun tartibiga qo'yilishdan tortib Qonun yangi tahrirda qabul qilinganicha fuqarolarning milliy o'zligini anglash ko'nikmalarini bir maromda shakllantirib borilishiga e'tibor berildi. Bunday tadrijiy taraqqiyot o'z mohiyatiga ko'ra «inqilobiy sakrashlardan» afzal edi.

Shu bilan birga, milliy o'zlikni anglashning yuksalishida boshqa millat vakillari huquqlarini kamsitishga yo'l qo'yilmadi, bu demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayoni uchun ko'ngilsiz holatlarning oldini oldi.

Demak, jamiyat taraqqiyoti millatning, shu jumladan, uning milliy tilining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Respublikamizdagi lisoniy vaziyat mustaqillik arafasida juda ham murakkab ko'rinishda bo'lib, tilimiz taraqqiyoti passiv ruhda kechayotganligi yaqqol ko'rinib turgandi. Mustaqillikka erishganimizdan boshlab tilimiz rivoji o'sib bordi. Istiqloq qo'lga kiritilgandan so'ng ona tilimizni yanada takomillashtirish asosiy masalalardan biriga aylandi. Chunki davlatning rostmana mustaqilligi tilga bo'lgan munosabatida ayon bo'ladi. Ushbu sabablar tufayli tilimizni isloh qilish, yanada qadrini ko'tarish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi hamda oshirilmoqda. Bunga, eng avallo, tilimizga davlat tili maqomi berilishini misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Aynan shu Qonundan boshlab tilimiz "oila" tilidan rasmiy tilga aylandi. Yangi tahrir qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonunning barcha moddalarida ona tilimiz qonuniy jihatdan muhofaza qilib qo'yildi. Natijada butun xalqimizning ona tilimizga bo'lgan muhabbati yanada ortdi. Hattoki xorijiy mamlakat fuqarolari ham tilimizni o'rganishga kirishdilar. O'nlab mamlakatlarda o'zbek tilini o'rgatadigan markazlar, fakultetlar ochildi.

Istiqloq arafasidagi lisoniy vaziyat 30 yildan keyin bugungi yangilanayotgan O'zbekistondagi lisoniy vaziyatdan farq qiladi. Yurtimizda lingvistik hodisalarning barqarorlashganligi, tilimiz qonuniy mustahkamlanganligi, uning ilmiy texnik ba'zasi oshayotganligi, asosiysi, aholi orasida va butun jahonda tilimizning nufuzi ortib borayotganligi mamlakatimizdagi lisoniy vaziyatning yaxshi tomonga o'zgarayotganligidan dalolat. Shuningdek, aholining etnik tarkibi, milliy xilma-

xillikning o'zgarib borishi, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning oshishi yangi tadqiqotlarning yaratilishiga olib kelmoqda.

1.3. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarishda ma'naviy-ma'rifiy omillarning ahamiyati

Davlat tili har qanday jamiyatning ma'naviy asoslarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu milliy o'ziga xoslik, madaniy meros va ijtimoiy birlikning muhim vositasidir. Ushbu maqolada davlat tilining jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Davlat tili milliy o'ziga xoslikning asosidir. U madaniy an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarining uzluksizligini ta'minlash orqali avlodlarni bog'laydi. Tarixiy bilimlar, folklor, adabiyot va millatning ma'naviy merosini shakllantiradigan madaniyatning boshqa elementlari til orqali uzatiladi.

Davlat tilida ta'lim o'quvchilarning o'z millati va madaniyatiga tegishlilik hissini shakllantirishga yordam beradi. Bu vatanparvarlik va o'z mamlakati bilan faxrlanish uchun zamin yaratadi. O'rganishda ona tilidan foydalanish bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Davlat tili ijtimoiy birlik va integratsiyaning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. U turli xil ijtimoiy guruhlar, etnik va diniy jamoalarning odamlarini birlashtiradi. Umumiy til aloqa va hamkorlikni osonlashtiradi, jamiyatda o'zaro tushunish va uyg'unlikni ta'minlaydi.

Davlat tili shaxsning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi. U dunyoqarashni, qadriyatlarni va axloqiy tamoyillarni shakllantiradi. Til orqali inson o'z xalqining ma'naviy an'alarini tushunadi, axloqiy me'yorlar va madaniy standartlarni o'zlashtiradi. Bu uyg'un, rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Davlat tili jamiyatning ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu milliy o'ziga xoslikni mustahkamlaydi, ta'lim va madaniy rivojlanishni rag'batlantiradi, odamlarni birlashtiradi va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Davlat tilini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish jamiyatning barqaror ma'naviy va madaniy taraqqiyotining kalitidir.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining mavqeyini oshirish bo'yicha turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi, jumladan, oktyabr oyida tashkilotlarda, asosan, ta'lim muassasalarida til bayramlari tashkil erildi, ommaviy axborot vositalarida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi, ammo istiqlolning dastlabki yillarida xalq orasida davlat tilining mavqeyi oshmadi. Mamlakatda rasmiy ishlar ikki tilda, ikki alifboda baravar olib borilganligi sababli bu hodisaning ma'naviy jihatdan jamiyatga salbiy ta'siri ham kizatildi. To'g'ri, o'zbek tili davlat

tili maqomini olgach, uning dunyo tillari orasidagi mavqeyi oshdi. Bu davlat suverenitetining xususiyatidir. Ayni paytda ijtimoiy hayotning demokratlashuvi o'zbek tilining jamiyatda nufuzini oshirishga real zamin yaratadi. Keyingi 70 yil ichida o'zbek millati o'z tilining maqomini belgilash chog'ida ko'rsatgan faollik namunasi 1989-yilga kelib o'z natijasini berdi. Millatning demokratik tamoyillardan yaxshi xabardor ekanligi mana shu ommaviy referendumda namoyon bo'ldi. Milliy o'zlik, milliy madaniyat, milliy shan, milliy ruh tushunchalari mana shu demokratik jarayonda amalda ko'rsatildi. Bularning barchasi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining muhim siyosiy omili bo'ldi. Biroq bu tarixiy voqeadagi siyosiy yetakchi fenomen muhim rol o'ynaganligini qayd etib o'tish kerak. O'sha murakkab 1989-yilda mamlakatimiz rahbari bo'lgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov haqiqiy rahbarlik irodalarini namoyon etdilar.

Mustaqil O'zbekistonda 30 yil ichida barcha jabhalarda bo'lgani kabi siyosiy-ijtimoiy tizimda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Davlatimizning huquqiy asosini va kafolatlarini tashkil etuvchi, umumjahon demokratik talablariga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyasi istiqlolimizning ilk yillaridayoq qabul qilindi. Bosh qomusimizning 4-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"⁴⁷, - deb belgilab qo'yilganligi ona tilimizning huquqiy mustahkamligini ta'minladi va rasmiy til sifatidagi o'zni, ahamiyatini yuksaltirdi. Shu bilan birga, davlat tizimining bo'g'inlari va hokimiyat bo'linishining konstitutsion-huquqiy tamoyillari asosida qator qonunlar ishlab chiqildi. Keyinroq o'zbek tili taraqqiyotida yana bir jiddiy o'zgarish ro'y berdi. Ya'ni yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonun (1995-yil dekabr) qabul qilindi. Bu ona tilimiz rivoji yo'lidagi ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan salmoqli hodisalardan biri bo'ldi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi til sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirib yubordi.


Istiqlol yillarida O'zbekistonda butunlay yangi til siyosati shakllandi. Til taraqqiyoti bilan bog'liq amaliy ishlarning salmog'i yil sayin o'sib, o'zbek tili o'z qaddini tikladi. So'nggi yillarda ona tilimizga bo'lgan e'tibor yanada yuksalganligi, o'zbek tilining nafaqat xalqimiz orasida balki, jahonda ham nufuzi oshishini ta'minlamoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek tilini yuksaltirish borasida qator qonun hujjatlari qabul qilinib amaliyotga tatbiq etilishi natijasida o'zbek tili hozirda barcha sohalarda qo'llanib, qamrovini kengaytirib bormoqda.

Har bir davlat o'z mustaqilligiga erishgach barcha sohalarda erkin faoliyat olib borishga intiladi. Buning uchun esa avvalambor, o'z til erkinligini mustahkamlashi zarur. O'zbekiston ham istiqlolni qo'lga kiritgach o'zbek tilining qonuniy himoyasini mustahkamlab, maqomini tikladi va yuksaltirishga alohida

⁴⁷Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: 1992. – Б. 4.

e'tibor qaratdi. O'zbek tilining rasmiy maqomi 1989-yilda qonun orqali belgilab qo'yilgan bo'lsada, istiqloлга erishganimizdan so'ng ushbu qonun hujjati zamon talabi bilan tahrirga muhtoj bo'lib qoldi. Chunki mustaqillikdan avvalgi davlat tili to'g'risidagi qonunda o'sha davrda sovet ittifoqidan rasman mustaqil mamlakat bo'lib chiqmaganligimiz sabab undagi ayrim nuqtayi nazarlar vaziyat, muhitdan kelib chiqib shakllantirilgan edi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonunining 1989-yilgi nashri 30 moddadan iborat bo'lib, unga "millatlararo til" tushunchasi kiritilgan va bu rol ni rus tili bajarishi aks ettirilgan edi. Shuningdek, ushbu qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir⁴⁸, deb belgilab qo'yilgan bo'lsada, keyingi o'rinlarda mamlakatda o'zbek tili bilan bir qatorda rus tili ham bir maqomda qo'llanishi mumkin ekanligi qayd etilgan edi. Istiqloл qo'lga kiritilgach yillar davomida ushbu qonun amalda bo'lib keldi. Davlat ishlarida ikki til teng maqomda qo'llanildi. Keyinchalik o'zbek tilining nufuzini ko'tarish ehtiyoji yuzaga keldi. Buning natijasida, 1995-yil 21-dekabrda ushbu qonun yangi tahrirda zamon talablari asosida tahrirlanib qabul qilindi. Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni⁴⁹ 24 moddadan iborat bo'ldi. Shuningdek, qonunda millatlararo til xohishga qarab tanlanishi belgilangan. Shu kabi qator o'zgarishlar kiritilgan qonun o'zbek tilining yuqori sur'atda rivoji uchun keng yo'l ochdi.



⁴⁸O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni 1989-yil. 21-oktyabr. <https://lex.uz/uz/docs/-109394?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁴⁹"O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida⁴⁹ O'zbekiston Respublikasining qonuni 1995-yil. 21-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ushbu qonun qabul qilinishining ikkalasida ham o'zbek xalqi o'zining munosabatini faol bildirgan. Oddiy aholi vakillari ham o'z chiqishlari bilan o'zbek tili o'rniga maqomiga ega bo'lishi lozimligi haqida fikrlarini bayon qildi. Aholining ziyoli qatlami esa gazeta, jurnal, radio va televideniyada ish, eshittirish, ko'rsatuvlar orqali keskin chiqishlar qilishdi.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritganiga 30 yil bo'lmoqda, bu davr mobaynida yurtimiz taraqqiyoti yo'lida har jabhada juda katta keng ko'lamli amaliy harakatlar qilinganligi hech birimizga sir emas. O'zbek tili rivoji bo'yicha istiqbolning ilk yillarida qilingan salmoqli ishlarga yuqorida to'xtaldik. Ammo aytish lozimki, so'nggi yillarda til borasida qo'shimcha ishlarni amalga oshirish kerak ekanligi yaqqol ko'rinib qoldi. Natijada, mamlakatimizda til siyosatining yangicha, zamonaviy ko'rinishi shakllanmoqda.

R.Zaripovning ta'kidlashicha, til siyosatining yangicha tus olishiga quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan:

Globalashuv sharoitida o'zbek tiliga o'zga tillarning ta'siri sezilarli darajada oshganligi, O'zbek xalqi orasida ona tiliga bo'lgan munosabatning o'zgarganligi;

Qabul qilingan mavjud qonun hujjatlarida til masalalarining barcha jihatlarini atroflicha qamrab olinmaganligi. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining nufuzi oshib, qo'llanish doirasining kengayganligi. O'zbek tilidagi va chet tillaridan kirib keluvchi atama hamda terminlarni qo'llashga doir ko'rsatmalar beruvchi qo'mitaning shakllantirilmaganligi. Alifbo va imlo masalalarida qonunan yaxlit xulosaga kelinganligi, amalda chalkashliklarning yuzaga kelayotganligi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi ayrim harflarni ifodalovchi belgilarning muammoli ekanligi. O'zbek tilining elektron platformasi mukammal emasligi, texnologiyalar va internet tiliga aylanmaganligi. O'zbek tilining amaliy tadqiqi yetarlicha shakllanmaganligi. O'zbek tili qonuniyatlari buzilganda javobgarlikka tortish masalasi qonunlarimizda yetarlicha yoritilmaganligi va javobgarlik choralari kuchaytirilmaganligi. O'zbek tilining ilmiy tadqiqini kuchaytirish va texnik bazasini zamon talablari asosida oshirish zarurati. O'zbek tilining yangi taraqqiyot modeli shakllantirilishining zarurati⁵⁰.

Shu kabi qator muammolar yangicha til siyosatini talab qildi. Buni vaqtida payqagan hukumat rahbarlari davlatimiz til siyosatini yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan qator ishlarni amalga oshirdi. Natijada, o'zbek tilining yangicha taraqqiyot yo'li shakllandi. Istiqbolning ilk yillarida til taraqqiyoti yo'lida qilingan harakatlar qaytadan jonlandi. Quyida so'nggi yillarda mamlakatimizda shakllangan yangi til siyosati va qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga to'xtalib, mohiyatiga e'tibor qaratamiz.

⁵⁰ Zaripov R.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarning ilmiy-amaliy ahamiyati naqadar yuksak ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz va anglaymiz. Ammo bularning ichida eng katta ahamiyatga molik bo'lgan Farmon borki, bu Farmonning aynan bugungi davrda qabul qilinganligi va amalga oshirilganligi ona tilimiz, xalqimiz va yurtimiz uchun juda muhim ahamiyat kasb etdi.

2016-yilning 13-mayida Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbuslari bilan mamlakatimizda "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon⁵¹ qabul qilindi. Ushbu Farmon o'zbek tilini yanada taraqqiy toptirish yo'lida tashlangan jiddiy qadam bo'ldi.

Farmonda o'zbek tilini rivojlantirish, nufuzi va rolini oshirish, kelgusida qo'llanish doirasini kengaytirishga qaratilgan fikrlar mujassamlashgan. Ushbu Farmon asosida respublikamizda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Hozirgi kunda universitet samarali faoliyat yuritmoqda.

Qabul qilingan Farmon nafaqat filolog-mutaxassislarining, balki butun ma'rifatsevar xalqimizning ayni ko'nglidagi ish bo'lganligi, mamlakatimiz til siyosatiga mukammallik va rasolik baxsh etishi, tilimiz va adabiyotimiz takomilida yanada yangi bir bosqich bo'lishi shubhasiz. Farmonning ilk jumllalarida mana bunday umumbashariy haqiqat ta'kidlangan: "Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur", degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi"⁵².

Farmonda tashkil etilajak universitetning maqsadi aniq belgilab berilgan: "Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish"⁵³. Bu maqsadlarni amalga oshirishning aniq mohiyatiga muvofiq universitetda uchta fakultet tashkil etildi.

O'zbek xalqi juda katta moddiy-ma'naviy boyliklarga ega. Bu jihatdan dunyo havas qilsa arziydi. Qabul qilingan Farmonda o'zbek tilining naqadar boy til ekanligi

⁵¹ "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.— Т.: 2016. <https://lex.uz/docs/2959330>

⁵² Ko'rsatilgan manba'a.

⁵³ Ko'rsatilgan manba'a.

haqida soʻz borar ekan, quyidagicha fikrlar bildiriladi: “Oʻzbek tili qadimiy va boy tarixga ega boʻlib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, soʻgʻdiylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar oʻz taʼsirini koʻrsatgani haqida mavjud ilmiy manbaalar dalolat beradi”⁵⁴, deb taʼkidlanadi.

Haqiqatan ham, oʻzbek tili taraqqiyotida yuqorida qayd etib oʻtilgan millat va elatlarning taʼsiri katta. Ular Oʻrta Osiyoga kelganlarida, oʻz madaniyati va qadriyatlarini ham targʻib qilishgan. Ularning yashash muhiti va sharoitlari turkiy xalqlarning yashash tarziga oʻxshagani tufayli bir-biriga singib ketgan. Oʻz navbatida, Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlari mustamlakachi xalqlarga singib borgan. Bularning barchasi tilda aks etgan. Yuqoridagi davlatlar tillari hamda shu yerlik aholi tillari oʻrtasida kommunikatsiya yuzaga keladi. Bu esa tillarning taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Biz yosh avlodlar, ajdodlarimizning buyuk xizmatlarini doimo yodimizda saqlagan holda, ularga munosib vorislar boʻlishimiz, ona tilimiz nufuzini yanada oshirishimiz, oʻzbek tili rivoji uchun oʻz hissamizni qoʻshmogʻimiz darkor. Bu borada soʻz borar ekan, Farmonda quyidagicha fikrlar qayd etiladi: “Biz ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni oʻzimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon eʼtiborimizdan chetda qolmasligi zarur”⁵⁵.

Oʻzbek tili rivojida yuqorida keltirilgan rasmiy hujjatlar qonun va qarorlarning oʻrni beqiyosdir. Tilga boʻlgan yuqori eʼtiborning namunasi sifatida qabul qilingan ushbu Farmonning roli yanada yuksakroqdir. Chunki bu Farmon Oʻzbekistonda oʻzbek tiliga boʻlgan eʼtiborning eng yuksak koʻrinishlaridan biridir. Bu Farmon Respublikamizda tilga boʻlgan eʼtiborning yangi davrini boshlab berdi desak mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Endilikda bu universitetda yetishtiriladigan kadrlar, avvalambor, yurtimiz taraqqiyoti uchun oʻz hissalarini qoʻshish bilan birga, oʻzbek tilining nufuzini yanada yuksaklarga koʻtarish uchun harakat qilishadi.

Mamlakatimiz yoshlari ajdodlarimiz uchun orzu boʻlgan tilimiz mustaqilligiga erishganligimizni chuqur his etishi lozim. Shu bilan birga, uning kelajakdagi rivoji uchun oʻz hissasini qoʻshishi darkor. Ushbu universitet sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tashkil etildi. Farmonda oʻzbek tili taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi barcha jihatlar inobatga olinib, kelgusida tilimiz nufuzi va taraqqiyoti uchun qoʻl keladigan maqsadlar mujassamlashtirilgan. Yurtimizda filologiya sohasidagi kamchiliklarni butunlay bartaraf etish hamda tilimizning rivojini taʼminlash koʻzda tutilgan.

⁵⁴ Koʻrsatilgan manbaʼa.

⁵⁵ Koʻrsatilgan manbaʼa.

Universitet tashkil etilishi munosabati bilan 2016-yil 24-mayda O‘zRVMning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2016-yil 13-maydagi pf-4797-son farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori⁵⁶ e‘lon qilinib, unda qator chora- tadbirlar belgilandi.

O‘zbek tilining rivoji borasida har jabhada faol harakatlar olib borilayotganligi ona tilimizning globallashuv jarayonida o‘z o‘rnini saqlab qolishi bilan birga, yanada yuksalishi uchun zamin yaratmoqda. Ona tilimizning ilmiy tadqiqi bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Bu borada 2020-yil 11-martdagi O‘zRVMning “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori”⁵⁷ni alohida qayd etib o‘tishimiz lozim. Ushbu qarorda o‘zbek tilining zamonaviy tadqiqi masalalari belgilangan. Jumladan, qarorning 1-bandi bilan O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tuzilmasida sotsiolingvistika bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida me‘yor belgilangan bo‘lib, endilikda jamiyat va til, til hodisalari zamonaviy jamiyat muammolari bilan hamohanglikda o‘rganiladi. Bunday yondashuv til va jamiyat masalalarini zamon bilan bog‘liq holda yoritish demakdir. Bu esa tilga yangicha qarashlarni talab qiladi. Zamonaviy yondashuvlar sivilizatsiya davridagi muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd e‘tilgan qonun hujjatlari ona tilimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgani o‘zbek tilining bugungi qiyofasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizda til taraqqiyoti bilan bog‘liq amaliy harakatlar bir damga ham susaymadi. 2019-yil 21-oktabrga kelib, ona tilimiz taraqqiyoti yo‘lidagi eng muhim tarixiy hodisalardan biri ro‘y berdi. Ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmon”⁵⁸i imzolandi. Ushbu farmon o‘zbek tili rivojining yangi sahifasini ochdi, chunki farmonda ona tilimizning kelgusidagi taraqqiyot strategiyalari izchil tarzda belgilangan, farmon asosida qator amaliy ishlar tashkil etilishi ko‘rsatib berildi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha sohalarga alohida e‘tibor qaratilib, rivojlanish me‘zonlari belgilanib, ravnaq topish harakatlari jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Uchinchi renesans davrining boshlanish nuqtalari deb e‘tirof etilayotgan bugungi kunlarda ushbu farmon va unga bog‘liq

⁵⁶O‘zRVMning qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2016-yil 13-maydagi pf-4797-son farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2016-yil. 24-may. <https://lex.uz/uz/docs/-2968200?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁵⁷O‘zRVMning qarori. O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020-yil. 11-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-4759743?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁵⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2019-yil. 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

holda amalga oshirilayotgan harakatlar, o'zbek tilining ham navbatdagi renesansi uchun zamin yaratishda poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. O'zbek tilining imkoniyatlarini oshirish, nufuzini yuksaltirish, qamrovini kengaytirish yo'lida farmonning ahamiyati beqiyos desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu farmon bilan bo'g'liq ravishda, 2019-yil 12-dekabrda O'zRVMning "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori"⁵⁹, 2020-yil 29-yanvarda "O'zRVMning O'zRVM huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori"⁶⁰ qabul qilinib, endilikda O'zRVM qoshida O'zbekiston Respublikasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda O'zRVM huzuridagi atamalar komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Joriy etilgan qo'mita vatuzilmalar mamlakatimizda olib borilayotgan yangicha til siyosatining to'g'ri tashkil etilayotganligidan dalolat bo'lib, kelgusida o'zbek tilining yuqori sur'atdagi taraqqiyotini taminlaydi, yurtimiz hamda dunyo miqyosidagi nufuzini yuksalishi, qaddini tiklanishiga xizmat qiladi. Bunda esa o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxlarning roli yuqori. Shunday ekan, davlatimiz, hukumatimiz olib borayotgan faol til siyosatining samarali amalga oshishida yurtimiz aholisi, o'zbek millatining hamjihatlikdagi harakati ham ahamiyatli. Demak, o'zbekman degan har bir kishi ona tili taraqqiyoti yo'lida qo'ldan nima harakat kelsa, mamnuniyat ila amalga oshirmog'i darkor.

Xalqimizning tilga bo'lgan muhabbatini oshirish, o'zbek tilining qadrini yuksaltirish va xalq hayotida o'zbek tilining roli va nufuzini ko'tarish maqsadida yuqoridagi Prezident farmoniga bog'liq ravishda 2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risidagi qonuni bilan rasman qonunning 1-moddasiga ko'ra 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni etib belgilansin⁶¹ deb e'lon qilindi. Ushbu bayramning belgilanishi o'zbek xalqining quvonchiga quvonch qo'shish bilan birga, ruhiyatini ko'tardi. O'zbek tiliga bo'lgan munosabatni yana bir karra yuksaltirdi.

Aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda istiqlolning ilk davrlarida qabul qilingan qonun hujjatlari o'zbek tilining rasman davlat tili ekanligi, qaddi, nufuzini tiklash va keyingi amaliy harakatlar uchun tamaltoshi bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonunlar ona tilimizning qiyofasini butkul o'zgartirishga, imkoniyatlarini kengaytirishga, ilmiy-texnik ba'zasi yuqori, dunyoviy tillar qatoridagi tilga aylantirishga qaratilgan.

⁵⁹O'zRVMning qarori. Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 2019-yil. 12-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4640226?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁶⁰O'zRVMning qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida. 2020-yil. 29-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-4717157?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁶¹O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida. 2020-yil. 10-aprel. <https://lex.uz/uz/docs/-4784608?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

O'zbekistonda olib borilayotgan ochiq til siyosati kelgusida o'zbek tilining taraqqiy etishiga keng yo'l ochadi. Istiqlolning ilk davrlaridan hozirgi vaqtga qadar mamlakatda qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinib amaliyotga tatbiq etildi. Bu esa tilning mavqei ko'tarilishiga olib keldi. So'nggi vaqtlarda til masalalariga oid ayrim muammoli jihatlarning yuzaga kelganligi, avvalambor, o'zbek millatining o'z tiliga befarq emasligini ko'rsatish bilan birga, mamlakatda barcha jabhada bo'lgani kabi ona tili takomilida ham demokratik asosda ish olib borilayotganligini namoyon qilmoqda. O'zbek tilining ilmiy-texnik bazasini oshirish maqsadida qator qonuniy hujjatlarning qabul qilinayotganligi, o'zbek tilining har jabhada mukammal tadqiqini shakllantirish bilan birga, til taraqqiyotini zamon bilan hamnafas, sivilizatsiyaga mos holda olib borish zaruratini vujudga keltirmoqda. Bir so'z bilan aytganda, qabul qilinayotgan qonun hujjatlar, o'zbek tili ravnaqi yo'lida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari O'zbekistonda til siyosatining yangicha modellarining shakllanishiga olib kelmoqda.

Keyingi yillarda til siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakat rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarida o'z nutqini o'zbek tilida so'zlashi ham tilimizning xalqaro miqyosdagi mavqeyini yuqoriga ko'tarish bilan bir qatorda uning tarbiyaviy maqomi ham yuksalib bormoqda, zero bu hodisa xalqimizning o'z ona tili bilan g'ururlanishi, unga bo'lgan munisabatining ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari o'zbek milliy kurashining xalqaro sport o'yinlari qatoriga kirishi undagi "chala", "yonbosh", "halol" so'zlarining xalqaro iste'molga kirishi ham har bir o'zbekning g'ururlanishiga asos bo'lishi bilan birga, ma'naviy-tarbiyaviy xarakter kasb etadi. Uzoq yillar o'z yurtida ona tilida nutq so'zlash huquqidan mahrum bo'lgan xalq uchun o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi muhim tarixiy hodisa edi. Keyingi yillarda o'zbekistonda til siyosatining yangi bosqichga ko'tarilishi nafaqat mamlakatning rasmiy maqomini mustahkamlaydi, balki uning davlat tili sifatidagi mavqeyi jamiyat orasida milliy tilimizning rasmiy til sifatida tarbiyaviy maqomini ham oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda davlat tilining siyosiy, ijtimoiy mavqeyi atroflicha o'rganilmoqda, biroq uning tarbiyaviy maqomi borasida ilmiy izlanishlar yetarli emas, shu ma'noda "o'zbek tili", "ona tili", "davlat tili" tushunchalarining falsafiy, ma'naviy va ta'limiy ahamiyatiga doir tadqiqotlarga ham urg'u berish davr talabidir.

Davlat tilining nufuzi va mavqeyini ko'tarish bo'yicha tizimli islohotlar olib borayotgan bo'lsa-da uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi amaliy ahamiyatini qoniqarli deb bo'lmaydi, shu ma'noda **shaxs ma'naviyati, tafakkurini o'stirishda davlat tilining tarbiyaviy maqomini ko'tarish mexanizmi tatbiq qilinsa, fuqarolarda davlat tili qoidalariga rioya qilish, uni hurmat qilish falsafasi shakllanadi** va til siyosti bilan bog'liq islohatlar yana-da samarali

natijalar bera boshlaydi. Til va tarbiya dialektikasi madaniy meros va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Ushbu munosabatlarni o'rganishga falsafiy yondashuv tilning dunyoqarash va shaxsning qadriyat ko'rsatmalarini shakllantirishga ta'sir qiladigan mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi. O'zbek tilining tarbiyaviy roli uning tarixiy an'analar va zamonaviy tendentsiyalarni birlashtirish qobiliyatida yotadi.

II BO'LIM

Jamiyatning yangilanishi va o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish jarayonining strategik tamoyillari

2.1. Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi jarayoni va davlat tili sohasidagi strategiyaning zamonaviy tamoyillari

Ma'naviy yangilanish – ma'naviyatning o'zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayonini ifodalovchi tushuncha. Kishilar hayotida, umuman jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar shaxs ongi va ma'naviyatida muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat voqelikdagi o'zgarishlarning kelib chiqishi va sodir bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangilanish ma'naviyatning tub mohiyati bilan bog'liq hodisa. Agar ma'naviyat yangilanib, boyib turmasa, juda tez orada eskirib, taraqqiyotga yordam berish u yoqda tursin, unga xalaqit beradigan, to'siq bo'ladigan hodisaga aylanib qolar edi. Jamiyat taraqqiyotidagi burilish, tub islohotlar davrida ma'naviyatda ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi va ayni paytda ma'naviyatning jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga ta'siri kuchayadi. Bunday pallalarda ma'naviy yangilanish sur'atlari ham tezlashadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin unutilib ketayozgan milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklash, ularni yoshlar, aholi ongiga singdirishga katta e'tibor berila boshlandi. Ma'naviy yangilanishga katta e'tibor berilishi xalqning ongi, turmush tarzi, jamiyatdagi voqea-hodisalarga munosabatining o'zgarishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Ma'naviyatni yangilash sohasida olib borilgan va borilayotgan har tomonlama chuqur o'ylangan siyosat mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'ldi.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, ma'naviy yangilanish silliq o'tadigan jarayon emas. Eski tuzum sarqitlari ma'naviyatda muayyan davrgacha saqlanib qoladi va kishilarning xulq-atvoriga, turmushiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday holat fanda ma'naviyat ambivalentligi, deb ataladi. Bu tushuncha ma'naviyat tarkibida bir paytning o'zida bir-biriga mos kelmaydigan, o'zaro zid tushuncha va tasavvurlarning ma'lum bir vaqt mobaynida yonma-yon mavjud bo'lib turishini anglatadi. Ma'naviyatdagi bunday ziddiyat og'riqli kechadi. Mamlakat osoyishta taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan paytda ma'naviy ambivalentlik deyarli bo'lmaydi yoki juda past darajada bo'ladi. Taraqqiyotdagi burilish pallalarida esa ambivalentlik ko'proq namoyon bo'ladi. Bu holatni odamlar ma'naviyati va xulq-atvorida yangiliklarga hozirjavoblikni tarbiyalash asosida bartaraf qilish mumkin. Hozirgi kunda ma'naviy yangilanish, avvalo, qadriyatlarning yangilanishi shaklida namoyon bo'ladi. Bu borada milliy o'zlikni anglash, avlodlar merosini tiklash, asrab-avaylash, yangi zamon qadriyatlarini ko'pchilik ongiga etkazish va singdirish

uchun harakat qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda jahon xalqlari yutuqlaridan foydalanish, mamlakat hayotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash, ma'naviyatni yuksaltirish ushbu jarayonning tarkibiy qismidir.

Ma'naviy yangilanish sur'atlari turmushdagi ijobiy o‘zgarishlar, jamiyatdagi insonlararo munosabatlarning takomillashuvi va ma'naviyat sohasida olib borilayotgan targ‘ibot ishlarining samarasi bilan belgilanadi. Bu jarayonda OAV, ta'lim-tarbiya tizimi, teatr, kino, badiiy adabiyot, san'at, falsafa, axloqshunoslik va boshqalar alohida o‘rin tutadi. Ular ayni paytda ma'naviyatning tarkibiy qismlari ham hisoblanadi. Jamiyat va xalq ma'naviyatida yangi ijobiy qadriyatlar, yangi tuzum va yangi turmush g‘oyalari qanchalik tez qaror topsa, ular qanchalik samarali va ta'sirchan usullar bilan targ‘ib etilsa, ma'naviy yangilanish shunchalik samarali amalga oshadi. Ma'naviy yangilanish sur'atlari ko‘p jihatdan davlat va jamoat tashkilotlari, shu soha xodimlarining irodasi va amaliy harakatlariga ham bog‘liq bo‘lib, bu sohadagi o‘zgarishlar O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Ma'naviy ehtiyojlar – davlat, jamiyat va shaxsning barqaror turmushida moddiy ehtiyojlardan boshqa ma'naviy talablar, manfaatlar va ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviy tarbiya ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, ilmiy, axloqiy diniy, huquqiy va boshqa yo‘nalishlarda aniq namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, ma'naviy tarbiya ijtimoiy ong shakllariga tayanadigan faol harakat asosida ta'minlanadi. Ma'naviy tarbiyaning qondirilmasligi jamiyat barqaror hayotida turli buzg‘unchi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga olib kelishi ayrim hollarda davlat va jamiyat hayotiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Bunday vaziyatda ma'naviy tarbiya tarzida namoyon bo‘lgan talablar va manfaatlarni bosqichma-bosqich qondirilishi bilan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish mumkin. Xalqimiz turmush tarzida ma'naviy tarbiya qadr va qadrlash mezonlari orqali namoyon bo‘ladi. Jamiyat va insonning ijtimoiy aloqalarida qadr-qimmat, or-nomusiga nisbatan qilingan noto‘g‘ri munosabat yoki harakat ma'naviyat mezonlariga ziddir. Shu ma'noda, "qornimga emas, qadrimga yig‘layman", degan xalq maqoli uning ma'naviy ehtiyojlarini ifodalaydi. Ma'naviy ehtiyojlarning moddiy ehtiyojlar bilan o‘zaro uyg‘unligi har bir davrning mazmun-mohiyatini belgilaydigan tarixiy zarurat hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholining barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan tub o‘zgarishlar, inson manfaatiga xizmat qiladigan islohotlar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidan bosqichma-bosqich ilgarilab bormoqda. Bu borada tilning ham muhim ahamiyati mavjudligini ta'kidlash zarur.

Ma'naviy yangilanishda davlat tilining tarbiyaviy

- ma'muriy javobgarlikni kuchaytirishning foyda va zararini aniqlash;
- ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish;
- Davlat tilining nufuzini oshirish orqali ma'naviy yuksalishga erishish

- Jarayonni tizimli tahlil qilish;
- Media targ'ibot materiallarini tayyorlash;
- Til vositasida shaxs ma'naviyatini rivojlantirish;
- davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish mexanizmini ishlab chiqish

Bu nuqtai nazardan, “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasi “ma’naviyat” tushunchasi bilan o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasi uchun asos bo‘lgan “Ma’naviyat” tushunchasi shaxs, millat va jamiyatning ma’naviy-axloqiy munosabatlari, aloqa va muloqotlari majmuasini o‘zida mujassam etib, ijtimoiy taraqqiyot tamoyillarining muhim ko‘rinishini ifoda etadi.⁶² Ushbu tushuncha tarkibidagi “ma’naviyat” so‘zi esa inson, xalq va jamiyatning nomoddiy shakl va mazmunga ega bo‘lgan taraqqiyot tamoyillari qadriyatlarini va o‘zaro munosabatlarini ifoda etadi, odamzotning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini anglatadi.

Ushbu yo‘nalishdagi zamonaviy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, “Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida” quyidagicha ta’rif berilgan: “Ma’naviyat (arabcha ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy taraqqiyot tamoyillari bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat taraqqiyot tamoyillarining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa”⁶³. Bu umumiy ta’rifda ma’naviyatni moddiy taraqqiyot tamoyillari qadriyatlaridan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq aks ettirish nazarda tutilmagan.

Shu sohadagi mutaxassislardan biri A.Erkayev “ma’naviyat” tushunchasiga bunday ta’rif beradi: “Ma’naviyat – ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliy) ahamiyat kasb etgan, e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, me’yorlari, ijtimoiy mo‘ljallari, omillaridir, ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo‘naltiradigan milliy iroda, milliy

⁶² Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: F. Fulom nomiдаги НМИУ, 2009. – Б.333

⁶³ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: F. Fulom nomiдаги НМИУ, 2009. – Б.333.

g'urur va or-nomusdir. U jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta'minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir"⁶⁴.

Shu o'rinda M. Mamtovning "Odamlar qadimdan ushbu mezonlar majmuini "Jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti" tushunchasi bilan atab kelganlar. O'z navbatida, "jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti" ushbu xususiyatlar bilan birga o'z tarkibiy qismiga ancha keng jihatlarni birlashtirgan murakkab tushunchadir. Ana shu ma'noda, u qator ijtimoiy omillarni o'zida jamlagan va jamiyatning ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini tavsiflovchi xususiyatlarni o'zida ifodalaydi.

Har bir davlatning ma'naviyat sohasidagi siyosati uchun esa "Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari" o'ta muhim, tayanch tushuncha, har bir siyosiy faoliyatning o'ziga xos mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan, ma'naviylik davlat siyosatining mohiyati, u jamiyatning taraqqiyot tamoyillarini aks etishi va ifodalanishini anglatadi. Ushbu asosda shakllangan ma'naviy qadriyatlar jamiyat ma'naviy taraqqiyot strategiyasining bu sohadagi mavjudlik tamoyillari majmui sifatida namoyon bo'ladi va amal qilish va rivojlanish sur'atini aks ettiradi", degan fikriga qo'shulish mumkin⁶⁵. Shu o'rinda ma'naviy qadriyatlar qatoriga tilni kiritish mumkin va bugun jamiyatda o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini ko'tarish masalasi nihoyatda aktuallashtirganini anglash qiyin emas

Har qanday milliy madaniyatga, har qanday jamiyatga integratsiya nafaqat urf-odatlar va ijtimoiy amaliyotlar bilan tanishishni, balki tilni o'zlashtirishni ham talab qiladi, aks holda bu jamiyatda inson muqarrar ravishda o'zini begona his qiladi.

Insonning qulay ijtimoiy mavjudligini, uni jamiyatning har qanday a'zosiga, uning manfaatlariga, huquqlariga, majburiyatlariga va majburiyatlariga ta'sir qiladigan axborot muhitiga, ijtimoiy aloqaning yagona makoniga samarali jalb qilmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ommaviy aloqa sohasi nafaqat davlat apparati bilan rasmiy hamkorlik bilan cheklanib qolmaydi, balki u ancha kengroq va o'zaro ta'sirning keng jamoat maydonini qamrab oladi.

Shu bilan birga, ushbu ommaviy soha cheksiz emas — u nutq aloqasining barcha sohalarini, har qanday aloqani egallamaydi. Oilada, do'stlar davrasida, professional jamoada muloqot qilish, til bilan bog'liq ijodkorlik — bularning barchasi jamiyat birligini ta'minlaydigan narsadan tashqarida. Ushbu sohalarga huquqiy retseptlarning aralashuvi qonuniy ravishda oqlanishi mumkin emas, chunki bunday aralashuvning ijtimoiy ahamiyatga ega "qonuniy" maqsadi yo'q, fuqarolarning huquqlari esa aloqa, o'qitish va ijod tilini erkin tanlash konstitutsiyaviy huquqi bilan himoyalangan (O'zRes.Konstitutsiyasida bu qism). 4-

⁶⁴ А.Эркаев. Маънавият – миллат нишони. – Тошкент: "Маънавият", 1997. – Б.46-47.

⁶⁵ Mamatov M. Yangilanayotgan o'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili// falsafa fanlari d-ri diss.avtoref, –Toshkent, 2023. 23-b.

modda). Ushbu huquq ijtimoiy birlikni ta'minlash funktsiyalarini bajarmaydigan, ammo madaniyatning muhim qismini ifodalovchi milliy madaniyatlar va tillarni himoya qiladi.

Tilni davlat tili deb e'lon qilish o'nlab yillar davomida cheklovlar, majburlash, hatto zo'ravonlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Ushbu an'ana asarlarida tilni davlat tili deb e'lon qilish, birinchi navbatda, bir etnosning boshqalarga nisbatan zo'ravonligi sifatida ko'rib chiqilgan.

Evropaning markazlashgan davlatlarining yaratilishi muqarrar ravishda yangi millatning birligini (etnik ma'noda emas, balki siyosiy ma'noda) aks ettirishi kerak bo'lgan "umummilliy" tillarning tasdiqlanishi bilan birga keldi. Kastiliya Kataloniya, Galisiya, aran va bask tillarini "mintaqaviy" tillar (milliy ozchilik tillari) darajasiga tushirib, Birlashgan Ispaniyaning umummilliy tiliga aylandi; frantsuz tili Breton, oksitan, Franco-Provans, Alsatian tillari bilan xuddi shunday yo'l tutdi (bu Frantsiyada faqat so'nggi yillarda rasman tan olingan); nemischa-quyi sakson, Friz va lujitskiy bilan; italyancha-ladinskiy, xuddi shu frankovrovan-salskiy va boshqalar bilan. Aynan shu davrda umummilliy tilni turli dialektlardan ajratib olish uchun ma'lum bir "standart" til tushunchasi paydo bo'ldi, ko'pincha akademiyalar lug'atlarida umumiy til sifatida qayd etilgan — ma'lum bir tilning dialektal kodlangan shakli.

Ommaviy axborot vositalaridan, garchi bu sohalardan tashqarida har qanday til saqlanib qolgan va muqarrar ravishda sezilarli o'zgaruvchanlikni saqlab qolgan. Muayyan ijtimoiy guruh ijtimoiy elitaga aylanib, butun jamiyatga "o'z" tilini yuklaydi. Davlat tili maqomini huquqiy tartibga solish-bu ushbu funktsiyadagi til juda zarur bo'lgan chegaradan tashqariga chiqmasligi kafolatlarini yaratishdir va shuning uchun til erkinligi tarafdorlarining davlat tilini faqat bitta funktsional uslub va faqat davlat bilan rasmiy o'zaro munosabatlar bilan cheklash istagi tushunarli.

Bugungi kunda ushbu yondashuvni qayta ko'rib chiqish kerak. Bugungi kunda hech kim davlatni sinfiy yoki boshqa ijtimoiy hukmronlik vositasi deb bilmaydi. Zamonaviy dunyoda bu umumiy masalalarni birgalikda hal qilish uchun fuqarolarni birlashtirishning siyosiy shakli. Shunga ko'ra, umumiy, davlat tiliga munosabat o'zgarishi kerak. Umumiy maktab ta'limi joriy etilishi bilan har bir fuqaro standart (adabiy) tilni bilishi, uni tushunish va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jamiyat siyosat, huquq, iqtisodiyot, madaniyatning ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarini muhokama qilishda til jihatidan bir xil bo'lib bormoqda. Demokratik davlatda boshqacha vaziyat qabul qilinishi mumkin emas, chunki har bir fuqaro u yoki bu tarzda uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga ta'sir qiladigan, unga jamoat hayotida ishtirok etish, qonuniy vazifalarini bajarishga imkon beradigan mavjud ma'lumotlarni olish huquqiga ega. Ushbu tamoyillar tilning turli xil ijtimoiy variantlaridagi farqlar makonini toraytiradi va asosiy ijtimoiy

ahamiyatga ega domenlar (faqat davlat bilan rasmiy o‘zaro ta’sir doirasidan tashqarida) tilni huquqiy tartibga solish makoniga — "davlat" tiliga kiradi.

Insoniyat o‘z yo‘li va atrofini yoritish uchun chiroqni ixtiro qildi. Qalbni yoritish uchun esa “Ma’naviyat” atalmish chiroqni kashf etdi. Bu chiroq nafaqat inson qalbi, balki ong-u shuurini ham yoritib turadi, vijdonini uyg‘otadi, yashashdan maqsadi va o‘zligini anglashga yordam beradi. Ma’naviyat chirog‘i insonni tarixni o‘rganishga, ota-bobolarining kimligini bilishga va ularga munosib bo‘lishga, xalq va Vatan taqdiri uchun qayg‘urishga undaydi, kelajak haqida o‘yga toldiradi⁶⁶.

Bu haqda Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ta’kidlangani kabi: “Insoniyat dunyosining o‘ziga xos bir yoritgichi – “ma’naviyat chirog‘i” bor... O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat chirog‘i yonishi va u bizni ezgu amallarga undab, doimo mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otib turishi zarur.”⁶⁷. Ma’naviyat targ‘botida tilning o‘rni beqiyos.

Ma’lum bo‘lishicha, tilning birligi mamlakat birligini ta’minlash uchun juda muhim bo‘lgan ijtimoiy aloqa sohalari huquqiy tartibga solish predmetiga kiritilishi kerak, ammo bu sohalar, bir tomondan, cheksiz emas va insonning barcha nutq xatti — harakatlarini qamrab olmaydi, boshqa tomondan, ular davlat organlari bilan rasmiy o‘zaro munosabatlardan ko‘ra kengroq bo‘lib chiqadi. Ushbu farqlar muqarrar ravishda terminologiyada aks ettirilishi kerak, chunki tilning majburiyligining turli chegaralarini belgilash uchun ushbu toifani belgilaydigan turli xil chegaralar mavjud bo‘lishi kerak. Biroq, hech bo‘lmaganda o‘zbek tilida terminologiyaga nisbatan noaniqlik mavjud.

Ma’naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquwat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir⁶⁸

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon boiadi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir. Buyuk marifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so‘zlari bilan aytganda, «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur». Bu haqda gapirganda, mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili

⁶⁶ Mamatov M. Yangilanayotgan O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili/falsafa fan.d-ri diss. – Toshkent, 2023. 225 b.

⁶⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022, 461-бет.

⁶⁸ Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б.67.

maqomini berish masalasida qanday qizg'in, ba'zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo'lib o'tgani beixtiyor yodimizga tushadi. O'shanda ayrim siyosiy guruhlar O'zbekiston sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olg'a surgan, shuning hisobidan o'ziga obro' topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bog'liq muammolar orqali milliy tuyg'ularni ro'kach qilib, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish mumkin⁶⁹.

Ikki jihatga e'tibor qaratish mintaqalardagi rus tilining holatiga oydinlik kiritishda aniq dalillarni taqdim etadi. 1. Yuqoridan o'tkazilgan ko'plab tadbirlar ruslashtirishni tezlashtirdi. 2. Mahalliy tillarda ta'lim berishning bosqichma-bosqich qisqartirilishi vaziyatni shu darajaga olib keldi. 1-faktga aloqador dalillarni yuqorida keltirdik. 2-omilga bog'liq bo'lgan dalillarni quyida taqqoslama statistik ma'lumotlar asosida tavsiflashga harakat qilamiz. Ittifoq hududida o'tgan asrning 60-yillarida 47 tildagi maktablar mavjud edi. 1982-yilga kelib atigi 17 tasi ta'lim tillarida qoldirilgan⁷⁰. 32 tasi fan sifatida o'qitildi. Shunga o'xshash jarayonlar boshqa respublikalarda ham bo'lib o'tdi. 1939-yildan 1962-yilgacha O'zbekiston SSRda maktab ta'lim tillari soni 22 tadan 7 taga kamaydi⁷¹.

Bu kabi omillar xalqlarning milliy uyg'onishiga turtki berish bilan birga ittifoq hududidagi mamlakatlarda ozodlik harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Sobiq Ittifoq tarkibidagi xalqlar O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'z mustaqilliklarini e'lon qildilar. Buning natijasida istiqlolni qo'lga kiritgan mamlakatlar qator sohalarda mustaqil faoliyat olib borish imkoniyatini qo'lga kiritdilar.

Milliy tillarning rasmiy maqomga ega bo'lishi ham mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. So'zlashuvchilari ko'p bo'lgan millat tillari endilikda davlat tili sifatida mamlakatlarning ish yurituv tiliga aylandi. Sobiq sovet mamlakatlari misoli O'zbekiston ham qator murakkab jarayonlarni boshdan kechirdi va oxir-oqibat o'zbek millati oldiga qo'ygan azaliy maqsadiga erishdi. O'sha davrdagi hukumat rahbarlarining oqilona siyosati tufayli O'zbekiston o'z mustaqil yo'lini barpo etdi. Bunda o'zbek xalqining birdamlik bilan kurash olib borganligi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada mustaqil O'zbekistonning erkin siyosati shakllandi. Rasmiy tiliga ega bo'lgan O'zbekiston o'zining yangicha til siyosatini shakllantirdi hamda boshqa tillarning ta'siri bo'lmagan, tolerantlikka asoslangan til siyosati modelini joriy qildi.

⁶⁹ Каримов И. Юсак маънавият — энгилмас куч. — Тошкент: "Маънавият", 2008. — Б.83.

⁷⁰ Кузнецов Г.Д., Чехоева С.А. Национальные школы РСФСР в современных условиях. // Советская педагогика, 1982. — № 2. — С. 12.

⁷¹ Ханазаров К.Х. Сближение наций и национальные языки в СССР. — Ташкент, 1963. — С. 176.

Xalqimiz ongi va tafakkurida yuz bergan o'zgarishlar mustaqil O'zbekiston rivojiga, ona tilimiz takomiliga xizmat qildi. Jamiyat sohalari taraqqiyoti istiqloq qo'lga kiritilgach yanada jadallashdi va bu jihat aholi farovonligiga olib keldi. Mustamlaka xalq maqomidan mustaqil davlat maqomiga o'tgan yurtimiz aholisi o'z ona diyorining ravnaqi uchun imkoni boricha hissasini qo'shishga harakat qildi. O'zbek xalqini o'zbek tili erkinligiga erishilganligi nihoyatda ruhlantirib yuborgandi. Chunki endilikda davlat idoralarida begona bir tilda emas ona tilida ish yurituv imkoni yuzaga kelgan edi.

“Tilning o'z hududida davlat tili maqomini olishida millat vakillarida shakllangan milliy ong taraqqiyoti muhim omildir. Tilga davlat tili maqomining berilishi bu millatchilik emas, balki o'sha millat vakillarining o'z tilini muhofaza etishi, qolaversa, davlat tomonidan uni saqlash va rivojlantirish borasidagi g'amxo'rlikdir”⁷². Milliy siyosatga, xususan, uning bevosita tarkibiy qismi bo'lmish til siyosatiga ko'p millatli davlatlarda jiddiy ehtiyoj seziladi. Milliy muammolarni risoladagidek til siyosatisiz hal qilish mushkul. Mazkur jihatlar tufayli mamlakatlar mustaqilligini e'lon qilgach o'ziga xos til siyosatini shakllantiradi.

Davlat tili masalasi murakkab muammolardan biri ekanligi har qaysi davrda hem millat peshvolari tomonidan ta'kidlab kelingan. Sobiq sovet mamlakatlarining barchasi davlat tilini belgilash va davlat ishlarini rasmiy tilde olib boorish bilan bog'liq muammolarga duch kelishgan. Sovet davlati tarkibidan mustaqil bo'lib chiqqan davlatlar davlat tilini belgilashda quyidagi omillarga e'tibor qaratishgan: A) mamlakat tub aholisining o'zi, ko'p jihatdan davlat tilini qabul qilishga tayyor ekanligi, B) milliy tillar davr talablaridan birmuncha orqada qolganligi, S) aholining muayyan qismi rus tilini afzal ko'rishi. Bu jihatlar o'ta mohirona til siyosatini talab qilish bilan birga, siyosiy qobiliyat va millatparvalikni talab qiladi.

Sobiq Ittifoq hududida davlat tili yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda uch turda joriy etilgan:

a) davlat tili majburiy ravishda hamma joyda istisnosiz singdirilayotgan davlatlar (Estoniya, Latviya, Litva);

b) davlat tilini sekin-asta, zarur vaziyatlarda, boshqa tillardan ham foydalanib hayotga singdirib borish siyosatini amalga oshirayotgan davlatlar (Ukraina, Moldaviya, O'zbekiston va boshqa qator davlatlar);

d) tub yerlik aholi salmog'ining yetishmasligi kabi omillar ta'sirida rus tilini davlat tili darajasiga ko'tarishga majbur davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston)⁷³.

Tilni rivojlantirish, iste'mol doirasini kengaytirish, uni boshqa tillarda so'zlashuvchilar orasida yoyish, davlat tilini boyitish uzoq vaqt, sabr-toqatni,

⁷² Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. 2021.- 35 b.

⁷³ Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. 2021.- 36 b.

izchil mehnatni talab qiladi. Bu borada avvalambor, aholi o'rtasida davlat tiliga munosabatni o'zgartirish, ommada o'z milliy tiliga nisbatan hurmat va qiziqish hislarini uyg'otish hamda mustahkamlash, davlat tili bo'yicha darsliklar, lug'atlar, o'quv kitoblari, qo'llanmalar tayyorlash va nashr etish ishlarini yana-da kuchaytirish lozim. Bu kabi ishlar til amaliyoti bilan aloqador vazifalar bo'lib, til siyosatida ushbu jihatlarga nihoyatda kata e'tibor berish talab etiladi. Istiqlolning ilk yillarida qayd etilgan amaliy manbalarni toppish ancha murakkab, xattoki ta'lim muassasalarida o'quv adabiyotlari yetishmaslik holatlari kuzatilar edi. So'nggi yillarda sohaga bo'lgan e'tiborning kuchayganligi bu jabhadagi muammolarning bartaraf etilishiga olib keldi. Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizda balki, xorijiy o'lkalarda ham o'zbek tilidagi materiallarni toppish imkoniyati paydo bo'ldi.

Til mustaqil davlatning rasmiy tiliga aylangach, o'zining an'anaviy funksiyalaridan tashqari bir qator(muloqot, voqelikni aks ettirish, o'zlikni ifodalash va hokazo) muhim funksiyalarga ham ega bo'ladi. Milliy davlatchilik belgilaridan biri til hisoblanib, millat va davlatning jahon minbarlarida yangrovchi ramziy belgisi. U qonun tomonidan muhofaza qilinuvchi davlat ramzlaridan (bayroq, tamg'a va boshqalar) biri sifatida qabul qilinadi. "Agar millat o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lsa, bu holatda u konstitutsion huquqiy darajada, qonuniy yo'l bilan o'zining ijtimoiy-madaniy qadriyati sifatida milliy tilni har tomonlama rivojlantirish uchun g'amxo'rlik qiladi"⁷⁴. Demak, til shunchaki muloqot vositasi sifatida qaralmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "“Davlat tili haqida”gi Qonuni faqatgina o'zbek xalqininggina emas, balki respublikadagi boshqa xalqlarning ham milliy-madaniy taraqqiyoti kafolatini ta'minlaydi: "Davlat tili haqida"gi Qonun mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining manfaatlarini ham himoya qiladi, ularning ona tillarini, madaniyatini rivojlantirish, milliy urf-odat va an'analarini saqlab qolish, yashash hamda ishlashlari uchun tengma-teng sharoit yaratib berishni ta'minlashni ham ko'zda tutadi"⁷⁵.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining har tomonlama takomiliga o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash jarayoni yuqori darajada xizmat qildi. Jumladan, o'zbek tili leksik qatlami sofliğini saqlashga jiddiy e'tibor qaratildi. Respublikamizda mustaqillikning ilk yillarida milliy atamashunoslik qo'mitasi shakllantirildi. Tilimizning terminologik muammolariga mazkur tashkilot ma'sul hisoblanar edi. Ushbu tashkilot sa'y-harakatlari bilan o'zbek tili leksik qatlamiga oid bir qator masalalar tartibga solindi. a. o'zga tillardan olingan yoki muomaladan chiqqan so'zlar o'zgartirilib, yangi, milliy atamalar shakllantirildi; b. o'zbek tilidagi

⁷⁴ Агзамходжаев А., Саидов А. О статус государственного языка // Правда Востока. 28 июня 1989 г.

⁷⁵ Фозилов Э.И. «Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида»ги Қонунини амалга ошириш юзасидан белгиланган тадбирларнинг бажарилиши ҳақида // «Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида»ги Қонунини олий ва ўрта махсус таълим юртлирида амалга оширилиши. – Тошкент: ТДТУ, 1991. – Б. 7.

unutilib ketgan soʻz va iboralar muomalaga qaytarildi. Mazkur tashkilotning faoliyati koʻp vaqt oʻtmay tugatilgan edi. Oʻzbek tilini rivojlantirishga boʻlgan harakatlarning soʻnggi yillarda kuchayishi bunday tashkilot til sofliğini saqlashda nihoyatda muhim ekanligining anglanilishiga olib keldi. Buning natijasida OʻzR VMning “OʻzRVM huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. “Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada, hayotimizga chetdan koʻplab yangi tushuncha, soʻz va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lugʻat boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning oʻzbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qoʻllanishini taʼminlash dolzarb vazifa boʻlib turibdi”⁷⁶.

Til muloqot vositasigina emas, milliy til – millatning tafakkuri, fikr yuritish vositasi, uning qurolidir. Tilni takomillashtirish jarayonida til va tafakkur munosabatlari, milliy mafkuraning shakllanishi va bu maqsad uchun yetarli til bazasini yaratishning ahamiyati oshadi.

Sobiq Ittifoq davrida milliy tilni har tomonlama rivojlantirish, kerakli darajada va shaklda oʻrganish, barcha ijtimoiy sohalarda amaliyotda qoʻllash uchun imkoniyatlar kafolatlanmagan edi.

Etnosni saqlab qolishga intilish har bir millatning milliy oʻz-oʻzini anglashida namoyon boʻladi. XX asrning birinchi yarmida milliy oʻzlik va uni anglash unsuridan bexabar millatlar etnik fojiga uchradi. Ammo bu fojia sunʼiy faktorlar asosida keltirib chiqarildi. Har bir respublikada yashagan mahalliy millat va elatlar uchun rus tilini oʻrganish majburiyligi “Sotsiolistik”, “baynalmilal” davlat milliy siyosatining bosh gʻoyasi edi. Lekin milliy tillarni oʻrganish uchun obyektiv, subyektiv ehtiyoj rus va rus tilida soʻzlashuvchi aholida yoʻq edi. Amalda rus tili ishlatilgan, “Tillar tengligi” faqat nazariy prinsip sifatida qolib ketgan, “Ruslashtirish” siyosatining bir tomoni milliy tillar taraqqiyoti imkoniyatlarini cheklash boʻlgan.

“Barcha tillar kelajakda bir tilga aylanib ketishi lozim”, degan gʻayriilmiy, notabiiy, mantiqsiz fikr sovet davlati til siyosatining asosi boʻlgan. Baʼzi kam sonli xalqlarning milliy tillari, milliy madaniyatlarining umuman rivojlanmaganligining omili manashu qarashlardir. B.R.Karimov va K.Miraʼzamov qayd etganlaridek: “Rossiya imperiyasida rus tili davlat tili deb eʼlon qilingan va rus boʻlmagan tillarga nisbatan shovinistik... siyosat olib borilgan... Turgʻunlik mafkurasi va psixologiyasi hukmronlik qilgan davrda yoʻl qoʻyilgan shovinizm ruhidagi nazariy hamda amaliy

⁷⁶ Prezident Shavkat Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21-oktabr 2019-yil. <http://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

xatoliklar sababli milliy tillarning qo'llanish ko'lam va rivojlanishi nuqtayi nazaridan tengligi va teng huquqliligi ta'minlanmadi"⁷⁷.

Milliy o'zlikni anglash unsuri o'zbek millatida juda qadimdan mavjud. Millatimizning markazlashgan davlatchilik sharoitlarida yashaganligi bu jihatning asosi hisoblanadi. Xalqimizning o'ziga xos yangi bir qayta ko'tarilishi XX asrning 80-yillari o'rtalariga kelib boshlandi. U yillar davomida tarixan shakllanib, muayyan tizimli g'oyaga aylangan, ijtimoiy sharoit tufayli yuzaga chiqqan omildir. Bu omil chetdan olib kelingan yoki ba'zi guruhlarining da'vo qilishlaricha, yangidan ishlab chiqilgan yoki hosil qilingan omil emas. O'zbek xalqining milliy o'zlikni anglash omili xususida so'z borganda bu holni hisobga olish lozim.

Milliy tilimiz va madaniyatimizning rivojlanishi Respublikamizning mustaqilligi, ijtimoiy hayotning barcha tomonlarining demokratlashuvi uchun katta obyektiv omil.

Milliy o'zlikni anglash tuyg'usi O'zbekiston uchun yaqin yillardagi hodisa emas. Milliy o'zlikni anglash qadim ildizlarga ega. L.N.Gumilyov qayd etadi: "Dunyoda uchta: xitoy, fors va turkiy millat milliy xususiyatlarni saqlashni qadim-qadimdan ilk rejaga qo'yib kelgan. Ayniqsa, bu borada turkiy xalq qat'iy yo'l tutgan. Xitoy solnomalarida saqlangan turkiylar hayotiga oid bitiklarda turkiylarning o'ta millatparvarligiga ko'p urg'u berib o'tilgan"⁷⁸. I.Bichurin ta'kidlaydi: "Men dunyoda milliylikni saqlash va uni taraqqiy ettirishda turkiylardek ulug' millat ko'rmadim"⁷⁹.

SSSRning 127 ta "sharqiy" xalqlaridan 80 tasi 1932 yilga kelib o'z yozma tiliga ega bo'lgan. Nikolay Yakovlevning yozishicha, ularning yarmiga yaqini Oktyabr inqilobidan keyin shakllangan. Ushbu davrda mamlakatlar ish yurituvda mahalliy tillardan foydalanish amaliyoti mavjud bo'lgan. Mahalliy tillar ayrim Respublikalarning konstitutsiyalari va qonunlarida "rasmiy til" yoki "davlat tili" deb nomlangan.

Keyinchalik SSSR hukumatining til va etnik ozchiliklarga nisbatan siyosati o'zgardi: milliy harakatlarni qo'llab-quvvatlash o'rniga, ularning vakillariga qarshi repressiyalar boshlandi. O'rta Osiyo respublikalari va Kavkazda panturkistlar va panislomistlarga, Ukraina ziyolilari va Belarus milliy demokratlari vakillariga qarshi 1930-yillarning boshidan mafkuraviy kurash olib borildi. Qator mahalliy ziyolilar hibsga olindi va qatl etildi. Mazkur o'zgarishlar SSSR til siyosatiga dastlab jiddiy ta'sir o'tkazmadi. Moskvadagi partiya rahbariyati til siyosatini belgilashda mahalliy xalq ziyolilarining o'rnini eganladi. Bu esa ishdan bo'shatish va hibsga olishlar

⁷⁷ Каримов Б., Мираѓзамов К. Миллат равнаѓи ва тил муаммолари. – Тошкент: ФАН, 1993. – Б. 3.

⁷⁸ Гумилѓв Л.Н. Древний тюрки. – Москва: Наука, 1967. – С. 90–91.

⁷⁹ Бичурин И. История нарадов обставних в Средней Азии древний времена. Том I. – Москва: ИВЛ, 1950. – С. 105.

evaziga sodir bo'ldi. Ushbu omillar yillar o'tgach til siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi va tegishli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Iosif Stalin boshchiligidagi sovet hukumati 1930-yillarning o'rtalaridan boshlab SSSRning til va etnik siyosatini butkul o'zgartirdi va rus tili nufuzini butun ittifoq hududida yuksaltirishga qaratilgan til siyosatini yo'lga qo'ya boshladi. Lotin alifbolari kirill alifbolariga almashtirildi, ko'plab mahalliy tillarda kitoblar nashr etish, adabiyotlar chop etish sekinlashdi, butunlay to'xtatildi, maktablarda rus tilini o'qitish yo'lga qo'yildi, kengaytirildi.

Kuzatishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, Sovet rahbariyati kirill alifbosiga umumiy o'tish to'g'risida 1933-yilda qaror qabul qilgan. Biroq, "Shimol xalqlari" tillarini kirill alifbosiga o'tkazish to'g'risidagi SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining 1935 yilda qabul qilgan qarori birinchi rasmiy ko'rsatma sifatida namoyon bo'ldi. Sovet hukumati SSSR xalqlari tillarining kirill alifbosiga o'tish jarayoni nihoyalanganligini 1941 yil iyun oyida rasman e'lon qildi.

Butunittifoq Bolsheviklar Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti "Milliy respublikalar va viloyatlar maktablarida rus tilini majburiy o'rganish to'g'risida"gi qarorni 1938-yil 13-martda qabul qildi va shunga muvofiq SSSR respublikalarida ham xuddi shunday qarorlar qabul qilindi. RSFSR maktablarida birinchi sinfdan boshlab rus tilini o'rganishni joriy etish vazifasini Sovet hokimiyati 1938/39 o'quv yilidan ustuvor vazifa sifatida belgiladi.

Mahalliy tillarning maqomi bilan bog'liq so'zlar aksariyat Sovet respublikalari va viloyatlarining yangi konstitutsiyalaridan chiqarib tashlangan. 1980-yillarga qadar Ozarbayjon SSR, Armaniston SSR, Gruziya SSRda mahalliy tillarning "davlat tili" deb nomlanishi saqlanib qolgan edi.

Sovet Ittifoqining til siyosatida oldingi o'n yilliklardagi kabi keng ko'lamli o'zgarishlar 1950-yillardan qayta qurish davrigacha bo'lgan davr oralig'ida kuzatilmadi. 1950-yillarga qadar mahalliy lashtirish siyosati g'oyalari mahalliy til vakillarining ta'siri tufayli ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lsa keyingi davrlarda bunga yo'l qo'yilmadi.

Rasmiy manbalarga ko'ra 1936-yilgi konstitutsiyada ona tilida ta'lim olish huquqi aks ettirilgan bo'lsa, 1977-yilgi konstitutsiyada faqatgina ona tilida ta'lim olish imkoniyatlari tilga olingan.

Sovet hukumatining rus tilini tarqatish bo'yicha 1960-yillardagi siyosatining rasmiy maqsadi rus tilini SSSRning har bir fuqarosi uchun "ikkinchi ona tili" qilishga urinish bo'lgan. Til siyosatidagi bunday yondashuvlar bir tilli va ikki tilli aholi o'rtasidagi mahfiy ijtimoiy tengsizliklarni saqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga mazkur siyosat XX asr o'rtalariga kelib SSSRning ko'plab xalqlarida milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishiga turtki berdi.

SSSRda qayta qurish siyosati 1985-yilda boshlangan bo'lsa, 1985-1988 yillarga qadar bu jarayon til siyosatida aks etmadi.

Umumiy sovet til siyosati amalda Respublikalarning siyosiy huquqlarining kengayishi bilan to'xtadi. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan barcha jabhalarda bo'lgani kabi til siyosati boshqaruvi ham qo'lga olindi. Birinchilardan bo'lib, moldovan tilining qo'llanish doirasini kengaytirish to'g'risidagi qonunni 1987-yilda Moldova SSSR hukumati qabul qildi. Sovet respublikalari xuddi shunday qonunlarni 1990 yil may oyiga qadar to'liq qabul qildilar.

Voqealar rivojini kuzatib kelgan Oliy Kengash tashabbusni o'z qo'liga olish maqsadida 1990-yil aprel oyida SSSR xalqlari tillari to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Rus tili rasman birinchi marta davlat tili sifatida belgilandi. Davlat tili va SSSRning boshqa tillari funksiyalarini umumsovet darajasida rivojlantirish mexanizmlari e'lon qilindi.

Ushbu davrga kelib til omili bir qator muammolarni shakllantirishga ulgurgan, respublikalarda qabul qilingan til qonunlari mamlakatning turli hududlarida etnik nizolarni keltirib chiqargan edi.

1990-yillarda mintaqalarda til siyosati loyihalari bevosita mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan boshlangan va ular Sovet islohotlaridan farqli bo'lgan. Joriy etilgan yangi siyosat shakllari mahalliy tillarning nufuzini oshishiga turtki berish bilan birga ayrim hollarda rus tili nufuzining mintaqalarda tushishiga xizmat qildi.

Umuman olganda istiqlol arafasi va mustaqillik yillari til siyosatida hukumat tomonidan qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarining ahamiyati katta bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Adlyo vazirligining rasmiy ma'lumotlar bazasi hisoblangan lex.uz huquqiy axborot saytining statistikasiga nazar solganimizda hozirgi kunga qadar davlat tilini rivojlantirish yo'lida umumiy hisobda 106 ta qonun hujjati qabul qilinganligi aks ettirilgan. Ammo bunchalik ko'p hujjat qabul qilinmaganini anglaganimiz holda ushbu ma'lumotlar bazasidagi qonun hujjatlarini birma-bir ko'zdan kechirganimizda ma'lum bo'ldiki, bazada mavjud hujjatlarning barchasi ikki xil alifbo ko'rinishida va 2 ta tilda taqdim etilgan, 2-til sifatida esa rus tili qayd etilgan. Manashu omil tufayli bazadagi qonun hujjatlari 103 tani tashkil etmoqda. Nazarimizda mazkur qonun hujjatlarini tillar kesimida modellashtirish darkor.

2.2. Yangi ma'naviy makon yaratilishi – o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarishning muhim omili

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, "O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va

ongida ma'naviyat shu'lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur"⁸⁰

Yangi O'zbekistoni barpo etish jarayonida mamlakatni yanada rivojlantirish, jamiyatni barqarorlashtirish uchun madaniyatning yaratuvchilik, bunyodkorlik kuchini oshirish muammosi yanada dolzarblashmoqda. Shundan kelib chiqqan holda madaniyat haqidagi ta'riflardagi turli nomlanishlar quyidagicha: - inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklardir; - insonning sun'iy "ikkinchi" tabiati; - inson faoliyatining umumlashgan majmuasi; - ijodiy faoliyat; - jamiyatning ma'naviy holati; - jamiyatning sifati; - insonning sifati va boshqalar"⁸¹

Ajdodlarimiz hamisha ulug' bir shukronalik bilan tinchlik, ilmu ma'rifat, poklik, halollik, mehr-oqibat va saxovatu muruvvat, bag'rikenglik va hamjihatlikni, bir so'z bilan aytganda, insoniy fazilatlar, axloqiy sifatlarni bebaho ne'mat deya qadrlagan. Ular ana shunday insoniy fazilatlar asosida ulug' allomalar, ma'rifatparvar olimlar, insonparvar shoirlar, halol va vijdonli, o'zgalar haqqiga hiyonat qilmaydigan kasb-kor egalari, oilasi va Vatanining tinchligi, sha'nini iymon qadar asrovchi qalqon mardlarni, ibo-hayoni eng katta qadriyat deb bilgan nafosat sohibalarini tarbiyalaydigan ma'naviy makonni yaratgan. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining eng yuksak insoniy fazilatlar va ilmu irfon, ma'rifat asosida yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi da'vati aynan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-axloqiy ta'limotlar bilan uyg'undir.

Ma'niviyat insonni tarixni o'rganishga, tilini asarash, ota-bobolarining kimligini bilishga va ularga munosib bo'lishga, xalq va Vatan taqdiri uchun qayg'urishga undaydi, kelajak haqida o'yga toldiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida alohida ta'kidlangani kabi: "... insoniyat dunyosining o'ziga xos bir yoritqichi – "ma'naviyat chirog'i" bor... O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat chirog'i yonishi va u bizni ezgu amallarga undab, doimo mas'uliyat tuyg'usini o'yg'otib turishi zarur..."⁸²

"Madaniyat nazariyasi" nomli o'quv qo'llanmasida A.Mavrulov va M.Mavrulova quyidagicha ta'rif beradilar: "Madaniyat insonning yaratuvchilik faoliyatini tartibga soladigan, shaxs ma'naviy kamolotiga, ruhiy-aqliy hayotiga

⁸⁰ Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 bet.

⁸¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: "Ўзбекитсон" нашриёти, 2022. – 440 бет

⁸² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2022. - 461 бет.

ma'no-mazmun beradigan, uning maqsad-muddaolarini jamiyat ijtimoiy mo'ljali bilan uyg'unlashtirishiga yordam beradigan fenomen ijtimoiy hodisa hisoblanadi"⁸³

Jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlarning ongu-tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish muhim vazifa bo'lib, "...bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy, madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelganligini aks ettiradigan ilmiynazariy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim"⁸⁴

Ma'naviy makon inson va jamiyat hayoti ma'naviy-axloqiy sohasi bilan bog'liqdir. Ushbu ma'naviy makonda ma'naviyat, ma'naviy ehtiyojlar paydo bo'ladi. Ma'naviy makonda mavjud bo'lmoq undagi ma'naviy-axloqiy qoidalarga bo'ysunmoq, ma'naviy ehtiyojlarni qondirmoq, insoniyat jamiyatining oliy axloqiy qadriyatlari bilan muloqotda bo'lishdir. Ma'naviy makon jamiyatning ma'naviy-axloqiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar majmui bo'lib, ushbu jarayonlar unda yuz beradi⁸⁵.

Ma'naviy makon jamiyatning ma'naviy hayoti borlig'i shakllarini o'ziga qamrab oladi, ma'lum tarixiy davrning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini aks ettiradi, insonning davr uchun muayyan idealini shakllantiradi va ushbu idealga yetishish shart-sharoitlarini yaratadi. Ma'naviy makon ob'ektiv-sub'ektiv sifatlarga ega bo'lib, inson ma'naviyat tashuvchisi bo'lganligi uchun uning istaklariga va intilishlariga bog'liqdir va aksincha, inson faoliyati ma'naviy makonga bog'liqdir. Natijada biz ma'naviy makonning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv-sub'ektiv omillar mavjudligi haqidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

- madaniy qadriyatlarning yaratilishi, o'zlashtirilishi, saqlanishi, keng yoyilishi bilan taqozolanadigan insonning ichki (ma'naviy) dunyosining mavjudligi;
- ongi va xatti-xarakati axloqiy me'yorlar, ma'naviy-axloqiy ehtiyojlar orqali tartibga solinadigan ma'naviy axloqiy shaxsning mavjudligi;
- birgalikdagi hayotiy faoliyat tajribasi, umumiy qiziqishlari va intilishlariga ko'ra birlashgan kishilar guruhleri va ma'naviy-axloqiy jamoalarning mavjudligi;
- axloqiy me'yorlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini yaratish va qayta ishlab chiqarish;
- dunyo va millat madaniyati, oliy ma'naviy yutuqlari, avlodlar, an'analar, innovatsiyalar muloqotidagi vorisiylikni ta'minlovchi ma'naviy-axloqiy madaniyat;
- kishilarni go'zallikni his qilishiga yo'naltirilgan estetik madaniyat;
- kishilarning hayotiy faoliyati jarayonida yaratilgan va ularning yashashi uchun mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy muhit;

⁸³ Маврулов А., Маврулова М. Мадаият назарияси. Тошкент, "Donishmand ziyosi" nashriyoti, - 352 (bet. B. 31)

⁸⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи наشري. — Тошкент: "Ўзбекистон" nashriyoti, 2022. B. 289.

J.To'ychiyev: ma'naviy makon – bu maqsad va manfaatlarga asoslangan faoliyat amalga oshadigan, g'oyalar va qarashlar, an'analar va e'tiqodlar, me'yorlar targ'ib qilinadigan makondir. Bugungi kundagi madaniyatshunoslikka oid adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, ma'naviy makon tadqiqoti va uning ta'rifiga oid yondashuvlar turli-tuman bo'lib, ulardagi asosiy ikki yo'nalish – diniy makon va dunyoviy makon talqini yaqqol ajralib turadi⁸⁶.

Ma'naviy makonning dunyoviy tushunchasi antropologik (insonga xos) xususiyatga ega bo'lib, insoniy va umuminsoniy tushunchalar bo'lgan haqiqat, ezgulik, go'zallik, adolat kabilarga tayanishida namoyon bo'ladi. Yuqorida bildirilgan fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- ma'naviy makon ma'naviyatda bo'lgan barcha sifatlarga ega bo'lib, insonning ma'naviyaxloqiy faoliyatini aks ettiradi;
- ma'naviy makonda insonning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yaratish va yangilash, faoliyatda tayanishiga oid ijodiy faoliyati amalga oshiriladi;
- ma'naviy makon shaxs va jamiyat ma'naviy-axloqiy hayoti jarayonlari natijasida kengayib boradigan konseptual makondir;
- ma'naviy makon muayyan tizimlardagi elementlarning birgalikda mavjudligi va o'zaro ta'sir ko'rsatishiga xos bo'lgan makon xossalarga egadir;
- ma'naviy makon ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlovchi shakl bo'libgina qolmasdan sub'ektlarning harakatini tartibga solish orqali ma'naviy jarayonlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi; Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlab o'tilganidek, yangi ma'naviy makonni yaratish ma'naviy hayot sohasidagi islohotlarni izchil amalga oshirish bilan birga, mavjud kamchiliklar va illatlar:

- 1) Umuminsoniy va milliy qadriyatlar, azaliy an'ana va urf-odatlarining qadrsizlanishi;
- 2) Turli poligonlar ta'sirida yuz berayotgan xatarli jarayonlar mohiyatini anglash darajasining pastligi;
- 3) Buzg'unchi g'oyalar va yot mafkuralarga qarshi faoliyatni hozirgi davr talablari darajasida tashkil etishga yordam beradigan samarali mexanizmning shakllanmaganligi;
- 4) Aksariyat odamlar, avvalambor, rahbarlar, davlat xodimlarining bilimsizligi, saviyasining pastligi, zamondan orqada qolayotganligi;
- 5) Yoshlar tarbiyasida jamoatchilik rolining susayib borayotganligi, bundan tashqari: tashabbuskorlikning yo'qligi, ijtimoiy faollikning sustligi, beparvolik,

⁸⁶ To'ychiyev J. Yangi ma'naviy makonda ma'naviy hayot va ma'naviy faoliyatning o'zaro munosabati "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi o'zbekiston bunyodkori" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 16-may 38-bet.

loqaydlik, maqsadga erishishning oson, yengil-yelpi yo'llarini qidirish, kosmopolitizm, manfaatparastlik, korrupsiya, mahalliychilik, axloqiy buzuvchilik, e'tiqodi sustlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlari oldidagi ojizlik, tafakkur turg'unligi, mas'uliyatsizlik singarilarga qarshi kurashish va bartaraf etishni ham talab qiladi⁸⁷.

Yangi ma'naviy makonning jamiyat va davlat rivojidagi ahamiyati masalasi bir qator xorijiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan muhokama qilingan bo'lsa-da, ushbu mavzu mamlakatimizda falsafiy jihatdan yetarli darajada tadqiq qilinmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Ma'naviy makon tushunchasini to'g'ri nuqtai nazardan tahlil qila olish uchun birinchi galda "makon" tushunchasi, uning ontologik jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Makon – bu eng avvalo insonni qurshagan tevarak olamga nisbatan ishlatiluvchi keng ma'noli tushuncha bo'lib, inson moddiy olamdagi ruhiy va jismoniy xatti-harakatlarini aynan shu makonda amalga oshiradi⁸⁸.

Yangi ma'naviy makon tushunchasi inson hayotining o'ziga xos genotipi, inson hayotini tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos usuli sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarini tashkil etadigan va rivojlantiradigan, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy normalar va texnologiyalar tizimini qamrab oluvchi makondir. Bu avlodlarning uzluksizligini ta'minlaydigan ma'naviy-axloqiy madaniyatning eng yuqori cho'qqisi, an'analar va innovatsiyalarning muloqoti, jamiyatni kelajakka intilishga chorlaydigan makon hisoblanadi. Bu maqsadlar va qiziqishlar amalga oshiriladigan, g'oyalar va qarashlar, an'analar, e'tiqod va axloqiy me'yorlar chuqur ildiz otgan joydir. Ushbu konsepsiya doirasida ma'naviy makon konsepsiyasi - bu odamning ijodiy faoliyatining paydo bo'lishiga imkon beruvchi va ma'naviyaxloqiy qadriyatlar insonga tegishli bo'lishiga imkon beradigan hududning o'ziga xos turidir⁸⁹.

O'zbek tili davlat tili maqomini olganidan so'ng, til siyosatida o'zgara boshladi. 1990-yillarda mintaqalarda til siyosati loyihalari bevosita mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan boshlangan va ular Sovet islohotlaridan farqli bo'lgan. O'sha davrda mintaqalarda ona tillarida dars berish imkoniyatlari maktab va oliy o'quv yurtlarida kengaydi. Mahalliy tillardan foydalanish ko'lami madaniyat, ta'lim va ish yuritishda yuksaldi. Boshqirdiston, Kabardino, Balkar va Tatariston bu borada ancha ilg'or bo'lishdi. Ayrim mintaqalar tillari uchun yangi yozuvlar joriy etildi yoki mavjud milliy ko'rinishlari tiklandi. Joriy etilgan yangi siyosat shakllari mahalliy

⁸⁷ To'ychiyev J. Yangi ma'naviy makonda ma'naviy hayot va ma'naviy faoliyatning o'zaro munosabati "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi o'zbekiston bunyodkori" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 16-may 38-bet.

⁸⁸ Гуссерль Э. Логические исследования. Т. 2. - М.: ДИК, 2001. - С. 97.

⁸⁹ Философский энциклопедический словарь. / Ред. сост. Е.Ф. Губский, Г.В. Кораблева, В.А. Лутченко. - М.: ИНФРА-М, 2007. - С. 336.

tillarning nufuzini oshishiga turtki berish bilan birga ayrim hollarda rus tili nufuzining mintaqalarda tushishiga xizmat qildi.

Sovet davriga nisbatan SSSR respublikalarida vaziyat sezilarli darajada o'zgargan. Ular ona tillarini qo'llab-quvvatlash, uning ijtimoiy funktsiyalarini kengaytirishni nazarda tutuvchi milliy mafkuraga asoslangan til siyosatini amalga oshira boshladilar. Qator mintaqalarda o'z milliy tillarini davlat tili deb e'lon qilgan xalqlar ona tillarini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida endilikda qo'llay olishlaridan mamnun bo'lsalar, mazkur mintaqalarda yashovchi rusiy zabon aholi qatlami rus tilidan mahalliy tilga o'tishni ijobiy qabul qilishmadi. Buning sababi shunda ediki, ular aholining salmoqli qismini tashkil etsalar ham oldingi imtiyozlarga ega emas edilar. 1990-yillarga kelib, mazkur mintaqalardan Rossiyaga migratsiyaning oshishi ushbu o'lkalarda rusiy zabon aholining kamayishiga olib kelish bilan birga, o'lkada qolgan mazkur millat vakillarini lingvistik ozchilikka aylanishiga olib keldi.

Dunyoda titulli bo'lmagan tillarni markazlashtirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan birinchi urinish sifatida 1920-yillar va 1930-yillarning boshlarida sovetlarning tubjoylashtirish siyosati zamiridagi harakatlari qaralishi mumkin. Ammo mazkur siyosat olimlar kutganchalik natijalarni bermadi. Faqatgina XXI asrga kelibgina ushbu tendensiyadan kutilgan natijalar ko'plab mamlakatlar til siyosatida samarali amalga oshdi. Sovet til siyosati natijalarini XX asr oxirida yaratilgan ko'plab G'arb tadqiqotlarida salbiy baholanganligini kuzatishimiz mumkin.

XX asr oxirlariga kelib o'z mustaqilligini e'lon qilgan Respublikalarda til siyosatining milliy qadryatlarga tayanilgan, tolerantlik va demokratik tamoyillar asosidagi modellari ishlab chiqila boshlandi. Bu esa, ozodlikka erishgan mamlakatlarning Respublika hududida kelgusidagi til siyosatlarini tashkillashtirishlarida tamal toshi bo'lib xizmat qildi. Xususan, istiqlolni qo'lga kiritgan O'zbekiston til siyosatining samarali tashkillashtirilishida mustaqillikning ilk yillarida qabul qilingan davlat tili qonunlari, davlat tiliga oid normalarning Respublika bosh qomusi va boshqa tayanch qonun hujjatlarida belgilab qo'yilishi hozirgi kunga qadar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda 30 yil ichida barcha jabhada bo'lgani kabi siyosiy-ijtimoiy tizimda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Davlatimizning huquqiy asosini va kafolatlarini tashkil etuvchi, umumjahon demokratik talablariga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni bo'lmish Konstitutsiyasi istiqlolimizning ilk yillaridayoq qabul qilindi. Bosh Qomusimizning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili"⁹⁰ ekanligining belgilab qo'yilganligi ona tilimizning huquqiy mustahkamligini ta'minladi va rasmiy til

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Адолат, 1992. – Б. 4.

sifatidagi o‘rni, ahamiyatini yuksaltirdi. Keyinroq o‘zbek tili taraqqiyotida yana bir jiddiy o‘zgarish ro‘y berdi. Ya’ni yangi tahrirdagi O‘zRning “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu ona tilimiz rivoji yo‘lidagi ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan salmoqli hodisalardan biri bo‘ldi.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda butunlay yangi til siyosati shakllandi. Til taraqqiyoti bilan bog‘liq amaliy ishlarning salmog‘i yil sayin o‘tib, o‘zbek tili o‘z qaddini tikladi. So‘nggi yillarda ona tilimizga bo‘lgan e’tibor yana-da yuksalganligi o‘zbek tilining nafaqat xalqimiz orasida, balki jahonda ham nufuzi oshishini ta’minlamoqda. Mustaqillik yillarida o‘zbek tilini yuksaltirish borasida qator qonun hujjatlari qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilishi natijasida o‘zbek tili hozirda barcha sohalarida qo‘llanib, qamrovi kengayib bormoqda.

Holbuki, ajdodlarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog‘-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e’tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o‘n ikki darvozasiga berilgan chuqur m a’noli, go‘zal nomlarni olaylik. Samarqand, Beshyog‘och, K o‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Q o‘ymas, Q o‘ - qon, Qashqar darvoza degan nomlar avalam bor o‘zining aniq tarixiy-jug‘rofiy m a’nosi bilan ajralib turadi. Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, K o‘nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O‘qchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqim izning azaldan o‘troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo‘lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o‘rniga Mirobod, Rakat, Mingo‘rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi 92 asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta’kidlash joiz⁹¹.

Yurtimizda alifbo va imlo masalalari ham qizg‘in munozaralar bilan shakllanganligi barchamizga ma’lum. Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatda amalda kirill alifbosidan foydalanilar edi. Keyinroq lotin yozuviga o‘tish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Buning qator sabablari mavjud bo‘lgan. Jumladan, o‘zbek tilining imkoniyatlari kirill alifbosidan ko‘ra lotin yozuvida to‘laroq, kengroq ifodalanishida edi. Shunday qilib, mamlakatimizda 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni⁹² qabul qilindi. Unga ko‘ra, yurtimizda lotin alifbosida faoliyat olib borish belgilangan edi. Ko‘rsatilgan sanada “Lotin yozuviga asoslangan

⁹¹ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: “Маънавият”, 2008. — Б.67.

⁹² “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993-yil 2-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-112286?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida O'zR OKning Qarori⁹³ e'lon qilindi. Ushbu Qarorda lotin alifbosiga bosqichma-bosqich o'tish tartiblari belgilangan. Qaror 9 banddan iborat, unda lotin yozuviga o'tish masalalari aniq ko'rsatilgan edi.

1994-yil 16-iyunga kelib O'zbekiston Respublikasi VMning "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta'minlash yuzasidan davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"⁹⁴gi Qarori e'lon qilindi. Ushbu Qarorda ham lotin alifbosini joriy etish masalalariga bog'liq qator ishlar belgilangan edi.

O'zR Oliy Majlisi Qarori bilan 1995-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni⁹⁵ e'lon qilinib, unga muvofiq ayrim bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

1995-yil xuddi shu sanada O'zR Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqidagi O'zR Oliy Majlisi Qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"⁹⁶gi Qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra, oldingi nashrdagi ayrim bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi O'zR OK Qarorining 3-bandida: "1995-yil davomida o'zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqsin va O'zR VM muhokamasiga taqdim etsin"⁹⁷, – deb belgilab qo'yilgan edi. Shunga muvofiq, 1995-yil 24-avgustda O'zR VMning "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"⁹⁸gi Qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi.

Lotin yozuvini takomillashtirishga qaratilgan ishlar 1993-yildan 1996-yilga qadar jadal sur'atda davom etdi. 1996-yil 19-martda bu boradagi ishlarning so'nggi

⁹³ "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi O'zR OKning Qarori. 1993-yil 2-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-125418?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁹⁴ "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta'minlash yuzasidan Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zR VMning Qarori. 1994-yil 16-iyun. <https://lex.uz/uz/docs/-738439?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁹⁵ "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁹⁶ "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqidagi O'zR OK Qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zR Oliy Majlisining Qarori. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁹⁷ "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi O'zR OKning Qarori. 1993-yil 2-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-125418?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

⁹⁸ "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi O'zR VMning Qarori. 1995-yil 24-avgust. <https://lex.uz/uz/docs/-1625271?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

nuqtasi bo‘lib ko‘ringan yana bir qonun hujjati VMning “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishni ta‘minlash yuzasidan davlat dasturini tasdiqlash haqida 1994-yil 16-iyundagi 304-son Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”⁹⁹ O‘zR VMning Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda alifbo masalalarining mukammal ko‘rinishdagi yechimlari belgilangan edi. Keyinchalik ko‘rsatilgan yechimlar alifbo va imlo muammolarini bartaraf etish uchun yetarli emasligi ko‘rindi.

Keyingi yillarda kirill alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish muammosi bilan birga yurtimizda qabul qilingan lotin alifbosida ham qator kamchiliklar mavjudligi yuzaga chiqdi. Yillar davomida bir alifbodan boshqasiga o‘tishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilib kelindi, buning oqibatida qator muammolar haligacha yuzaga kelmoqda. O‘zbek-lotin alifbosining ham mukammal emasligi alifboni qo‘llashda muammolar shakllanishiga olib keldi. Aytishimiz mumkinki, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi boshidayoq muammoli bo‘lgan, ammo o‘sha davr nuqtayi nazaridan olganda alifbodagi harflar hech qanday munozaraga sabab bo‘lmaydi deb hisoblangan. Bugungi kunga kelib internet, texnologiyalar insoniyat hayotiga kirib kelgan paytda ushbu alifbodagi harflarning barchasi ham mukammal va qulay emasligi ko‘zga tashlandi. Respublikamizda lotin yozuvidagi ayrim harflar, jumladan, Sh, Ch, O‘, G‘ harflari xalqimiz orasida yozuv masalasida muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jihatlarni bartaraf etish uchun esa o‘zbek-lotin alifbosi islohotini o‘tkazish maqsadga muvofiq ekani, shu orqali alifbodagi ayrim harflar mukammallashtirilishi ko‘plab mutaxassislar tomonidan ta‘kidlanmoqda.

Alifbo islohi masalasi 2016-yildan boshlab respublikada ommaviy muhokamalarga sabab bo‘ldi. Hukumatimiz ham shu yildan til, alifbo va imlo masalalarida qator harakatlarni amalga oshirishni jadallashtirdi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi – bu ishlarning amaliy misoli.

Mamlakatimizda alifbo islohi masalasi ham ushbu universitetning tashkil etilishi bilan uzviy bog‘liq. Chunki muassasada respublikamizdagi yetakchi til va adabiyot namoyondalari o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Keyinchalik, davlatimiz tomonidan ularga mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib til, alifbo, imlo masalalaridagi yangicha takliflar ishlab chiqish, hukumatga taqdim etish borasida qator topshiriqlar berildi.

2018-yil 15-mayda O‘zbekiston Respublikasi VM tomonidan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini keng joriy etish va yana-da takomillashtirish bo‘yicha Harakatlar rejasi” tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

⁹⁹ “Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta‘minlash yuzasidan Davlat dasturini tasdiqlash haqida”gi 1994-yil 16-iyundagi 304-son Qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zR VMning Qarori. 1996-yil 19-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-399022?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

Shavkat Mirziyoyev huzurida 2018-yil 17-iyul kuni o'tkazilgan majlis bayonining 28-bandida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va uning qo'llanishini osonlashtirish, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga yana-da moslashtirish yuzasidan takliflar kiritish topshirildi. Ushbu jihatlar inobatga olinib, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzurida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini isloh qilish bo'yicha ishchi guruh tuzildi. Ishchi guruhga ikki yil davomida qator takliflar kelib tushdi. Ular asosida alifbo loyihasining bir necha varianti ishlab chiqildi.

Ona tilimizning ilmiy tadqiqi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan. Bu borada 2020-yil 11-martdagi O'zR VMning "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁰⁰gi Qarorini alohida qayd etib o'tish lozim. Ushbu Qarorda o'zbek tilining zamonaviy tadqiqi masalalari belgilangan. Jumladan, Qarorning 1-bandi bilan O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tuzilmasida sotsiologiya bo'limini tashkil etish to'g'risida me'yor belgilangan.

2019-yil 21-oktabrda ona tilimiz taraqqiyoti yo'lidagi eng muhim tarixiy hodisalardan biri ro'y berdi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁰¹gi Farmoni imzolandi. Ushbu Farmon bilan bo'g'liq ravishda, davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, qonun¹⁰² hahmda qaror¹⁰³lar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁰⁴gi Farmoni mamlakatimizda ona tilimiz taraqqiyotida eng yorqin sahifani ochib berdi va o'zbek tilining kelgusidagi rivojlanish strategiyalarini belgilab berdi.

Aytish mumkinki, mamlakatimizda istiqlolning ilk davrlarida qabul qilingan qonun hujjatlari o'zbek tilining rasman davlat tili ekanligi, ahamiyati, nufuzini

¹⁰⁰ "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zR VMning Qarori. 2020-yil 11-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-4759743?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁰¹ "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁰² "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2020-yil 10-aprel. <https://lex.uz/uz/docs/-4784608?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁰³ "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zR VMning Qarori. 2019-yil 12-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4640226?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili> // "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zR VMning Qarori. 2020-yil 29-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-4717157?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁰⁴ "Mamlakatimizda o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-yil 20-oktabr. PF-6084-son. <https://lex.uz/docs/-5058351>

tiklash va keyingi amaliy harakatlar uchun tamal toshi bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonunlar ona tilimizning qiyofasini butkul o'zgartirishga, imkoniyatlarini kengaytirishga, ilmiy-texnik bazasi yuqori, dunyoviy tillar qatoridagi tilga aylantirishga qaratilgan.

2.3. Yangi O'zbekistondagi ma'rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo'nalishlari

Mustaqil O'zbekistonning shakllanishi va rivojlanishi ta'lim sohasidagi muhim islohotlar bilan birga keladi. O'zbek tilining davlat tili sifatida ta'lim maqomini oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ldi. Ushbu ishda ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlari va ularning yangi O'zbekistonda o'zbek tilining mavqeini mustahkamlashga ta'siri muhokama qilindi.

O'zbek tili O'zbekiston ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida o'zbek tilidan foydalanish milliy o'ziga xoslik, vatanparvarlik va ona madaniyatiga hurmatni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu ijtimoiy mavqei va yashash joyidan qat'i nazar, mamlakatning barcha fuqarolari uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi.

1. Ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlari:

- Yangi O'zbekistonda ta'lim islohotlarining quyidagi yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda:
- O'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilash: zamonaviy o'qitish metodikasi va texnologiyalarini joriy etish, malakali pedagoglarni tayyorlash va o'zbek tilida zamonaviy o'quv materiallarini yaratish.

O'zbek tilini xalqaro ta'lim dasturlariga integratsiyalashuvi: o'zbek ta'lim muassasalarining xalqaro loyihalar va dasturlarda ishtirok etishi, bu esa o'zbek tilini jahon miqyosida targ'ib qilishga yordam beradi.

O'zbek tilini o'rganishga qiziqishni oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar faol joriy etilmoqda. O'quv jarayonini yanada interaktiv va qulayroq qilish uchun onlayn platformalar, mobil ilovalar va elektron darsliklar yaratilmoqda. Shuningdek, o'quvchilarni ona tilini chuqurroq o'rganishga undaydigan o'zbek tili bo'yicha tanlovlar va olimpiadalar kabi ommaviy ta'lim tadbirlari o'tkazilmoqda.

2. Universitetlar va ilmiy tadqiqotlarning roli

Oliy o'quv yurtlari o'zbek tilini rivojlantirish va targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Universitetlarda tilni o'rganish va ommalashtirishga, shuningdek uni o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, o'zbek tili va adabiyoti sohasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan kafedra va fakultetlar tashkil etilmoqda.

3. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik

O'zbekiston ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ushbu hamkorlik tajriba almashish va ilg'or ta'lim amaliyotlarini joriy etish imkonini beradi, bu esa o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilashga va uning jahon ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'zbek tilining davlat tili maqomini oshirishga qaratilgan. O'qitish sifatini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikka qaratilgan sa'y-harakatlar o'zbek tilining ta'lim tizimidagi mavqeini mustahkamlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat milliy madaniyat va o'ziga xoslikni rivojlantirishga, balki o'qimishli va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirishga ham yordam beradi.

O'zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni uch tamoyilga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo'yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga etarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi barobarida o'zbek tilining erkin muomalada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. Yurtimizning dunyoda rivojlangan mamlakat bo'lishi uchun biz davlat tilining maqomini ko'tarishga erishishimiz lozim.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining bu yilgi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'zbek tilida nutq so'zlagani ham davlatimiz tomonidan tilimizga berilayotgan e'tiborning tub mohiyatini ko'rsatib bermoqda. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'yi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanayotgani, xorijdagi qator ta'lim dargohlarida, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni ko'payib borayotgani buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ham davlat tilining huquqiy maqomi, amaliy ahamiyatini oshirish borasida navbatdagi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Zero, yurtda yashovchi har bir fuqaro, millati va dinidan qat'i nazar, davlat tiliga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatishga birdek mas'uldir. Butun mamlakat ahli davlat tilini birdek sevsa, qadrlasagina, u o'z maqomida mustahkam bo'ladi, rivojlanish sari dadil odimlab boraveradi.

Umuman, til – jamiyatning asosiy tayanchi, insoniy muloqot-munosabatlarning birlamchi vositasi, millat ruhi va davlatchilik taqdiridir. Har bir xalq va millat, davlat va jamiyatning o'tmishi, buguni va kelajagini, uning mavjudligini birgina omil – ona tili bildirib turadi. Zotan, til – muloqot zarurati tufayli yaralgan, muloqot jarayonida insoniyat yaratgan barcha yangiliklarni, tafakkur mevalarini anglatib, avloddan avlodga etkazib, avaylab-asrab keladi. Shunday ekan, tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, har birimizning dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qoladi.

O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizdan milliy tilga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etadi.

Dunyo miqyosida BMT tomonidan tan olingan 200 ga yaqin mustaqil davlatlar mavjud bo'lsa, ularda amalda qo'llanuvchi tillar 7000 tani tashkil etayotganligi soha mutaxasislari tomonidan e'tirof etiladi. Mazkur davlatlarning orasida yagona tilli mamlakat mavjud emas. Hattoki, ayrim mustaqil mamlakatlarda davlat tillari bir nechta tashkil etadi. Ko'plab davlatlarda rasmiy til maqomiga davogarlik qiluvchi mahalliy nufuzi yuqori tillar rasmiy tilga raqobat tug'dirib kelgan. Deyarli barcha mamlakatlarda bir nechta mahalliy tillar Respublika milliy etnik jamoalari tomonidan qo'llanishda. Aksar mamlakatlarda yuzlab mahalliy tillar mavjud bo'lib, ularda so'zlashuvchi aholi qatlamlari o'z tili bilan birga davlat tili maqomidagi tilni ham o'zlashtiradilar. Ko'plab mamlakatlarda milliy etnik ozchilik tillari rivoji uchun yetarlicha imkoniyat yaratib berilganligini ko'radigan bo'lsak, ayrimlarida kichik millatlarning milliy tillariga nisbatan olib borilayotgan salbiy til siyosati oqibatlarini ko'rishimiz mumkin. Qayd etish joizki, mamlakatdagi ko'ptillilik hukumat tomonidan yuqori samarali til boshqaruvini talab qiladi.

Hozirgi kunda Yer sharining turli hududlarida har xil tillarda muloqot qiluvchi 8 milliard kishi istiqomat qiladi. Ammo ular yuqorida ta'kidlangan 7000 ta tilning barchasida bir dek kommunikatsiyaga kirishmaydi. Insoniyat ushbu tillardan faqatgina 50 dan ziyodrog'ida faol so'zlashadi. Qolganlaridan esa ma'lum hududdagi kichik etnik guruhlar, jamoalar foydalanadi. YUNESKO xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyoda 6 912 ta tirik til mavjud. Ammo ularning katta qismi yo'qolish arafasida. Shu davrga qadar 516 ta til dunyo tillari qatoridan chiqib ketgan. Shuningdek, 2 500 dan ortiq til yo'q bo'lish xavfi ostida turgan til sanaladi¹⁰⁵.

Zamonaviy globallashtirilgan dunyoda til hodisalarini ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ular bilan hamohang ravishda yuzaga keladigan muammolar bilan

¹⁰⁵ Website: <http://www.unesco.org/culture/en/endangeredlanguages>
Interactive atlas: <http://www.unesco.org/culture/languages-atlas>

birga o'rganish ko'p jihatdan turli munosabatlarni o'rnatish, til va kommunikatsion xususiyatlarni belgilashga yordam beradi deb qayd etadi tilshunos Zaripov¹⁰⁶.

Qayd etish joizki, xalqaro miqyosida bo'lgani kabi, mahalliy doiralarda ham muayyan doiralarga mansub tillarning maqomi, nufuzi, qamrov doirasi o'zgarib bormoqda. Bugungi globallashu jarayonida ayrim tillarning funksiyalari kengaysa, ayrimlari ushbu raqobatga dosh berolmay vazifalari qisqarmoqda. Ya'ni dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, muayyan tillar xalqaro til maqomini qo'lga kiritish maqsadida shiddatli harakatlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, ayrim millatlararo muomala tillarining imkoniyatlari torayib bormoqda. Bunday bo'lishiga sabab, asosan, nufuzi oshayotgan yoki tushayotgan tillar vakillarining o'z tiliga bo'lgan e'tibori va yuksaltirishga bo'lgan harakatidir. Mahalliy miqyosida oladigan bo'lsak, muayyan davlat hududidagi mahalliy tillarning qo'llanish doirasi ayrimlari misolida kengayayotgan bo'lsa, ba'zilar misolida torayib bormoqda. Bu jihatlarni keng qamrovda tahlil etgan holda quyidagi tasnifni keltirishimiz mumkin.

Mahalliy tillar holati tasnifi: a) nufuzi va qamrovi o'sib borayotgan mahalliy tillar; b) o'z o'rnini saqlab qolayotgan mahalliy tillar; s) nufuzi va qamrovi torayib borayotgan mahalliy tillar. Ushbu jihatlarning voqelanishiga ta'sir etayotgan omillar quyidagilar: a) hukumatlar tomonidan mahalliy tillarning rivojlantirilishiga bo'lgan munosabat; b) muayyan mahalliy tilda so'zlashuvchilar sonining turli sabablarga ko'ra ortishi yoki pasayishi; s) mahalliy tillar lingvistik imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlantirib borilmayotganligi.

Bugungi kunga kelib, tillarning funksiyasi o'zgarib, nufuzi turli omillarga bog'liq ravishda tushmoqda yoki ortmoqda. Mahalliy tillarning mamlakatlar lisoniy manzarasidagi tutgan o'rni ham til so'zlashuvchilarining va hukumat rahbarlarining munosabatiga qarab o'zgarib bormoqda.

Til siyosati muammolarini tadqiqotchilar hukumatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy harakatlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqmoqdalar. Ijtimoiy munosabatlar hamda til siyosati muammolarining amaliy yechimida g'arb sotsiologlari J.Fishman, Ch.Ferguson, U.Ammonning til siyosati sohasidagi asarlari muhim hisoblanadi.

Ko'p tilli davlatlarda "Til siyosati har doim u yoki bu siyosiy yo'nalishning tarkibiy qismi bo'lib yuzaga chiqadi. Bu har xil davlatdagi muayyan sinflarga yoki ijtimoiy guruhlariga nisbatan ichki siyosat bo'ladimi yoki muayyan davlatlar, guruhlariga nisbatan tashqi siyosat bo'ladimi, ko'pincha shu holatda namoyon bo'ladi"¹⁰⁷. Izlanuvchilar shu omillarni inobatga olgan holda tadqiq jarayonida

¹⁰⁶ Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. 2021.- 15 b.

¹⁰⁷ Shveytser A.D. ko'rsatilgan manba. 148 -b.

zamonaviy ko'p millatli davlatlarning o'quv-amaliyotida qayd etilgan til siyosatining amaliy jihatlariga e'tibor qaratishlari lozim.

Odatda mahalliy tillarning barchasi ham mamlakat til siyosatida alohida ahamiyat kasb etavermaydilar. Davlatning lisoniy manzarasida o'lkadagi har qanday tilning o'rni muayyan darajada saqlanadi ammo bu muqum bo'lmasligi mumkin. Respublikada shunday mahalliy tillar ham bo'ladi, ushbu tillarning mamlakat lisoniy manzarasidagi ulkan o'rnini yo'qotishning imkoni bo'lmaydi. Manashunday tillar til davlat til siyosatida ham alohida yondashuvni talab qiladi. Bu xuddi xalqaro tillar me'zonlarida keltiriladigan tamoyillarga qiyoslanishi mumkin. Mahalliy tillarning mamlakat lisoniy manzarasidagi maqomini belgilashda ushbu tilning nutqiy voqelanish imkoniyatlari bilan bir qatorda yozma ifodalarining ham mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida O'zbekistonda mavjud mahalliy tillarga xos differensial va integral jihatlarni iyerarxik asosda baholaymiz, ba'zi parametrlar bo'yicha esa chog'ishtirma materiallarni keltiramiz. Avvalambor, mamlakatning lisoniy qiyofasida katta nufuzga ega bo'lgan, qamrov nuqtayi nazaridan eng katta ko'rsatkichga ega o'zbek tili haqida mulohazalarimizni ifodalashni joiz deb bildik. O'zbek tili Respublikada yuqori nufuzli, globalizatsiya va yuqori tezlikda rivojlanishning shiddatiga mos keluvchi, imkoniyatlari nuqtai-nazardan o'lkada tarqalgan boshqa tillardan yuqori turuvchi eng keng tarqalgan tildir. Ko'pchilik insonlarning fikricha, mamlakat hududida o'zbek tilini yetarlicha bilmasdan yaxshi ta'lim olish, muvaffaqiyatga erishish yoki yuqori lavozimlarga ko'tarilish murakkab.

Zamonaviy dunyoda tillarning yuksak mavqega yoki quyi maqomga erishishiga qanday omillar va holatlar sabab bo'ladi? Avvalambor tillarning yuksak mavqega erishishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqsak.

Yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy kommunikativ amaliyot rivojlangan tillarning boshqa tillarga kuchli ta'sir o'tkazishini ta'minlaydi. Masalan, tashqi ta'sirlarga nisbatan juda katta so'z boyligi, retseptivlik va moslashuvchanlik, moslik va o'tkazuvchanlik bu rivojlangan tillarning nafaqat yanada yuksak taraqqiyotiga, balki yangi hududlarni egallashiga imkon beradigan xususiyatlardir. Ko'plab olimlar insonlarning tilni tanlashdagi tanlovni belgilovchi asosiy omil "iqtisodiy tashabbus" ekanligini e'tirof etadilar. Muloqot va ishlash uchun odamlar ma'lum bir tilni qanchalik ko'p ishlatsa, bu shunchalik zarur bo'ladi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, globallashuv jarayoni turli mamlakatlarning iqtisodiyoti va siyosatida yagona tuzilmalarni shakllantirmaydi, balki "glokalizatsiya"ga olib keladi – "global madaniyat elementlarining mahalliy sharoit va mahalliy an'analarga moslashishi". Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy sharoitda globallashuv so'zsiz bo'ysunishni talab qilmaydi, lekin mahalliy-madaniy va til an'alarini tiklash va rivojlantirish uchun yangi tajriba, yangi bilimlarni hosil qilishni talab etadi.

Amaliy filologik tadqiqotlarga keng e'tibor qaratish, sotsiolingvistik izlanishlarni ko'paytirish dunyodagi tillarning holati, ularning real vaziyatdagi tadqiqi haqida xulosalar berishda muhim hisoblanib ular tadqiqotchini zaruriy faktlar bilan ta'minlaydi. "Til holati – bu ma'lum bir geografik mintaqalar yoki ma'muriy subyektlar chegaralarida bitta tilning yoki bir nechta tilning mavjud bo'lishi va turli shakllarining tarqalishi"¹⁰⁸.

Ma'lum bir tilning globalizatsiya jarayonida qay yo'sinda taraqqiy etayotganligini aniqlash uchun ushbu tilda so'zlashuvchilarning nutqiy faoliyatlari hamda zamonaviy o'zgarishlarning millat tafakkuriga ta'siri va bu o'zgarishlar jarayonining tilda aks etishi masalalarini aniqlash til tadqiqida ilmiy o'zgarishlarga yo'l ochadi deya qayd etadi tadqiqotchi Zaripov¹⁰⁹.

Odatda, rasmiy yoki tartibga solinadigan aloqa sohalarida u yoki bu darajada ishlatiladigan tillar til siyosatining asosiy obyektlaridan biri sifatida qaraladi. Bir yoki boshqa etnik guruh hududida davlat (yoki ma'lum bir sinf) tomonidan boshqarilayotgan va qo'llab-quvvatlanadigan tillar va ularning mavjudlik shakllarining yig'indisi til siyosatining funksional modellaridir. Aholining etnik tarkibi, turli etnik guruhlarining joylashish usullari, ona tiliga sodiqlik, qadriyat yo'nalishlari va boshqa ko'plab xususiy-ijtimoiy omillarni aniqlash til siyosati modellarini belgilaydi. "Mamlakatda huquqiy maqomni olgan tilning rivojlanish darajasi, ushbu tilning imkoniyatlari hamda funksionalligi muhim. Sotsiolingvistikada huquqiy maqom tushunchasi bilan bir qatorda, tilning "amaliy (funksional, kommunikativ) holati" tushunchasi mavjud. Bu tilning rivojlanish darajasini, uning turli aloqa sohalariga xizmat qilish qobiliyatini anglatadi"¹¹⁰.

Ma'lum mamlakat hududidagi mavjud millatlarning tillari mazkur davlatda biror tilga rasmiy til maqomini berishda hisobga olinishi darkor. Muayyan respublikada rasmiy tilni belgilashda qator mavjud omillarni hisobga olish va bir nechta ilmiy, huquqiy tamoyillarga tayanish lozim. Chunki rasmiy til sifatida tan olinajak til kelgusida mazkur mamlakat til siyosatini amalga oshirishda, hukumat faoliyatini samarali yuritishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunda avvalambor, davlatdagi eng ko'p so'zlashuvchilariga ega tilga e'tibor qaratiladi. Mazkur maqomdagi til aniqlangach shu tilning imkoniyatlari rasmiy til maqomi darajasiga javob berish-bermasligi baholanadi va u qo'yilgan talablarga javob bersa mamlakatning rasmiy tiliga aylanadi. Ko'p millatli davlatlarda doim ham bir tekisda amalga oshmaydigan bu jarayon. bir millat ko'pchilik bo'lib istiqomat qiluvchi mamlakatlarda qiyinchiliksiz amalga oshadi.

¹⁰⁸ Словар социоллингвистических терминов // Отв. ред. Михалченко В.Ю. – М., 2006. – С. 266.

¹⁰⁹ Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. 2021.- 21 b.

¹¹⁰ Zaripov R.E. Ko'rsatilgan manba. 23 b.

Odatda til siyosatini tashkillashtirish bir millatning tili yaqqol ustun bo'lgan mamlakatlarda osonroq kechadi. Garchi muayyan davlatda nufuzi va qamrovi jihatdan yuqori millatning tili rasmiy til maqomini olgan bo'lsa ham, ko'p millatli davlatlarda bu jarayon aksar hollarda qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi va ularda olib boriladigan til siyosati alohida e'tiborni talab qiladi. Etnik va til xilma-xilligi kuzatiladigan har qanday mamlakatda ikki yo'nalishni amalga oshirish uchun ijtimoiy ehtiyoj mavjudligini qator soha mutaxasislari ta'kidlashadi: 1) mamlakat aholisi va davlatning til birligi. Bu real hayot bilan bog'liq, mamlakat aholisi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqishda ishtirok etishi munosabati bilan doimiy aloqalarni talab qiladi; 2) til jamoalarining o'zlarining milliy tili va milliy madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirish istagi¹¹¹. Ushbu ikki qarama-qarshi yo'nalishni muvaffaqiyatli, ziddiyatsiz til boshqaruvi olib borishda, jamiyatning tilga ongli ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonlarida hisobga olish lozim.

Shu o'rinda O'zbekistondagi lisoniy vaziyat, mamlakatdagi tillarning maqomi, mahalliy tillar siyosati, ularning aholi qatlamlari nutqida qo'llanish darajasi masalalariga e'tibor qaratsak.

“Istiqlol davri tahlil qilinganda siyosiy jarayonlarda o'zbek va rus tillarini biluvchi shaxslar faolligi, maishiy sharoitda o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz va boshqa mahalliy tillarni bilish muhim ahamiyat kasb etganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Diniy yo'nalishda esa o'zbek, tojik, arab tillari alohida ahamiyat kasb etdi. Ilm-fan, ta'lim, texnika, sog'liq, iqtisod, turizm va boshqa zamonaviy sohalarida ingliz, rus, o'zbek tillarini bilish muhim o'ringa chiqdi va shu tillarni ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o'rganish yuksaldi”¹¹².

Ona diyorimiz azaldan ko'p millatli bo'lib kelganligi tufayli aholi ham shunga mos ravishda ko'p tilli bo'lib kelgan. Hozir yurtimizda istiqomat qilayotgan millat va elat vakillariga har tomonlama ko'mak berish maqsadida 139 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat olib bormoqda. Respublikamizda millatlar ko'p ammo ular qo'llaydigan tillarning barchasi ham keskin farqlilik kasb etmaydi. Xususan, mamlakatimizda mavjud millat yoki elatlar tillarining 15–20% muayyan darajada farqlilik kasb etadi. Qayd etish joizki, diyorimizda quyiroqda keltirilajak jadvaldagi millatlar tillari istiqlool davrida ham o'z maqomini saqlab kelmoqda. Ammo ularning ayrimlari tobora yo'qolish sari yuz tutayotganligi fakt. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz lisoniy manzarasi ilg'or tajribalarga asoslangan tadqiqotga muhtoj ekanligini bugungi sivilizatsiya va globallashtirish ko'rsatmoqda.

Mustaqillikning ilk yillarida davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, harbiy faoliyat, iqtisodiyot kabi sohalarida rus tili o'zbek tili bilan teng qiymatda bo'lgan. Aslida esa, mamlakatimizda o'zbek tilining nufuzini ko'tarishga qaratilgan ishlar

¹¹¹ Zaripov R.E. Ko'rsatilgan manba. 24 b.

¹¹² Zaripov R.E. Ko'rsatilgan manba. 100 b.

ko'plab amalga oshirilgan. Respublikada mavjud millatlarning katta qismi o'zaro muloqotda asosan rus tilidan foydalanar edi. O'zbek tilining o'z mavqeyiga ega bo'lishi hamda barcha sohalarga kirib borishiga milliy tilimiz yuksalishi yo'lida qilingan amaliy harakatlar sabab bo'ldi. Jumladan, ta'lim sohasida istiqloq yillarida ta'lim tili sifatida o'zbek tilining boshqa tillarga nisbatan ko'rsatkichi oshib bordi. Shu bilan bir qatorda mamlakatdagi boshqa tillarning maqomi qonunan belgilab qo'yildai. Xususan rus tilining rasmiy yoki millatlararo til maqomi yo'qoldi va ushbu til ham mamlakatdagi boshqa tillar bilan bir darajada ko'rila boshlandi.

O'zbekistonning lingvistik muhiti keng, unda bir necha til alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni mazkur tillardagi so'zlashuvchilar mamlakat aholisining salmoqli qismini tashkil qiladi. Shu sababdan ham til siyosatida ushbu tillar boshqaruviga alohida e'tibor qaratiladi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston til siyosatida alohida e'tibor talab qiluvchi tillar umumlashmasini ko'rishimiz mumkin:

Quyida mamlakatimiz til vaziyatida o'zining muhim ulushiga ega bo'lgan millatlar tillarining ta'lim tizimidagi holatiga va respublikamizdagi ta'lim tillari siyosatiga e'tibor qaratamiz.

Respublikamiz umumta'lim maktablarida ta'lim 7 tilda olib borilmoqda. Ular 7 tildagi darsliklar bilan to'liq ta'minlangan. Mamlakatdagi ta'lim tillari manzarasi quyidagicha ko'rinishda: "2018–2019-o'quv yili davrida umumiy maktablar soni 9691 taga yetgan. Umumiy o'quvchilar soni esa 5 821 861 nafarni tashkil etgan"¹¹³. "Ta'lim tillari bo'yicha o'quvchilar soni: umumiy 5 821 861 nafar, o'zbek tilida 4 981 511 nafar (85,6%), qoraqalpoq tilida 115 656 nafar (2%), rus tilida 581 881 nafar (10%), qozoq tilida 54 926 nafar (1,0%), tojik tilida 69 385 nafar (1,2%), qirg'iz tilida 7 859 nafar (0,1%), turkman tilida 10 643 nafar (0,2%)ni, ta'lim tillari bo'yicha maktablar soni o'zbek tilida 8 853 ta, qoraqalpoq tilida 366 ta, rus tilida 862 ta, qozoq tilida 370 ta, tojik tilida 244 ta, qirg'iz tilida 42 ta, turkman tilida 43 tani tashkil etgan"¹¹⁴. 2020-2021 o'quv yili hisobiga ko'ra mamlakatimizda ta'lim tillari bo'yicha maktablar soni Qoraqalpoq tili 245 ta; Qozoq tili 143 ta; Rus tili 88 ta; Tojik tili 92; Turkman tili 23 ta; Qirg'iz tili 21 tani tashkil etadi¹¹⁵. Umuman olganda umumta'lim muassasalari 2018/2019- o'quv yili boshiga – 9774 tani tashkil etgan bo'lsa 2022/2023- o'quv yili boshiga – 10522 taga yetgan¹¹⁶. Ta'lim tillarida tehsil olayotgan o'quvchilar soni esa 2021-2022-o'quv yili boshiga ko'ra rus tili – 643 ming, qoraqalpoq tili – 126 ming, tojik tili – 65 ming, qozoq tili – 54 ming,

¹¹³ <https://m.kun.uz/uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-bor-va-ularda-necha-nafar-oquvchi-ta'lim-oladi>

¹¹⁴ <https://m.kun.uz/uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-bor-va-ularda-necha-nafar-oquvchi-ta'lim-oladi>

¹¹⁵ <https://uzedu.uz/uz/page/statistics>

¹¹⁶ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/33566-maktablar-soni-so-nggi-5-yilda-748-taga-ko-paygan>

turkman tili – 11 ming, qirg‘iz tili – 8,2 ming, ingliz tili – 1,5 ming nafarni tashkil etgan¹¹⁷

Respublikamizdagi lisoniy vaziyatni belgilashda yuqoridagi tillar katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizdagi lisoniy vaziyatni o‘zida jamlagan xalqaro tashkilotlar ma’lumotlaridan ham buni anglash mumkin. Etnolog¹¹⁸ va Jahon faktlar kitobi¹¹⁹da keltirilgan O‘zbekistonda mavjud tillar haqidagi faktlarni quyidagi jadvalda keltiramiz:

O‘zbek jamiyatida qayd etilgan tillarning roli va nufuzi yuqori. Ammo til siyosatida ularga alohida normalar belgilanmagan bo‘lib, mazkur tillarni rivojlantirish asosan ushbu tillar vakillari hamda ular tomonidan tashkil etilgan milliy-madaniy markazlar zimmasiga yuklangan. Xolisona aytganda mamlakat til siyosatida mahalliy tillardan faqatgina ta’lim tillaridagina mavjud bo‘lgan tillarga e’tibor qaratilgan. Qonun hujjatlarida ushbu til vakillarining ta’lim olish huquqlarini qondirish va ularni yetarlicha resruslar bilan ta’minlash masalalari nazarda tutilgan.

Yuqoridagi qarashlarimizga muvofiq tarzda O‘zbekistonda tillararo munosabat va ularning siyosatini amalga oshirishda amal qiluvchi qonun hujjatlari mazmuniga qisman e’tibor qaratsak. Biz dissertatsiyamizning boshqa qismlarida mamlakatimizda til boshqaruvini olib borishda tayanilishi lozim bo‘lgan, shu kunga qadar mamlakatda qabul qilingan tilga oid qonun hujjatlarining bir qator jihatlariga e’tibor qaratdik. Mazkur o‘rinda esa til siyosatini amalga oshirishda muayyan darajada ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, davlat tili, mamlakatdagi mahalliy tillar va ulardan foydalanish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladigan hukumat tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatiga to‘xtalamiz. Bunda ta’sir doirasi va qamrov iyrarxiyasiga qarab qonun hujjatlari tahlili amalga oshiriladi.

Til siyosatining asosini tashkil etuvchi tayanch normative hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining reklama to‘g‘risidagi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

Quyida qayd etilgan normative hujjatlarning til siyosatida tutgan o‘rniga birma-bir to‘xtalsak.

Davlatning bosh qomusi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatning barcha qatlamlari va barcha tarmoqlari uchun asosiy qomus

¹¹⁷ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23520-o-quvchilar-maktabda-ko-proq-qaysi-xorijiy-tillarni-o-rganmoqda>

¹¹⁸ <https://www.ethnologue.com/country/UZ>

¹¹⁹ <https://www.cia.gov/the-world-factbook/>

hisoblanadi. Mazkur Konstitutsiyada davlatchilikni belgilovchi jihatlar, huquq va majburiyatlar, erkinliklar, milliy-madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy me'yorlar aks etgan. Xususan, davlatning ramzlari sirasida qaraluvchi rasmiy til ham belgilab qo'yilgan. Ya'ni, o'zbek tilining davlat tili maqomi Konstitutsiyaning 4-moddasida belgilab qo'yilgan¹²⁰. Bu esa, mamlakatdagi til siyosati tashkil etilishining tamal toshi sanaladi. Til siyosatidagi belgilanajak mezonlar manashu modda asosida shakllantiriladi. Aytish mumkinki, mamlakatning til siyosati keng ko'lamli tarmoq bo'lsa uning asosini manashu konstitutsiyaviy me'zon tashkil etadi.

Til siyosatida ushbu hujjat bilan bir maqomda turuvchi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"¹²¹gi qonuni mamlakatdagi til boshqaruvini olib borishda tayanch me'yoriy hujjat sanaladi. Mazkur qonunda davlat tili maqomi, qo'llanilishi, amaliyoti va mamlakatdagi boshqa tillarning holati, ularning qo'llanilishi hamda rivojlantirilishiga doir me'yorlar belgilangan. Xususan davlat tili hisoblangan o'zbek tilining mamlakat miqyosida qo'llanishiga oid me'yorlar belgilangan. Shu bilan birga respublikada til siyosati o'zbek tilida olib borilishi qonunan asoslangan. Davlat tili siyosatiga doir me'yorlar kiritilishi bilan bir qatorda, mazkur qonunda mamlakatdagi boshqa tillar siyosatiga doir me'yorlar ham belgilangan. Jumladan qonunning 6, 10, 11, 12, 14, 16, 20, 21, 24-moddalarida davlat tiliga tegishli me'yorlar belgilanish bilan bir qatorda mamlakatdagi boshqa tillarning qo'llanilishi, rivojlantirilishi hamda amaliyotiga doir normalar kiritilgan. Xususan 6-moddada ta'lim olish tilini erkin tanlashmumkin ekanligi va davlat davlat tili va boshqa tillarda ta'lim olinilishi uchun zarur sharoitlar yaratishga ma'sul ekani belgilangan. Qonunning 10-moddasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari ish yurituvchi davlat tilida olib borilishi, lingvistik muhitga qarab boshqa tillarda ham olib borilishi mumkin ekanligi belgilangan. Qonunning 11-moddasida sudlov ishlarida davlat tili qo'llanilishi, zaruratga qarab boshqa til qo'llanilishi belgilangan bo'lsa, 12-moddada notarial hujjatlar davlat tilida yoki rus tilida va boshqa tilda olib borilishi belgilangan. Qonunning 14-moddasida davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi belgilangan bo'lsa, 16-moddasida televideniye va radio eshittirishlari til erkinligi belgilangan.

Til siyosatida davlatdagi yozuv masalalarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"¹²²gi qonuni asosiy normative hujjat sifatida qaraladi. Ushbu qonunga mamlakatdagi alifbo masalalarini tartibga solishga doir me'yorlar kiritilgan.

¹²⁰ <https://lex.uz/docs/-20596?ONDATE=09.02.2021%2001>

¹²¹ <https://lex.uz/docs/-121051>

¹²² <https://lex.uz/docs/-116158>

Til siyosatida muhim ahamiyat kasb etuvchi navbatdagi me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni bo'lib, ushbu qonunda mamlakatda mavjud ta'lim tillari maqomi me'yorlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunining 33-moddasi ta'lim berish tiliga bag'ishlangan bo'lib, unda quyidagi me'yorlar belgilangan: "ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi"¹²³. Bundan xulosa qilish mumkinki, ushbu qonunda ta'lim tillari masalalari "Davlat tili haqida"gi qonunga muvofiq tartibga solinishi belgilangan.

Til siyosatida til qo'llanishlarini tartibga soluvchi yana bir me'yoriy qonun O'zbekiston Respublikasining reklama to'g'risidagi qonuni hisoblanib, mazkur qonunda reklama tiliga oid me'yorlar belgilangan. Xususan, qonunning 6-moddasi reklama tiliga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi hududida reklama O'zbekiston Respublikasining davlat tilida tarqatilishi belgilangan¹²⁴ va reklama mazmuni tarjimasiga doir bir nechta talablar ko'rsatilgan.

Til siyosatida til me'yorlarini buzganlik uchun jazo choralari belgilovchi asosiy me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bo'lib, unda til me'yorlarini buzgan fuqarolarga nisbatan belgilanadigan jazo choralari keltirilgan. Xususan kodeksning 42-moddasida davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni buzish oqibatlari quyidagicha ifodalanadi: "fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi"¹²⁵.

Shu o'rinda qayd etishimiz lozimki, mamlakatlarda til siyosatining uch darajali tashkillashtirilishi mavjud bo'lishi mumkin: 1. hukumat tomonidan amalga oshiriladigan til menejerezatsiyasi; 2. mahalliy organlar tomonidan amalga oshiriladigan til menejerezatsiyasi; 3. muayyan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan til menejerezatsiyasi. Hududiy nuqtai-nazardan ham ushbu taqsimotni 3 guruhga ajratish mumkin: 1. respublika miqyosidagi til menejerezatsiyasi(bu yuqoridagi tasnifning 1-siga mos keladi); 2. viloyat, tuman, shtat, provinsiya miqyosidagi til menejerezatsiyasi(bu yuqoridagi tasnifning 2-siga mos keladi); 3. korxona, tashkilot, jamoat miqyosidagi til menejerezatsiyasi(bu yuqoridagi tasnifning 3-siga mos keladi); O'zbekistonda ham til siyosati qayd etilgan 3 darajada tashkillashtiriladi. Albatta bunda 1-darajadagi boshqaruv obyektlarining ta'sir

¹²³ <https://lex.uz/docs/-5013007>

¹²⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>

¹²⁵ <https://lex.uz/docs/-97664>

doirasi qolgan ikki darajada shakllantiriladigan obyektlar ta'sir ko'lamidan farqlanadi. Ammo 2-3-darajalardagi predmetlar yaxlid holda 1-darajadagi mexanizmni shakllantiradi va amaliyotini voqelantiradi. Shu bilan bir qatorda ushbu darajalarda shakllantiriluvchi menejerezatsiya bir-biriga zid bo'lmaydi, aksincha bir-birini to'ldiradi. Ularning til jihatlari ham O'zbekiston miqyosida o'zaro mutanosib bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'zbek tilining davlat tili maqomini oshirishga qaratilgan. O'qitish sifatini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikka qaratilgan sa'y-harakatlar o'zbek tilining ta'lim tizimidagi mavqeini mustahkamlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ushbu islohotlar nafaqat milliy madaniyat va o'ziga xoslikni rivojlantirishga, balki o'qimishli va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirishga ham yordam beradi. O'zbek tili O'zbekiston ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida o'zbek tilidan foydalanish milliy o'ziga xoslik, vatanparvarlik va ona madaniyatiga hurmatni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu ijtimoiy mavqei va yashash joyidan qat'i nazar, mamlakatning barcha fuqarolari uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi.

XX asr oxirlariga kelib o'z mustaqilligini e'lon qilgan Respublikalarda til siyosatining milliy qadryatlarga tayanilgan, tolerantlik va demokratik tamoyillar asosidagi modellari ishlab chiqila boshlandi. Bu esa, ozodlikka erishgan mamlakatlarning Respublika hududida kelgusidagi til siyosatini tashkillashtirishlarida tamal toshi bo'lib xizmat qildi. Mahalliy doiralarda tillarning maqomi, nufuzi, qamrov doirasi o'zgarib bormoqda. Mahalliy tillar holatini quyidagicha tasniflashimiz mumkin: 1. nufuzi va qamrovi o'sib borayotgan mahalliy tillar; 2. o'z o'rnini saqlab qolayotgan mahalliy tillar; 3. nufuzi va qamrovi torayib borayotgan mahalliy tillar. Ushbu jihatlarning voqelanishiga ta'sir etayotgan omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1. hukumatlar tomonidan mahalliy tillarning rivojlantirilishiga bo'lgan munosabat; 2. muayyan mahalliy tilda so'zlashuvchilar sonining turli sabablarga ko'ra ortishi yoki pasayishi; 3. mahalliy tillar lingvistik imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlantirib borilmayotganligi.

III BO‘LIM.

Ma’naviy taraqqiyot jarayonida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirishning muhim omillari

3.1. Yangi O‘zbekistondagi ma’rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo‘nalishlari

Jamiyatimiz ma’naviy hayotidagi innovasion jarayonlar – davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish omili O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘ldi, bu milliy o‘ziga xoslik va ma'naviy tiklanishni mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi. O‘zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

1. Ma'naviy omillar va ularning tilning ta'lim holatiga ta'siri

1.1. Milliy o‘ziga xoslik va vatanparvarlik

Milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishda o‘zbek tili muhim rol o‘ynaydi. Madaniy va ma'naviy qadriyatlar til orqali uzatiladi, bu vatanparvarlik va Vatanga muhabbatni mustahkamlashga yordam beradi.

1.2. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning roli

O‘zbek tilini ommalashtirishga qaratilgan ommaviy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uning tarbiyaviy maqomiga hissa qo‘shmoqda. Ushbu tadbirlar ona tili va madaniyatiga hurmatni shakllantiradi.

2. Ta'lim islohotlari o‘zbek tili maqomini oshirish omili sifatida

2.1. O‘zbek tilini o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar

Ta'lim tizimidagi islohotlar o‘zbek tilini o‘qitish sifatini yaxshilashga qaratilgan. O‘qitishning innovatsion usullarini joriy etish va malakali o‘qituvchilarni tayyorlash tilni o‘rganishga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

2.2. Davlat tili ta'limi

Davlat tili ta'limining zamonaviy dasturlarini ishlab chiqish o‘zbek tilining tarbiyaviy maqomini mustahkamlashga, uning ijtimoiy hayotning turli sohalarida faol foydalanilishini ta'minlashga yordam beradi.

3. Ijtimoiy-madaniy omillar

3.1. Adabiyot va san'at

O‘zbek tilidagi adabiy asarlar va san'at axloq va ma'naviyatni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular yoshlarda o‘z tili va madaniyati bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi.

3.2. Ommaviy axborot vositalari

Televideniye, radio va Internet platformalari kabi ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili va uning tarbiyaviy funksiyalarini ommalashtirishga faol hissa

qo'shmoqda. Bu ijtimoiy ongni shakllantirishga va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ma'naviy rivojlanish jarayonida o'zbek tilining davlat tili sifatida tarbiyaviy maqomini oshirish turli omillarning o'zaro ta'sirini talab qiluvchi kompleks vazifadir. Ta'lim islohotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ijtimoiy-madaniy tashabbuslar milliy o'ziga xoslik va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish barkamol va ma'naviy boy jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Ma'naviy taraqqiyot jarayonida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirishning muhim omillari sifatida Davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari, amaliy manbalari tahliliga o'tishdan avval davlat tili siyosatida asos bo'lib xizmat qiladigan "Davlat tili haqida"gi Qonunda e'tibor qaratilgan masalalar ularning lingvistik, huquqiy asoslari va amaliy manbalari masalasiga hamda ushbu jihatlar mazkur qonunning qabul qilinishida qanchalik ahamiyat kasb etganligiga e'tiborimizni qaratishni joiz deb bildik.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviymadaniy islohotlarimiz quyidagi masalalarni o'z oldiga dolzarb vazifa sifatida qo'yimoqda: birinchidan, mamlakatimizda ma'naviy-madaniy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish; ikkinchidan, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish; uchinchidan, bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish va "nutq madaniyati" bo'yicha kurslarni tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish; to'rtinchidan, adabiyot hamda san'at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o'tkazish; beshinchidan, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman (shahar) miqyosidagi festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llabquvvatlash; oltinchidan, ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiymadaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

Farmonini imzoladi. Ushbu farmonning qabul qilinishi xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarga alohida to'xtalib o'tadi: "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ham g'oyat muhim ahamiyatga ega"¹²⁶.

Har qanday xalqning, jamiyatning a'zolari ongida ma'naviy-madaniy saviya va salohiyatni yuksaltirish, ularning dunyoqarashini va tafakkurini o'stirish bugungi kunda mamlakat rivojida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu masala xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim"¹²⁷

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilning 22-dekabrda Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisida ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish borasida quyidagi ishlarga e'tibor qaratilishi ta'kidlandi¹²⁸: Birinchidan, yoshlar tarbiyasida mahalla faollari, nuroniylarning e'tiborini kuchaytirish; Ikkinchidan, madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda hokimlarning mas'uliyatini keskin oshirish, Uchinchidan, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g'oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san'atining o'rnini oshirish; To'rtinchidan, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish; Beshinchidan, maqom va baxshichilik san'atini rivojlantirish, ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an'analarni ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytirish; Oltinchidan, milliy madaniyatimiz rivojida muhim o'ringa ega bo'lgan musiqa va raqs san'atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; Yettinchidan, xalqaro maydonda o'zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish; Sakkizinchidan, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish; To'qqizinchidan, tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirish. Yuqorida keltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda ma'naviyat

¹²⁶ Oqyo'lova G. Yangi o'zbekistondagi madaniy-ma'rifiy islohotlar// YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/yo 128-131-betlar

¹²⁷ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 yil 21 dekabr, №272 (8334).

¹²⁸ Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr. www.president.uz.

targʻibotchilarining ham oʻrni katta. Bugunga kelib maʼnaviy sohadagi voqelik va jarayonlarni tartibga solish ehtiyojini qondirish muhim va dolzarb sanaladi.

Shu oʻrinda biz mazkur muhim vazifalar qatoriga oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini koʻtarish masalasini ham qoʻshgan boʻlardik, zero davlat tili maʼnaviyat targʻiboti, maʼrifiy islohotlar uchun muhim vosita hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ochilishiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Biz maʼnaviyat va maʼrifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, maʼnaviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi koʻradi. Vijdon, maʼnaviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir¹²⁹” Keyingi yillarda jamiyatning davlat tili haqidagi tasavvurlari oʻzgarmoqda.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 1-moddasida Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tili¹³⁰ ekanligi belgilab qoʻyilgan. Mazkur moddada davlat tilining lingvistik asoslari, amaliy manbalariga aloqador jihat mavjud emas. Faqatgina normative asosiga eʼtibor qaratilgan. Bu esa Konstitutsiyaning 4-moddasiga tayanilgan holda belgilangan¹³¹. Shuningdek, ushbu modda kiritilishi natijasida Oʻzbekiston til mustaqilligini qonuniy mustahkamladi. Ushbu qarash Qonunning 2-3-moddasiga ham tegishli boʻlib, mazkur moddalarda ham davlat tili va Respublikada tarqalgan boshqa tillarning huquqiy meʼyorlari belgilangan va bu meʼyorlarning belgilanishida Konstitutsiya moddalariga tayanilgan.

Qonunning 4-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasida davlat tilini oʻrganishda barcha fuqarolarga shart-sharoit yaratish hamda uning hududida yashovchi millat va elat tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda boʻlish taʼminlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi”¹³² deb belgilab qoʻyilgan boʻlib, mazkur modda asosida oʻquv muassasalarida oʻzbek tili va mamlakatdagi boshqa tillarni oʻrgatish ishlari yoʻlga qoʻyilgan. Lekin oʻqitish muassasalarida ajratilgan soatlardan tashqari nafaqat oʻzbek tili balki mamlakatdagi boshqa tillarni oʻrgatish borasida yetarlicha til oʻrgatish markazlari faoliyat olib bormaydi. Faqatgina turli toʻgaraklar, madaniy markazlar qoshida muayyan til

¹²⁹ Yangi Oʻzbekistonda erkin va farovon yashaylik (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga doir konseptual gʻoyalari va tavsiyalari)Uslubiy qoʻllanma – Toshkent: Lesson press, 2022.–B. 122.

¹³⁰ “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuniga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 21-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹³¹ О‘збекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 1992. – Б. 4.

¹³² “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuniga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 21-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

o'rgatishga qaratilgan kurslar tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin. Nazarimizda xususan, o'zbek tilini nafaqat mamlakatda balki, o'zbek diasporalari keng tarqalgan jahon mamlakatlarida ham o'rgatish faoliyatlarini yo'lga qo'yish darkor. Bu esa mazkur moddaga asoslangan qonun osti hujjatlarida belgilab qo'yilmog'i lozim. Shu bilan birga til o'rgatish mexanizimlari, metodologik asoslari qonun osti hujjatlarida aniq belgilab berilmog'i darkor. Shuningdek, mazkur moddada tillarni rivojlantirish shart-sharoitlari ham davlat tomonidan ta'minlanishi nazarda tutilmoqda. Bu ijobiy jihat ammo tillarni rivojlantirish uchun faqatgina o'quv muassasalarida kvotalar ajratish yetarli emas. Til taraqqiyoti uchun bugungi kunda talab etiladigan jihatlar oshib bormoqda. Bularni hamohanglikda olib bormaslik tilning yetarlicha rivojlanmasligiga olib kelishi tabiiy. Qonunning 5-6-moddalarida ham davlat zimmasidagi ishlar belgilangan.

“Davlat tili haqida”gi Qonunda adabiy til masalasiga ham to'xtalinadi. Qonunning 7-moddasida: “Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi”¹³³, – deb belgilab qo'yilgan. Bu esa o'zbek adabiy tilining rasman davlat tilida ish olib borilishi lozim bo'lgan o'rinlarda qat'iy amal qilinishini ko'rsatadi. Ammo nazarimizda davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralar, o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalari tushunchalari mavhum. Qonunda yoki qonun osti hujjatlarida mazkur jihatlar aniq ochib berilishi va bu jihatlarning so'zsiz ta'minlanishi qonunda aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bu yerda lingvistik va me'yoriy asoslar aniq bayon etilmagan. Birgina o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalari sohaga doir manbalarda ayrim farqli farazlar bilan keltirilgan. Bu jihat ilmiy nuqtai-nazardan aniq belgilanishi zarur. Shu bilan birga amal qilish me'yorlari, amal qilinmagan hollarda qat'iy choralar ko'rish masalalari normative hujjatlarda aniq berilishi lozim. Hozirgi kunda manashu jihatlar mavhumligi tufayli rasmiy til amal qilishi lozim bo'lgan OAVlarda, hattoki, mansabdor shaxslarning nutqida adabiy til normalariga amal qilinmaydigan holatlar ortib ketdi.

Qonunning 7-moddasida ta'kidlanadi: “Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi”¹³⁴. Demak, o'zbek tilining boyishi davlat tomonidan nazorat qilinadi. Bu bandda ham lingvistik va huquqiy mavhumlik ko'zga tashlanadi. O'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishi ta'minlanishi masalasi yanada oydinlikni ta'lab qiladi. Bu esa mazkur qonun va qonun osti hujjatida belgilanishi lozim. Shuningdek, unga hamma

¹³³ Ko'rsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹³⁴ Ko'rsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

e'tirof qilgan ilmiy- texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalar qabul qilinishi belgilangan. Vaholangki, termin qabul qilishning boshqa me'zonlari ham mavjud.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 7-moddasida yangi qabul qilinadigan terminlar, soʻzlar yuzasidan toʻxtalinar ekan, quyidagi asosiy fikrlar belgilab qoʻyilgan: “Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qoʻmitasining roziligi bilan oʻzbek tiliga joriy etiladi”¹³⁵. Bu e'tirof etilishi kerak boʻlgan jihat. Ammo hozirda mazkur band amaldamikan deb hayratlanasan kishi. Huquqiy tomondan juda ham yaxshi me'zon. Ammo amaliy jihatdan tartibga solinmagan, talab darajasida amalga oshirilmagan iddao. Bunga uchta jihatni koʻrsatishni oʻzi yetarli. 1-dan 2019-yilga qadar respublikada terminologiya qoʻmitasi tashkil etilmagan. Qayd etilgan yilda shakllantirilgan boʻlsada, mazkur tuzilma faoliyati risoladagidek emas. 2-dan atamalar jamoatchilik muhokamasiga qoʻyilmaydi, bunday platform yoʻq; 3-dan oʻzbek tilining leksik qatlami ushbu bosqichlardan oʻtkazilmagan atamalar bilan boyib ketdi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunda hokimiyat va boshqaruv tili haqida ham qator fikrlar bildirilgan. Qonunning 8-, 9-, 10-, 11-, 12-moddalarida davlat boshqaruvi, hukumat qarorlari, farmonlari, barcha boshqaruv organlari, sudlov idoralari, notarial hujjatlar, turli tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, jamoat birlashmalari davlat tilida ish yuritishlari belgilab qoʻyilgan. Bu borada ham normative jihatdan belgilangan me'zonlarning amaliyoti, javobgarligi, qonun buzilishlari oqibatlari aniq belgilanmagan. Buning oqibatida istiqlolning ilk yillarida qonun hujjatlarining ham rus tilida qabul qilinish holatlari, hozirgi kunga qadar qonunda qayd etilgan tuzilmalar ham rasmiy tilning yozma koʻrinishi boʻlmagan boshqa alifbo grafikasida hujjat almashinuvini amalga oshirayotganligi namoyon boʻlmoqda.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 13-moddasida fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar tilining qaysi tartibda boʻlishi haqida quyidagi fikrlar belgilab qoʻyilgan: “Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimai takrorlanishi mumkin”¹³⁶. Moddalar orasida toʻliq oʻz kuchini koʻrsatayotgan me'zonlar mazkur moddada belgilangan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Davlatimiz hududida yashovchi fuqarolarning turli tashkilotlarga beriladigan ariza, shikoyat, takliflari davlat tilida yoki boshqa tilda ham taqdim etilishi mumkin¹³⁷ligi ushbu Qonunning 14-moddasida belgilab qoʻyilgan. Nazarimizda ushbu modda 50% kuchga ega yoki davlat tili yozma me'yorlari asosida degan birikmani moddaga kiritish lozim. Chunki hozirgacha ariza boshqa alifbo

¹³⁵ Koʻrsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹³⁶ Koʻrsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹³⁷ Koʻrsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

grafikasida taqdim e'tilsa ham nafaqat davlat organlari balki til sofligiga ma'zul muassasalar ham e'tiroz bildirmay qabul qilishadi. Shuningdek, fuqarolar o'z ism-familiyasini milliy kelib chiqishiga qarab yozishlari mumkin¹³⁸. Bu Qonunning 15-moddasida belgilangan bo'lsada, ayrim istisnoli holatlar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, agar ma'lum bir shaxsning ism yoki familiyasidagi tovush alifboda aks etmagan bo'lsa, bu holatda qanday yo'l tutilishi aniq keltirilmagan. Vaholangki tilshunos olim M.Mirtojiyev o'zbek tilida 48 ta tovush borligini qayd etgan. Nazarimizda qonun moddasida yoki qonun osti hujjatlarida alifboda bo'lmagan tovushlarning rasmiy hujjatlarda aks ettirish masalasiga yechim berish lozim. Bu o'rinda nafaqat huquqiy me'yorlar lingvistik, fonetik qonuniyatlar e'tiborga olinib tuzatish kiritilishi lozim. Shuningdek, Qonunning 16-21 moddalarida OAV, matbuot¹³⁹ faoliyat tili, muhrlar, e'lonlar, lavhalar, turli korxona va tashkilotlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar davlat tilida, zaruriy hollarda boshqa biror-bir tilda bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Ushbu me'yorlarda ham lingvistik kemptiklar, davlat tilining mamlakatdagi va xalqaro tillardan davlat doirasidagi yaqqol ustunligi, davlat tili amaliyotini tartibga solish mexanizmlari, javobgarlik masalalari qa'tiy belgilanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Buning oqibatida OAV davlat tili tushunchasini yilda bir marta 21-oktyabrda esga olsa, boshqa vaqtlarda me'yoriy bo'lmagan til va til shakllarida e'firi davom ettiraveradigan, lavhalar, e'lonlarda davlat tili umuman e'tiborga olinmaydigan holga kelib qoldi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunda nomlanishlar masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Uning 22-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan: “Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi”¹⁴⁰. Ushbu me'yorlarda ham lingvistik kemptiklar, davlat tili amaliyotini tartibga solish mexanizmlari, javobgarlik masalalari qa'tiy belgilanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, poytaxt Toshkent geografik nomlanishlari hech qaysi bir tashkilot tomonidan nazoratga olinmaganligi oqibatida, bu hududda o'zbekcha nomlanishlardan ko'ra, boshqa tillarga mansub nomlanishlar ortib ketdi.

Qonunning 24-moddasida “O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi”¹⁴¹. Ushbu modda ham huquqiy jihatdan aniq me'zonlar asosida tuzilgandek ko'rinsada bir qator kamchiliklari bor. Jumladan qonunning ushbu moddasi go'yo qaytariqday tuyiladi. Unda keltirilgan ayrim bandler Qonunning 3- 4- 5- 6-moddalarida

¹³⁸ Ko'rsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹³⁹ Ko'rsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁴⁰ Ko'rsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁴¹ Ko'rsatilgan manba – <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

keltirilgan me'yorlar bilan hamohang. Farqli jihati mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanishi, til tanlash erkinligiga monelik qiluvchi shaxslarning javobgarligi brikmalari kiritilgan. Manashu brikmalarni kiritish uchun qonun hujjatini 1 ta moddaga oshirish shart emas bizningcha, yuqoridagi moddalarga singdirilsa ham bo'ladi.

Nazarimizda ushbu qonun me'yorlariga amal qilmaslik oqibatlarini aniq me'zonlar asosida belgilansa qonunning qiymati yanada oshar edi. Qonun moddalarining nihoyatda demokratik va bag'ri kenglik tamoyillarga tayanib shakllantirilganligi tufayli qonun qiymati pasaygandek. Qonun hujjatida belgilanadigan me'zonlarga quyidagi manbalar asos qilib olinsa, Qonun qiymati yuksalishi bilan birga, til siyosatini amalga oshirish oson bo'ladi. Bu tamoyillar jahonning ko'plab til siyosati mutaxasislari tomonidan e'tirof etilgan. Biz ushbu jihatlarni o'zbek tili manbalari asosida berishga harakat qilamiz.

Mamlakatlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritar ekan, rasmiy tilini ham belgilaydi va shu davlat tilida faoliyat olib boradi. Davlat tilining rasmiy maqomi esa mamlakatda qabul qilinadigan davlat tili haqidagi qonun orqali mustahkamlanadi. Ushbu qonunda belgilanajak me'yorlar kelgusida til siyosatini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tufayli ham mamlakatlarda davlat tili haqidagi qonunlar qabul qilinish jarayoni murakkab hodisa sifatida baholanadi. Davlat tili haqidagi qonunlar til siyosatining asosi sifatida qaralganligi tufayli ham bir necha bosqichdagi tekshiruvlar, muhokamalardan so'ng hukumatning vakolatli organlari tomonidan tasdiqlanadi. Sotsiolingvist olimlar qarashlari jamlanmasi shuni namoyon etadiki, davlat tili haqidagi qonunlar qabul qilinish jarayonida 3 jihatga alohida e'tibor berish lozim va shu jihatlar inobatga olinib har tomonlama mukammal holatga keltirilgandan so'ng ushbu qonun hujjatini jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, ijtimoiy muhokamalardan so'ng kelib tushgan mulohazalar mazmunini tahlil etgan holda qonun loyihasiga kiritilajak o'zgarishlarni belgilash va ushbu loyihani ma'sul tuzilmaga yuborish va tasdiqdan o'tkazish lozim bo'ladi. E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar quyidagilardir:

- davlat tili haqidagi qonunda belgilangan lingvistik me'yorlarning nazariy-metodologik asoslari;
- davlat tili haqidagi qonunda belgilangan huquqiy me'yorlarning nazariy-metodologik asoslari;
- davlat tili haqidagi qonunda belgilangan me'yorlarning amaliy manbalari.

Aslida dunyo tajribasida davlat tili haqidagi qonunlarda belgilanajak me'yorlar mazkur soha mutaxasislari tomonidan kiritilishi hisobga olinib, uning mukammalligiga shubha bo'lmaydi. Ammo ayrim demokratik omillar mazkur qonun hujjatining jamoat muhokamasidan o'tkazilishini talab qiladi. Ayrim hollarda davlat tili haqidagi qonunlarda turli ta'sirlar oqibatida tilning pozitsiyasi, til

amaliyoti mexanizmlari, javobgarlik masalalari muayyan darajada mavhumlik kasb etadi. Xususan 1989 yilgi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunida shu kabi holatlar voqelanganligini kuzatish mumkin. Masalan millatlararo muomala tili sifatida muayyan bir tilning ko‘rsatilishi boshqa xalqaro tillar va inson huquqlari tamoyillariga mos kelmaydi. Qayd etish joizki, shu kabi kamchiliklardan ayrimlari 1995-yilgi “Davlat tili haqida”gi qonunda ham uchraydi. Biz bu borada ushbu bobning ibtidosida to‘xtaldik.

Quyida yuqorida olimlar keltirgan uch jihatni O‘zbekistondagi davlat tili siyosatini amalga oshirishda qabul qilingan qonun hujjatlari misolida tahlil qilishga harakat qilamiz va davlat tili haqidagi qonunni shakllantirish uchun fundament bo‘la oladigan lingvistik manbalarga, huquqiy me‘yorlarning nazariy-metodologik asoslarini ko‘rsatishga va asoslashga, amaliy manbalarini dalillashga harakat qilamiz.

O‘zbekiston siyosiy-ijtimoiy tizimida 30 yil ichida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Istiqlolimizning ilk yillaridayoq Davlatimizning huquqiy asosini va kafolatlarini tashkil etuvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bosh Qomusimizning 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili”¹⁴² ekanligi belgilab qo‘yilganligi ona tilimizning rasmiy til sifatidagi o‘rni, ahamiyatini yuksaltirdi. Keyinroq yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonung hujjati esa davlat tili menejerezatsiyasi asosi bo‘ldi. Yuqorida keltirilgan qonun hujjatlari O‘zbekiston til siyosatining asosini tashkil etish bilan bir qatorda, qator qonun osti hujjatlarining boshqaruv mexanizimini shakllantirishda bosh me‘zon sifatida xizmat qildi.

O‘zbekistonda davlat tili siyosati huquqiy me‘yorlarining nazariy-metodologik asoslari yuqoridagi asos hujjatlar bilan birga quyidagi me‘yoriy normative hujjatlar bilan belgilanadi: 1995-yil 6-may O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni¹⁴³, ushbu qonunga aloqador tarzda xuddi shu sanada qabul qilingan O‘zR Oliy Majlisining Qarori, 1995-yil 24-avgustdagi O‘zR VMning “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”¹⁴⁴gi Qarori, 2016-yil 13-mayidagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”¹⁴⁵gi, 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹⁴² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 1992. – B. 4.

¹⁴³ “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁴⁴ “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi O‘zR VMning Qarori. 1995-yil 24-avgust. <https://lex.uz/uz/docs/-1625271?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁴⁵ “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 13.05.2016. <https://lex.uz/docs/2959330>

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁴⁶gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁴⁷gi Farmoni, 2020-yil 11-martdagi O‘zR VMning “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁴⁸gi Qarori v.b.

Yuqorida keltirilgan qonun hujjatlari O‘zbekistonda davlat tili siyosatini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi, ayni paytda til siyosatini amalga oshirishda amalda bo‘lgan qonun hujjatlari sanaladi. Shuningdek, mazkur hujjatlarda belgilangan me‘yorlarni tartibga solishda Respublikada qabul qilingan boshqa normativ qonun hujjatlaridan foydalanilishi mumkin.

O‘zbekistonda davlat tili siyosatining amaliy manbalari sifatida turli leksikografik, ta’limiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-badiiy, jonli so‘zlashuv tili materiallari, uslubiy xoslangan matnlar, axborot manbalari predmetlari, elektron manbalar, korpus materiallari, dialektal lug‘atlar va adabiy tilda yaratilgan amaliy ahamiyat kasb etuvchi materiallar qaralishi mumkin. Qayd etilgan manbalardan en ahamiyatli manba bu leksikografik materiallar hisoblanib, til siyosati amaliyotini samarali yo‘lga qo‘yishda, til boshqaruvi mexanizmlarining amaliy ahamiyat kasb etuvchi tarmoqlari faoliyatida, til siyosatining leksik sath bilan bog‘liq jihatlarini muvaffaqiyatli tashkillashtirishda muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 20 ga yaqin xorijiy tillar va o‘zbekcha nashr etilgan va 50 dan ortiq electron tarjima lug‘atlari, fan sohalariga oid 100 dan ziyod ikki va uch tilli terminologik lug‘atlar til siyosatining amaliy manbalari sifatida yaratilgan.

O‘zbekistonda davlat tili siyosatining amaliy manbalari sifatida e’tirof etilgan ta’limiy manbalar sirasiga ta’lim bosqichlarida qo‘llanadigan va asosiy ta’lim predmetlariga qo‘shimcha sifatida tavsiya etiladigan manbalar ham kiradi. Xususan, darsliklar, qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar shular jumlasidandir.

Davlat tili siyosatining amaliy manbalari sifatida qaraladigan o‘quv-uslubiy materiallar sirasiga uslubiy qo‘llanmalar, o‘quv adabiyotlari va o‘quv materiallarini o‘zida aks ettirgan manbalar kiradi.

¹⁴⁶ “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁴⁷ “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-yil 20-oktabr. PF-6084-son. <https://lex.uz/docs/-5058351>

¹⁴⁸ “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zR VMning Qarori. 2020-yil 11-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-4759743?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

Davlat tili siyosatining ilmiy-badiiy amaliy manbalari toyifasiga ilmiy tadqiqot materiallari, dissertatsiyalar, ilmiy adabiyotlar, badiiy asarlar va boshqalar kiradi.

Jonli soʻzlashuv tili materiallari til siyosatida muhim ahamiyat kasb etib tilning sinxron qoʻllanishini aks ettiradi. Bunday materiallar sirasiga dialogic nutqlar, kommunikatsiya jarayonlari materiallari, turli jamoaviy nutqlar kiradi.

Til siyosatining amaliy manbasi sifatida qoraluvchi uslubiy xoslangan matnlarga oʻzbek tilining 5 ta uslubiga xos matnlar kiradi.

Axborot manbalari predmetlarining ham til siyosati amaliy manbasi sifatidagi oʻrni beqiyos. Chunki axborot manbalari til siyosati mexanizmlarini amalga oshiruvchi, undagi gʻoyalarni tashuvchi vosita sanaladi. Shu sababdan ham axborot materiallari til siyosatining asosiy amaliy materiallaridan hisoblanadi. Axborot manbalariga axborot tarqatuvchi vositalar kiradi.

Davlat tili siyosatining amaliy elektron manbalari sirasida tilning zamonaviy texnologiyalar, suniy intellekt tizimlaridagi materiallari Jumladan til korpusi qaraladi. Hozirgi kunda oʻzbek tili milliy korpusi mavjud boʻlmasa ham, oʻzbek tilida yaratilib, takomillashtirilayotgan Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAUda yaratilgan, oʻzbek tili milliy korpusining tarkibiy qismlari hisoblanuvchi Taʼlimiy korpus¹⁴⁹, Oʻzbek tilining morfoanalizatori¹⁵⁰. Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi¹⁵¹ til siyosatining amaliy manbalari sifatida ishga tushirilgan.

Umuman olganda til siyosatining amaliy manbalari til siyosatini muvaffaqiyatli tashkillashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalar sanaladi. Ulardagi har qanday oʻzgarish ham til siyosati mexanizmlariga muayyan darajada taʼsir etishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Davlat tili haqida”gi qonunlar til siyosatining asosi sifatida qaralganligi tufayli ham bir necha bosqichdagi tekshiruvlar, muhokamalardan soʻng hukumatning vakolatli organlari tomonidan tasdiqlanadi. Davlat tili haqidagi qonunlarning qabul qilinish jarayonida lingvistik-huquqiy meʼyorlarning nazariy-metodologik asoslari va amaliy manbalariga alohida eʼtibor berilishi lozim.

3.2. Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirish - maʼrifatli jamiyatni barpo etish muhim tarkibiy qismi

Davlat tili sifatida oʻzbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish jamiyatning maʼnaviy rivojlanishining omilidir

¹⁴⁹ <http://uzschoolcorpara.uz/>

¹⁵⁰ <http://www.uznatcorpara.uz/>

¹⁵¹ <https://uzlang.navoiy-uni.uz/about>

O'zbek tili davlat tili sifatida jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Uning maqomi nafaqat milliy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirishga ta'sir qiladi, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlar va ma'naviy yo'nalishlarni shakllantirish, tarbiyalash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

1. Ta'lim jarayonida davlat tilining ahamiyati

O'zbek tilining davlat tili sifatida o'rnatilishi uning millat birligi, mamlakat ichidagi turli etnik va madaniy guruhlarining integratsiyasi uchun asos sifatida ahamiyatini tan olishni anglatadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki dunyoni idrok etishga, madaniy an'analar, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni uzatishga ta'sir qiluvchi muhim omildir. Til orqali yosh avlodni tarbiyalash, bilim, tarixiy tajriba va madaniy merosni uzatish amalga oshiriladi.

O'zbekistondagi ta'lim tizimi o'zbek tilini ta'limning asosiy vositasi sifatida rivojlantirishga faol yo'naltirilgan bo'lib, bu milliy o'zlikni anglashni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim va ta'lim jarayonlarida ona tilidan foydalanish ma'naviy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan madaniyat va tarixni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. Tilning milliy o'ziga xoslik va o'z-o'zini anglashga ta'siri

O'zbek tilini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish fuqarolarda o'z madaniyati va urf-odatlar bilan faxrlanish tuyg'usini yaratib, milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Vatanparvarlik, ona urf-odatlar va tarixiga hurmatni tarbiyalash tilni ijtimoiy va madaniy hayotning muhim elementi sifatida barkamol va har tomonlama ishlatmasdan mumkin emas.

Bundan tashqari, tilning tarbiyaviy maqomini oshirish birlik tuyg'usini rivojlantirishga, O'zbekistonning turli mintaqalari va xalqlari o'rtasida yaxshi tushunish va o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga, shuningdek, til orqali o'tadigan milliy an'ana va qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Til ma'naviy tarbiya vositasi sifatida

Til madaniy va axloqiy qadriyatlarni etkazish uchun asos bo'lib, ma'naviy sohada ta'limning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tiliga singib ketgan qo'shiqlar, she'riyat, folklor, an'anaviy iboralar va so'zlar asrlar davomida avlodlar o'tishi uchun muhim kanal bo'lib kelgan. Ular nafaqat aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, adolat kabi ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi.

O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim va tarbiya dasturlari maktab o'quv dasturiga o'zbek tilidagi adabiyot asarlarini joriy etishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda, bu esa yosh avlodning ma'naviy va axloqiy yo'nalishlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunga klassik va zamonaviy adabiyot, san'at va folklorni o'rganish, shuningdek, mamlakat falsafasi va tarixi bilan tanishish kiradi.

4. Tilning jamiyatdagi ijtimoiy roli

O'zbek tilining davlat tili maqomini mustahkamlash yanada uyg'un jamiyat yaratishga yordam beradi. Ijtimoiy va davlat hayotida ona tilining ahamiyatini oshirish turli yosh va ijtimoiy guruhlar fuqarolari o'rtasida ijtimoiy birdamlik va o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu sizga ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.

Ommaviy axborot vositalarida, san'atda va ommaviy nutqda tildan faol foydalanish fuqarolarning yuqori muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi, turli nuqtai nazarlarga hurmatni shakllantirishga va umuman jamiyat birligini mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbek tilining davlat tili sifatida tarbiyaviy maqomini oshirish jamiyatning ma'naviy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bu milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga, vatanparvarlikni tarbiyalashga, madaniy va axloqiy an'analarni saqlashga yordam beradi. Til nafaqat aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki jamiyatda ma'naviyat, axloq va ijtimoiy uyg'unlikni rivojlantirishga qaratilgan qadriyatlar tizimini shakllantirish uchun muhim vositadir.

Ijtimoiy o'zgarishlar odatda butun bir jamoa hayotiga bog'liq bo'ladi. Bunday o'zgarishlarning asosiy omillari sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayot bilan birga yuzaga keladigan ko'plab voqeliklar keltirilishi mumkin. Jumladan millat hayotining iqtisodiy farovonligi ortsa yoki pasaysa bu jihat bari jamiyat a'zolari uchun teng qiymatda ta'sir o'tkazadi. Siyosiy o'zgarishlarning ham jamiyat a'zolari hayotiga ta'siri yuqori bo'lib, bunday o'zgarishlar jamiyat a'zolari uchun erkinlik yoki tutqinlik, farovonlik yoki yetishmovchilik olib kelishi, rozilik yoki norozilik kayfiyatini uyg'otishi mumkin. Ijtimoiy o'zgarishlarning har qanday turi avvalambor jamiyat nutqida namoyon bo'ladi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy o'zgarishlarni eng ko'p o'zida aks ettiradigan tizim til tizimi sanaladi. Bir vaqtning o'zida tilning o'zi ham ijtimoiy o'zgarish sifatida qabul qilinishi mumkin. Buni tarixiy sotsiolingvistik holatlarda kuzatishimiz mumkin. Ya'ni bir mamlakatning ikkinchi davlatni mustamlakaga aylantirishi natijasida bosib olingan hududlar lingvistik manzarasining o'zgarishida ko'rish mumkin. Ijtimoiy o'zgarish til siyosati bilan hamohang hodisa hisoblanadi. Chunki jamiyat o'zgarishlarini boshqarish bir vaqtning o'zida muayyan darajada til o'zgarishlarini, til siyosatining modernizatsiya qilingan menejerezatsiyasini talab qiladi. Shuningdek o'zgarishlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan til siyosatining o'zi ijtimoiy o'zgarishlarning namunasidir.

Aynan shuning uchun ham modernizatsiya yangidan modernizatsiya qilinayotgan jamiyatlarda eski sanoatlashgan jamiyatlarga qaraganda kamroq vaqt talab etadi.

Madaniy diffuziya. Bir jamiyatda paydo bo'lgan kashfiyotlar, ixtirolar va g'oyalar ko'pincha boshqalarga tarqaladi. Bugungi kunda boshqa jamiyatlarning ta'siri mavjud bo'lmagan jamiyatlar juda ham kam. Madaniy diffuziya odatda jamiyatning boshqa tizimlariga qaraganda til tizimida tezroq namoyon bo'ladi. Til o'zgarishlarining asosiy ishtirokchilari bo'lib xizmat qiladigan ikki tillilar o'zlarining bir tillaridan ikkinchisiga elementlarni kiritadilar va ular bilan aloqada bo'lgan ikkinchi tilning bir tilli so'zlovchilariga ta'sir qiladilar. Mustamlakachi davlatlar tomonidan Janubiy Amerika, Afrika, Osiyo va Okeaniyada amalga oshirilgan keskin iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar mazkur omilning yaqqol namunasidir.

5. Mafkuralar. Texnologiyadan kam bo'lmagan g'oyalar, e'tiqodlar va mafkuralar bir jamiyatdan ikkinchisiga tarqalishi mumkin. Yangi g'oyalar yoki qadriyatlar eskilariga zid bo'lsa, ularni mavjud qarashlar bilan uyg'unlashtirishga urinishlar natijasida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Marks ta'kidlaganidek, mafkuralar ijtimoiy mahsulot bo'lsa-da, Veber va Dyurkgeym qayd etganidek, mafkuralarining o'zi ijtimoiy o'zgarishlarga hissa qo'shishi mumkinligiga shubha yo'q. Qadriyatlar va mafkuralar jamiyatdan jamiyatga yoki jamiyat ichidagi kichik guruhdan kichik guruhga tarqalishi mumkin. XVII asrda Frantsiyada tinchlik, tartib va madaniyatga bo'lgan intilishning kuchayishi Fransiya Akademiyasi tomonidan ilgari surilgan tilshunoslik g'oyalari gullab-yashnashi uchun zamin tayyorlashga yordam berdi.

6. Qaror qabul qilish. Qaysidir ma'noda, barcha ijtimoiy o'zgarishlar qarorlardan kelib chiqadi. Rahbarlarning qarorlari ko'pincha ijtimoiy o'zgarishlarning hal qiluvchi omillari sifatida ta'kidlanadi. Tarixning "buyuk odam" nazariyasi ba'zi tarixchilar tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, ko'pchilik sotsiologlar tomonidan rad etiladi. Ular tarix shaxslarni emas, balki tarixni shaxslar yaratadi, deb ta'kidlaydilar. Ijtimoiy o'zgarishlarning hayotiy manbasini tashkil etuvchi qarorlar jamiyatni isloh qilish yoki inqilob qilishga intiladigan jamoaviy xatti-harakatlar va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan siyosatni belgilaydigan ijtimoiy idoralar va institutlarning harakatlaridir.

Umuman olganda, ijtimoiy o'zgarishlarga olib keluvchi omillar juda ko'p. ularning ijtimoiy o'zgarishlardagi ahamiyatini belgilash murakkab. Har bir holatda, o'zgarish mexanizmlarini tushunish uchun intellektual qiyinchilik va o'zgarishlarni nazorat qilish, yo'naltirish muammolari mavjud¹⁵². Ushbu muammolar bugungi kunda barcha ijtimoiy fanlarda, shu jumladan til siyosatida ham mavjud. Ijtimoiy o'zgarishlarning ko'plab nazariyalari taklif qilingan, ammo hech biri umume'tirof etilgan emas. Muvaffaqiyatli ijtimoiy o'zgarishlar nazariyasini yaratishdagi

¹⁵² Berger, Peter L. and Brigitte Berger. 1976. *Sociology: a biographical approach*. Revised edition. Harmondsworth: Penguin Books.

muammolar ikki jihat bilan bog'liq¹⁵³: a) o'zgarishlarni tushunish uchun barqarorlikni, status-kvo tuzilishini tushunish kerak. b) o'zgarishlarga turtki beruvchi omillar ko'p, murakkab va o'zaro bog'liqdir. Tegishli omillar, ularning o'zgarishlarga mustaqil va jamoaviy ta'sir darajasini aniqlash juda qiyin vazifadir.

Quyida biz ijtimoiy o'zgarishlar bilan shug'ullanadigan va til siyosatida dolzarblik kasb etadigan evolyutsion, tsiklik, funksional, ziddiyat va qaramlik nazariyalarini qisqacha tavsiflaymiz.

Evolutsion nazariyalar. Ilk sotsiologlar ijtimoiy evolyutsiyaga, ya'ni har bir jamiyat oldindan belgilangan tartibda, oddiy kelib chiqishdan tortib to o'sib borayotgan murakkablikgacha, mukammallikning yakuniy bosqichiga etgunga qadar, qat'iy bosqichlar orqali rivojlanadi, degan g'oyaga ishonishgan. G'arbda ijtimoiy tuzum ilohiyot tomonidan belgilab qo'yilgan degan g'oyalar ustunlik qilgan. Kont davriga kelib g'arbda ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari ilgari surila boshladi. Ilk sotsiologlar, Kontdan boshlab, o'zgarish taraqqiyot demakdir, deb taxmin qilishgan. Kont ijtimoiy taraqqiyotning uch bosqichli ketma-ketligini - teologik, metafizik, pozitiv ko'rinishlarini taklif qildi. Xuddi shu bosqichlar orqali inson intellekti rivojlanadi. Mavjud jamiyatlar oxir-oqibat ijobiy bosqichga keladi, lekin ba'zilari boshqalarga qaraganda tezroq keladi. Evolyutsiya haqidagi Darvin tushunchalarini insoniyat jamiyatlariga tatbiq etgan Spenser, Jamiyatlar bir qator qat'iy, o'zgarmas bosqichlar orqali rivojlanadi deb hisoblagan. Bu qarashga ko'ra, jamiyatlar kam resurslar uchun raqobatlashar ekan, "eng kuchlilar omon qolishi" jarayoniga moslashadilar. Bunda g'arbiy Yevropa jamiyatlari eng munosib deb hisoblangan. Bunday nazariyalar XIX asrning oxirlarida, mustamlakachilik ekspansiyasi davrida g'arbiy yevropaliklarga ma'qul keldi. Chunki nazariyalar mustamlaka hukmronligining noxush faktlarini oqladi. Bugungi kunda aksariyat sotsiologlar va antropologlar ijtimoiy o'zgarishlarni uning yo'nalishini oldindan belgilangan tartibda shakllantiruvchi kuchlar mahsuli sifatida ko'radigan deterministik nazariyalarni rad etadilar. Hozirgi kunda ko'pchilik inson ta'siri, madaniy difuziya, jumladan, yangi me'yorlar va qadriyatlarning tarqalishi, jamoaviy harakatlar orqali tarix yo'nalishini o'zgartirishi mumkin deb hisoblaydi. Shunday bo'lsada evolyutsion tushunchalar butunlay yo'qolgan emas.

Uchinchi dunyo mamlakatlarida tillar yetarli darajada taraqqiy etmaganligi uchun har qanday holatda ham xalqaro tillarga ehtiyoj seziladi. Ammo mazkur hududlarga kirib kelgan xalqaro til ijobiy va salbi holatlarning yuzaga kelishiga turtki berishi mumkin. Ijobiy holatlarda xalqaro til uchinchi dunyo mamlakati aholisini jahon bilan integratsiyalashuviga, ilm-fan tarqqiy etishiga, mazkur til orqali o'z ona tili jozibadorligini ham oshirishga bo'lgan harakatlarga turtki berishi, salbiy jihatdan esa, ushbu o'lkalardagi mahalliy tillarning nufuzi pasayishi, mazkur

¹⁵³ Robertson, Ian. 1981. Sociology. Second edition. New York: Worth.

mamlakat yosh avlodlarining rivojlangan mamlakatlariga intilishi kuchayishi kabi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu jihatlar esa mazkur o'lkadagi til siyosatini murakkab holatga olib kelishi mumkin.

Weston ta'kidlaydiki, sotsiologlar ijtimoiy o'zgarishlarning yagona umumiy nazariyasini izlashdan uzoqlashdi va jamiyatning muayyan qatlamlariga taalluqli bo'lgan kichikroq nazariyalarni qurishni boshladilar¹⁵⁴. Til siyosati nazariyasini ishlab chiqish mumkinmi? Til siyosati nazariyasi bizga tilni boshqarish g'oyalarini, maqsadlarga erishish uchun tanlangan vositalarni va amalga oshirish me'zonlarini shakllantirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, biz til borasida ma'lum bir maqom, korpus va marketing maqsadlarini belgilash va muayyan vositalarni tanlash uchun motivatsiyaga ega bo'lamiz. Til siyosati ko'plab iqtisodiy, mafkuraviy, siyosiy omillar bilan bog'liq murakkab jarayon. Shuningdek, bu turli xil maqomlarga yo'naltirilganligi uchun erishish murakkab bo'lgan holatdek tuyuladi. "Til jamiyatning asosiy institutidir. Chunki u nafaqat shaxs hayotidagi birinchi institut, balki boshqa barcha institutlar uning tartibga soluvchi vositalari asosida qurilgan"¹⁵⁵. Til siyosati jamiyatni boshqarishdir. Shunday qilib, til siyosatining qoniqarli nazariyasi ijtimoiy o'zgarishlarning mukammal nazariyasini talab qilmoqda.

Davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga solishda qonun hujjatlarining rolini ham alohida qayd etishimiz lozim. Muayyan mamlakatda davlat tili qabul qilinar ekan, mazkur tilning har tomonlama ravnaqi uchun hokimiyat turli me'yoriy hujjatlarni tasdiqlaydi va ushbu qonun hujjatlari orqali rasmiy tilning har tomonlama taraqqiyoti uchun imkon yaratadi. Shu bilan bir qatorda qabul qilinaajak qonun hujjatlari til siyosatini amalga oshirishga qaratiladi va mazkur normalar til siyosatining asosini tashkil etadi.

Har qanday til davlat tili maqomini olgach, siyosiy nufuzi oshadi. Davlat hujjatlarining shu tilda olib borilishi til mentalitetini saqlaydi. Quyida o'zbek tili siyosatining huquqiy asoslari, til siyosati tashkillashtirilishi, amaliyotiga qaratilgan qonun hujjatlarining o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratamiz. Bosh Qomusimizning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili"¹⁵⁶ ekanligi belgilab qo'yilganligi ona tilimizning huquqiy mustahkamligini ta'minladi va rasmiy til sifatidagi o'rni, ahamiyatini yuksaltirdi. Keyinroq yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjatlar davlat tili siyosatining asosi bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'zbek tilining qonuniy himoyasini mustahkamlab, maqomini tikladi va yuksaltirishga alohida e'tibor qaratdi. Ta'kidlash joizki, O'zbek

¹⁵⁴ Weston, Louise. 1977. *The Study of Society*. Second edition. Guilford: The Dushkin Publishing Group.

¹⁵⁵ Berger, Peter L. and Brigitte Berger. 1976. *Sociology: a biographical approach*. Revised edition. Harmondsworth: Penguin Books. P. 336

¹⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 1992. – B. 4.

tilining rasmiy maqomi 1989-yilda qonun orqali belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, mazkur qonun hujjatining ayrim qismlari istiqbolni qo'lga kiritgan, rasmiy tilini belgilagan mamlakat til siyosatini amalga oshirish uchun yetarlicha asos bo'la olmas edi. Shunday bo'lsada ushbu qonun 6 yil davomida davlat til siyosatini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi. Eng ajablanarlisi esa davlat ishlarida ikki til teng maqomda qo'llandi. Keyinchalik, o'zbek tili siyosatini yuqori sur'atda shakllantirish uchun yangi davlat tili qonuniga ehtiyoj yuzaga keldi. Buning natijasida 1995-yil 21-dekabrda davlat tili haqidagi qonun yangi tahrirda zamon talablari asosida tahrirlanib qayta qabul qilindi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni¹⁵⁷ 24 moddadan iborat bo'ldi. Bir qator o'zgarishlar kiritilgan qonun o'zbek tilining rivoji va til siyosatining yangi sur'atda taraqqiy etishiga yo'l ochdi.

Yillar mobaynida davlat tilini har tomonlama tartibga solish borasida qator qonun hujjatlari qabul qilinib, o'zbek tilining rivoji yo'lida salmoqli ishlar qilinganligiga qaramay til siyosatida bir qator muammolar haligacha hal etilmagan. Masalan, davlat tili me'yorlaridan biri bo'lgan alifbo va imlo masalasi haligacha tartibga solinmagan. Ammo qayd etish joiz bu borada hukumat tomonidan qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Til siyosatida tilning ilmiy tadqiqi masalasiga ham e'tibor qaratiladi. Shu nuqtai-nazardan davlat tilini rivojlantirish doirasida uning ilmiy tadqiqi istiqbollari belgilanadi. Respublikamizda ham davlat tilining ilmiy tadqiqi, taraqqiyoti borasida qator qonun hujjatlari qabul qilindi va menejerezatsiyasi olib borilmoqda. Shu kungacha davlat tili ilmiy tadqiqi va taraqqiyoti borasida quyidagi me'yoriy asoslar qabul qilingan va hozirgi kunda til taraqqiyoti va ilmiy tadqiqi shu qonunlarga ko'ra menejerezatsiya qilinmoqda. 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"¹⁵⁸gi Farmoni, 2020-yil 11-martdagi O'zR VMning "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁵⁹gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qonun hujjatlarida o'zbek tili ilmiy tadqiqining ustuvor jihatlarini belgilab berildi. Xususan, qarorning 1-bandi bilan O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tuzilmasida sotsiolingvistika bo'limini tashkil etish to'g'risida me'yor belgilangan, endilikda jamiyat va til, til hodisalari zamonaviy jamiyat muammolari bilan hamohanglikda o'rganiladi. Bunday yondashuv til va jamiyat

¹⁵⁷ "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 21-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁵⁸ "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат о'zbek тили ва адабиёти университетини ташкил этиш то'g'рисид"ги О'zbekiston Республикаси Президентининг Фармони. 13.05.2016. <https://lex.uz/docs/2959330>

¹⁵⁹ "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zR VMning Qarori. 2020-yil 11-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-4759743?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

masalalarini zamon bilan bog'liq holda yoritish demakdir. Bu esa jamiyatdagi lingvistik muhitni real voqelikda tadqiq qilish va baholash imkonini beradi.

Mamlakatimizda til taraqqiyoti bilan bog'liq quyidagi qonun hujjatlari ham davlat tili siyosatida til amaliyoti masalalarini tartibga solish yo'lida qabul qilingan qonun hujjatlari sirasida qaralishi mumkin. 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁶⁰gi Farmoni imzolandi. Maskur farmon orqali til boshqaruvida yangi tuzilmalar shakllantirildi va tilning amaliy masalalaridan ayrimlari nazorati manashu tuzilmalar zimmasiga yuklandi.

O'zbek tilining nufuzi nafaqat mamlakat doirasida balki, jahonda ham yuksalishi, o'zbek xalqining tiliga nisbatan munosabatini aks ettiradi. Bu jihatlarni yetarlicha anglagan hukumat vakillari davlat tilini har tomonlama yuksaltirishga qaratilgan qonunlarni qabul qilishda davom etmoqdalar. Manashunday qonun hujjatlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁶¹gi Farmoni hisoblanadi.

Til siyosatida ko'plab qonun hujjatlari qabul qilinganiga qaramay til siyosatida yetarlicha samaradorlik kasb etilmayotganligining bir qator omillari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Til siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona tashkilotning mavjud emasligi;

Hukumatda til siyosatini belgilovchi qonunlar borasida yakdillik bo'lsada, til siyosatida belgilangan me'yorlar amaliyotida tarqoqlik mavjudligi;

O'zbek tilining ilmiy tadqiqida davlat tili me'yorlarini belgilashga asos bo'ladigan, mutaxassislar tomonidan yuksak baholangan fundamental tadqiqotning mavjud emasligi. Jumladan: fonetika, orfoepiya, grafika;

Til taraqqiyoti yo'lida yo'naltirilgan iqtisodiy sarmoyalarning to'g'ri taqsimlanmayotgani yoki yetarlicha ajratilmayotganligi. Jumladan: President farmoniga ko'ra 2019-yil davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi va 2022-yil dekabr oyida ushbu tuzilma tugatildi. Mazkur tuzilmaning 3 yillik faoliyati davomida o'zbek tili taraqqiyotida jiddiy o'zgarish sezilmaganiga qaraganda ushbu tuzilmaning faoliyati samarasiz yakunlangan(2023-yil qayta tashkil etildi);

Til ilmiy tadqiqida tizimlilik mavjud emasligi. Jumladan 2023-yil o'zbek tili ixtisosliklari bo'yicha 100 lab talaba davlat byujetidan doktoranturaga qabul qilindi. Ammo ularning ilmiy tadqiqi borasida davlat byurtmalari shakllantirilmaganligi

¹⁶⁰ "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

¹⁶¹ "Mamlakatimizda o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-yil 20-oktabr. PF-6084-son. <https://lex.uz/docs/-5058351>

tufayli ayrim amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning dolzarblik darajasi juda ham past;

O'zbek tilining milliy korpusi mavjid emasligi;

Til siyosatini to'g'ri tashkil etuvchi kadrlar yetishmasligi:

Eng ko'p ijtimoiy o'zgarishlar sifatida keltirilgan omillarning davlat tili siyosatidagi ahamiyatiga va jamiyatdagi o'zgarishlarning til siyosatiga ta'siriga quyida o'zbek tili misolida to'xtalsak.

1. Muhit. O'zbek tilining jamiyat muhitiga bog'liq ravishda o'zgarganligini biz Respublikamizning mustamlaka va mustaqil davrlari misolida ko'rishimiz mumkin. SSSR davrida mustamlaka hududlar sifatida qaralgan o'rta osiyo hududida o'zbeklar ulushi kata bo'lgan bo'lsada, o'zbek tilining hududiy geografik tarqalishi hozirgidan anchagina farq qilgan. Jumladan hozirda Qirg'iziston hududlari sifatida qaraladigan hududlarda ham o'zbeklarning ulushi kata bo'lgan. Xuddi shuningdek, O'zbekistonda ham tojik millatiga mansub kishilarning nufuzi yuqori bo'lgan. Geografik chegaralarning o'zgarishi natijasida lingvistik manzara ham boshqacha qiyofa kasb etgan.

2. Aholi soni. Mustaqillik arafasida mamlakatimizda 19 mln aholi ro'yxatga olingan. Bugungi kunga kelib 35 mlanni tashkil etayotganligi rasmiy manbalarda qayd etiladi. Bu shuni anglatadiki o'zbek millatiga mansub aholi ikki barobarga oshdi. Jamiyat a'zolarining ko'payishi o'zbek tili segmentining oshishiga olib keldi.

3. Kashfiyot va ixtiro. Dunyo bo'ylab amalga oshirilgan kashfiyot va ixtirolar o'zbek tiliga ham ta'sir etmay qolmadi. Xususan, ular bilan birga tilning leksik tarkibiga yangi leksik ifodalar kirib keldi va jamiyat a'zolari orasida qo'llana boshladi. Ushbu jihatlar tilning sofliğini saqlash borasidagi yangicha yondoshuvlarning shakllanishiga turtki berdi va ko'plab davlatlarda ushbu jihatni tartibga solishga qaratilgan tuzilmalar tashkil etilishiga olib keldi.

4. Madaniy diffuziya. Jamiyatdagi madaniy xilma-xillik tilda o'z ifodasini aks ettirmay qolmaydi. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat mavjudligi turli madaniyatlar va tillarning yonma-yon shakllanishiga olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda jahonda yuqori nufuzga ega bo'lgan madaniyat vakillarining ta'siri kichikroq pozitsiyadagi madaniyat vakillari madaniy qarashlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Xususan, yevropa madaniyatiga xos qarashlar o'zbek madaniyati vakiliga ham muayyan darajada ta'sir etmoqda va bu ushbu shaxsning nutqida ham o'z ifodasini topmoqda. Aslida Respublikamizda yashovchi millatlarning madaniy o'ziga xosliklari ham o'zaro ta'sirlashgan. Mazkur jihatlar esa lingvistik makondagi leksik tarkibda ifodalanadi. Bu esa jamiyat a'zolari orasida jamiyatda qo'llanuvchi tillarga bo'lgan munosabatlarni belgilaydi va o'zgartiradi.

5. Mafkuralar. O'zbek jamiyati tarixida mafkuralarning tilga va lingvistik muhitga ta'siriga ko'plab misollar bor. Jumladan XII asrda arab tilining turkey tillarga ta'siri islom dini g'oyalari bilan uzviy bog'liq.

6. Qaror qabul qilish. Rahbarlarning qarorlari ko'pincha ijtimoiy o'zgarishlarning hal qiluvchi omillari sifatida qaraladi. Xususan ushbu omilning o'zbek jamiyatida Respublikaning mustaqillikka erishishi arafasidagi o'zbek tilining rasmiya til sifatida qabul qilinishida ko'rishimiz mumkin. O'sha paytlarda hukumat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli davlat tilini rasmiylashtirish qarori qabul qilindi va ushbu mustahkam qaror o'zbek tilining davlat tili sifatida belgilanishiga olib keldi. Ammo ushbu qarorning qabul qilinishida o'zbek jamoatchiligining harakatlari va pozitsiyasini alohida e'tirof etish darkor.

3.3. Milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillarini o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishdagi ahamiyati

O'zbek tili O'zbekistonning davlat tili sifatida milliy o'ziga xoslik va ma'naviy tiklanishni shakllantirishning asosiy vositasidir. Uning tarbiyaviy maqomini mustahkamlashda bag'rikenglik va ma'naviy boy jamiyatni shakllantirishga hissa qo'shadigan vijdon erkinligining milliy qadriyatlari va tamoyillari muhim rol o'ynaydi.

1. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarning roli

1.1. Milliy o'ziga xoslikni shakllantirish

Tarix, madaniyat va urf-odatlariga hurmat kabi milliy qadriyatlar milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga yordam beradi. O'zbek tili bu qadriyatlarni avloddan-avlodga adabiyot, san'at va ta'lim orqali yetkazuvchi ona tili hisoblanadi.

1.2. Axloq va ma'naviyatni tarbiyalash

Milliy qadriyatlar axloq va ma'naviyatni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tili ushbu qadriyatlarni ifoda etish vositasi sifatida yoshlarda axloqiy tamoyillar, oqsoqollarga hurmat va Vatanga muhabbat shakllanishiga yordam beradi.

2. Vijdon erkinligi tamoyillari va ularning o'zbek tili maqomiga ta'siri

2.1. Bag'rikenglik va madaniyatlararo o'zaro ta'sir

Vijdon erkinligi tamoyillari har bir fuqaroning huquqlari va erkinliklari hurmat qilinadigan bag'rikeng jamiyatni yaratishga yordam beradi. O'zbek tili turli etnik va diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirish orqali madaniyatlararo hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

2.2. Ko'p millatli jamiyatda uyg'un yashash

Vijdon erkinligi turli madaniyat va an'analarning uyg'un birga yashashini ta'minlaydi. O'zbek tili ijtimoiy birlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga hissa qo'shadigan birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

3. Ta'lim va madaniy tashabbuslar

3.1. Milliy qadriyatlarni ommalashtirishda ta'limning roli

O'zbek tili va madaniyatini o'rganishga qaratilgan ta'lim dasturlari yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarni ommalashtirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan o'quv kurslarining joriy etilishi talabalarga o'z milliy o'ziga xosligini yaxshiroq tushunish va hurmat qilishga yordam beradi.

3.2. Madaniy tadbirlar va ularning tilning ta'lim holatiga ta'siri

Festivallar, ko'rgazmalar va tanlovlar kabi madaniy tadbirlarni tashkil etish o'zbek tili va milliy qadriyatlarni ommalashtirishga yordam beradi. Ushbu tadbirlar fuqarolarning o'z tili va madaniyati bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi.

Vijdon erkinligining milliy qadriyatlari va tamoyillari o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga, axloq va ma'naviyatni tarbiyalashga yordam beradi, shuningdek ko'p millatli jamiyatda uyg'un yashashni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillari kontekstida o'zbek tilini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish O'zbekistonning ma'naviy va madaniy asoslarini mustahkamlashning muhim shartidir.

Millat bor ekan, milliy madaniyat, til va adabiyot ham mavjud bo'lib, ularning barchasi nafaqat bir millatga, balki butun insoniyatga xosdir. Milliy falsafa millat mentaliteti bilan bog'liq muhim ijtimoiy hodisadir. Umumbashariy sivilizatsiyaga uzviy qo'shilish jarayoni milliy falsafani rivojlantirish orqali sodir bo'ladi. Eng muhimi-falsafadagi milliylik, umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi. O'zbekistonning milliy o'z istiqboliga asoslanadigan yangi milliy falsafiy tafakkuri va uning rivojlanish xususiyatlari ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O'tish davrida zalvorli kechmishlaridan saboq olib, istiqbol tufayli milliy mafkuramiz sahifalarida yangilik yaratishda ildamlilik bilan ijtimoiy taraqqiyot sari, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar orasidan o'ziga yo'l topa oldi: "Bu qonuniyat qadriyat tizimlari, ularning tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar dialektikasi uchun ham umumiydir. Qadriyatlar tizimining zamon zayllari ta'sirida o'zgarishi va davr realliklariga mos holatga kelishi ham ana shu jarayonga bo'ysunadi. Bu jarayonda o'zgarishlar voqea va hodisalarni zamondagi ketma-ketligi tarzida ro'y beradi. Dialektik tafakkur esa ana shu davomiylilikning in'ikosi, uni anglab olish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U qadriyatlarning o'zgarishi va yangi qadriyat tizimlari vujudga kelishi jarayonini anglab olish imkonini beradi. Hozirgi davrdagi turli nomutanosibliklar, zamona silsilari va

muammolari orqali shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelish jarayonini tasavvur qilmoq uchun ham dialektik tafakkur va ilmiy bilish usullariga murojaat qilishga to'g'ri keladi"¹⁶².

Jahon tajribasidan kelib chiqib milliy falsafa asosida yangilangan falsafa rivoji har bir xalqqa xos davlatchilik shakllanishi va yuksalishi bilan bog'liq tarzda kechishi, kuchli davlatchilikdan, kuchli falsafiy tafakkur ravnaqini talab etadi: "Mustaqillikni qo'lga kiritgan har qanday xalq avvalo, o'z tarixi va falsafasidan yangi davr uchun tashbehlar izlaydi, ijtimoiy taraqqiyotiga asos bo'ladigan ma'naviy tamoyillar, milliy an'ana va qadriyatlarga murojaat qiladi. Bu esa istiqbolga erishgan va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgan xalqimizning milliy tafakkuri va dunyoqarashining takomil bosqichlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini, o'zbek falsafasining bugungi rivojlanish jarayonini har tamonlama va chuqur o'rganish zaruriyatini belgilaydi"¹⁶³.

Davlat tili sifatida qabul qilingan tillar Respublikadagi barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi ta'lim tizimining ham ish yurituv tiliga aylanadi. Ta'lim tizimi tomonidan qabul qilingan til siyosati tilni boshqarishning eng qudratli kuchlaridan biridir. Odatda maktab tili oila tili bilan bir xil yoki farqli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bunday holat masjidlar, cherkovlar va sinagogalar kabi diniy muassasalar tillari va oila tillari o'rtasida ham ko'p kuzatiladi. Ko'pchilik bolalar o'z oilalari tili, mahalliy tilning so'zlashuv xilma-xilligi, shevasi va maktab tili o'rtasida jiddiy tafovutlarga duch keladi. Milliy yoki rasmiy til deb e'lon qilingan tilga nisbatan bolalarning o'z oilalari tili, mahalliy til, mahalliy tilning so'zlashuv xilma-xilligi, shevasi muayyan darajada farqlilik kasb etadi.

Aksariyat bolalar ta'lim olish jarayonida gapirishda to'siqlarga duch kelmaydigan, aksincha erkin so'zlaydigan oila va fikrlarini erkin ifodalay olmaydigan, chaqirilgunga qadar jim turishga o'rgatilgan sinf tili o'rtasida bo'shliqni his qiladi. Bu til bo'shlig'i nafaqat Afrika kabi rivojlanmagan uchinchi dunyo ko'p tilli mamlakatlariga, balki rivojlangan davlatlarga ham tegishli. "Belgiyada o'rta maktab o'quvchilarining 40 foizi maktabda o'qitiladigan rasmiy golland va frantsuz tillari va ular uyda gapiradigan dialektlar o'rtasidagi farqliliklar va yuzaga keladigan bo'shliq haqida xabar berishdi"¹⁶⁴.

Oila va maktab tili o'rtasidagi tafovutlarni yuzaga keltiruvchi omillar bir nechta tashkil etadi. Shulardan biri dunyo bo'ylab tobora kuchayib borayotgan migratsiya. Butun dunyo bo'ylab migratsiya darajasining o'sishi, oila va maktab tili o'rtasidagi farqlanishlar ortishiga turtki berishi mumkin.

¹⁶² Qiyomiddin Nazarov. Qadriyatlar falsafasi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati", 2011. 384 bet

¹⁶³ Qiyomiddin Nazarov. O'zbek falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 212 bet

¹⁶⁴ Aunger, Edmund A., 1993, Regional, national and official languages in Belgium, International Journal of the Sociology of Language 104: 31–48.

Mazkur omilning ta'lim jarayoniga ta'siri juda katta:

a) o'qituvchi va bola bir-birining nutqini tushunmasa, o'qitish va o'rganishda jiddiy muammolar vujudga keladi;

b) maktab o'qituvchisi o'quvchi ona tilini tushunmagan, yetarlicha anglamagan, mensimagan, inkor etgan yoki mazkur tilga va undagi murojaat shakllariga e'tibor qaratmagan hollarda, bola o'zining kamchiliklari va ota-onasining noqulay ahvolini yanada ko'proq anglaydi.

Maktab ta'limi va din o'rtasidagi munosabatlar tarixiy jihatdan o'zaro yaqinlik kasb etgan va hozirgi paytda ham fundamental islom, yunon va rim katolikligi va iudaizm tomonidan olib boriladigan diniy maktablar ta'limi shu ildizlarni o'zida aks ettirmoqda. Bu esa ko'plab ta'lim tizimlari muqaddas matnlarga - klassik arab, yunon, lotin, ibroniy va oromiy va sanskrit tillariga kirishni ta'minlaydigan har qanday tilni o'rgatishga asoslanadi. G'arbda bu dastlab klassik tillar - yunon va lotin tillari uchun, ta'lim tizimi sekulyarizatsiya qilingandan so'ng milliy o'ziga xoslik bilan bog'liq bo'lgan tillar uchun ustuvorlik kasb etdi. Fishman milliy va etnik tillarning dunyoviy muqaddasligini qayd etadi¹⁶⁵. Maktabdagi plyuralizm yoki ko'p tillilik har bir til uchun yagona to'g'ri yozish tizimini qabul qilsa, standartlashtirishga bo'lgan intilish har qanday tilni tan olishni rad etadi. Muassasa sifatida oila meros tillari xilma-xilligini davom ettirishni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa, maktab muassasa sifatida odatda tasdiqlangan standartlarda bir xillik va bir tillilik tomon ishlaydi. savodxonlik bilan bog'liq xilma-xillikni yagona standart til atrofida tartibga soladi. O'quvchilar jamoasining til xilma-xilligini aks ettira oladigan ko'p tilli maktab kamdan-kam uchraydi. "Aslida davlat rasmiy tilida monolingual ta'lim - bu belgilanmagan holat"¹⁶⁶. Ko'p millatli mamlakatlarning, ko'p millatli hududlarida tashkil etilgan talim muassasalarida ko'p tillilik muhiti hisobga olinishi lozim. Ammo ko'plab hollarda bu e'tiborga olinmaydi va davlat tomonidan tan olingan rasmiy til ta'lim tili sifatida qabul qilinadi, o'quv jarayoni shu tilda tashkil etiladi. Ko'p millatli hududlarda tashkil etilgan maktablar ko'p tillilik ta'limga asoslanishi maqsadga muvofiq. Aksar hollarda esa standart til va ko'p tillilik qarama-qarshi keladi.

Maktabda ta'lim o'z tabiatiga ko'ra tilni boshqarishga qaratiladi. Mazkur jarayonda ikki asosiy ishtirokchi - bu til tajribasi va ko'nikmasi o'zgartirilishi kerak bo'lgan o'quvchilar va o'zgartirish jarayoni zimmasiga yuklangan o'qituvchilar qatnashadi. Bu ikki guruhga mansublarning har biri murakkab va xilma-xildir.

¹⁶⁵ Fishman, Joshua A., 2002a, The holiness of Yiddish: Who says Yiddish is holy and why? *Language Policy* 1(2): 123–141., Fishman, Joshua A., 2002b, "Holy languages" in the context of societal bilingualism. In Li Wei, JeanMarc Dewaele, and Alex Housen (eds.), *Opportunities and challenges of bilingualism* (pp. 15–24), Berlin: Mouton de Gruyter.

¹⁶⁶ Garcı 'a, Ofelia, Skutnabb-Kangas, Tove, and Torres-Guzma 'n, Maria E., 2006 (eds.), *Imagining multilingual schools*, Clevedon, UK, Buffalo, and Toronto: Multilingual Matters Limited.

Tizimdagi barcha darajadagi o'quvchilar bir qator muhim o'lchovlar bo'yicha farqlanadi: yoshi, jinsi, qobiliyat darajasi, motivatsiyasi shular jumlasidandir. Ular biladigan va qo'llaydigan tilning xilma-xilligi, dialectal tafovutlari va malaka darajasi ham farqlanadi. O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsa, ularning til modeli o'z oilasidagi til ko'rinishini to'laroq aks ettirishi mumkin. O'quvchilarning oiladagi, mahalladagi va boshqa joylardagi tajribasi ularni turli til ko'nikmalari bilan tanishtirdi. O'quvchilarda til va qadriyatlarga nisbatan e'tiqodlarni rivojlantirdi va ularni til ko'nikmalari va e'tiqodlarini o'zgartirishga qaratilgan turli urinishlarga duchor qildi. Shunday qilib, maktablar hech qanday ko'niktirish bilan shug'ullanmaydi, chunki bolalar maktabga belgilangan til bilimlari, xatti-harakatlari va qadriyatlari bilan kelishadi. Aslida o'quvchilar maktab til siyosatini ishlab chiqishda kamdan-kam hisobga olinadigan til siyosati bo'yicha imtiyozlarni olib kelishadi¹⁶⁷. Tizim buni tan oladimi yoki yo'qmi, ushbu maktabgacha shakllangan tajriba va malakalar maktab til boshqaruvida qandaydir asosga ega bo'lishi kerak. Alohida maktablar, agar barcha talabalar taxminan o'xshash til va malakaga ega bo'lsa yoki o'quvchilar ko'p tilli jamiyatning turli bo'limlaridan kelgan bo'lsa, lingvistik jihatdan bir hil bo'lishi mumkin. Bu, shubhasiz, tilni boshqarish uchun cheklovchi omillarni belgilaydi: Afrikaning ko'plab mamlakatlarida o'quvchilar tomonidan so'zlashadigan turli tillar soni ko'p. Bu ona tili dasturini amalga oshirmaslik uchun asos sifatida taklif qilinadi. Hindiston o'zining plyuralistik an'analariga egabo'lsada, faqat bir nechta tilni ta'lim tili sifatida tan oladi. U yerda mahalliy tilda o'qitish mavjud bo'lsa ham, bu ko'pchilik o'quvchilarning ona tili bo'lmasligi mumkin. Buning sababi mamlakatda 2000 nav borligi, Aksar hollarda esa mazkur vazifani xalqaro tillar bajarishi qayd etiladi.

Maktab domenidagi ishtirokchilarning birinchi guruhi o'quvchilar bo'lsa, ikkinchi guruhi - o'qituvchilar jamoasi. O'qituvchilar yoshi, jinsi, tayyorgarligi, tajribasi, ijtimoiy mavqei va til bilish kabi mezonlarga ko'ra farq qiladi. Bu erda nisbatan bir xillik yoki xilma-xillik bo'lishi mumkin. Jamiyatning o'qituvchilarga beradigan madaniy qiymati ham sezilarli darajada farq qiladi. Qadimgi Rimda o'qituvchilar qul bo'lgan; ba'zi boshqa an'anaviy jamoalarda ular ruhoniylar edi. Ko'pgina mamlakatlarda o'qituvchilarning maoshi kam va bu kasb ayollarga turmushga chiqmaguncha yoki farzandlari uydan chiqib ketgunga qadar mos deb hisoblanadi. O'qituvchilarga ko'rsatiladigan hurmat ularning dars berish darajasiga qarab farq qiladi, masalan, universitet o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qaraganda yuqoriroq. O'z shogirdlari singari, o'qituvchilar ham o'zlari bilan jamiyatda qo'llaniladigan tillar va til turlarining qadr-qimmatiga oid bir

¹⁶⁷ Barkhuizen, Gary, Knoch, Ute, and Starks, Donna, 2006, Language practices, preferences and policies: Contrasting views of Pakeha, Maori, Pasifika, and Asian students, *Journal of Multilingual and Multicultural Development* 27(5): 375–391.

qator ko'nikmalarni olib kelishadi. Odatda o'qituvchilarning turli muhitlar va xilma-xilliklarga moslashuvchan ekanligi maktab til xilma-xilligi va rasmiy tilning muhim qiymatini anglashga yordam beradi. Ozchiliklar guruhlarida a'zolari ham ko'pchilik guruh a'zolari kabi faqat dominant tilda o'qitish to'g'risidagi qarorlarni tan olib, uning milliy birlik va shaxsiy iqtisodiy muvaffaqiyat uchun ahamiyati haqidagi keng tarqalgan jamoatchilik ko'nikmalarini qabul qilishlari mumkin. O'qituvchilar o'zlarining til amaliyotlarini o'z e'tiqodlaridan farqlashda boshqalardan ustun emaslar. "Arab tilida so'zlashuvchi o'qituvchilar standart arab tilida gaplashishlarini aytishadi, lekin aslida ular mahalliy xalq tilining biroz standartlashtirilgan shaklidan foydalanishga moyildirlar"¹⁶⁸.

Til tafovutlarini ta'lim jarayonida integratsiya qilish ya'ni barcha uchun tushunarli tilda ta'limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi til tafovutlari jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy, iqtisodiy va lingvistik yaqinligi, keskin farqlanmasligi muhim jihatlardandir. Rivojlanayotgan jamiyatlarda yoki immigrantlar soni ko'p bo'lgan jamoalarda, odatda ozchilikdagi o'quvchilar, o'qituvchilar ko'p yillik o'qishni muvaffaqiyatli tugatganlardangina yollanishini xohlashadi. Bolalar boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng bir-ikki yillik o'qitish uchun o'qituvchilarni ishga olish mumkin bo'lganda, xalq tilida so'zlashuvchilarni qabul qilgan maqsadga muvofiq. Agar ular oliy ta'lim dasturlarini tamomlagan bo'lsa, oila va maktab tillari orasidagi farq, o'qituvchilar o'z o'quvchilari tushunmaydigan tildan foydalanishlari haqiqati yanada kuchayadi. Bunday vaziyatlarda birinchi vazifa o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida aloqa o'rnatishdir.

Maktab domenida til muhitini belgilovchi boshqa potentsial muhim ishtirokchilar ham bor. Ulardan birinchisi maktablarda direktorlar va bo'lim mudirlari, universitetlarda professorlar, dekanlar va kafedralar, xususiy maktablarda mulkdorlar va menejerlar – o'qituvchilar bilan bir guruhda bo'lishi mumkin bo'lgan va hokimiyat oldida javobgarlikka ega mansabdor, ta'lim va til siyosatini boshqarish bo'yicha ma'sullar hisoblanadi. Ular rollaridan kelib chiqib o'quvchilardan uzoqroq, tashqi ma'muriyatga yaqinroq, yuqori muassasa vakili bo'lishi mumkin. Ko'pincha ular boshqa mintaqalardan olib kelinadi yoki chet ellik bo'lishi mumkin, natijada til malakalari va ko'nikmalari sezilarli darajada farq qiladi.

Maktab lisoniy vaziyatida lingvistik muhitni belgilovchi navbatdagi muhim guruh mahalliy bo'lishi mumkin bo'lgan akademik bo'lmagan yordamchi xodimlar(avtobus haydovchilari, kotiblar, farroshlar va oshpazlar). Bu guruhga mansub mahalliy tillarda gaplasha oladigan xodimlar ayrim hollarda o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqot qila oladigan muhim vakillar bo'lishi mumkin.

¹⁶⁸ Amara, Muhammad Hasan, 1988, Arabic diglossia: Conditions for learning the standard variety, Aljadid 12: 14–23.

Ma'lumot darajasi jihatdan o'qituvchilardan quyida turuvchi xodimlarning sinfi va kelib chiqishi, til xilma-xilligi o'quvchilarnikiga yaqinroq hisoblanadi. Ular maktab(o'qituvchilar) va talabalar (jamiyat) o'rtasida muhim vositachi rol o'ynaydi.

Maktab lingvistik makonini boshqarish muarakkab jarayon bo'lib, o'qitish tili, xorijiy tillar sifatida o'qitiladigan tillar va mahalliy tillar maqomini yetarli darajada farqlash hamda ular orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, o'quvchiga ta'sir qila olish, kognitiv va axloqiy ko'nikmalarini nazorat qila olish maktab sharoitidagi va maktab nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlardagi til menejerlarining asosiy vazifalaridandir. Qayd etish lozimki, ko'ptillilik muhitidagi maktablar ko'p millatli mamlakatlar ta'limida mavjud bo'lib, Respublikalarda bunday tipdagi maktablarga yondoshuv turlicha. Masalan AQShda maktab til siyosati, menejerezatsiyasi davlatning ta'lim boshqarmasi tavsiyalariga asosan quyi bo'g'inlar takliflari va tavsiyalariga asosan turli lingvistik xilma-xillikda tashkillashtirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi ham ko'p millatli davlatlar sirasiga kiradi va mamlakatda bir nechta til ta'lim tillari sifatida belgilangan. Ammo mamlakatimizda asosan ta'lim tillari maqomini davlat ta'lim boshqaruviga ma'sul tashkilot belgilab beradi.

Qayd etilgan qarashlarning ta'lim tillariga bo'lgan ta'siri ham yuqori darajada. Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligining rasmiy saytida berilgan statistic ma'lumotlardan ta'lim tillariga aloqador quyidagi xulosalar anglashiladi¹⁶⁹. 1.Respublikadagi umumiy maktablar soni, maktab ta'lim tillari. 2.maktablardagi o'quvchilar soni, ta'lim olish tillari. Ta'lim tillariga aloqador quyidagi jihatlar mavhum ya'ni ma'lumot mavjud emas: 1. ta'lim tillarining hududiy lingvistik xaritasi. 2. Ta'lim tillari sifatida belgilanmagan ammo son jihatdan muayyan hududning kata aholi qatlamini tashkil etuvchi millatlar tillari maqomi masalasi.

Umuman olganda mamlakatda ta'lim tillariga e'tiborni yanada oshirish lozim. Jumladan mamlakatdagi ta'lim tillari sirasida e'tirof etilmaydigan ammo hududlarda miqdor jihatdan yuqori ko'rsatishni tashkil etadigan tillar maqomini qayta ko'rib chiqish. Hududlarda ta'lim tillarini belgilashda mahalliy tillar maqomini yuqori me'zonlardan biri sifatida belgilash. Hech bo'lmaganda boshlang'ich ta'limda mahalliy tillarning rolini hisobga olish. Chet tillari ta'limida tillarni o'quvchilarning iqtidoriga ko'ra tasniflash. Chet tillari maqomida mahalliy tillar ta'limini tashkil etish. Til siyosatini amalga oshirishda qo'l keladigan me'yoriy hujjatlarda chet tillari va mahalliy tillar maqomini belgilash va bunga bog'liq ravishda ta'lim tili sifatidagi maqomini aniq ko'rsatish. Ta'lim tillarini belgilashda yuqori tashkilotlar tavsiyasigina emas balki mahalliy tashkilotlar, o'quvchilar va ota-onalar takliflarini ham inobatga olish kabi masalalarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

¹⁶⁹ <https://uzedu.uz/uz/page/statistics>

Dunyoda ba'zi maktablar mavjudki, ularda boshqaruv asosan ichki bo'lib, maktab xodimlari (direktor, o'qituvchilar va boshqa tegishli mutaxassislar) o'zlarining ta'lim va lingvistik maqsadlarini belgilaydilar va ularga erishish uchun o'zlarining mos usullarini tanlaydilar. Ba'zi hollarda, o'quvchilarning ota-onalari maqsad va usullarni belgilash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkin. Ular tanlangan maktab kengashi a'zosi sifatida yoki moliyaviy kuchlari orqali maktab siyosatiga ta'sir qilishlari mumkin. Maktab siyosatiga ta'sir qiluvchi yana bir qancha omillar, vakillar, tashkilotlar mavjud. Jumladan ayrim hollarda maktab diniy rahbar yoki diniy tashkilot ta'sirida bo'lishi mumkin. Boshqalarida, demokratik tarzda saylangan, mintaqadagi bir nechta maktablar ustidan nazoratga ega bo'lgan maktab kengashi bo'lishi mumkin. Bu vakolat ayrim hollarda shahar kengashi kabi mahalliy organga beriladi. Boshqa hollarda, hokimiyat, markaziy hukumat, viloyat, tuman hokimliklari nazorati ostida bo'ladi. Odatda, maktab dasturlari bo'yicha vakolatlar ushbu darajalar orasida bo'linadi. Har bir tartibga solish muassasasi maktab tili dasturlarini yaratish va amalga oshirishga turli xil darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktab siyosatiga ta'sir qiluvchi omillar, vakillar, tashkilotlarning maktab ta'lim tili siyosatini boshqarishdagi ahamiyatini O'zbekiston ta'lim muassasalari misolida ko'rib chiqamiz. Ota-onalar tanlangan maktab kengashi a'zosi sifatida yoki moliyaviy kuchlari orqali maktab siyosatiga ta'sir qilish bilan birga maktab o'qitish tilini belgilashga ham ta'sir qilishlari mumkin. Jumladan ota-onalar ta'lim tili sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan til, mahalliy yoki rivojlangan xorijiy til bo'lishini talab qilishlari mumkin. Masalan Prezidentimizning aniq fanlar va xorijiy tillarni o'rgatishga oid tashabbuslari, qabul qilgan qarorlari natijasida xorijiy tillar bo'yicha 207 ta ixtisoslashtirilgan maktab tashkil topdi¹⁷⁰. Mazkur maktablar mamlakatning turli hududlarida tashkil etilgan bo'lib, ushbu muassasalar ota-onalar talab-takliflari va o'quvchilarning qiziqishiga asosan tashkil etilgan. Shuningdek ota-onalar o'zlarining millati, milliy tillariga bog'liq ravishta ta'lim tilini mahalliy tillarda olib borilishi yuzasidan ta'lim tashkilotlariga taklif bilan chiqishlari mumkin.

Diniy rahbar yoki diniy tashkilot ta'sirida shakllantirilgan maktablar. Bunday maktablar asosan diniy vakillar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan muassasalar hisoblanib, mazkur madrasalarda asosan diniy ta'limotlar asosida ta'lim beriladi. Bunday maktablarga asosan o'quvchilar o'rta yoshlardan qabul qilinadi. O'zbekistonda bunday madrasalar 12 tani tashkil etishi manbalarda qayd etilgan(diniy plyuralizmni inobatga olib raqamlar ortiqroq bo'lishi mumkin. Bu

¹⁷⁰ <https://president.uz/oz/lists/view/4922>

yerda faqatgina islomiy madrasalar soni keltirilgan)¹⁷¹. Mazkur madrasalarda ta'lim diniy tillarda olib boriladi.

Demokratik tarzda saylangan, mintaqadagi bir nechta maktablar ustidan nazoratga ega bo'lgan maktab kengashi tomonidan boshqariladigan maktablar. Mazkur boshqaruv tizimi mamlakatimizda yaqin yillardan buyon shakllana boshladi va endi joriy etilmoqda. Ammo to'liq holda bu tizim hozircha mavjud emas xususan ta'lim tilini belgilash darajasiga yetmadi. Faqatgina maktab doirasidagi va hudud miqyosidagi masalalarni bartaraf etishgagina qodir. Ammo kelgusida bunday boshqaruvchi mahalliy kengashlarning maqomi ortib boraveradi, buni mamlakatdagi mavjud siyosat ko'rsatmoqda.

Hokimiyat, markaziy hukumat, viloyat, tuman hukumatlari nazorati boshqaruvi. Boshqaruvning mazkur turi jahonning ko'plab mamlakatlarida amal qiladi, shu jumladan O'zbekistonda ham. Hozirda ta'lim boshqaruvi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Xususan, ta'lim tillari mazkur tashkilot tomonidan belgilanadi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim tillari maqomini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni bunda muassasaning lisoniy manzarasini aniqlash shu asosda ta'lim tillari maqomini belgilash amaliyoti joriy etiladi. Ko'p millatli mamlakatlarda ta'lim muassasalarida lingvistik muhit turlicha bo'ladi. Masalan O'zbekistonda bunday holat mavjud ammo shunga bog'liq ravishta ta'lim jarayonini tashkil etish ishlari yetarli darajada olib borilmaydi. Mamlakatning ko'plab hududlarida bir nechta millatga mansub oila vakillari bir maktabda tehsil olishadi. Ko'p hollarda esa mazkur o'quvchilarning ta'lim tillari yagona bo'ladi. Aslida esa DTS talablariga muvofiq xorijiy til bo'ladimi, mahalliy til bo'ladimi muayyan tilga mansub til vakillari aniqlansa, ular uchun o'zlarining tilida ta'lim tashkillashtirilishi zarur. Jumladan Respublikamizning ko'plab hududlarida bir necha millatga mansub turli tillarda so'zlashuvchi millatlar vakillari belgilangan miqdorni tashkil etsa ham ular uchun o'zlarining tillarida ta'lim jarayoni tashkil etilmasligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayrim hududlarda o'zbek, tojik, qirg'iz yoki o'zbek, qozoq, rus bolalari qayd etilgan vaziyatlarga duch kelishadi. Bu ayniqsa ikki tillilik holatida ko'proq uchraydi. Toshkent viloyati, buxoro, Samarqand va boshqa viloyat va shaharlarda bunday holatni ko'plab uchratish mumkin. Bu vaziyatlarda turli vajlar ko'rsatiladi va shu vajlarga mos ravishda turli yo'llar bilan masala yechiladi. Ammo bunday masalalarning yagona yechimi shu millatlar tillarida ta'limni tashkil etish hisoblanadi. Chunki faqatgina shu yo'l tutilganda ta'lim natijadorligi va o'quvchi ko'nikmalaridagi o'zgarishlarning samarasini ko'rish mumkin. Qayd etish joizki,

¹⁷¹ https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://madrasa.uz/uzbda-ishlab-turgan-madrasalar.html&ved=2ahUKEwjtosji7Z79AhWoBhAIHReACyIQFnoECAwQAQ&usg=AOvVaw3fku hg-2zioWKK_hPSu8J

mamlakatning ayrim hududlarida mahalliy tillarda faoliyat olib boruvchi maktablarni uchratishimiz mumkin.

Maktab til siyosatining eng yaxshi modeli bo'yicha ta'lim argumentlaridan keyingi muhim masala - bu til turlarining holati. Har bir potentsial o'qitish tili qanchalik yaxshi rivojlangan? Yozilmagan va standartlashtirilmagan xalq tili, dialekt, kreol yoki pidjindan standart yoki klassik tilgacha bo'lgan aniq shkala mavjud. Bu borada O'zbekistondagi holat qanday? Belgilangan shkala bo'yicha hisoblash ishlari olib borilganmi? Bizning kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalari lingvistik manzarasi hech qanday manbada aks etmagan. Maktablarda asosan standart adabiy tilda ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Boshqa millat vakillari tili masalasiga e'tibor qaratilmaydi. Xatto adabiy tilda ta'limni tashkillashtirib, og'zaki muhitda o'z o'quvchilari bilan mahalliy tilda suhbatlashadigan o'qituvchilarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Aslida fikrlash va tafakkur qilish oson bo'lgan tilda ta'limni tashkillashtirish kutilgan natijani beradi. Nazarimizda ta'lim muassasalaridagi lingvistik holatni lingvistik muhitni boshqaruvchi ma'sullar aniq ko'rsatib berishi lozim. Shundagina til siyosatida samarali natijalarga erishilishi mumkin(bu o'rinda to'liq mahalliy tillarda faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalari nazarda tutilmayapti. Aslida har qanday tilda ta'limni tashkil etadigan muassasalar o'z lingvistik manzaralarini jamoatchilikka namoyon qilishsa maqsadga muvofiq bo'ladi). Rivojlangan xorijiy tillarda ta'limni tashkil etuvchi muassasalarda ham bu tajriba joriy etilishi lozim.

Mahalliy yoki oilaviy dialect yoki tilni o'qitish tili sifatida ishlatmoqchi bo'lgan maktab dasturlari tilni o'stirish komponenti uchun qo'shimcha qiyinchiliklar va xarajatlarga tayyor bo'lishi kerak. Tilni o'stirishning ushbu omili o'qitishning yuqori darajalarida tobora muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim uchun tegishli terminologiya va materiallarni ishlab chiqish juda qiyin. O'rta bosqichda, ayniqsa fanlar ortishi va rivojlantirib borilishi bilan bu jarayon yanada murakkablashadi. Yuqoridagi murakkab omillarni inobatga olib ko'plab davlatlar ta'lim tizimlari xalqaro tillarda ta'lim jarayonini tashkil etishni afzal deb bilishadi. Faqat ta'lim yoki lingvistik nuqtai nazardan maktab til siyosatini aniqlash, belgilash holatlari kamdan-kam uchraydi. Chunki bu boshqa bir qator omillarga ham bog'liq. Odatda maktablar ularni boshqarayotganlarning mafkuraviy pozitsiyasini aks ettiradi; Ular tabiatan konservativ institutlar bo'lib, o'rnatilgan tamoyillarga rioya qiladi. Ularning siyosati milliy hukumat siyosati bilan hamohanglik kasb etadi va boshqariladi.

O'qitish tili ta'limi siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni multimedia dasturida ikki (yoki undan ko'p) tilga ajratilgan o'quv haftasi nisbatini o'zgartirish orqali boshqarilishi mumkin. Ajratish vaqt bo'yicha emas, balki fanlar

bo'yicha bo'lishi mumkin: matematika va tabiiy fanlar xalqaro va rivojlangan tillarda o'qitilishi ehtimoli ko'proq. Maktablar va siyosatchilarni ko'pincha mahalliy tilda o'qitishda atamalarni ishlab chiqish muammolaridan qochib, fanni ingliz tilida o'qitish g'oyasiga jalb qilinadi. O'tish dasturlarida barcha o'qitish birinchi tilda (nazariy jihatdan ona tilida, lekin ko'p tilli sohalarda barcha o'quvchilarning ona tili bo'lmasligi mumkin) boshlanadi va asta-sekin rasmiy tilga ajratilgan vaqtni oshiradi. Ayrim hollarda tillarning ta'limdagi nufuzini saqlab qolish maqsadida Ta'mirlash dasturlari amalga oshiriladi. Mazkur dasturlardda agar vaqtga asoslanilgan bo'lsa, kunlik ona tili darslari, agar fanga asoslanilgan bo'lsa, ona tilida o'qitiladigan fanlarning ta'limdagi o'rni saqlab qolinadi. Muayyan muaassasada nufuzli milliy, rasmiy, xalqaro tillardan birining ta'lim tili maqomini egallab olishi, mazkur hududdagi oila tillari, nisbatan qo'llab-quvvatlanmaydigan xalq tillari, ozchilik tillarining o'quv dasturidan yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday tillar hali ham o'quvchilar yoki o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi mumkin. Ulardan birortasi kuchli etnik tayanch yoki an'anaviy adabiyotga ega bo'lsa, fanlar tarkibida mavzular ajratilishi mumkin.

Til ta'limida ikki jihatni farqlash lozim. 1-o'qitish tili. 2-qo'shimcha tillar. 1-sida ta'lim jarayoni olib boriladigan, 2-sida ta'lim jarayonida o'qitiladigan til anglashiladi. Birinchisida o'qitish tilini tanlash, ikkinchisida qo'shimcha tillarni o'rgatish nazarda tutiladi. O'qitish tili rasmiy tilda tashkil etilishi ko'plab hollarda kuzatiladi. Mamlakatda davlat tili o'rnatilgandan so'ng ko'plab ta'lim muaassasalari ta'limni shu tilda tashkil etishadi. Ammo mazkur mamlakatdagi davlat tili ona tili bo'lmagan fuqarolar uchun o'z ona tilida ta'limni yo'lga qo'yish qo'shimcha harakatlarni talab qiladi. Bu jarayon davlat tilining nufuzi oshib borgan sari kuchliroq tus olishi mumkin. Shuningdek, maktablarda ta'lim tili sifatida belgilanadigan va ikkinchi til sifatida o'qitilishi lozim bo'lgan tillarning maqomini belgilash mamlakat siyosiy pozitsiyasiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Qaysi siyosat qabul qilinishi ta'lim tizimi rahbarlari, jamiyat va boshqaruvchi hokimiyatning tegishli turlarning qiymatiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Odatda, oila tili turlarini mensimaslik yoki nafratlanish holatlari namoyon bo'ladi. plyuralizm tushunchasi chetga suriladi. Bu jihatni mahalliy til xilma-xilligini e'tiborga olinmay ta'lim muassasalari til siyosatini belgilash va uni tashkillashtirish holatlarida ko'rish mumkin. Boshqa tomondan, xalqaro va rivojlangan tillarga ancha yuqori maqom beriladi. Ular ta'lim tili sifatida tanlanmagan bo'lsa ham muntazam ravishda maktab o'quv dasturida imtiyozli maqomga ega bo'ladilar. Buning yaqqol misoli ingliz tili bo'lib, u birinchi yoki ikkinchi til bo'lmagan ko'pgina mamlakatlarda o'qitiladigan birinchi chet tilidir. Ba'zi hollarda, rasmiy ikkinchi tillarning o'rnini bosadi va davlat maktablarida u nominal rasmiy ikkinchi tildan jiddiyroq o'qitiladi. Bu jihatni biz O'zbekistonda nafaqat ingliz balki, rus tili

misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Til tanlash masalasi ko‘pincha turli tillarni tanlash bilan murakkablashadi. Umuman olganda, maktablar tilning adabiy yoki yozma standart shaklini o‘rgatadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri metod, audio-lingual metod yoki kommunikativ yondashuv kabi til o‘rgatish mafkuralari ta'siri ostida o‘quv dasturining kichik bir qismi sifatida og‘zaki til qo‘shilishi mumkin.

Chet tilini belgilashda bir qator jihatlariga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Birinchi jihat bu til yoki til turini tanlash. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida garchi Osiyoda xitoy tiliga, roman tillari bo‘lgan mamlakatlarda ispan yoki frantsuz tiliga, sobiq Sovet Ittifoqida esa rus tiliga biroz inertsia mavjud bo‘lishiga qaramay ingliz tili hozirda birinchi chet tili hisoblanadi. Qayd etilgan o‘lkalarda ingliz tili bilan bir qatorda chet tili sifatida qabul qilingan tillarning bir qator(tarixiy (sobiq mustamlaka maqomi), geografik (asosiy mintaqaviy tillar), tobora iqtisodiy (asosiy savdo sherigi)) ommalar bilan bog‘liqligi bor. Shuningdek, ishtirokchilarning e’tiqodi, qadriyatlariga aloqador bo‘lishi mumkin. Ishga joylashish yoki iqtisodiy taraqqiyotga erishishda tilning ahamiyati ota-onalar dunyoqarashlariga ko‘proq ta'sir qiladi. Ta'lim muassasalari ushbu jihatni mavjud bo‘lgan materiallar, usullar, o‘qituvchilar bilan bog‘lashlari mumkin. Ta'lim tizimlari uchun qo‘shimcha tillar to‘g‘risidagi qaror yuqoridan, turli ta’sirlar natijasida belgilanishi yoki maktablar ixtiyorida qoldirilishi mumkin. Jumladan. Bir muncha vaqtdan beri Yevropa Kengashi va Yevropa hamjamiyati a’zo davlatlarni ingliz tilidan boshqa tillarni qo‘shish uchun ikkita qo‘shimcha til o‘rgatishga ko‘ndirishga harakat qilmoqda. Milliy tillarni tarqatish agentliklari (Britaniya Kengashi, Alliance Française, Gyote instituti, Yaponiya jamg‘armasi) boshqa mamlakatlardagi maktab tizimlariga ularning tillarini o‘zlashtirishga ta'sir o‘tkazishga harakat qilib kelmoqda. Til tanlanganidan so‘ng, xilma-xillik haqida savol tug‘iladi. Ayniqsa, ingliz tili bilan bog‘liq holda, ba'zi mamlakatlarda ingliz yoki amerikacha ingliz tilini o‘rgatish haqida munozaralar bo‘lgan.

Keyingi keng tarqalgan munozara chet tilini qachon o‘qitishni boshlash bilan bog‘liq. Yevropa ta’lim tizimlarida ko‘p yillar davomida chet tillari faqat o‘rta ta’lim bosqichida o‘quv dasturiga kiritildi. Bu boradagi munozaralar odatda qarama-qarshi qadriyatlar va qarashlarga asoslanadi. Ba'zi odamlar “chet tilini o‘rgatishda milliy tilning bola ongida mustahkam o‘rnatilishini kutish kerak” deb hisoblashadi. Odatda ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda boshqa tillarni o‘rgatish unchalik muvaffaqiyatli emasligi va ingliz tilida so‘zlashmaydigan mamlakatlardan sezilarli darajada farq qilishi qayd etiladi. Dunyoning boshqa qismlarida ham bu borada maktab tizimlari juda xilma-xil natijalarga erishadi. Sababi maktab o‘quv dasturida qo‘shimcha til o‘rgatish uchun ajratilgan soatlar yetishmaydi.

Maktablarda tilni boshqarish tizimini yaxshiroq tushunish uchun biz foydalanilishi mumkin bo‘lgan ba'zi vositalarni qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Hozirgacha biz o'quv rejasi, maktab ta'limi mazmunini loyihalash, o'qitish tilini tanlash va til o'rganishda boshlang'ich yoshni batafsil ko'rib chiqdik.

Maktab ta'limida o'qituvchilar tilni boshqarishning asosi vositasi sifatida qaraladi. Faqat ona tilida so'zlashuvchilar o'z tillarini o'rgata oladilar degan qarash ushbu harakatga turtki bergan. Bunday yondoshuv mustamlakachi davlat til siyosatini joriy qilishda asosiy kuch bo'lib, mahalliy tillarning mavqeini pasaytirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shunday qilib, o'qituvchilarni tayyorlash, malakasini oshirish, ishga olish va yollash maktab tili siyosatini boshqarishning asosiy jihatiga aylanadi. Ushbu jihatlarning har biri markazlashtirilgan bo'lishi mumkin. Bu til ustidan markaziy boshqaruvni kuchaytirilishiga yoki turli darajalardagi bo'g'inlarga topshirilishiga, lingvistik xilma-xillikning rag'batlantirilishiga olib kelishi mumkin.

Maktab tilini boshqarishning kuchli usuli - bu ma'lum tilni bilmaydigan talabalarni chetlab o'tish yoki tanlangan tillarda so'zlashuvchilarni rag'batlantirish, qabul qilish uchun talablarni belgilashdir. Maktab (davlat yoki xususiy) qabul qilish mezonlarini belgilashga qaror qilgandan so'ng, o'quvchilarni akademik, ijtimoiy va lingvistik jihatdan muvaffaqiyatga erishish darajasiga ko'ra tanlashga harakat qilish tabiiy tendentsiyasi mavjud. Muhojirlarga maktab tilini o'rgatish bo'yicha maxsus dastur kabi malakasiz o'quvchilarni assimilyatsiya qilishni ta'minlaydigan belgilangan dastur mavjud bo'lmasa, maktablar maktab tilini hali yaxshi bilmaydigan bo'lajak o'quvchilarni chetlab o'tishga qiynalishadi. Birlashgan Qirollik Ta'lim va ko'nikmalar departamentining 2007 yildagi Maktabga Qabul Kodeksiga ko'ra, aksariyat maktablarda ariza topshirgan barcha bolalar uchun etarli joylar mavjud. Yetarli bo'lmagan hollarda mahalliy ta'lim organi yoki maktab boshqaruv organi aniq va ob'ektiv tarzda "qo'shimcha o'rin mezonlarini" belgilashi kerak". Tanlangan maktablar (masalan, akademik litseylar) qobiliyat (shu jumladan, fan qobiliyati) va qobiliyatning ob'ektiv testlaridan foydalanishi mumkin. Ammo umumiy o'rta ta'lim maktablari faqat eng yaxshi o'quvchilarni tanlay olmaydi.

O'zbekistonda davlat tili siyosati samaradorlik darajasi pastligi omillari: 1) til siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona tashkilotning mavjud emasligi; 2) hukumatda til siyosatini belgilovchi qonunlar borasida yakdillik bo'lsada, til siyosatida belgilangan me'yorlar amaliyotida tarqoqlik mavjudligi; 3) o'zbek tilining ilmiy tadqiqida davlat tili me'yorlarini belgilashga asos bo'ladigan, mutaxassislar tomonidan yuksak baholangan fundamental tadqiqotning mavjud emasligi. 4) til taraqqiyoti yo'lida yo'naltirilgan iqtisodiy sarmoyalarning to'g'ri taqsimlanmayotgani yoki yetarlicha ajratilmayotganligi; 5) til ilmiy tadqiqida tizimlilik mavjud emasligi; 6) o'zbek tilining milliy korpusi mavjud emasligi; 7) Til siyosatini to'g'ri tashkil etuvchi kadrlar yetishmasligi.

Ijtimoiy o'zgarishlarga turtki beruvchi asosiy omillarning O'zbekiston davlat tili siyosatidagi o'rni quyidagi jihatlar bilan baholanishi mumkin: 1. Muhit. O'zbek tilining jamiyat muhitiga bog'liq ravishda o'zgarganligi Respublikamizning mustamlaka va mustaqil davlat pozitsiyasidagi misolida ko'rinadi; 2. Aholi soni. Mustaqillik arafasida mamlakatimizda 19 mln aholi ro'yxatga olingan. Bugungi kunga kelib 35 mlanni tashkil etayotganligi rasmiy manbalarda qayd etiladi. Jamiyat a'zolarining ko'payishi o'zbek tili segmentining oshishiga olib keldi; 3. Kashfiyot va ixtiro. Dunyo bo'ylab amalga oshirilgan kashfiyot va ixtirolar o'zbek tiliga ham ta'sir etmay qolmadi; 4. Madaniy diffuziya. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat mavjudligi turli madaniyatlar va tillarning yonma-yon shakllanishiga olib keldi; 5. Mafkuralar. XII asrda arab tilining turkey tillarga ta'siri islom dini g'oyalari bilan uzviy bog'liq; 6. Qaror qabul qilish. Respublikaning mustaqillikka erishishi arafasidagi o'zbek tilining rasmiya til sifatida qabul qilinishi bu omilga mos keladi.

Davlat tili sifatida qabul qilingan tillar Respublikadagi barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi ta'lim tizimining ham ish yurituv tiliga aylanadi. Ta'lim tizimi tomonidan qabul qilingan til siyosati tilni boshqarishning eng qudratli kuchlaridan biridir.

Maktabdagi plyuralizm yoki ko'p tillilik har bir til uchun yagona to'g'ri yozish tizimini qabul qilsa, standartlashtirishga bo'lgan intilish har qanday tilni tan olishni rad etadi. Ko'p millatli mamlakatlarning, ko'p millatli hududlarida tashkil etilgan talim muassasalarida ko'p tillilik muhiti hisobga olinishi lozim.

Maktabda ta'lim o'z tabiatiga ko'ra tilni boshqarishga qaratiladi. Mazkur jarayonda ikki asosiy ishtirokchi - bu til tajribasi va ko'nikmasi o'zgartirilishi kerak bo'lgan o'quvchilar va o'zgartirish jarayoni zimmasiga yuklangan o'qituvchilar qatnashadi. Maktab domenida til muhitini belgilovchi boshqa potentsial muhim ishtirokchilar ham bor. Ulardan birinchisi maktablarda direktorlar va bo'lim mudirlari, universitetlarda professorlar, dekanlar va kafedralar, xususiy maktablarda mulkdorlar va menejerlar - o'qituvchilar bilan bir guruhda bo'lishi mumkin bo'lgan va hokimiyat oldida javobgarlikka ega mansabdor, ta'lim va til siyosatini boshqarish bo'yicha ma'sullar hisoblanadi. Maktab lisoniy vaziyatida lingvistik muhitni belgilovchi navbatdagi muhim guruh mahalliy bo'lishi mumkin bo'lgan akademik bo'lmagan yordamchi xodimlar (avtobus haydovchilari, kotiblar, farroshlar va oshpazlar).

Maktab lingvistik makonini boshqarish muarakkab jarayon bo'lib, o'qitish tili, xorijiy tillar sifatida o'qitiladigan tillar va mahalliy tillar maqomini yetarli darajada farqlash hamda ular orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, o'quvchiga ta'sir qila olish, kognitiv va axloqiy ko'nikmalarini nazorat qila olish maktab sharoitidagi va maktab nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlardagi til menejerlarining asosiy vazifalaridandir.

O'zbekistonda ta'lim tillariga doir quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim: mamlakatdagi ta'lim tillari sirasida e'tirof etilmaydigan ammo hududlarda miqdor jihatdan yuqori ko'rsatki tashkil etadigan tillar maqomini qayta ko'rib chiqish. Hududlarda ta'lim tillarini belgilashda mahalliy tillar maqomini yuqori me'zonlardan biri sifatida belgilash. Hech bo'lmaganda boshlang'ich ta'limda mahalliy tillarning rolini hisobga olish. Chet tillari ta'limida tillarni o'quvchilarning iqtidoriga ko'ra tasniflash. Chet tillari maqomida mahalliy tillar ta'limini tashkil etish. Til siyosatini amalga oshirishda qo'l keladigan me'yoriy hujjatlarda chet tillari va mahalliy tillar maqomini belgilash va bunga bog'liq ravishda ta'lim tili sifatidagi maqomini aniq ko'rsatish. Ta'lim tillarini belgilashda yuqori tashkilotlar tavsiyasigina emas balki mahalliy tashkilotlar, o'quvchilar va ota-onalar takliflarini ham inobatga olish.

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonun moddalari nihoyatda demokratik va bag'ri kenglik tamoyillarga tayanib shakllantirilgan bo'lib, Qonun me'yorlariga amal qilmaslik oqibatlarini aniq me'zonlar asosida belgilanmagan. Qonun hujjatida belgilanadigan me'zonlarga lingvistik va huquqiy me'yorlarning nazariy-metodologik, amaliy manbalari asos qilib olinsa, Qonun qiymati yuksalishi bilan birga, til siyosatini amalga oshirish oson bo'ladi.

2 Ma'naviy taraqqiyot jarayonida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirishning muhim omillari sifatida Davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari, amaliy manbalari tahliliga o'tishdan avval davlat tili siyosatida asos bo'lib xizmat qiladigan "Davlat tili haqida"gi Qonunda e'tibor qaratilgan masalalar ularning lingvistik, huquqiy asoslari va amaliy manbalari masalasiga hamda ushbu jihatlar mazkur qonunning qabul qilinishida qanchalik ahamiyat kasb etganligiga e'tiborimizni qaratishni joiz deb bildik.

3. Jamiyatimiz ma'naviy hayotidagi innovasion jarayonlar – davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish omili O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek tili davlat tili maqomiga ega bo'ldi, bu milliy o'ziga xoslik va ma'naviy tiklanishni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. O'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

4. Vijdon erkinligining milliy qadriyatlari va tamoyillari o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga, axloq va ma'naviyatni tarbiyalashga yordam beradi, shuningdek ko'p millatli jamiyatda uyg'un yashashni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillari kontekstida o'zbek tilini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish O'zbekistonning ma'naviy va madaniy asoslarini mustahkamlashning muhim shartidir.

5. O'zbek tili O'zbekistonning davlat tili sifatida milliy o'ziga xoslik va ma'naviy tiklanishni shakllantirishning asosiy vositasidir. Uning tarbiyaviy maqomini mustahkamlashda bag'rikenglik va ma'naviy boy jamiyatni shakllantirishga hissa qo'shadigan vijdon erkinligining milliy qadriyatlari va tamoyillari muhim rol o'ynaydi.

IV BO'LIM.

O'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy mexanizmi va uni optimallashtirish imkoniyatlari

4.1. Ijtimoiy sohaga doir islohotlar – davlat tili tarbiyaviy maqomini oshirishning optimal mexanizmi

Mustaqil O'zbekistonning shakllanishi fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy sohadagi muhim islohotlar bilan birga keladi. Ushbu islohotlarning asosiy jihatlaridan biri o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish, bu ma'naviy boy va madaniy jihatdan rivojlangan jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

1. Tilning ta'lim maqomini oshirishda ijtimoiy sohaning roli

1.1. Ijtimoiy islohotlar va ularning ta'lim tizimiga ta'siri

Yashash sharoitlarini yaxshilash va sifatli ta'lim olish imkoniyatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy islohotlar o'zbek tilini ommalashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. O'zbek tilida ta'limdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash uning ta'lim muassasalarida faol foydalanilishiga yordam beradi.

1.2. Kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash

Kam ta'minlangan oilalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari aholining turli qatlamlari orasida o'zbek tilini ommalashtirishga xizmat qilmoqda. Bu uning asosiy ta'lim va tarbiya vositasi sifatidagi rolini kuchaytiradi.

2. Ta'lim islohotlari va ularning ijtimoiy soha bilan aloqasi

2.1. Zamonaviy ta'lim dasturlari

O'zbek tili va madaniyatini o'rganishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim dasturlarining joriy etilishi uning ta'lim maqomini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish va malakali o'qituvchilarni tayyorlash muhim rol o'ynaydi.

2.2. Ijtimoiy tashabbuslarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish

Kattalar savodxonligi va ta'lim dasturlari kabi ijtimoiy tashabbuslarning integratsiyasi o'zbek tilini turli yosh guruhlarida ommalashtirishga yordam beradi. Bu uning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi va milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy-madaniy tashabbuslar va ularning tilni ommalashtirishga ta'siri

3.1. Ommaviy tadbirlar va madaniy dasturlarning roli

O'zbek tilini ommalashtirishga qaratilgan madaniy festivallar, tanlovlar va ta'lim dasturlari kabi ommaviy tadbirlarni tashkil etish uning tarqalishiga va ta'lim maqomini mustahkamlashga yordam beradi.

3.2. Ommaviy axborot vositalari

O'zbek tilini ommalashtirish uchun ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Televidenie, radio va Internet platformalari til va madaniyatning tarqalishiga yordam beradi, uning ta'lim maqomini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tashabbuslarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish, kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash va madaniy tadbirlarni o'tkazish tilning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu chora-tadbirlar o'zbek tili ta'lim va ijtimoiy sohalarida muhim o'rin tutadigan ma'naviy boy va madaniy rivojlangan jamiyatni shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi zamon falsafasini to'la bayon etish uchun postmodernizmga alohida to'xtalishimiz lozim. Postmodernizm tarafdorlari ham o'z qarashlarida tilni falsafiyashtirishga harakat qiladilar. Postmodernizmni aksariyat kishilar g'ayrioddiy, ajib falsafa deyishadi, uning tarafdorlari kundan-kunga oshib bormoqda. Yo'nalishning yirik vakillari sifatida fransuz faylasuflari Jak Derrida, Jan Lioterlarni qayd etish mumkin, AQSHda ham mazkur ta'limot tarafdorlari talaygina. "Postmodern" so'zi moderndan so'ng degan ma'noni bildiradi. Fransuzchada "modern" zamonaviy degani. Postmodern, avvalo, yangi davr falsafasiga qarshi yo'naltirilgan falsafadir. Postmodernchilarning fikricha, fenomenologiya, hermenevtika va tahliliy falsafa mohiyatan yangi davr falsafiy g'oyalarini inkor etmaydi. Ular insonni cheklab qo'yuvchi "totalitar" tizimdan voz kechishga tayyor, xususan, ularning fikricha qat'iy mantiqiy tizimlar, tugal xulosalar, har qanday barqarorlikni izlash, nufuzli shaxslar yonida ta'zim qilish, hokimiyat strukturalari, shu o'rinda fan va texnika uzviylikini ta'minlashga intilish, insonlar o'rtasida doimiy kelishuvchanlikni mustahkamlashga urinish, eskirib qolgan madaniy va axloqiy g'oyalarga sig'inish kabilar har qanday "taz'yiqlar"ni zaiflashtirishga harakat qiladilar¹⁷².

Mazkur qismni shakllantirishda til siyosatining til siyosati, til maqomini boshqarish, tilni o'stirish va rivojlantirish, tilni o'zlashtirish siyosati kabi klassik bo'linishga asoslanish bizningcha samaraliroq usul hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu qismda til xizmatlarini ko'rsatishga asoslangan ko'p tillilik siyosati mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Til siyosatini tadqiq etishda asosiy e'tibor til maqomi bilan bog'liq siyosiy harakatlarni aniqlash va amalga oshirish jarayonlariga, ma'lum bir til, tur yoki to'plamga mos keladigan vazifalarni belgilashga qaratiladi.

¹⁷² Xudoyberganov R. Tilning ilmiy-falsafiy xususiyatlari// SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.773(1/2), Jan., 2023

Til siyosatida til boshqaruvini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkil etilgan agentliklar, organlar, yuqori ma'suliyatni zimmasiga olgan tashkilotlar, vakolatli shaxslarni farqlash lozim.

Hukumat faoliyatiga bog'liq ravishda davlat tili siyosatini amalga oshirishda uch funksiyani farqlash kerak bo'ladi. 1. Til siyosati huquqiy asoslari; 2. Til boshqaruvi amaliyoti; 3. Til siyosatining nazariy va eksperimental ilmiy tadqiqi. Shu nuqtayi nazardan davlat organlari ham til siyosatida turli funksiyalarni amalga oshiradi. Biz quyida yuqoridagi funksiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega davlat organlarining davlat tili maqomini belgilashdagi o'rnini tavsiflashga harakat qilamiz.

Davlat tili siyosatining huquqiy asoslarini qonun chiqaruvchi senat palatasi ishlab chiqadi va parlament tasdig'idan so'ng ijro etuvchi tashkilotlarga yuboradi. Qonun chiqaruvchi palata o'z navbatida til akademiyalari, nufuzli filologik OTMLar va soha mutaxasislari xulosalariga tayangan holda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni inobatga olib qonun loyihalarini ishlab chiqadi.

Til boshqaruvi amaliyoti bu ijro etuvchi davlat organlari faoliyati bilan aloqador bo'lib, qonun hujjatida belgilangan jihatlarning amaliyoti bilan shug'ullanadi. Bunday tashkilotlar sirasida birinchi navbatda adliya tizimini e'tirof etish joiz. Bu organ til me'yorlari to'g'ri qo'llanilishini nazorat qiladi va til me'yorlari buzilgan o'rinlarda muayyan jazo turlarini belgilaydi. Xususan sudlar Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan til qoydalari mazmunan to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanishiga doir qarorlar chiqarish bilan shug'ullanadi.

Til siyosati bilan shug'ullanadigan davlat idoralaridan biri bu ta'lim vazirligi hisoblansa, OAVni nazorat qiluvchi davlat muassasasi bevosita til boshqaruvini samarali tashkillashtirilishiga xizmat qiladi. Mazkur tashkilot radio-televideniya ko'rsatuvlari va eshtirishlarini qaysi tilda olib borilishini nazorat qila oladi.

Aslini olganda davlatning deyarli barcha organlari til siyosatida muhim bo'g'in vazifasini bajaradi va o'z faoliyati davomida muayyan darajada til siyosatini olib boradi. Faqatgina davlat tilida faoliyat olib boradigan davlat idorasi yoki vakili, barcha hujjatlarni rasmiy tilda rasmiylashtiruvchi organ, davlat tilida ish yurituvchi mehmonxona, shifoxona, savdo markazi til menejerlaridir. Chunki, ular davlat til siyosatini amalga oshiruvchilardir. Xususi sektorlarda vakolatlari doirasida til siyosatini yo'lga qo'yishga harakat qilayotgan menejerlar, alohida kotiblar va xodimlar ham shular jumlasidan.

Til siyosatining nazariy va eksperimental ilmiy tadqiqi filologik ta'limga asoslangan ilmiy muassasalar yoki shu sohada faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilar tomonidan olib borilishi mumkin.

Til siyosatining ilmiy tadqiqi asosan til akademiyalari tomonidan olib boriladi. Shuningdek, til akademiyalari til qonuniyatlarini shakllantirish, til

me'yorlarini ishlab chiqish, tilni rivojlantirish, o'stirish, til materiallarini nashr etish ishlari bilan shug'ullanadi. Ilk zamonaviy tamoyillarga asoslangan til akademiyalari sifatida 1584-yilda Florensiyada tashkil etilgan del Kruska akademiyasi, 1635-yilda Parijda tashkil topgan fransuz akademiyasi va 1713-yilda Ispaniyada shakllangan Real Academia Espanola akademiyalari qaraladi. Ular asosan yuqori ahamiyatli deb bilingan tillarning an'anaviy shaklini standartlashtirish va kodlashtirish bilan shug'ullangan.

Til siyosatida terminlarni tartibga solish alohida boshqaruv yondashuvlarini talab qilganligi tufayli u yo'nalishning kichik tarmog'i sifatida qaraladi. Til boshqaruvini muntazam, tizimli tartibda olib boorish uchun odatda mamlakatlar terminologiya qo'mitalarini shakllantiradilar va o'lkadagi terminologik tizimni tartibga solishni vazifa qilib belgilaydilar. Odatda terminologiya qo'mitalari til akademiyalari, til targ'ibot uyushmalarining asosiy faoliyatini tashkil etishi e'tirof etiladi. Chunki, til maqomidagi o'zgarish va yangilanishlar til taraqqiyotini yuksaltiradi. Terminlar bilan ishlash bir muncha murakkab jarayon bo'lib, u har doim tadqiqotchini ziyraklikka, sinchikovlikka chorlab turadi. "Ular modernizatsiya va globallashtayotgan dunyoning madaniyatlararo aloqasi natijasida yuzaga keladigan yangi tushunchalar, uslublar va qurilmalarni boshqarish uchun tilda yangi terminologiyani ishlab chiqishda mafkuraviy va amaliy muammolarga duch kelishadi"¹⁷³. Shunday bo'lsada, tadqiqotchi termin tanlash masalalarida muayyan yechimlarni topishi va taklif eta olishi lozim. Terminologiya atalishi yoki nomlashi lozim bo'lgan har bir narsa, predmet, joy, voqelikni chuqur tadqiq etish va shu o'rganishlar asosida muayyan mohiyat va ma'no kasb etgan, shakl va mazmun mutanosibligini o'zida mujassamlashtirgan, tarixiylik yoki zamonaviylik atkasiga ega bo'lgan jozibador birlikni taklif etishni talab qiladi. Terminologiya qo'mitalarining faoliyati keng yoritilmasa ham til boshqaruvida kata ahamiyat kasb etadi. Terminoglarning faoliyati ayrim hollarda tanqidlarga yoki e'tiroflarga olib keladi. Leksikograflar kabi ular ham tilning leksik fondini boyitib boradilar.

Terminologiyaning bir tarmog'i bo'lgan nomenklatura va joy nomlari ham til siyosatida o'ziga xos o'rin kasb etuvchi qiziqarli tarmoq hisoblanadi. Joy nomlari nafaqat ijtimoiy hayotda balki, jamiyatning barcha sohalari uchun ham yuqori ahamiyat kasb etadi. U bilan bog'liq muammolar tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa xalqaro miqyosidagi nomlanishlarda bir xillikni ta'minlash lozim. Ba'zan turli millatlar vakillari tomonidan hatto mamlakat nomlari ham milliy nomlanishlar bilan qo'llanish hollari uchrab turadi va bu tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Aslida har bir millat yoki davlat bunday nomlanishlarni ommaga havola etishi lozim. Terminologiya qo'mitalari va

¹⁷³ Fishman, Joshua A., 2006, Do not leave your language alone: The hidden status agendas within corpus planning in language policy, Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates Publishers.

agentliklari milliy hukumatlar doirasida shakllantiriladi va rivojlanadi. Ushbu yo‘nalish til boshqaruvining kichik bir tarmog‘i sifatida joy nomlarini tartibga solish, standartlashtirish ishlarini olib boradi. Istiqlolning ilk yillarida respublikamizda milliy atamashunoslik qo‘mitasi o‘z faoliyatini boshlagan, keyinchalik ushbu tashkilotning faoliyati tugatilgan edi. 2018-yilga kelib, O‘zR VMning “O‘zRVM huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori¹⁷⁴ bilan atamalar qo‘mitasi ish boshladi va yuqorida qayd etilgan milliy qo‘mita funksiyalari mazkur tuzilmaga yuklatildi.

Til menejerezatsiyasida maqomni belgilash, tartibga solishda til muharrirlari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular odatda bosma nashrlarda faoliyat olib borib, turli soha vakillari tomonidan yuborilgan ish va tezislarning uslubiy va punktuatsion kamchliklarini me‘yorlashtiradilar. Ular bu ishni nashriyotlar va matbaa uylarida ham amalga oshiradilar. Bu bilan til qonuniyatlarining to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlaydilar. Bu jihat esa, til boshqaruvining asosiy e‘tiboridagi hodisa sanaladi. Hozirgi kunda muharrirlik faoliyati rivojlangan tilli mamlakatlarda turli kameralar orqali amalga oshirilib, ularga bo‘lgan ehtiyoj pasayayotganini ko‘rsatmoqda degan qarashli mutaxassislar topiladi. Ammo unday emas. Ushbu faoliyat kamera orqali amalga oshirilganda ham, muharrir nazoratini ta‘lab qiladi. Aslida til muharriri dasturlari mukammallashsa, bu til boshqaruvi xususan til korpusi yuqori darajada tashkillashtirilganligini ko‘rsatadi. Bu muharrirlar faoliyatiga zarar keltirmaydi. Chunki, ular chop etilgan materiallarning so‘nggi so‘z aytuvchilaridir.

Til o‘rganish insonga bir qator imkoniyatlarni berishi qator tadqiqotlarda dalillangan. Til siyosatida ham tilning o‘zlashtirilish darajasi til boshqaruviga yuqori darajada ta‘sir etishi ushbu soha tadqiqotchilari tomonidan e‘tirof etilgan. Til o‘zlashtirilishini belgilash til boshqaruvi bilan aloqador tarzda amalga oshiriladi. Turli darajalarda tilni boshqarish til boshqaruvchilari tomonidan amalga oshirilib, til o‘zlashtirilishi qaysi tillarni o‘rganish manfaatli ekaniga qarab belgilanishi mumkin. Avvalo ona tilini o‘zlash tirish, uning muayyan shaklidan foydalanish oiladan boshlanadi. Oilada ota yoki ona bolalar gaplashishi mumkin bo‘lgan tilni belgilaydilar. O‘zbek oilalarida agar ota-onalari ikki til vakili bo‘lsa, ko‘pincha onaning tili bolaga birinchi navbatda o‘rgatiladi. Lekin bolalar ulg‘aygan sari oilada amal qiladigan so‘zlashuv shaklidan boshqacharoq shakllar borligini ham anglab boraveradi. Tengdoshlar tili, diniy til va maktab tili va til shakllari bola tili va nutqining bir muncha o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Til o‘zlashtirilishiga asosiy ta‘sir etuvchi maktabda tilning strukturasi va til birliklarini qo‘llash bilan bog‘liq bilimlar, til variantlari, turlarini o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Bu jihatlar til o‘zlashtirilishiga ta‘sir o‘tkazib, til shakllarini farqlash va yangi tillarning o‘rganilishiga turtki beradi. Bolalarga til o‘rgatish vositasi sifatida

¹⁷⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-4717157>

hukumatlar odatda maktabdan foydalanadilar. Shu tufayli ham ta'lim tili va qo'shimcha tillarni belgilash va ular bilan bog'liq masalalarni hal qilish hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Albatta buning ortida muayyan sabablar mavjud. Odatda ko'plab tashkilotlarda til menejerlari bo'lmaydi. Bunday hollarda, ta'lim vazirliklari, ta'lim menejerlari, ta'lim kengashlari mazkur vazifani amalga oshiradi. Aksar hollarda matbuot kotiblari ham muassasadagi til boshqaruvini olib borishi yoki nazorat qilishi mumkin.

Mamlakat tashqarisida tilning tarqalishi til boshqaruvi natijasi bo'lib, bu odatda davlatning ustuvir vazifalaridan biri sifatida oshkora yoki yashirin holda belgilanishi mumkin. Dunyo bo'ylab qator mamlakatlarda milliy tillarni davlat tashqarisida qamrovini kengaytirish borasida salmoqli ishlar olib borilib, ko'plab mas'ul idoralar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bunday rasmiy tashkilotlar sirasiga: Anglyada Britaniya Kengashi, AQShda AQSh Axborot agentligi (Davlat Departamentining filiali), Fransiyada frankofoniya tashkilotlarini kiritish mumkin. Shu bilan birga til va madaniyatni targ'ib qiluvchi institutlar ham faoliyat olib boradi. AQShda Karnegi, Ford va Rokfeller jamg'armalari, Germaniyada Gyote Instituti, Ispaniyada El Instituto Cervantes, Portugaliyada Instituto Camoẽes va boshqalar.

Til siyosatida til xizmatlarini ko'rsatish tarmoqlari ham alohida boshqaruv yondoshuvlarini talab qiladi. Til xizmatlari deganda nimani tushunish kerak? Til xizmatlarini to'rtta kata guruhga birlashtirish mumkin. 1. Nutqni tuzatish xizmatlari, 2. Til ta'limi xizmatlari, 3. Tarjima xizmati, 4. Til huquqi xizmatlari. Bular o'z ichida mayda guruhlariga bo'linishi mumkin.

Yetarli darajada muloqot tajribasi bo'lmagan, kommunikatsiya jarayonidagi muammolarini tan ola olgan individual so'zlovchi ham til xizmatlariga ehtiyoj sezadi. So'zlovchi odatda muloqotidagi muayyan kamchilikni his qilsa, yaqin do'stidan o'zi aytmoqchi bo'lgan gaplarni siz o'z nutqingizda manabu ifodani qanday voqelantirasiz deb so'rashi va shu orqali tuzatishi, yoki o'z nutqini boyitish, yanada ta'sirliroq qilish, mazmunli birliklarni qo'llash maqsadida lug'atlarga, kompyuter dasturlariga murojaat qilishi mumkin. Bu jarayonlarning yetarli darajada samara bermasligi nutqni tuzatish xizmatlariga ehtiyojni shakllantiradi.

Til xizmatlari orasida tarjima faoliyati til siyosatida tillar o'rtasida o'zaro til birliklarini almashuvchi jarayon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'ptillilik muammolariga qarshi turuvchi til vakillari sifatida tarjimonlar qaraladi. Aslida tarjima xizmatlarining eng minimal ko'rinishi oila doirasida kuzatilishi mumkin. Ko'ptilli bolalar oila a'zolarining tashqi dunyo bilan muloqotini yoki boshqa tilli xizmatchilar bilan kommunikatsiyalarini ta'minlashlari mumkin. Tarjima faoliyatining eng yuqori darajasi xalqaro biznes va milliy institutlarda namoyon bo'ladi. Tarjima va tarjimonlarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Bu o'rinda

e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat samarali tarjimonlarni tayyorlashda va bunga qancha vaqt sarflanishida. Shu bilan bir qatorda mashina tarjimalari ham sifat sari intilmoqda. Kelajakda bunday tarjima vositalari tarjima faoliyatida qulay vosita bo'lishi aniq. Ammo bu darajaga chiqish uchun shu faoliyat bilan shug'ullanayotgan kompaniyalar va unga investitsiya kiritayotganlar katta harakatlarni amalga oshirishlari lozim. Tarjima xizmatlari hozir katta biznesga aylandi va tadbirkorlik faoliyati sifatida jonlanmoqda. Tarjima faoliyati jamiyatning eng muhim sohalari harbiy aloqa, biznes, iqtisodiyot, ta'lim, yuridik, sog'liqni saqlash tizimlarida keng qo'llanmoqda va mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlash bilan bir qatorda innovatsiyalarni yetarli darajada tushunishni, tarqalishini ta'minlamoqda.

Xulosa qilish mumkinki, til siyosatini tadqiq etishda asosiy e'tibor til maqomi bilan bog'liq siyosiy harakatlarni aniqlash va amalga oshirish jarayonlariga, ma'lum bir til, tur yoki to'plamga mos keladigan vazifalarni belgilashga qaratiladi. Anglangan holda jamiyat tillari o'rtasida funktsiyalarni taqsimlashga ta'sir qilish uchun qilingan harakatlar til maqomini boshqarish hisoblanadi. Til siyosatida tillar maqomi mamlakatdagi milliy ko'p tillilik bilan bog'liq holda tilning funktsiyasiga qarab belgilanadi.

4.2. Jamiyatimizning hozirgi ma'naviy taraqqiyoti jarayonida o'zbek tilini obro'y-e'tiborini yanada yuksaltirishda lingvoma'naviyatshunoslikning ahamiyati

Yangi til siyosatining shakllanishi o'zbek tilining rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi, bu milliy o'ziga xoslik va ma'naviy tiklanishning muhim ramziga aylandi. Zamonaviy sharoitda milliy til korpusini tashkil etish o'zbek tilini saqlash, o'rganish va ommalashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

1. Milliy til korpusining tushunchasi va vazifalari

1.1. Milliy til korpusining ta'rifi

Milliy til korpusi o'zbek tilidagi yozma va og'zaki matnlarni o'z ichiga olgan elektron ma'lumotlar bazasidir. Bu lingvistik tadqiqotlar, o'quv materiallarini yaratish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

1.2. Til korpusining funktsiyalari va vazifalari

Til korpusining asosiy funktsiyalari til materiallarini yig'ish va saqlash, lingvistik hodisalarni tahlil qilish, lug'atlar va ma'lumotnomalarni ishlab chiqish va tilni avtomatik qayta ishlash bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

2. O'zbek tilining nufuzini oshirishda til korpusining roli

2.1. Ta'lim ahamiyati

Milliy til korpusi ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rganish uchun keng materiallar taqdim etadi. Bu zamonaviy til ma'lumotlariga asoslangan zamonaviy o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishga imkon beradi, bu esa o'qitish sifatini oshirishga va yoshlar orasida tilni ommalashtirishga yordam beradi.

2.2. Ilmiy tadqiqotlar

Til korpusi tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun ajralmas vositadir. Bu sizga tilning turli jihatlarini tahlil qilish, uning xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi, bu o'zbek tili va uning evolyutsiyasini chuqur tushunishga yordam beradi.

3. Jamiyatning ma'naviy rivojlanishi jarayonida til korpusi

3.1. Madaniy merosni saqlash

Milliy til korpusi O'zbekiston madaniy merosini saqlash va ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Unda xalqning tarixi, urf-odatlar va urf-odatlarini aks ettiruvchi matnlar mavjud bo'lib, ular ma'naviy qadriyatlar va milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga yordam beradi.

3.2. Raqamlashtirish va tilning mavjudligi

Raqamli korpusni tashkil etish o'zbek tilining keng auditoriya uchun ochiqligini oshirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, raqamli texnologiyalar tilni xalqaro miqyosda tarqatish va ommalashtirishda muhim rol o'ynaydigan globallashtirish sharoitida juda muhimdir.

Yangi yuz yillik – global muammolar asri. Bu muammolarni sanab adog'iga etish qiyin. Lekin ularning ba'zisi boshqalarini keltirib chiqarishini inobatga oladigan, ularga tizimli yondashadigan bo'lsak, birlamchi va ikkilamchi, bosh va yordamchi muammolarni farqlash mumkin bo'ladi.

Shaxs ma'naviyati global masalalar sirasida Markaziy o'rinni egallaydi. Zero, juda ko'p muammolar dialektik nuqtai nazardan oqibat xarakteriga ega, ularning aksariyati uchun shaxs ma'naviyati masalasi sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviyat masalasi milliy muammo, mustaqil xalqimizning taraqqiyot sharti sifatida kun tartibiga qo'yildi. 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" sobiq tuzum davrida yaratilgan. Unda ma'naviyat istilohining yo'qligidan ko'ra ushbu masalaning istiqboliga qay holatda ekanligini dalillaydigan kuchliroq asos bo'lmasa kerak. Bu lug'atda ma'naviy so'zi berilgan (1-tom, 454-sahifa). Demak, bu ma'naviyat ijtimoiy ongda faqat belgi sifatida mavjud bo'lganligidan, alohida borliq hodisasi maqomiga ega bo'lmaganligidan dalolat beradi. Balki bu holatga ma'naviyat so'zining rus va boshqa Evropa tillarida muqobili yo'qligi ham sabab bo'lgandir.

Mustaqillik yillarida ma'naviyat alohida soha o'quv predmeti sifatida ta'lim bo'g'inlarida o'qitila boshladi. Ko'plab o'quv adabiyotlari, qomus va lug'atlar chop etildi, ta'lim yo'nalishlari yo'lga qo'yildi. Bu borada misli qo'rilmagan katta

yutuqlar qo'lga kiritildi. Biroq bosh maqsad yillar o'tgan sari unutilib bordi. Ma'naviy yuksak shaxs tarbiyasidan ma'naviyat asoslari bo'yicha bilimli mutaxassislarini etishtirish yo'liga o'tib olindi. Ma'naviyat masalasi ixtisoslashib, tor yo'nalish – ilmda falsafa, ta'limda Madaniyatshunoslik asoslari bo'yicha o'quv predmetining mulkiga aylandi. Ma'naviy-ma'rifiy amaliyot esa faqat "tadbirlar" ummoniga cho'kib ketdi. Ko'plab fanlar ma'naviyat masalasidan yiroqlashdi. Xususan, tilshunoslik o'zining eng yaqin muammosiga yaqinlashmasdanoq begonalarashdi. Holbuki, ma'naviyatga eng yaqin hodisa tildir.

Til – ma'naviyatning ifodalovchisi va saqlovchisi, boyituvchisi va uzatuvchisi deya e'tirof etilgan bo'lsa-da, tilning millat ruhi va ma'naviyatini ifodalashini tadqiq qilish bo'yicha chuqur ishlar amalga oshirilmadi, bu borada o'zbek tilshunosligining istiqbolli yo'nalishlari shakllantirilmadi, maqsadlar qo'yilib, vazifalar belgilanmadi. Buning bir nechta sababi bor, albatta:

birinchidan, tilning ma'naviyatni saqlash va ajdodlardan avlodlarga uzatish vazifasini ilmiy o'rganish o'zbek tilshunosligi an'alarida yo'q edi;

ikkinchidan, G'arb va Evropa tilshunosligida til va ma'naviyat mushtarakligini muammo sifatida qo'yish urf bo'lmagan;

uchinchidan, o'zbek tilshunosligi fani respublika ma'naviy-ma'rifiy tuzilmalaridan buyurtmalar olmadi.

Bugungi kundagi jadal globallashuv ma'naviyat muammosini yanada o'tkirlashtirib, boshqa tegishli fanlar qatorida tilshunoslik zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklamoqda. Bu esa til va ma'naviyat muammosini o'rganadigan alohida soha – lingvoma'naviyatshunoslik yo'nalishi shakllanishini kuchli taqozo etadi.

Til va ma'naviyat mushtarakligi muammosining tilshunoslikda echiladigan xususiy va boshqa fanlar bilan hamkorlikda tizimli hal etiladigan umumiy tomonlari mavjud.

Tilshunoslikning sistem-struktur yo'nalishida o'zbek tilidagi "ma'naviyat" kategoriyasining mohiyati, tuzilishi, tarkibiy qismlari, ular orasidagi munosabatlar, kategoriyaga bevosita yoki bilvosita mansub alohida birlik (so'z, ibora kabi)lar ning xususiy ma'nosi, umuman olganda, alohida birliklarning tizim tashkil etish va tizimda vujudga keluvchi barqaror belgi-xususiyatlari ochiladi. Bu yo'nalish tilshunoslikning ma'naviyatni tadqiq qiladigan boshqa yo'nalish va sohalar uchun poydevor qo'yish vazifasi bilan etakchilik qiladi.

Shevashunoslik sohasida "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasining xalq shevalarida uchraydigan unsurlari, ularning lisoniy qiymati va tarqalish jo'g'rofiyasi, adabiy muqobillari bilan munosabatlari tadqiq qilinib, zarur hollarda adabiy nutqdagi bo'shliqlarni to'ldirishga doir tavsiyalar va ularning asoslari ishlab chiqiladi.

Lugʻatshunoslik sohasi "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi unsurlarini lugʻatlarda berish muammosi bilan shugʻullanadi. Akademik, ommabop va oʻquv filologik soʻzliklarida, alifboli va sistemali lugʻatlarda mazkur soʻzlarni berish va izohlash muammolari, maxsus lingvoma'naviyatshunoslik lugʻatlari va qomuslarini tuzish masalalari, shuningdek, tarjima va giperlugʻatlarda, milliy korpuslarda birliklarning mohiyatini ochib berish kabi masalalar nazariy va amaliy lugʻatshunoslikning dolzarb vazifalaridan.

Qiyosiy va chogʻishtirma tadqiqotlarda "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi unsurlarining oʻzga qurilishli va qarindosh tillardagi muqobillari va oʻxshashlari bilan munosabatlari oʻrganilib, lisoniy mohiyati va qiymati ochiladi, tarjima va oʻgʻirish muammolari tadqiq qilinadi.

"Ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi birliklarining nutqiy qoʻllanishi bir jihatdan, ular zamiridagi mohiyatning shaxs ma'naviy dunyosi prizmasidan oʻtib, munosabat, muloqot va nutq faoliyatida namoyon boʻlishi, umuman olganda, shaxsning ma'naviy takomillashuviga ta'siri, takomillashganlikni voqelantirish xususiyatlari, ikkinchi jihatdan, ma'naviy tashxis, tarbiya kabilar nuqtai nazaridan pragmalingvistika, Sosiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi amaliy yoʻnalishlar tomonidan oʻrganilib, shaxs ma'naviyatini til vositasida takomillashtirishga doir bevosita yoki bilvosita tavsiyalar yaratiladi.

Ta'lim yoʻnalishi esa, bir tomondan, "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi unsurlari mohiyatini oʻquvchilarga singdirish, ikkinchi tomondan, ushbu tizimga kiruvchi til ifodalarining ma'naviy mohiyati ta'limi orqali ular shaxsiy ma'naviyatini yuksaltirish mexanizmini takomillashtirish vazifalarini oʻz zimmasiga oladi.

Har bir davr fan yoki uning yoʻnalishlari oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qoʻyadi. Ijtimoiy yoki davlat buyurtmasidan kelib chiqib belgilangan aniq maqsad va vazifalar fan yoki uning yoʻnalishi faoliyatining natijalari muayyanligini ta'minlaydi.

lingvoma'naviyatshunoslik yoʻnalishining bosh maqsadi – yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi uchun xizmat qiladigan ilmiy-amaliy mexanizm uchun muayyan lingvistik ta'minotni vujudga keltirish. ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizda kutilgan natijalarga erishilmayotganligining sabablaridan biri ham ushbu maxsus lingvistik bazaning shakllantirilmaganligidir. bu lingvistik baza "ma'naviyat" umummilliy lisoniy kategoriyasini kompleks tadqiq qilish natijasida yaratiladi.

bir qarashda lingvoma'naviyatshunoslik an'anaviy lingvokulturologiyaning muqobilidek tasavvur uygʻotadi. biroq lingvokulturologiyaning oʻrganish ob'ekti va manbalari, muammolari, maqsad-vazifalari bilan tanishuv ularning oʻxshash va farqli tomonlarini tasavvur qilish imkonini beradi.

nomidan ma'lumki, lingvokulturologiya til va madaniyat munosabati muammosi bilan shugʻullanadi. madaniyat esa moddiy va ma'naviy turlarga

bo‘linadi. lingvoma'naviyatshunoslik moddiy madaniyat muammosini chetda qoldirib, uning ma'naviy deb atalmish turini ham to‘liq qamrab olmay, undan o‘z hissasini ajratib oladi.

lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) ning lingvoma'naviyatshunoslik kabi bir tarkibiy qismi bo‘lgan lingvomamlakatshunoslik (lingvostranovedenie) tillaridagi muqobilsiz leksika va bo‘shliqlarni tadqiq qiladi. lingvokulturologiya miflashgan til birliklari, mifologem va arxetiplarni, urf-odat va rituallarni, maqol, matal, iboralar "jamg‘arma"sini, etalon, stereotip va ramzlarni, metafora va lisoniy obrazlarni, tilning uslubiy fondini, nutqiy xulq va nutq madaniyatini qamrab oladi.

lingvoma'naviyatshunoslik aytilganlar sirasidan shaxs ma'naviyati va ma'naviy salohiyatiga tegishli hodisalarni o‘zi uchun xususiylashtiradi. masalan, iboralarning barchasi lingvomadaniy xarakterga ega. shu boisdan lingvokulturologiya aslida frazeologik birliklarni tadqiq qilishdan boshlangan. lekin frazeologik birliklarning barchasi ham lingvoma'naviy xususiyatga ega emas. yoki buzoqning yugurgani somonxonagacha maqoli lingvokulturologik talqinlar doirasida qaraladi. biroq andishaning otini qo‘rqoq demang maqoli shaxs milliy ma'naviyatiga bevosita daxldor.

aytilganlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, lingvokulturologiya va lingvoma'naviyatshunoslikning o‘rganish manbasi va predmeti farqlanadi. lingvokulturologiya ob'ekti lingvistika, kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika kabi sohalar uchun umumiy bo‘lib, madaniyat, madaniy axborot "tashuvchisi" bo‘lgan til va til vositasida ushbu madaniyatni yaratuvchi inson orasidagi o‘zaro munosabat deyish mumkin bo‘ladi. ushbu munosabatni voqelantiruvchi yuqorida sanalgan alohida hodisalar uning o‘rganish predmeti sanaladi. lingvoma'naviyatshunoslik ham o‘rganish predmetining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va, ta'kidlanganidek, bevosita shaxs ma'naviyati bilan bog‘liq, uning tarkibiy qismlari va unsurlari bo‘lgan til ifodalarini qamrab oladi. bu ifodalar so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari, maqollar, gaplar ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin. masalan, abdulla qodiriyning "o‘tkan kunlar" romanida otabek tomonidan aytilgan aqlli kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma'qul bo‘lmas sintaktik qurilmasi zahirida bevosita milliy xoslangan shaxs ma'naviyati yotadi. u shaxs farosati, e'tiqodi, munosabati darajasini namoyon qiladi. farosat, e'tiqod, hurmat (munosabat) shaxsning ma'naviy barkamolligini ko‘rsatuvchi sifatlardan.

ko‘rinadiki, lingvoma'naviyatshunoslik axloq (etika), psixologiya, lingvokulturologiya, etnografiya, sociolingvistika kabi qator fanlar bilan umumiy o‘rganish ob'ektiga ega bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos predmeti yaqqol ajralib turadi.

bir qarashda lingvoma'naviyatshunoslikni alohida nom bilan ajratib ifodalash zarurati yo'qdek, uning muammolarini lingvokulturologiya bag'rida o'rganaverish mumkindek tuyuladi. biroq bunga monelik qiladigan ikki jihat mavjud:

birinchidan, lingvokulturologiya o'z muammolarini ko'proq turli qurilishli tillar kesimida tekshirishi an'analashgan, lingvoma'naviyatshunoslik esa tadqiq predmetini bir til doirasida ham, turli tillarni qiyoslash asosida ham o'rganish bilan xarakterlanadi;

ikkinchidan, lingvoma'naviyatshunoslikning mustaqillashuvi til va ma'naviyat mushtarakligi muammosiga global hodisa sifatida lingvokulturologiyaning boshqa masalalariga nisbatan alohida va ustuvor e'tibor qaratish zarurati natijasi.

g'arb tillarida ma'naviyat so'zining aynan muqobili bo'lmaganligi sababli lingvoma'naviyatshunoslik terminini zo'rma-zo'raki tarjima qilmasdan, rus tilida lingvoma'naviyatologiya, ingliz tilida linguomanaviatology / linguoma'naviyatshunoslik deb berish maqsadga muvofiq va u ushbu yo'nalishning originalligi va mustaqilligini yana bir bor namoyish etadi (aqshdagi ilmiy jurnallardan birida shu atamani tushuntirib berganimizdan keyin chop qilingan edi: spirituality in the soul of the language: about linguoma'naviyatshunoslik and its perspectives // american journal of p. 32). masalan, ma'naviyat so'zining rus tiliga duxovnost deya tarjima qilinishi ham zo'rma-zo'rakilikdir, chunki duxovnost so'zining mag'zida "diniy" ma'nosi yotadi (ingliz tiliga ham, albatta). muqobili bo'lmasa, ma'naviyat so'zining o'zini beraverish kerak. kurash, chala, yonbosh so'zlari kabi bu so'z ham jahon tillari boyligiga bizning hissamiz bo'lib qo'shiladi.

lingvoma'naviyatshunoslik tadqiqotlari umumiy va xususiy metodologik tamoyillariga asoslanadi. tadqiqotlarning metodologik asoslarini quyidagicha tartiblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va tarbiya, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha farmon va qarorlari, ma'ruza va chiqishlari, fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash haqidagi qarorlari, ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirishga doir me'yoriy hujjatlar, fan va ta'lim-tarbiya uyg'unligi tamoyillari yo'nalish tadqiqotlarining nazariy va amaliy ahamiyatini kuchaytirishga asos bo'ladi. Tilning saqllovchilik vazifasini "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi birliklari misolida yoritish, ularda til va ma'naviyat mushtarakligini ko'rsatish, lingvoma'naviyatshunoslik tahlili natijalarini ta'limda amaliy foydalanish samaradorligini oshirish mo'ljaliga yo'naltirish uchun tayanch vazifasini o'taydi.

Falsafiy nuqtai nazardan dialektikaning miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni inkor va qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab va alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat tushunchalari, bilish nazariyasining amaliy va nazariy bilim turlarini farqlash

haqidagi ta'limoti, tasavvuf falsafasining zot va tajalli nazariyasi, komil inson kontsepsiyasi asos vazifasini o'taydi.

Umumfan tabiatli tizim, unsur va munosabat dialektikasi ta'limoti "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasiga sistema sifatida yondashib, bu sistemaning yashash qonuniyatlariga doir masalalarni bayon etishda qo'l keladi.

Lingvistik tabiatli Lison, me'yor, nutqning yaxlitligi va alohidaligi haqidagi ta'limot mazkur kategoriyaga muloqot, munosabat va faoliyat sistemasi ko'zgusida qarab, bu sistemaning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligini o'rganishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Lingvoma'naviyatshunoslik tadqiqotlarida, sof lingvistik tadqiq usullaridan tashqari, kulturologik va sosiologik metodlar – kontsept tahlili, freymal, narrativ analiz, tasnif va tavsif, lingvistik qayta tiklash usullari, ma'noning makrokomponent va mikrokomponent modeli, psixososiokulturologik eksperimentlar, matnlarning lingvoma'naviy tahlili – germeneytik metod kabilar qo'yilgan muammolarning samarali echimi uchun muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Lingvoma'naviyatshunoslik tadqiqotlari ta'lim va tarbiya uchun xizmat qiluvchi, aniq samarani ko'zlab ishlaydigan yaxlit sistemaning lingvoma'naviy bazasini shakllantiradi. Kun sayin chuqurlashib, o'tkirlashib borayotgan shaxs ma'naviyati muammosini hal etish, kelajak yaratuvchilari bo'lgan yuksak ma'naviyatli yosh avlodni voyaga etkazishning ilmiy va amaliy asoslarini vujudga keltiradi. Aslida insonshunoslik fani bo'lgan lingvistikaning shaxs tarbiyasiga o'zining munosib va zotiy, tabiiy hissasini qo'shishini ta'minlaydi. Tilshunoslikning shunchaki "tadqiqotlar tadqiqotlar uchun" tamoyili asosida ish ko'rishidan shaxs ma'naviyati rivojiga, yosh avlodning shaxsiy takomillashuviga ko'maklashadigan, kerak bo'lsa, bunga daxldor sohalar oqimida etakchi o'ringa ko'tarilishiga olib keladi.

Lingvoma'naviyatshunoslik taqlid va ergashuvchanlikdan xoli, mamlakatimizda shakllangan va dunyo tilshunosligi sahnasiga chiqayotgan gradual lingvistika, substantzial-pragmatik tilshunoslik kabi amaliy samarador milliy fan yo'nalishi bo'ladi¹⁷⁵.

Bir qator yozuv tizimlari o'tish orfografiyalari sifatida yaratilgan. O'tish davri savodxonligi odatda o'quvchining ona tili orqali beriladi. Ular milliy yoki rasmiy tilda savodsizlikdan savodxonlikka ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik o'quvchining asosiy yozma tili manashu milliy yoki rasmiy tilda shakllanadi. Ko'zlangan maqsad ikkinchi tilda savodxonlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, boshlang'ich savodxonlikni ona tilida o'rgatish samaradorligi yuzasidan turli

¹⁷⁵ <https://oyina.uz/>

appazitsiyali qarashlar mavjud¹⁷⁶. Ikkinchi tilda savodxonlikni yuksaltirishga ko'prik sifatida ona tilidagi savodxonlik ko'nikmasidan foydalanish ikkita jihati bilan ahamiyatli. 1. boshlang'ich savodxonlik ko'nikmalarini ikkinchi tilga qaraganda birinchi tilda egallash osonroq; 2. savodxonlik ko'nikmalarini birinchi tildan ikkinchi tilga o'tkazish yozuv tizimlari o'xshash bo'lganda, o'quvchi ikkinchi tilni muayyan darajada o'zlashtirgan bo'lganda nisbatan oson bo'lishi mumkin. Har qanday holatda ham ikkinchi taxmin to'g'ri usul sifatida qaraladi. Shu bilan birga bir til qonuniyatlarini boshqasiga targ'ib qilish yoki o'tkazish psixologik muammo sifatida qaralib tadqiq etilgan izlanishlar ham mavjud¹⁷⁷.

Yozuv tizimi o'tish davri orfografiyasi sifatida ishlab chiqilgan bo'lsa ham ikkinchi til uchun mazkur savodxonlik maqsadlari va yozuv tizimidan foydalanish samarali bo'ladi. Aslida maqsadlar orasida nomuvofiqlik, qarama-qarshiliklar, maqsadga erishish yo'llari borasida muammolar bo'lishi mumkin. O'qish qulayligi maqsad sifatida belgilansa, bunda yuqori natijalarga qanday erishiladi? Agar o'qish og'zaki birliklar bilan yozma belgilar mos kelishini nazarda tutadi deb hisoblansa, u holda o'ziga xos belgi bilan har bir fonema yoki bo'g'ini ifodalovchi tizim ishlab chiqiladi. Demak har bir so'zning fonologik realizatsiyasini yozuv tizimi ifodalaydi. O'quvchi ramz va tovush o'rtasidagi o'xshashlikni emas, balki belgi va ma'no o'rtasidagi moslikni anglaydi deb hisoblansa, unda grammatik va leksik shakllarni aks ettiruvchi yozuv tizimini loyihalash mumkin. Berri qayd etganidek, "agar bu ikkinchi ko'rinish amalda aks etsa, ravon o'qish uchun alifbo printsipli ahamiyatsiz degan xulosaga kelish kerak. Ravon o'quvchilar matnga go'yo ideografik kabi munosabatda bo'lishadi"¹⁷⁸. Kamdankam o'quvchilar bunday pozitsiyada bo'lishlari mumkin. Alifbo, yozuv va fonetik hodisalar bo'yicha tadqiqot olib boradiganlar orasida ideal yozuv tizimi fonemik transkripsiyaga yaqinlashishi kerak deb hisoblaydiganlar ham mavjud. Agar izlanishlari amaliy ahamiyat kasb etmasa ularning aksariyati mazkur yondashuvni o'zgartirishlari mumkin. Venezkiyga ko'ra, "o'qish qobiliyatini turli madaniyatlar bilan solishtirilganda, imloning fonemik qonuniyatlaridan qat'i nazar, barcha mamlakatlardagi bolalarning katta qismi tuzatuvchi o'quvchilar sifatida tasniflanadi va bu guruh ichida ko'pchilik quyi ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan keladi"¹⁷⁹. Umuman olganda, yozuv tizimini loyihalashda har qanday texnik xususiyatga rioya qilish lozim.

¹⁷⁶ Engle, Patricia. 1975 • Language medium in early school years for minority language groups. *Review of Educational Research*, 45: 283-325.

¹⁷⁷ Berry, Jack. 1977. "The making of alphabets" revisited. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in the Creation and Revision of Writing Systems*. The Hague: Mouton, pp.3-16.

¹⁷⁸ Berry, Jack. Ko'rsatilgan manba. 3-16-betlar.

¹⁷⁹ Venezky, Richard L. 1977. Principles for the design of practical writing systems. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in the Creation and Revision of Writing Systems*. The Hague: Mouton, pp. 37-54. First published in *Anthropological Linguistics*, 1970,12(7): 256-270. 45.

Ijtimoiy fikrlarga qaraganda texnik mulohazalar yozma tizimni qabul qilish yoki rad etishda kamroq ahamiyatga ega. Biz turli kichik guruhlar tomonidan turli yozuvlarda yozilgan bir xil tilni ko'rganimizda ijtimoiy mulohazalarning ustuvorligi aniq bo'ladi. Muqaddas matnlar bilan bog'liq yozuvlar ko'pincha ushbu matnlar bilan birga tarqaladi. "Musulmonlar masjidlarini nafis arab xattotligi bilan yozilgan Qur'on oyatlari bilan bezashadi, Rim-katolik episkoplari esa muqaddas marosimlar paytida cherkov pollarida lotin alifbosi harflarini izlaydilar"¹⁸⁰.

Standartlashtirish: "Insonlarning o'zaro ta'siri ma'lum darajada standartlashtirishni, ya'ni ma'lum darajada umumiy tushunishni talab qiladi"¹⁸¹. Kommunikatsiya ishtirokchilari turli me'yorlarga muvofiq harakat qilsa, aloqa buziladi. Muloqot jarayonida mintaqaviy va milliy variantlar kommunikatsiya muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Mahalliy hamjamiyat bilan chegaralangan aloqa bo'lsa, odamlarning bir-birini bilishi va doimiy aloqada bo'lganligi bunday muammolarni keltirib chiqarmaydi. Kommunikatsiya tarmoqlari kengayganda, mahalliy hamjamiyatdan tashqariga chiqqanda mahalliy variantlar aloqaga to'sqinlik qilishi mumkin. Standart o'lchovlarni zamonaviy ilm-fan, standart, bir-birini almashtiradigan qismlarni ommaviy ishlab chiqarish talab qilganidek, global aloqa ham yuqori mahalliy shakllar bilan birga zamonaviy hamjamiyatlardagi standart shakllardan foydalanishni talab qiladi.

Fergusonga ko'ra: "Ideal standartlashtirish - bu tilning barcha maqsadlari uchun kichik o'zgartirishlar yoki o'zgarishlar bilan mos keladigan yagona, keng qabul qilingan me'yorga ega bo'lgan tilni anglatadi. Mintaqaviy variantlar o'rtasidagi farqlar juda kichikdir"¹⁸². Bir xillikni ta'minlashning iloji yo'qligini standartlashtirishning mazkur ideali ham aks ettirsada, bir muncha o'zgarishga moyillikni ifodalaydi. Me'yorlarning Grammatikalar va lug'atlar, muharrirlar, o'qituvchilar, tanqidchilar, yozuvchilar yoki boshqa til vakillarining qarashlari bilan belgilanishi standartlashtirishni shakllantirmaydi. Me'yor "ommaviy qabul qilingan" va "muvofiqlik kasb etgan" bo'lmog'i lozim.

Ideal standartni yaratish uchun bular ham bir muncha kamlik qiladi. Aslini olganda standartlashtirish til shakllarining murakkabligiga qarab emas balki, ijtimoiy kommunikatsiyada qo'llanish darajasi yuqoridan pastga qarab yo'nalgan shakllarga asoslanishi lozim. Shaxslar orasida tilni standartlashtirishda uning harakatidan ko'ra, munosabatiga asoslanib yondashish kengroq tarqalgan. Insonlar

¹⁸⁰ Billigmeier, Jon-Christian. 1987. Alphabets. The Encyclopedia of Religion. New York: Macmillan. Vol. 1, pp. 216-222.

¹⁸¹ Rubin, Joan. 1977(a). Indonesian language planning and education. In Joan Rubin, Bjorn H. Jernudd, Jyotirindra Das Gupta, Joshua A. Fishman, and Charles A. Ferguson (Eds.), Language Planning Processes. The Hague: Mouton, pp. 111-129.

¹⁸² Ferguson, Charles A. 1962. The language factor in national development. In Frank A. Rice (Ed.), Study of the Role of Second Languages in Asia, Africa, and Latin America. Washington: Center for Applied Linguistics of the Modern Language Association of America, pp. 8-14. First published in Anthropological Linguistics, 1962, 4(1): 23-27. P. 10)

tilni o'zlarining turli maqsadlari yo'lida ishlatishdan ko'ra, tilda har tomonlama maqsadli model mavjudligiga e'tibor qaratishadi. Garchi ularning barchasidan foydalanmasalarda. Buni Labov ham tasdiqlab nutq jamoasini umumiy og'zaki harakatlarga qarab emas, umumiy baholash jihatidan belgilaydi. Ushbu qarashga muvofiq, til harakatlarining muayyan namunasini insonlar "yaxshi", "yaxshi", "yomon", "yomon" deb o'xshash baholasa, yagona nutq jamoasiga mansubligini ko'rsatadi.

Til foydalanuvchilari uning maqsadli modeliga intilishsa, nega bunday? 1. til foydalanuvchilarining bitta uslubli keng jamosibo'lishi mumkin emas. Biz og'zaki yoki yozma, tasodifiy yoki rasmiy, muqaddas yoki dunyoviy va boshqa shakllarni kommunikativ kontekstimizda mujassamlashtiramiz. Shu bilan birga uslubdan uslubga, xilma-xil shakllarga kommunikativ maqsadimizga mos holda o'tamiz. Shunday qilib, biz standart navni nazorat qilsak ham, vaziyat taqozosi bilan uni o'zgartirib qo'llaymiz, muloqot shakliga ko'ra moslashtiramiz. Shaxslar o'zini bitta uslub doirasida cheklab qo'ya olmaydi. Kommunikativ niyatimizni ifodalayotganda biz albatta, bir uslub tasarrufidan boshqa uslub tasarrufiga o'tishimiz mumkin. Shundagina kommunikativ ma'noni suhbatdoshimizga yetkazib berishimiz mumkin bo'ladi. Faqat muayyan dasturiy ta'minotlar, programmalashtirilgan ovozlari, og'zaki yoki yozma shu tipdagi vositalar bir uslub doirasida shakllantirilgan va shu uslub doirasidagi funksiyalarni bajara oladi. Demak, ular yagona funksiyali vositalardir. Umuman olganda standartlashgan modelni barcha uchun to'g'ri deb qabul qilsak ham, uni mavjud maqsadlarimizning hammasi uchun qo'llamaymiz. 2. Elitalar o'zlarining o'ziga xoslik belgilarini, lingvistik yoki boshqa tarzda ustunligining dalili va imtiyozli mavqei sifatida ifodalashadi"¹⁸³. Elitalar manfaatdor aholi qatlami sifatida, til xilma-xilliklarini yagona to'g'ri model deb targ'ib qilish, "ommaning hurmatini" rag'batlantirish, davlat, cherkov va boshqa institutlarning bayonotlariga qonuniylik berish vakolatiga egalar. Maktablarga elita tomonidan ma'qullanadigan standart model qabul qilinadi, Maktablar har bir avlodda ijtimoiy tuzilmani ideal tildan foydalanishning barcha imkoniyatlarini bermasdan targ'ib qilish orqali qayta ishlab chiqarishga yordam beradi. Odamlar mavjud ijtimoiy tuzumni, idealni qabul qilmasdan buzadilar. Bu tildan foydalanishning axloq bilan izchil bog'liqligini anglatadi. To'g'ri yo'ldagi elita mavjud tartibni axloqiy, me'yorni esa bu tartibning ramzi deb biladi. Fuqarolarning noroziligi deb hisoblanuvchi hukmron mafkurani qabul qilishdan bosh tortish axloqiy buzilishning alomati sifatida qaraladi. Elita standart tilni qabul qilmaslikni qo'poruvchilikka tenglashtiradi. Shu bilan bir qatorda standart tilning jamiyatda keng tarqalishiga elita o'z nazorati ostidagi institutlar orqali yordam beradi.

¹⁸³ Kroch, Anthony. 1978. Toward a theory of social dialect variation. *Language in Society*, 7: 17-36.

Tillarning o'g'zaki ko'rinishlarini standartlashdan ko'ra, yozma ko'rinishlarini standartlashtirish muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Qayd etish joizki, bitta standart og'zaki turga qaraganda, bitta standart yozma turga bo'lgan ehtiyoj kattaroq hisoblanadi. O'quvchilar maktabga kirganlarida maktabgacha o'rgangan til shakllariga tartib berishdan ko'ra, ularning boshlang'ich ta'limdanoq birgalikda egatlanadigan standart adabiy turni maktab orqali o'zlashtirishlari oson. So'zlovchilar odatda o'z nutqiga asosan yozilgan matnlarni ko'proq nazorat qilishlari mumkin. Masalan, ko'plab mintaqaviy va milliy og'zaki ingliz standartlari mavjud ekanligiga qaramay, dunyo bo'ylab asosan imlo va lug'atda bir nechta kichik farqlar bilan qo'llanuvchi bitta standart yozma ingliz tili mavjud.

Kodifikatsiya: Bu jarayon odatda standartlashtirish talablariga mos keladi. Standartlashtirishning o'zi bir qator jarayonlardan tashkil topadi. Standartlashtirish jarayonini Rubin oltita o'zaro bog'liq qismlarga ajratadi: 1. me'yorni izolyatsiya qilish, 2. me'yorni ba'zi muhim odamlar guruhi tomonidan "to'g'ri" yoki "afzal" deb baholash, 3. belgilangan kontekstlar yoki funksiyalar uchun normani belgilash. Dastlabki uchta komponent Rubinning fikriga ko'ra har doim birga bo'ladi. Standartlashtirishni muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi omil bu tartib hisoblanadi. Standartlashtirish amalda qo'llanishi uchun belgilangan me'yor 4. qabul qilinishi, 5. qo'llanilishi, 6. uning o'rnini boshqa me'yor o'zgartirmaguncha amalda bo'lishi kerak¹⁸⁴. Kodifikatsiya yozma qoidalarga ishora qiladi. Ta'kidlash lozimki, og'zaki ravishda qoidalarining aniq bayonlari uzatilishi mumkin. Masalan, Qur'on oyatlari asosan og'zaki diniy ta'lim orqali yod olinadi. O'z o'yinlari qoidalarini bolalar avloddan-avlodga og'zaki ravishda yetkazishadi. Ko'pchiligimiz og'zaki ravishda ko'paytirish jadvalini o'zlashtiramiz. Yozma tillarni standartlashtirishning muhim xususiyati, kodefikatsiya predmetlari sifatida lug'atlar, grammatika, imlo va uslublar bo'yicha qo'llanmalar qabul qilinadi.

Modernizatsiya: Tilning zamonaviy mavzular va nutq shakllari uchun mos muloqot vositasiga aylanish jarayoni modernizatsiyani anglatadi. Til modernizatsiyasi atamasi ayrim olimlarning tabiri bilan aytganda unchalik ham to'g'ri emas. Chunki, til har doim o'sishda va yangilanishda bo'ladi. Shuning uchun ham Fergyson ushbu jarayonda yangi yoki zamonaviy narsa yo'q deb ta'kidlagan edi. Til resurslari yangi talablarga javob berish uchun til yangi vazifalar va mavzularni o'zida mujassamlashtirganda kengayadi. Shuningdek, ushbu jarayon rivojlanayotgan, modernizatsiya qilinayotgan tillar bilan birga rivojlangan zamonaviy jamiyatlar tillarida ham sodir bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, u jamiyatni modernizatsiya qilish bilan tavsiflangani uchun ahamiyatli. "Zamonaviy

¹⁸⁴ Rubin, Joan. 1977(b). Language standardization in Indonesia. In Joan Rubin, Bjorn H. Jernudd, Jyotirindra Das Gupta, Joshua A. Fishman, and Charles A. Ferguson (Eds.), *Language Planning Processes*. The Hague: Mouton, pp. 157-179.

jamiyatlarning umumiy xususiyatlari qatoriga bilimlarning tez kengayishi, yangi bilimlarni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda qo'llash, mehnatni ixtisoslashtirish, institutlarning tabaqalanishi, shaxsiy va utilitar qadriyatlar, xususan, samaradorlikni maksimal darajada oshirish kirgan"¹⁸⁵. Ishlab chiqarish, samaradorlik, mehnat va muassasalarning ixtisoslashuvi, bilim, texnologiyaga zamonaviy jamiyatlarning yo'naltirilganligi tilshunoslikni rag'batlantiradi. Ba'zan til modernizatsiyasi ishlab chiqish deb ataladi. Bilim va texnologiyalarning o'sishi yangi atamalarni shakllantiradi. Yangi bilim va texnologiyalarni amalda qo'llash nutqning yangi janrlari yoki shakllari bilan birga voqelanadi. Masalan, mobil telefon texnologiyasi nafaqat yangi atamalarni (display, navigatsiya paneli, fon, sensor, vidjetlar, ilovalar) balki telefon dasturlari va tizimlari uchun ma'lumotnoma kabi yangi janrlarni ham yaratdi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish atamalar va nutq shakllarini standartlashtirishda modernizatsiyadan ko'ra ko'proq namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning o'zi "zamonaviy" deb qaraladi. "Bu ba'zan rivojlanayotgan mamlakatlarda tillarni standartlashtirishga yordam beradi"¹⁸⁶. Muloqotning zamonaviy usullarini ishlab chiqishda (sensorli boshqaruv, mobil ilovalar, navigatsiyalar paneli, jonli translyatsiya, masofaviy o'qitish) yangi atamalarning shakllanishi til modernizatsiyasining bir qismi hisoblanadi. Bu jihat til menejmentlari tomonidan yuqori baholangan.

Ma'lum tushuncha muayyan atama bilan nomlanib jamiyat orasida keng qo'llanishda bo'layotgan bo'lsa, til boshqaruvi bilan shug'ullanayotgan tashkilot masalan atamalar qo'mitasi ushbu birlikni umumjamiyat foydalanadigan terminlar sirasiga qo'shishi lozim. Ushbu leksema jamoatchilik orasida, muayyan bir atamadan voz kechib, boshqa bir yangi atamadan foydalanish jarayoniga qaraganda osonroq o'zlashadi. Odatda kishilar orasida mavjud atamadan voz kechib, muqobil variantidan foydalanishdan ko'ra, yangi atamadan foydalanishga yo'naltirish osonroq.

Til menejmentlari mavjud atamani qo'llanishga joriy etishdan ko'ra, uning o'rniga yangi atamani is'loh qilishni istefoda etganlarida, ikkita jihatga duch keladilar. 1. atamani mahalliy manbalardan olish, a) mavjud so'zga yangi ma'no berish, b) mahalliy ildizga ega atama yaratish, c) xorijiy atamani tarjima qilish. 2) chet tilidan so'zni olish. Ikkinchi yo'ldan borilganda, atamani o'zlashtiruvchi tilning tuzilishiga ko'ra, uning talaffuzi, imlosi yoki affikslerini o'zgartirish bilan terminni mahalliyashtirish yuzasidan muayyan to'xtamga kelishi kerak. Atamalarni yaratuvchilar maqsadlar to'qnashuviga duch kelishlarini Jernudd o'z tadqiqotlarida

¹⁸⁵ Germani, Gino. 1980. Industrialization and modernization. Encyclopedia Britannica, Macropedia 9: 520-527.

¹⁸⁶ Rubin, Joan. 1977(b). Language standardization in Indonesia. In Joan Rubin, Bjorn H. Jernudd, Jyotirindra Das Gupta, Joshua A. Fishman, and Charles A. Ferguson (Eds.), Language Planning Processes. The Hague: Mouton, pp. 157-179.

qayd etgan edi. Ularni ikki jihat chuqur mulohaza qilishga majburlaydi. Birinchi navbatda ular atamaning nutq hamjamiyatida osongina tushunilishini xohlashsa, boshqa tarafdin ular atamaning mamlakat tashqarisidagi aloqani qulaylashtirishini istashadi. Ushbu maqsadlar bir-biridan farq qilsada, menejmentlarning ikkala maqsadni istefoda etishlari uchun bir necha ijobiy dalillar mavjud.

Yangilanish: “Yangilanish bu allaqachon mavjud bo‘lgan imloni o‘zgartirishga urinish. samaradorlik, estetika yoki milliy yoki siyosiy mafkura nomidan ishlab chiqilgan kod”¹⁸⁷. Sovet boshqaruvining Markaziy Osiyodagi turkiy tillar alifbolarini tez va ketma-ket arab tilidan lotin yozuviga va kirill yozuviga o‘tkazish harakatlari¹⁸⁸, fors va arabcha o‘zlashtirilgan so‘zlarning turk tilidagi islohotning bir qismi sifatida turk tilidan olib tashlanishi¹⁸⁹ buning namunasi sifatida keltiriladi. Shu bilan birga olim ayrim terminlarga ham o‘z munosabatini bildiradi. Mavjud yozuv tizimini almashtirish yoki isloh qilish grafizatsiya emas, balki regrafizatsiya. Mavjud bo‘lgan standart tilni tozalash standartlashtirish emas, balki qayta standartlashtirish. Mazkur tavsiflarda muayyan darajada jon bor. Chunki, mavjud narsani yaratish deb bo‘lmaydi. Zero, u voqelikda bor. Unga faqat o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosalash mumkinki, korpus siyosati bu - ma’lum bir til korpusining muayyan maqsad asosida jamoaviy va tizimli boshqaruv natijasida shakllantirilish jarayoni hisoblanib, mazkur jarayonda menejmentni amalga oshirayotgan hukumat, tashkilot yoki shaxs korpus siyosatini amalga oshiruvchi menejer hisoblanadi. Bunda menejmentni amalga oshirayotgan hukumat, tashkilot yoki shaxs amalga oshirilishi lozim bo‘lgan har bir vazifani aniq tartib asosida tashkillashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda yaratilgan milliy til korpuslari manashunday tizimli boshqaruv asosida shakllantiriladi. Til korpusi boshqaruvida tilning fonetik, grammatik, morfemik, leksik, semantik, stilistik jihatlarini qamrab olinmog‘i va shu asosda bosqichma-bosqich mazkur birliklarni algaritmik modellar asosida kompyuter dasturiy ta’minotlariga joylashtirilmog‘i lozim. Aslida yuqorida qayd etilgan jihatlar barchasi to‘liq amalga oshirilganda muayyan tilning mukammal til korpusi shakllanadi. Ammo boshqaruv to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, mazkur zanjirlarning har bir qismi shakllantirilgan holda ham mavjud tayyor qismga asoslanib muayyan kichik funksiyalarni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi.

¹⁸⁷ Robert L. Cooper. Language planning and social change. Cambridge University Press. Cambridge. 1989., Transferred to digital printing 2000. P. 154.

¹⁸⁸ Henze, Paul B. 1977. Politics and alphabets in inner Asia. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in the Creation and Revision of Writing Systems*. The Hague: Mouton, pp. 371-420.

¹⁸⁹ Heyd, Uriel. 1954. Language Reform in Modern Turkey. Jerusalem: Israel Oriental Society., Gallagher, Charles F. 1971. Language reform and social modernization in Turkey. In Joan Rubin and Bjorn H. Jernudd (Eds.), *Can Language Be Planned? sociolinguistic theory and practice for developing nations*. Honolulu: The University Press of Hawaii, pp.157-178.

4.3. Ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar jarayonida davlat tili qadrini ko'tarish imkoniyatlari

O'zbekistonning davlat tili bo'lgan o'zbek tili milliy o'ziga xoslik va madaniy merosni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ilm-fan va ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish o'zbek tilining qadr-qimmatini oshirish, uni ommalashtirish va ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

1. O'zbek tili qiymatini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni

1.1. O'zbek tilini ta'lim dasturlariga integratsiya qilish

O'zbek tilining ta'limning barcha darajalarida ta'lim dasturlariga kiritilishi uni yoshlar orasida ommalashtirishga yordam beradi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarga asoslangan yangi o'quv qo'llanmalari va o'qitish usullarini ishlab chiqish uning ta'lim tizimidagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

1.2. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi

O'zbek tilini o'qitishning zamonaviy uslublariga ega malakali pedagoglarni tayyorlash uning qadr-qimmatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu ta'lim sifatini yaxshilashga va o'quvchilar o'rtasida tilni ommalashtirishga yordam beradi.

2. Ilmiy islohotlar va ularning o'zbek tili maqomiga ta'siri

2.1. O'zbek tilida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish

O'zbek tilida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uni ilmiy hamjamiyatda ommalashtirishga yordam beradi. Bu uning fan tili maqomini mustahkamlaydi va ilmiy nashrlar va konferentsiyalarda foydalanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

2.2. Milliy ilmiy tarkibni yaratish

O'zbek tilida ilmiy kontent yaratish, shu jumladan darsliklar, monografiyalar va ilmiy maqolalar yaratish uning ahamiyatini oshirishga va ilmiy hamjamiyat orasida ommalashtirishga yordam beradi. Bu o'zbek tilining fan va ta'lim tili sifatida ijobiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi.

3. O'zbek tilini davlat tili sifatida ommalashtirishda raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar

3.1. Treningda raqamli texnologiyalardan foydalanish

O'quv jarayoniga o'zbek tilidagi onlayn kurslar, elektron darsliklar va multimedia resurslari kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish uni ommalashtirishga yordam beradi va o'quvchilar uchun o'rganishni yanada qulay va qiziqarli qiladi.

3.2. Tilni o'rganish uchun dasturlar va platformalarni ishlab chiqish

O'zbek tilini o'rganish uchun ilovalar va onlayn platformalar yaratish uni keng auditoriya orasida ommalashtirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, globallashuv sharoitida, raqamli texnologiyalar tilni tarqatishda muhim rol o'ynaydigan davrda juda muhimdir.

Ilm-fan va ta'lim sohasidagi islohotlar o'zbek tilining qadr-qimmatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Tilni ta'lim dasturlariga integratsiyalashuvi, o'zbek tilida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish uni ommalashtirish va davlat tili maqomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar jamiyatning milliy o'ziga xosligi va ma'naviy rivojlanishini shakllantirishda, shuningdek, O'zbekiston madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga ko'maklashishda muhim rol o'ynaydi. Dunyo bo'ylab sohalar taraqqiy etar ekan ularga bo'lgan munosabatlar ham o'zgarib bormoqda. Xususan ijtimoiy, gumanitar tarmoqlarda ham iqtisodiy foydaga intilish harakatlari ortib bormoqda. Aslini olganda har qanday yo'nalish muayyan darajada moddiy va ma'naviy nafga qaratilgan. Ammo mazkur jamiyat sohalarining foydalilik darajasi, unga sarflanadigan vaqt turli o'lchamlarga asoslangan. Aytaylik vaqt nuqtai-nazaridan gumanitar sohalardan ko'ra iqtisodiy sohalar tezroq foyda keltiradi. Ammo ushbu foydaning ma'naviy ahamiyati bo'lmasligi mumkin. Iqtisodiy sohalarga qaraganda ijtimoiy sohalarda ma'naviy ko'mak insonlarga tezroq yetkaziladi. Aniq va tabiiy fanlarda erishiladigan foyda ijtimoiy sohalarga qaraganda kamroq vaqt oladi. Lekin ijtimoiy va gumanitar yo'nalishlarda erishiladigan foyda odatda ko'zga tashlanmaydigandek, uzoq vaqtda namoyon bo'lsada uning naflilik darajasi yuqori. Umuman olganda jamiyatning barcha sohaları foydalilik darajasidan qat'iy nazar bir birini taqozo etadi va to'ldiradi. Agar bola maktabda yetarlicha ta'lim olmasa undan yurak-qon tomir kasalliklari mutaxasisi chiqmasligi mumkin. Biologiya fani o'qituvchisi yurak qon tomirlaridagi kasalliklarni shifokorga borib bartaraf etmasa, maktabda dars bera olmasligi mumkin. Arxitektor qurgan uylarni yurist sotib olmasa uyning qiymati yo'qoladi. Mahalliy dehqonlar huquqlarini yurist himoya qilmasa ularning huquqlari toptalishi mumkin. Tadbirkor bo'lsayu til bilmasa u mahalliy doiralar bilan cheklanib qolishi mumkin. Savdogarning molini xaridor olmasa jamiyat harakatlanmaydi. Shu jihatlardan nazar salsak jamiyatda yashovchilar va uning sohaları uzviy aloqador.

Marketing, ushbu terminga duch kelganimizda uning savdo harakatlarida qo'llanishi barchamizning xayolimizga keladi. Odatda kamdan-kam insonlar adabiy asarlar marketingi, nutqni o'stirish marketingi, til ta'limi marketologiyasi degan tushunchalarni xayoliga keltiradi. Ayrimlar esa o'ylab ham ko'rmagan. Tadqiqotimizning mazkur qismida til marketingi va o'zbek tili til marketingining shakllanganlik darajasiga e'tibor qaratamiz.

Avvalo til siyosatida til marketingining boshqarilishi, marketingning til vositalarida voqelanishi masalalariga oydinlik kiritsak. Marketing odatda bozor iqtisodiyotiga mo'ljlanlangan termin bo'lib, savdo-sotiq xizmatlarining barchasini qamrab oladi. O'z-o'zidan ayrim kishilarda savol tug'uladi. Til iqtisodiy soha emas, undan tashqari til vositalari orasida qanday birliklar savdosini yo'lga qo'yish

mumkin? Buni boshqa bir o'xshash tarmoq misolida amaliy anglatsak. Inson odatda psixologik tushkun holatlarga tushib qolganda yoki psixik zarbaga uchraganda albatta psixolog nazoratiga boradi va mazkur soha mutaxasisi o'z xizmatlari bilan kishining ruhiy holatini yaxshilashga urunadi. Bu o'z navbatida psixologga muayyan moddiy haq olib keladi. Bu o'rinda psixologning vazifasi ruhiy zarbaga uchragan jamiyat a'zosini ruhiy holatini yaxshilash. Bu odatda hech qanday moddiy vositalarsiz nomoddiy yo'llar bilan amalga oshiriladi. Agar biz ruhshunosning xizmatlarini iqtisodiy parametrlar bilan baholasak u muayyan darajada marketing olib bormoqda. Bunga o'xshash namuna lingvistika tarmoqlarining o'zida ham azaldan mavjud bo'lsada biz uni odatda marketing voqeligi sifatida qabul qilib o'rganmaganmiz. Qadim davrlardan sharqda ham g'arbda ham nutq madaniyatini rivojlantirish dolzarb masalalar sirasida qaralib kelingan. Hozirda ham mazkur tarmoq o'z ahamiyatini yo'qotmay, yuksalib kelmoqda. E'tibor bersak ayrim muassasalarda nutq madaniyati, ritorika, voizlik kurslari faoliyat olib boradi. Ularda kursni tashkillashtiruvchilar muayyan xizmatlar evaziga bilim oluvchilarning ehtiyojini qondirishga harakat qilishadi. Bu yerda ham xizmatlar darajasi, mashg'ulot davomiyligi va boshqa jihatlarga qarab moddiy haq to'lash o'sib boraveradi. Bu o'rinda ham muayyan darajada til marketingi amalga oshmoqda. Chunki, mutaxasis kelishuv asosida savdoni shakllantirmoqda, moddiy naf evaziga til bilimlarini sotuvga chiqarmoqda.

Umuman olganda til siyosatida ham til marketingini olib boorish mumkin bo'lgan jihatlar yetarlicha topiladi. Faqat biz bu nuqtani topib kerakli joyda, kerakli o'rinda, kerakli kishilarga reyализatsiya qila olsak bas. Biz quyida til marketingining til siyosatida tutgan o'rniga, til marketingining tashkillashtirilishi, boshqarilishiga e'tibor qaratamiz.

Dunyo mamlakatlari til siyosatida til marketingini davlatning o'zi tomonidan yo'lga qo'yish tajribasi ko'p uchramaydi. Chunki, davlatning o'zi til rivoji yo'lidagi harakatlarga homiylik qiladi. Odatda til marketologiyasi xususiy muassasalar tomonidan taqdim etiladi. Shuningdek, ta'lim tashkilotlari ham bu faoliyatni yo'lga qo'yishi mumkin. Jumladan, filologiya tarmoqlariga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari, universitet, institut yoki tadqiqot markazlari qoshida ham til xizmatlari yo'lga qo'yilib lingvistik muammolar hal etiladi. Ammo til siyosatida til boshqaruvini shakllantiruvchilar masalan, davlat hukumati davlat tilini rivojlantirish yo'lida til marketingi orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ba'zi xizmatlarni moddiy manfaatlarsiz taqdim etish hollari ko'p kuzatiladi.

Biz yuqorida Fransiya, Ispaniya, Angliya kabi bir qator mamlakatlardagi til siyosatini kuzatdik. E'tibor bersak ularning deyarli ko'pchiligi til imkoniyatlarini oshirish, qamrovini kengaytirish, til nufuzini yuksaltirish harakatlariga urg'u berishgan. Nafaqat o'z mamlakatlarida balki xalqaro maydonda ham tirli xizmat va

faoliyatlarni yo'lga qo'yib kelganlar. Mazkur maqsadlar yo'lida moddiy, ma'naviy ko'makni amalga oshirganlar. Masalan til ta'limi, yuqorida Fransiyaningbu boradagi faoliyati bilan tanishdik. Ular bir necha davlatda fransuz tilini o'qitib, dunyo bo'ylab fransuz segmentining ortishiga homiylik qilmoqdalar. Aslida til o'rganilishining asosiy maqsadi o'zlashtiriluvchi tilning boyliklari bilan tanishish hisoblanadi. Muayyan tildagi manbaalar ko'p bo'lsa, u tilning o'rganuvchilari ham ko'p bo'ladi. Asl til egalarining ham yutug'I manashu boylikda bo'lib, til qamrovi va imkoniyatlarini ushbu vositadan foydalangan holda oshirishlari mumkin. Buning uchun esa yuqori darajadagi til menejerezatsiyasi lozim bo'ladi. Til o'zlashtirilishining boshqa omillari ham mavjud. Biz ularni quyidagi guruhlar ostida birlashtirishga harakat qildik: 1. muayyan til resruslari bilan yaqindan tanishish; 2. tilning global miqyosida keng tarqalganligi; 3. tilning xalqaro maqomi; 4. tilning imtiyozlilik; 5. Tilning jozibadorligi; 6. til qonuniyatlarining osonligi va mukammal ishlanganligi; 7. tilning internet va dasturiy ta'minotlardagi faolligi; 8. muayyan maqsadli harakatni amalga oshirish (biznes, tarjimonlik, josuslik v.b); 9. muayyan tilda so'zlashuvchi hududga turli maqsadlar bilan borish; 10. tilning tarixiy ahamiyatlilik; 11. tilning zamonaviyligi; 12. muayyan sohaning asos tili ekani; 13. ixtiyorsiz til o'zlashtirish. Shu va shu kabi omillar til o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ushbu jihatlarga e'tibor bersak ularning aksari til menejerezatsiyasidagi mohirona boshqaruv mahoratiga bog'liq holda til o'zlashtirilishiga jiddiy ta'sir o'tkizadigan omillar sanaladi. Tasnifdagi 2, 4, 5, 6, 7, 10, 11- bo'linmalar shular jumlasidandir. Ushbu jihatlarning ichki tarmoqlaridagi ayrim xizmatlar til marketingining ham tashkillashtirishida vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. 1, 4, 7, 8, 11 bo'linishlar tarkibida muayyan til marketingi xizmatlarini yo'lga qo'yish mumkin.

Bu o'rinda keltirilgan tasniflar til imkoniyatlari va shaxsning individual qarashlari asosida yuzaga chiqadi. Ta'kidlashimiz joizki, mazkur til o'zlashtirilish omillari til marketingi mohiyatini ochish maqsadida keltirildi. Chunki, til o'rganuvchilarning til o'zlashtirish istaklarini bilmasdan turib til o'zlashtirish dinamikasini baholab bo'lmaydi. Shu bilan birga til marketingining bir tarmog'I til o'zlashtirilishi bilan bog'liq. Til marketingini tashkillashtirilish tarmoqlari tasnifiga quyida to'xtalamiz. Mazkur o'rinda mamlakat tashqarisida til marketingini tashkillashtirish va davlat ichkarisida til marketing xizmatlari menejerezatsiyasiga e'tiborimizni qaratishni joiz deb bildik. Albatta bu jihatlarda til siyosati bilan bog'liq bo'lib, davlat tili boshqaruvida til marketingiga doir me'yor kiritilgan bo'lsa, bu tashkillashtirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jihat qonunlarda belgilanmagan bo'lsa ham, muayyan maqsadlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan jihatlarda sanaladi. Ammo huquqiy asos bo'lsa yanada a'lo ish bo'ladi. Qayd etish joizki, biz kuzatgan mamlakatlar til boshqaruvi bosh qonunchiligida bu masalaning me'yorlashtirilganligiga duch kelmadik. Ammo qonun osti hujjatlarida,

javobgarlikka tortish yuzasidagi me'yorlarda bu masalaga e'tibor qaratilgan o'rinlar mavjud. Aniq ta'kidlashimiz mumkinki, O'zbekistonda qabul qilingan huquqiy normalarda hozircha bu jihat e'tiborga olinmagan.

Til sotsiologlari va ijtimoiy psixologlar potentsial til boshqaruvi qarorlarini qabul qiluvchilarning motivatsiyasi, xususan, tilga bo'lgan munosabati yuzasidan tadqiqotlar olib boradilar. Boshqaruv tuzilmalari muqobil tanlovlarni baholashda bunday tadqiqot natijalarini vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqadilar. Til menejerlari o'zlari olg'a surayotgan til boshqaruvi usullarining to'g'ri ekanligiga shu til vakillarini ishontirish va bu yo'lda hamfikir bo'lishga undashlari lozim. Bu borada tarixda til siyosatini olib borgan rahbarlar, hukumatlar, muassasalar bir qator usullardan foydalangan. Bu jihatlar til siyosatining muhim jihatlari sanalishi bilan bir qatorda ayrim xususiyatlari til marketingiga ham aloqador va ularni sohaga targ'ib qilish orqali til xizmatlarini shakllantirish mumkin.

Aholi qatlamlari til xizmatlariga moddiy nuqtai-nazardan yondoshishlari murakkab jarayon bo'lib, shaxslar o'zlari so'zlayotgan tillarining turli ko'rinishdagi xizmatlarni aks ettirishi mumkin ekanligini, til vositalari hamisha inson bilan ham nafas bo'lganligi sabab qabul qilish jarayonlari oson bo'lmaydi. Ammo vaqt o'tishi bilan til marketingining taraqqiyoti kuzatilishi aniq. Faqat mazkur jarayonning asosiy nuqtalarini anglab, faoliyatga tadbqiq eta olganlar bu jihatning oldinroq voqelanishini ta'minlaydi. Buning ko'rinishlari tarixda davlat homiyligi ostida bo'lsa ham mavjud bo'lgan. Jumladan 1982-1983 yillarda Kataloniya provinsiyasi radio va televidenie skeytlari, multfilmlar, gazeta va jurnallarda turli janrdagi ko'ngil ochar lavhalar, reklama taxtalari, yopishtiriladigan yorliqlar, havo sharlari, qisqa metrajli filmlardan foydalangan, shuningdek, ma'ruzalar, munozaralar va panel muhokamalariga homiylik qilgan. O'zbekistonning "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni bundan 33 yil oldin, 1989 yil 21 oktyabrda – Mustaqilligimiz e'lon qilinishidan taxminan ikki yil ilgari qabul qilingan. Yurtimizda mustabid tuzum hali o'z hukmini o'tkazib turgan g'oyat og'ir sharoitda xalqimizning taqdiri va kelajagini hal qiladigan bu qonunni qabul qilish oson kechmagan.

Haqiqatan ham, o'sha davrda o'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi.

Shuni ham qayd etish kerakki, 1989 yili "Davlat tili to'g'risida"gi qonunda aks etgan muhim huquqiy qoidalar keyinchalik, 1992 yilda Mustaqillik Qomusi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagicha mustahkamlandi:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **tomonidan** 2019 yil 21 oktyabrda qabul qilingan **“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi farmonga binoan, 21 oktyabr tarixiy sanasi – O‘zbek tili bayrami kuni deb belgilandi. O‘z navbatida, 2020 yil 10 aprelda **“O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”**gi qonun qabul qilindi.

Mamlakatimizda “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kunning ulkan tarixiy o‘rni va ahamiyatiga bu qadar yuksak e‘tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki ushbu sana ma‘naviy va ma‘rifiy, huquqiy va siyosiy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu yo‘lda milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bu haqda so‘z borganda, Prezidentimizning 2020 yil 20 oktyabrda imzolangan «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni alohida e‘tiborga sazovorligini ta’kidlash lozim. Mazkur hujjatda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlashga doir istiqboldagi vazifalar ko‘zda tutilgan.

Prezident Farmonida O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilini yanada rivojlantirishga qaratilgan uchta muhim hujjat:

birinchidan, **2020–2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi;**

ikkinchidan, **2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi;**

uchinchidan, **2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari** tasdiqlandi.

Bugungi kunda ana shu hujjatlarda o'z aksini topgan aniq va qamrovdor vazifalar ijrosini ta'minlash uchun davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, tibbiyot sohalarida, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va harbiy muassasalar faoliyatida to'liq davlat tilida ish yuritish bo'yicha boshlangan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Zero, mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **"Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur"**.

Yangi O'zbekistonda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlashga qaratilgan yangidan-yangi tashabbuslar ilgari surilayotgani juda muhim.

Yanada muhimi, bu boradagi sa'y-harakatlar, bir tomondan, ushbu sohada to'planib qolgan muammo hamda kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan, yangicha tashabbuslar mamlakatimizda o'zbek tilini zamon talablari asosida rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasidagi mas'uliyatli vazifalarning samarali ijrosi uchun nihoyatda zarur.

O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasi aholisining mutlaq ko'pchiligi bo'lmish o'zbek xalqining ona tilidir. U O'zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omili ham hisoblanadi.

Mamlakatimizda 150 ta milliy madaniy markaz ish yuritayotgani, o'zbek tili bilan birga, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatayotgani, maktablarimizda ta'lim-tarbiya jarayoni 7 ta tilda olib borilayotgani dunyo amaliyotidagi noyob tajriba ekanini ta'kidlash o'rinlidir. Yurtimizda chet tillarga ixtisoslashgan hamda o'quv mashg'ulotlari xorijiy tillarda o'tiladigan ta'lim maskanlari soni ortib borayotgani ham shu sohadagi muhim o'zgarishlar natijasidir.

Ma'lumki, davlat tili siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda xalqni birlashtiruvchi qudratli vosita sanaladi. Ona tilimiz so'zlashuvchilar soni ko'pligiga ko'ra, sayyoramizda eng keng tarqalgan 40 ta tildan biri ekani ham quvonarlidir. Hozirgi vaqtda yer yuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni qariyb 60 million kishini tashkil etishi esa uning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlar ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buni o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish bo‘yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar samaralari yaqqol tasdiqlaydi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasi tarkibida Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tarkibida amaliy filologiya va kompyuter lingvistikasi bo‘yicha yangi yo‘nalishlar ochilgan. Universitet qoshida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi, maxsus o‘quv kurslari hamda Alisher Navoiy xalqaro jamg‘armasi tashkil etilgan.

O‘tgan davrda o‘zbek tilini chuqur o‘rganish va o‘rgatishga xizmat qiladigan o‘nlab kitob, qo‘llanma va lug‘atlar nashr qilingan. Shuningdek, chet el fuqarolari va yurtdoshlarimizga o‘zbek tilini o‘rgatadigan onlayn platforma, o‘zbek tili izohli lug‘atining mobil ilovasi, xorijdagi vatandoshlarimiz uchun maxsus veb-sayt yaratilgan.

O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a‘zo bo‘lgani Tashkilot doirasida iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish bilan birga, turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz tashabbusi bilan mazkur tashkilotning Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti ta‘sis etildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan, O‘zbekistonimizni yagona va ahil oila deb biladigan turli millat va elatlar vakillari ham o‘zbek tilini o‘rganishga katta qiziqish va istak bildirayotganlari ayniqsa e‘tiborlidir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi – Yangi O‘zbekistonni barpo etish va uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini mustahkamlashga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasi talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani har qancha tahsinga loyiq.

Ona tili millatning ruhi, borligimiz va birligimiz, davlat timsoli ekanini e‘tiborga olgan holda, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi. Binobarin, o‘zbek tilini yanada rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida oldimizda katta va mas‘uliyatli vazifalar turibdi.

Demak. Mamlakatimizda ham til siyosatini samarali tashkillashtirishda yuqorida keltirilgan yo‘llardan foydalanish va ularning amaliyotiga jiddiy e‘tibor

qaratish lozim. Shundagina til boshqaruvida salmoqli darajada o'sish yuz beradi. Keltirilgan namunalar nafaqat til boshqaruvi balki, til marketingi vositasi sifatida ham qaralishi mumkin.

Til marketingini olib borishning bir nechta vositasi mavjud. Biz ularni quyidagi guruhlar ostida birlashtirishni taklif qilamiz:

1. Ilmiy asosga ega til marketingi: bu asosan xizmat shaklida olib boriladi. Masalan buyurtma asosida til muammolari tadqiqi, turli til kurslari, matn tuzish va unga ishlov berish, matn karrekturasi, tarjima xizmatlari, termin taklifi xizmati kabi;

2. Reklama kompaniyalari orqali til marketingini tashkillashtirish: bunday vositalar sirasiga OAV, skeytlar, multfilmlar, qisqa metrajli filmlar, gazeta va jurnallardagi rubrikalar, ko'cha manitorlari, pesh lavhalar, reklama taxtalari, yopishtiriladigan yorliqlar, ijtimoiy tarmoq sarlavhalari, internet reklamalari, savdo mahsulotlari qadoqlari va boshqalar kiradi;

3. Rag'batlantiruvchi vositalar orqali til marketingini olib boorish: bunday rag'batlar grantlar, stipendiyalar, ganaralar, imtiyozlar, turli mukofotlar bo'lishi mumkin;

4. Raqamli texnologiyalarga tilni tadbiq etish orqali til marketingini tashkillashtirish;

5. Ko'ngil ochar xizmatlar orqali til marketingini tashkillashtirish: turli sanalar munosabati bilan nutqlar yozish.

Bugungi kunda tilning marketing sifatidagi ahamiyati tilning suniy intellekt tizimlaridagi o'rnida, tilning kompyuter dasturlari bilan integratsiyasida. Ammo hozirgi kunda mamlakatimizning til korpusi mavjud emasligi, internet tizimlari va kompyuter dasturlarida o'zbek tili qismining yo'qligi(mavjudlari ham mamlakatimizdan tashqarida yaratilgan. Bu xuddi o'z qurolingni o'zingda emas boshqa davlatda ishlab chiqib, o'zingga sotish demakdir) nafaqat til marketingiga balki, til taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Vatanparvarlikning ilk namunasi tilga bo'lgan e'tibor bilan baholanadi. Shunday ekan hukumat va til boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat muaasasalari bu boradagi tadqiqotlarni tizimlilashtirishi, yetarlicha moliyaviy ko'mak berishi zarur. Shundagina til marketingining samaralari yuksaladi. Qurolni chetdan sotib olish bilan o'zingda ishlab chiqarish o'rtasida kata farq bor. Til ham millat va jamiyatning qurolidir. Uning til korpusi siyosati o'zingda bo'lmasa naqadar xavfli. Buni yana bir jihatda ko'rib chiqaylik. O'zbek tilining dialektlari ko'p, ushbu dialektlar amal qiluvchi hududlarda shu sheva og'zaki nutqida maxsulotlar tavsiya qilinsa savdo yuksalishiga ta'sir qiladi. Agarda boshqa hudud shevalari og'zaki nutqida mahsulotlar savdosi reklamasi amalga oshirilsa ushbu mahsulotlar savdosi pasayadi. Shu jihatga tayanib muayyan sheva hududida shu dialektning og'zaki nutq vositalari orqali til xizmatlari taklif etilsa, uning unumdorlilik darajasi yuksaladi. Bu jihatni til boshqaruvining

yuqori doiralari, hukumatlar, turli nodavlat muassasalar amalga oshirishi mumkin bo'lgan ikkita misolda tavsiflaylik.

1. Mamlakatning turli hududlaridan kelgan talabalarni turli sheva matn(yozma, og'zaki)larini adabiy tilga o'tkazish yoki buni aksi, xuddishu matnni muayyan chet tiliga tarjima qilish yoki ma'lum bir chet tili shevalari matnlarini davlat tili va uning shevalariga o'girish faoliyati til marketingi ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu faoliyat tashkil etilgach kamida o'nta xizmat turlarini yo'lga qo'yish mumkin. Ushbu mahsulot xaridorlari sifatida davlat organlari, sud-ekspertiza markazlari, elchixonalar, diplomatic korpus vakillari, chet elga ketuvchi yoki chet eldan keluvchilar, oddiy fuqarolar va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

2. Dunyoning turli davlatlarida o'zbek diasporalari yoki muhojirlari istiqomad qiladi. Ularni aniqlash va ushbu hududlarda o'zbek tilidagi xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat turlarini tashkil etish til marketingining yuqori ko'rinishi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan til marketingini tashkillashtirish tasnifini atroflicha yoritsak. Tasnifning birinchi tamoyiliga muvofiq ilmiy asosga ega til marketingini tashkillashtirish qaysi jihatlarda namoyon bo'lishi mumkin va bu jihatlarning unumlilik darajasi qanchalik yuqori. Quyida biz ularning beshtasini yoritamiz.

a. buyurtma asosida til muammolari tadqiqi. Aslida til muammolari davlat muassasalari va filologik tadqiqot universitetlari, institutlarida rejali tarzda olib borilsada, ayrim zudlik bilan o'z yechimini topishi lozim bo'lgan yoki muayyan masalalarning til muammolari tadqiqi ma'lum bir jarayonlarning borishiga ta'sir etgan hollarda mazkur xizmatga ehtiyoj seziladi. Bizningcha tadqiqot institutlari va OTMlardagi ilmiy tadqiqotlar ham buyurtma asosida olib borilishi lozim. Shunda ilmiy tadqiq manbaalarining ham saviyasi oshadi. Bu buyurtmalar xoh davlat tomonidan, xoh xususiy tashkilot yoki muayyan shaxs tomonidan amalga oshirilmasin izchil va savyali tarzda topshirilishi lozim. Umuman maqsadli tarzda amalga oshirilishi lozim bo'lgan til muammolarini buyurtma asosida ilmiy tadqiq etish xizmati eng samarali til marketing tarmoqlaridan biri bo'lishi mumkin. Jumladan, sud ekspertizasida turli yozma va og'zaki matnlar bilan ish ko'riladi. Manashu jarayonlarda matn tahlili, grafik, semantic va boshqa jihatlardan ilmiy tadqiqni talab qiladi. Bu esa yuqoridagi xizmat turini yo'lga qo'ygan muassasa tomonidan amalga oshiriladi. Qayd etish joizki, mamlakatimizda ham bunday jarayonlar ko'plab marotaba yuz beradi. Odatda bu jarayonlarga muayyan OTM professor-o'qituvchilari jalb etiladi(biz bilgan o'rinlarda ushbu mehnat uchun haq to'lanmaydi). Yana bir misol. Muayyan joy nomining ilmiy tadqiqini olib boorish. Bu mamlakatdagi hukumat tuzilmasi hisoblangan atamalar qo'mitasi yoki boshqa muassasa va kishilar tomonidan buyurtma qilinishi mumkin. Mazkur xizmat turini qaysi shaklda yo'lga qo'yilmasin muayyan qiyinchiliklarni yengib o'tishni talab qiladi. Bu jarayonga savyali mutaxasislarni jalb etish muhim jihatlardan sanaladi.

Ammo shunisi aniqki, mazkur xizmatning samaradorlik ko'rsatkichi yuqori. Hozircha O'zbekistonda mazkur faoliyatni olib boruvchi muassasa mavjud emas.

b. turli til o'qitish kurslari. Mazkur xizmat ham yetarlicha foydaliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Qizig'i shundaki, mamlakatimizda bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar, shaxslar anchagina ko'p. til o'qitish kurslari ham turli ixtisoslikka ega bo'lib, asosan ikkita guruhda birlashadi. 1. Chet tilini o'qitish. 2. Ona tilini o'qitish. Ikkinchi toifa odatda bizda maktabdan tashqari tayyorlov kurslari qatorida o'qitiladi.

s. matn tuzish va unga ishlov berish, matn karrekturasi. Mazkur xizmat turi ham jahonda keng tarqalgan bo'lib, matnlar ustida olib boriladigan amallarga asoslangan. Biz bu toifa xizmatlarni redaksiyalar, gezeta va jurnallar, eng zamonaviy ko'rinishini sayt tahririyatlari faoliyatida kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu faoliyat xizmat sifatida shakllanib ulgurgan bo'lib, qator firma va internet saytlari menejmentlari taklifiga binoan mazkur soha mutaxasislari ushbu faoliyatni olib boradilar. Shuningdek individual tarzda ushbu xizmatni taklif etuvchi shaxslar ham bor. Qayd etish lozimki, yuqorida keltirilgan xizmatlarni taqdim etuvchilarning juda kam qismi yuridik maqomga ega yoki litsenziya asosida faoliyat olib boradi.

d. tarjima xizmatlari. Mazkur faoliyat turi allaqachon dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida xizmat sifatida shakllanib ulgurgan. Respublikamizda ham ushbu xizmat turi keng tarmoqli, nafaqat individual balki, guruhli faoliyat sifatida ham amalga oshirilib kelinmoqda. Hatto davlat ro'yxatidan o'tgan tashkilotlar ham mavjudligi xizmatnin taraqqiyot darajasini namoyon qiladi.

g. termin taklifi xizmati. Bu xizmat turi bizda shakllanib ulgurmadi. Ammo atamalar qo'mitasi qoshida ushbu faoliyat turini joriy etish mumkin. Bunda muayyan soha, ijtimoiy tarmoq, joy va boshqa nomlanish va atalish xususiyatini o'zida namoyon qilgan predmet va obyektlarga mos atama yoki termin toppish, buyurtmachilarga tarixiy, zamonaviy, ilmiy asosli birliklarni taklif etish kabi jihatlar qamrab olinishi mumkin.

2. Reklama kompaniyalari orqali til marketingini tashkillashtirish: bunday vositalar sirasiga OAV, skeytlar, multfilmlar, qisqa metrajli filmlar, gazeta va jurnallardagi rubrikalar, ko'cha manitorlari, pesh lavhalar, reklama taxtalari, yopishtiriladigan yorliqlar, ijtimoiy tarmoq sarlavhalari, internet reklamalari, savdo mahsulotlari qadoqlari kabilarni kiritishimiz mumkin ekanligini yuqorida keltirdik. Biz ulardan OAV, internet reklamalari, savdo mahsulotlari qadoqlarining tilmarketingidagi ahamiyatini yoritmoqchimiz.

Odatda bu muayyan mahsulot yoki faoliyatda tilni qo'llash yoki til mahsulotlarini muayyan faoliyat turiga bog'liq holda taqdim etish shaklida namoyon bo'ladi va xaridorlarga taqdim etiladi. Bundan ikkita maqsad ko'zlanadi. Birinchisi mahsulotni o'tkazish bo'lsa, ikkinchisi til mahsulotini reyalizatsiya qilish

hisoblanadi. Qayd etish lozimki, ishlab chiqaruvchining o'z mahsulotiga nom berishi yoki mahsulot tavsifini ona tilida ham berishi birinchi navbatda ona tiliga hurmatni ifodalasa, ikkinchi tomondan ushbu tilning ma'lum bir kichik nomlanishi orqali ona tili mavqaeini ma'lum darajada ko'tarishga xizmat qiladi.

Biz keltirgan ikkinchi tavsifning yaqqol na'munasi sifatida OAVlardagi reklama kompaniyalarini qayd etish o'rinli. Har bir reklama, mahsulot qiymatini oshirilishiga xizmat qilsa, mazkur reklamalardagi til qo'llanish holatlarining yuqori na'munasi ona tili qiymatini shunchalik oshiradi. Ammo aksi bo'lsa tilning obro'yini tushishiga, shu bilan birga nafaqat ushbu reklama balki, boshqa til xizmatlariga bo'lgan munosabatni pasayishiga olib keladi.

To'g'ri, iqtisodiy erkinlik, tadbirkorlarga ochilgan keng yo'llar ularning reklama borasidagi erkinligini ham anglatadi. Ammo bu ona tilining obro'sizlantirilishi evaziga emas. Bu yerda biz pedagoglar va hukumat rahbarlarining ma'suliyatsizligi yotadi. Agar biz o'sha boy tadbirkorga onatilining qiymatini yetarlicha anglata olganimizda, hukumat rahbarlari ona tili maqomini joyiga qo'yib ish tutish lozimligini yetarlicha anglata olishganlarida bizning reklamalarimiz bu holga kelmas, ona tilimizning maqomi vaqtinchalik mahsulot, kichik qiymatga ega moddiy manfaat oldida bunchalik pasaymas edi. Masalan, faqatgina 20 ta davlat televideniylarini har kuni 18.00 dan 20.00 gacha kuzatsangiz shu vaqt mobaynida o'rtacha 30 daqiqa reklamaga ajratiladi. Bu vaqt oralig'ida taxminan 50 xil turdagi reklama oyna-i jahonda berib boriladi. Ushbu reklamalarning 30% rus tilida 70% o'zbek tilida aks ettirilsada, har bir reklama qilinayotgan mahsulotning nomi boshqa tildan olingan birliklar hisoblanadi. Ular taxminan keltirilgan reklama namunalari sonining 90% tashkil qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ushbu reklamalarning tavsifigina o'zbekcha. Ammo shu tavsif ichida ham milliy bo'lmagan terminlar, o'zbek tili qolipida bo'lmagan ifodalar, uslubiy g'aliz jumlar juda katta foizni tashkil qiladi. Aslida davlat tili siyosatining yetarlicha samarali olib borilmayotganligining daliliga shuni o'zi yetarli emasmi? Demak, O'zbekistonda til marketingini yo'lga qo'yilishida bu tasnifda keltirilgan omil samarali vosita emas. Ammo bu jihatning Fransiya, Ispaniya kabi davlatlar til boshqaruvida samaradorlik kasb etishini, til marketingi uchun ham keng yo'l ochishini yuqorida ko'rib o'tdik. Mamlakatimizda bu jihat samarali yo'lga qo'yilishi lozim. Bu esa qayta ta'kidlaymiz pedagoglar va hukumat rahbarlari harakatiga bog'liq.

3. Rag'batlantiruvchi vositalar orqali til marketingini olib boorish: ushbu omilning til marketingida samarali vosita ekanligini yuqorida qayd etdik va tarixiy namunalari ham keltirdik. Mazkur omil mamlakatimizda ham faol amalda bo'lib, odatda bu omil sirasiga kiruvchi vositalar davlat tomonidan amalga tadbqiq etiladi. Mamlakatimiz miqyosida oladigan bo'lsak, turli sanalar munosabati va boshqa

omillarga bog'liq holda hukumat tashkilotlari rag'batlantiruvchi loyihalarni taklif qiladi. Bu vositalar sirasiga grantlar, stipendiyalar, mukofotlar va boshqalarni kiritish mumkin. Jumladan grantlar muayyan muhim til muammolari tadqiqi uchun, stipendiyalar esa shu til vakilining til taraqqiyotidagi faol harakatlari uchun, mukofotlar mazkur til mavqeyini yuksaltirishga qo'shgan hissalar uchun ma'lum bir shaxslarga beriladi. Muayyan lug'at tuzish uchun grant e'lon qilinishi shu tildagi ma'lum soha leksik birliklarining tartibga solinishiga xizmat qilish bilan birga, mazkur lug'atning reyalizatsiyasiga yo'l ochadi va bu marketing tamoyillariga asosan olib boriladi.

4. Raqamli texnologiyalarga tilni tadbiq etish orqali til marketingini tashkillashtirish. Bu omil hozirgi kunda eng muhim hisoblanib jahonning rivojlangan tillari raqamli texnologiyalar tiliga aylantirilgan. Bu esa, nafaqat til xizmatlarini balki, jamiyatning barcha sohalarda taqdim etiladigan xizmatlarini internet orqali shu tilda tarqatish imkonini beradi. Biz bu o'rinda faqatgina til xizmatlariga e'tibor qaratamiz. Bugungi kunda inson aralashuvisiz til o'rgatuvchi dasturlar, onlayn xizmatlar keng tarqalmoqda. Ushbu dasturlar borgan sari rivojlanib o'z doirasiga matnli vositalardan tashqari avdio, video materiallar, og'zaki va yozma muloqot shakllarini qamrab olmoqda. Bunday vositalar tobora takomillashib bormoqda. Ammo qayd etish joizki, o'zbek tilida bunday imkoniyat hozircha mavjud emas. Ta'limiy korpusning ishlab chiqilayotgani muayyan darajada bunday dasturiy ta'minotlarning yaratilishiga turtki bermoqda. Umuman mazkur vositalarning xarid qiymati yuksalib bormoqda. Aytish mumkinki, bu tarmoqning rivojlanishi kelgusida nafaqat til xizmatlarining kengayishiga balki, jamiyatning qator sohalari taraqqiyotiga keng yo'l ochadi.

5. Ko'ngil ochar xizmatlar orqali til marketingini tashkillashtirish. Bunday xizmatlar juda ham rivojlangan bo'lib, ushbu xizmat turlarini turli ovozli portallar, kompyuter xizmatlarini amalga oshiruvchilar, dizayn bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar taqdim etadi.

Umuman olganda tavsifda keltirilgan omillar va ularni tashkil etuvchi vositalar til marketingini shakllantirishda muayyan funksialarni bajaradi. Bu jihatlar jahon mamlakatlari til marketingida ham birdek rivojlanmagan bo'lsa ham, hozirgi kunda hukumat e'tiborining til siyosatiga bo'lgan yuksak ko'rinishlari kelgusida mazkur tarmoq taraqqiyotini yuksaltiradi. O'zbekistonda ham ushbu sohaning rivojlantirilishi nafaqat til sohasi taraqqiyotida balki, jamiyat tarmoqlarining rivojlanishiga yetarlicha turtki beradi. Mazkur tarmoq zaruratining qanchalik erta anglanishi, jamiyat taraqqiyotining shunchalik tezlashishiga olib keladi.

Til o'zlashtirilishi siyosati til marketingining asosiy vositasi hisoblanishi bilan birga uning o'sishini ta'minlovchi jihatlardan sanaladi. Chunki, til o'zlashtiruvchilari doirasining ko'pligi til qamrovi kengayishining asosiy omilidir.

Bu esa til marketingining ravnaqiga olib keladi. Shu jihatlarni e'tiborga olib quyida til o'zlashtirilishining boshqarilishi va til marketingidagi ahamiyatiga, bu borada xorij mamlakatlarining tajribasi, O'zbekistondagi holatiga to'xtalamiz.

Ibroniylarni o'rganishda Isroilga kelgan muhojirlar uyushtirilgan til o'rgatish tuzilmalarining xizmatlaridan manfaatdor. Immigrantlar olti oylik ibroniy tili darslarini ish joyidan uzulmagan holda tugatib, o'z faoliyatlarini davom ettirishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda boshqa turli xil intensiv va intensiv bo'lmagan kurslar ham turlicha to'lov usullari asosidagi o'qish sharoitlarini taqdim qiladi. Mazkur mamlakat OTMlari immigrant o'qituvchilar. ularning turmush o'rtoqlari, chet ellik talabalar uchun maxsus til kurslarini taklif qiladi. Chet ellik bolalar maktabga chiqqanlarida ularga ikkinchi til sifatida ibroniy tilida darslar taklif etiladi. Soddalashtirilgan ibroniy tilida haftalik gazetalar chop etiladi. Shuningdek yangiliklar ham Soddalashtirilgan ibroniy tilida berib boriladi. Vaqti-vaqti bilan televedeniyalarda soddalashtirilgan ibroniy tilidagi teleserial qayta efirga uzatiladi. Til siyosatining bunday usul va vositalari tilni o'rganishni rag'batlantirish uchun uyushgan harakatlarni nazarda tutadi. O'zlashtirishning boshqarilishiga ko'plab namunalar keltirish mumkin. Kaliforniya universiteti 1987 yilda koreys-amerikaliklarning koreys tilidagi ko'nikmalarini oshirish uchun Seul milliy universitetida koreys-amerikalik talabalarining o'n haftalik koreys tili bo'yicha sayohat qilish dasturini boshladi. Buning provardida til o'rganish maqsad qilingan. Sovet tili menejmentlari sovet ittifoqidagi rus bo'lmagan millatlarning rus tilini o'zlashtirishini osonlashtirish uchun sovet ozchilik tillarining ko'pchiligiga kirill yozuvini joriy qildilar. Shuningdek, rus tili modellaridan mazkur tillarning lug'atini modernizatsiya qilishda foydalanishdi. Britaniya Kengashi chet elda ingliz tili o'zlashtirilish qamrovini oshirish maqsadida ko'plab ingliz tili kutubxonalari faoliyatini yo'lga qo'yadi, u yerda seminarlar o'tkazadi va bir qator mutaxasislarning mahalliy xodimlarga o'qitish usullari yuzasidan ma'ruzalari olib borishlari uchun zarur amaliy sharoitlarni tashkillashtirilishini ta'minlaydi. Frantsuz va nemis tillarini targ'ib qilish bo'yicha o'xshash faoliyat bilan Alliance française va Gyote instituti shug'ullanadi. "Irland tili so'zlashuvchilari o'z farzandlariga irland tilini o'rgatishlari mumkin bo'lgan shahar sharoitlarini yaratish uchun hukumat Dublinda irland tilida so'zlashuvchilarni bir-biri bilan muntazam aloqada bo'lishiga olib keladigan va shu tariqa uydan tashqarida tilni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan ikkita yangi shahar loyihasini taklif qildi"¹⁹⁰. Xitoy Tayvanni qo'lga kiritganida yillar davomida hukumron til hisoblangan yapon tili ommaviy axborot vositalarida butunlay taqiqlandi. Mandarin tilini milliy til sifatida targ'ib qilish 1920 va 1930 yillarda materikda boshlangan milliy til siyosati harakatining

¹⁹⁰ Dorian, Nancy C. 1987. The value of language-maintenance efforts which are unlikely to succeed. *International Journal of the Sociology of Language*, 68: 57-67.

bosh g'oyasi bo'lgan va buning natijasida Tayvanda mandarin tili joriy etildi. Bergning fikricha, bu targ'ibot uchun tabiiy vosita bo'lib maktablar xizmat qilgan. Buning sababi yaponlar milliy maktablar tarmog'idan uzoqlashganligi bo'lgan. "O'qituvchilar materikdan milliy til orqali mandarin tilidan foydalanishni o'rgatish uchun olib kelingan. Asta-sekin maktablar mandarin tilida savodga ega va muayyan darajada mandarin tilida gapira oladigan ko'plab o'quvchilarni yetishtirdi"¹⁹¹. Maori tilida so'zlashuvchilar sonining Yangi Zelandiyada tobora kamayib borayotganiga javoban, maori rahbarlari maori tilidagi o'rta maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etishni taklif qilishdi. Maorif rahbarlari keksa maorilar xizmatini mazkur jarayonga yo'naltirishni rejalashtirdilar. Ushbu keksa vasiylar, bolalarning bobosi va buvisi bo'lar edi. Chunki, hali ham maori tilida bir nechta bolalarning ota-onalari gaplasha olishgan. Maori bilan aloqalar bo'limidan yangi maktabgacha ta'lim muassasalari ma'lum darajada ko'mak oldi. Ammo ishning katta qismini dasturni tashkil etish va amalga oshirishni istagan mahalliy jamoalar o'zlari bajarishlari kerak edi. Shunday qilib, markazlar sonining o'sish dinamikasi 1982 yilda 4 ta, 1984 yilda 280 va 1987 yilda 500 ga yaqinlashdi. "Maori tilida gapira oladigan bolalar soni tobora ortib bordi. Ota-onalar, bolalari o'z ota-bobolarining tilini o'rganayotganidan xursand bo'lib, boshlang'ich maktablarni ingliz va maori tillarida ikki tilli dasturlarni yo'lga qo'yish uchun bosim o'tkazishga undadi. Maktab direktorlari rozi bo'lsa, joy mavjud bo'lsa, maktab kengashlari qo'llab-quvvatlasa, talablarga javob bersa maori tilidan dars berishga tayyor va qodir bo'lgan xodimlarni topishdagi qiyinchiliklarga, o'quv materiallarining yetishmasligiga qaramay bunday dasturlar boshlandi. Bunday darsliklar va kadrlarni o'zlari yaratishlari kerak edi"¹⁹².

Bunday o'zlashtirishni boshqarishning namunalari bir-biridan ikki jihat bilan farqlanadi. 1. ochiq til siyosati maqsadi; 2. maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan usul.

Ochiq maqsadlar ham individual xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Biz bu o'rinda 2 tasini keltirishni maqul deb bildik.

a. tilni ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o'zlashtirish. Masalan, O'zbekistonliklarning rus tilini o'zlashtirishi;

b. aholi tomonidan bir vaqtlar xalq tili bo'lgan tilni qayta o'zlashtirish. Masalan, maori tilini qayta tiklash harakatlari;

O'zlashtirish maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan vositalarni 3 ta guruhda jamlash mumkin.

a. o'rganish imkoniyatini yaratish yoki yaxshilash uchun mo'ljallangan vositalar;

¹⁹¹ Berg, Marinus E. van den. 1985. Language Planning and Language Use in Taiwan: a study of language choice behavior in public settings. Dordrecht: ICG Printing.

¹⁹² Spolsky, Bernard. 1987. Maori bilingual education and language revitalization. Ramat-Gan: Bar-Ilan University. Unpublished paper.

b. o'zlashtirishni rag'batlantirishni yaratish yoki yaxshilash uchun mo'ljallangan vositalar;

s. bir vaqtning o'zida imkoniyat va rag'batni yaratish yoki yaxshilash uchun mo'ljallangan vositalar.

O'z navbatida o'rganish imkoniyatiga qaratilgan usullarni bilvosita va bevosita usullarga ajratish mumkin. O'rganuvchilarning ona tilini maqsadli tilga ko'proq o'xshash qilib shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni bilvosita usullar o'z ichiga oladi. Bunday usullar o'rganish jarayonining oson kechishini ta'minlaydi. Olimlar Sovet davrida rus bo'lmagan ozchilik tillarini rejalashtirish shakllarini mazkur usul namunasi sifatida ko'rsatishadi. O'quv tilining soddalashtirilgan versiyalarida adabiyotlar, gazetalar, radio va televidenie dasturlarini ishlab chiqarish, o'rganilayotgan tilda o'z-o'zini o'qitish uchun materiallar bilan ta'minlash, sinfda o'qitishni bevosita usullar o'z ichiga oladi.

O'rganishga rag'batlantirishga qaratilgan usullarga namuna sifatida, O'zbekistonda oliy ta'lim magistratura bosqichi uchun kirish imtihonlarida ingliz tilining majburiy fan sifatida kiritilishi, ingliz tili sertifikatini olishni istagan talabalarning ingliz tili kurslarida o'qish va o'zlashtirishni yuksaltirishlariga turtki berganligini ko'rsatish mumkin.

Milliy korpus va mualliflik korpuslarining menejerezatsiyasi bir xil tartibda amalga oshirilsada, qamrov, imkoniyat va funksional jihatdan boshqaruv doirasi, ma'suliyati turlicha bo'ladi. Mualliflik korpusini tuzishda mualliflik korpusini tuzuvchi mutaxasis mazkur jarayondagi har qanday bosqichni o'z nazoratida olib boradi va boshqaruvni shunga ko'ra tashkillashtiradi. Ya'ni bu xususiy boshqaruvga asoslanadi. Milliy korpus siyosatida esa, umumiy boshqaruv nazorati o'rnatiladi. Milliy til korpusini tuzishda bir qator soha mutaxasislari ishtirok etadi va ular funksional jihatdan korpusning tegishli qismlar boshqaruvini muvofiqlashtiradilar. Xususan, a) tilshunos mutaxasislar. Mazkur soha vakillari korpusning lingvistik jihatlarini shakllantiradilar va qator lingvistik faoliyatlarni muvofiqlashtiradilar; b) dasturchilar. Mazkur soha vakillari jamlangan lingvistik materiallarni algaritmik amallar asosida dasturiy ta'minot manbaalariga joylashtiradilar.

Til korpusi boshqaruvida tilning fonetik, grammatik, morfemik, leksik, semantik, stilistik jihatlarini qamrab olinmog'i va shu asosda bosqichma-bosqich mazkur birliklarni algaritmik modellar asosida kompyuter dasturiy ta'minotlariga joylashtirilmog'i lozim. Aslida yuqorida qayd etilgan jihatlar barchasi to'liq amalga oshirilganda muayyan tilning mukammal til korpusi shakllanadi. Ammo boshqaruv to'g'ri yo'lga qo'yilsa, mazkur zanjirlarning har bir qismi shakllantirilgan holda ham mavjud tayyor qismga asoslanib muayyan kichik funksiyalarni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi. Marketing odatda bozor iqtisodiyotiga mo'ljallangan termin bo'lib, savdo-sotiq xizmatlarining barchasini qamrab oladi. Til siyosatida til

marketingi til tashkilotlari, birlashmalari, jamoalari, mutaxassislarining moddiy naf evaziga til bilimlarini sotuvga chiqarish, til xizmatlarini yo'lga qo'yish, jamiyat vakillarining til ehtiyojlarini qondirish jarayoni hisoblanadi. Til o'zlashtirilishining omillari quyidagilar hisoblanadi: 1. muayyan til resruslari bilan yaqindan tanishish; 2. tilning global miqyosida keng tarqalganligi; 3. tilning xalqaro maqomi; 4. tilning imtiyozlilik; 5. Tilning jozibadorligi; 6. til qonuniyatlarining osonligi va mukammal ishlanganligi; 7. tilning internet va dasturiy ta'minotlardagi faolligi; 8. muayyan maqsadli harakatni amalga oshirish (biznes, tarjimonlik, josuslik v.b); 9. muayyan tilda so'zlashuvchi hududga turli maqsadlar bilan borish; 10. tilning tarixiy ahamiyatlilik; 11. tilning zamonaviyligi; 12. muayyan sohaning asos tili ekani; 13. ixtiyorsiz til o'zlashtirish. Til marketingini olib borish vositalari: 1. Ilmiy asosga ega til marketingi; 2. Reklama kompaniyalari orqali til marketingini tashkillashtirish; 3. Rag'batlantiruvchi vositalar orqali til marketingini olib boorish; 4. Raqamli texnologiyalarga tilni tadbqiq etish orqali til marketingini tashkillashtirish; 5. Ko'ngil ochar xizmatlar orqali til marketingini tashkillashtirish. Til marketingida ilmiy asosga ega til marketingini tashkillashtirish ko'rinishlari: a) buyurtma asosida til muammolari tadqiqi xizmati; b) til o'qitish kurslari xizmati; s) matn tuzish va unga ishlov berish, matn karrekturasi xizmati; d) tarjima xizmatlari; f) termin taklifi xizmati.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, marketing odatda bozor iqtisodiyotiga mo'ljlanlangan termin bo'lib, savdo-sotiq xizmatlarining barchasini qamrab oladi. Til siyosatida til marketingi til tashkilotlari, birlashmalari, jamoalari, mutaxassislarining moddiy naf evaziga til bilimlarini sotuvga chiqarish, til xizmatlarini yo'lga qo'yish, jamiyat vakillarining til ehtiyojlarini qondirish jarayoni hisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tashabbuslarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish, kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash va madaniy tadbirlarni o'tkazish tilning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu chora-tadbirlar o'zbek tili ta'lim va ijtimoiy sohalarda muhim o'rin tutadigan ma'naviy boy va madaniy rivojlangan jamiyatni shakllantirishga qaratilgan.

Mustaqil O'zbekistonning shakllanishi fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy sohadagi muhim islohotlar bilan birga keladi. Ushbu islohotlarning asosiy jihatlaridan biri o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirish, bu ma'naviy boy va madaniy jihatdan rivojlangan jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Lingvoma'naviyatshunoslik tadqiqotlari ta'lim va tarbiya uchun xizmat qiluvchi, aniq samarani ko'zlab ishlaydigan yaxlit sistemaning lingvoma'naviy

bazasini shakllantiradi. Kun sayin chuqurlashib, o'tkirlashib borayotgan shaxs ma'naviyati muammosini hal etish, kelajak yaratuvchilari bo'lgan yuksak ma'naviyatli yosh avlodni voyaga etkazishning ilmiy va amaliy asoslarini vujudga keltiradi. Aslida insonshunoslik fani bo'lgan lingvistikaning shaxs tarbiyasiga o'zining munosib va zotiy, tabiiy hissasini qo'shishini ta'minlaydi. Tilshunoslikning shunchaki "tadqiqotlar tadqiqotlar uchun" tamoyili asosida ish ko'rishidan shaxs ma'naviyati rivojiga, yosh avlodning shaxsiy takomillashuviga ko'maklashadigan, kerak bo'lsa, bunga daxldor sohalar oqimida etakchi o'ringa ko'tarilishiga olib keladi.

XULOSA

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish, til siyosati, tilni rejalashtirish, til siyosati atamalarining semantik mundarijasida o'zaro kesishuvchi nuqtalar bo'lib, shunday bo'lsa-da, mustaqil qo'llanish imkoniyatlari bilan farqlanib turadi. Ushbu atamalarining nisbatan kengroq semantik maydonga ega bo'lgani bu til siyosati atamasi hisoblanadi. Til siyosati bu muayyan davlat yoki guruhning o'z hududida til masalalarini tartibga solish yuzasidan olib boradigan maqsadli faoliyati hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida yangi ma'naviy makonda o'zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishga xizmat qiladi. Davlat tili siyosati muayyan davlat, hukumat yoki hukumat rahbarlarining mamlakat hududida davlat tilini o'rnatish, tartibga solish, davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig'indisi hisoblanib, bu jarayon o'lkada yashovchi boshqa millatlar tillariga hurmatni saqlagan holda davlat tilini targ'ib qilishga qaratiladi.

Davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish bosqichlari va me'yorlari mavjud. Til boshqaruvi darajalari oila, tashkilot va muassasalar, sohalar, davlat, global va boshqalar bo'lishi mumkin. Til boshqaruvi bosqichlari sifatida quyi, o'rta va yuqori bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Til siyosatining yuqori bosqichida davlat miqyosidagi til boshqaruvi e'tiborga olinsa, o'rta bosqichda davlat va xalq o'rtasida til masalalari yuzasidan ko'prik bo'luvchi vakolatli muassasalarning til boshqaruvidagi faoliyati nazarda tutiladi. Quyi boshqaruvda esa jamiyatdagi til foydalanuvchilarining til boshqaruvidagi o'rni hisobga olinadi. Til siyosatining me'yorlari esa til boshqaruvini olib borayotgan hukumat, muassasa, guruh tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda ifodalanadi. Keyingi yillarda til siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakat rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarida o'z nutqini o'zbek tilida so'zlashi ham tilimizning xalqaro miqyosdagi mavqeyini yuqoriga ko'tarish bilan bir qatorda uning tarbiyaviy maqomi ham yuksalib bormoqda, zero bu hodisa xalqimizning o'z ona tili bilan g'ururlanishi, unga bo'lgan munisabatining ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari o'zbek milliy kurashining xalqaro sport o'yinlari qatoriga kirishi undagi "chala", "yonbosh", "halol" so'zlarining xalqaro iste'molga kirishi ham har bir o'zbekning g'ururlanishiga asos bo'lishi bilan birga, ma'naviy-tarbiyaviy xarakter kasb etadi.

Uzoq yillar o'z yurtida ona tilida nutq so'zlash huquqidan mahrum bo'lgan xalq uchun o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi muhim tarixiy hodisa edi. Keyingi yillarda o'zbekistonda til siyosatining yangi bosqichga ko'tarilishi nafaqat mamlakatning rasmiy maqomini mustahkamlaydi, balki uning davlat tili sifatidagi mavqeyi jamiyat orasida milliy tilimizning rasmiy til sifatida tarbiyaviy maqomini ham oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda davlat tilining siyosiy, ijtimoiy

mavqeyi atroflicha o'rganilmoqda, biroq uning tarbiyaviy maqomi borasida ilmiy izlanishlar . etarli emas, shu ma'noda "o'zbek tili", "ona tili", "davlat tili" tushunchalarining falsafiy, ma'naviy va ta'limiy ahamiyatiga doir tadqiqotlarga ham urg'u berish davr talabidir. Davlat tilining nufuzi va mavqeyini ko'tarish bo'yicha tizimli islohotlar olib borayotgan bo'lsa-da uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi amaliy ahamiyatini qoniqarli deb bo'lmaydi, shu ma'noda **shaxs ma'naviyati, tafakkurini o'stirishda davlat tilining tarbiyaviy maqomini ko'tarish mexanizmi tatbiq qilinsa, fuqarolarda davlat tili qoidalariga rioya qilish, uni hurmat qilish falsafasi shakllanadi** va til siyosti bilan bog'liq islohatlar yana-da samarali natijalar bera boshlaydi.

O'zbek jamiyatida bir nechta tillarning roli va nufuzi yuqori. Ammo til siyosatida ularga alohida normalar belgilanmagan bo'lib, mazkur tillarni rivojlantirish asosan ushbu tillar vakillari hamda ular tomonidan tashkil etilgan milliy-madaniy markazlar zimmasiga yuklangan. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish, xolisona aytganda mamlakat til siyosatida mahalliy tillardan faqatgina ta'lim tillaridagina mavjud bo'lgan tillarga e'tibor qaratilgan. Qonun hujjatlarida ushbu til vakillarining ta'lim olish huquqlarini qondirish va ularni yetarlicha resruslar bilan ta'minlash masalalari nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonuni moddalari nihoyatda demokratik va bag'ri kenglik tamoyillarga tayanib shakllantirilgan bo'lib, Qonun me'yorlariga amal qilmaslik oqibatlarini aniq me'zonlar asosida belgilanmagan. Qonun hujjatida belgilanadigan me'zonlarga o'zbek tilining lingvistik, huquqiy, amaliy manbalari asos qilib olinsa, Qonun qiymati yuksalishi bilan birga, mamlakatda davlat tili siyosatini amalga oshirish oson bo'ladi.

Lingvoma'naviyatshunoslik tadqiqotlari ta'lim va tarbiya uchun xizmat qiluvchi, aniq samarani ko'zlab ishlaydigan yaxlit sistemaning lingvoma'naviy bazasini shakllantiradi. Kun sayin chuqurlashib, o'tkirlashib borayotgan shaxs ma'naviyati muammosini hal etish, kelajak yaratuvchilari bo'lgan yuksak ma'naviyatli yosh avlodni voyaga etkazishning ilmiy va amaliy asoslarini vujudga keltiradi. Aslida insonshunoslik fani bo'lgan lingvistikaning shaxs tarbiyasiga o'zining munosib va zotiy, tabiiy hissasini qo'shishini ta'minlaydi. Tilshunoslikning shunchaki "tadqiqotlar tadqiqotlar uchun" tamoyili asosida ish ko'rishidan shaxs ma'naviyati rivojiga, yosh avlodning shaxsiy takomillashuviga ko'maklashadigan, kerak bo'lsa, bunga daxldor sohalar oqimida etakchi o'ringa ko'tarilishiga olib keladi. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish mohiyatini anglagan holda jamiyat tillari o'rtasida funktsiyalarni taqsimlashga ta'sir qilish uchun qilingan harakatlar til maqomini boshqarish hisoblanadi. Til siyosatida tillar maqomi mamlakatdagi milliy ko'p tillilik bilan bog'liq holda tilning funktsiyasiga qarab belgilanadi. Til siyosatida tillarning rasmiy, viloyat, kengroq

muloqot, xalqaro, guruh, ta'lim, maktab predmeti, adabiy, diniy, ommaviy axborot vositalari, faoliyat-ish, internet tili belgili funktsiyalari ajratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Адолат, 1992.
– 4 б. <https://lex.uz/docs/20596>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил, 28 декабр сони. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi>
3. “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent, 13.05.2016. <https://lex.uz/docs/-2959330?ONDATE=23.05.2016>
4. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993-yil 2-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-112286?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>
5. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 21-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili&https://lex.uz/docs/-121051>
6. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori. 1993-yil 2-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-125418?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>
7. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>
8. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>
9. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 1995-yil 24-avgust. <https://lex.uz/uz/docs/-1625271?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>
10. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta‘minlash yuzasidan Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining Qarori. 1994-yil 16-iyun. <https://lex.uz/uz/docs/-738439?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

11. “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2020-yil 11-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-4759743?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

12. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2016-yil 24-may. <https://lex.uz/uz/docs/-968200?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

13. “Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta‘minlash yuzasidan davlat dasturini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 1994-yil 16-iyundagi 304-son Qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida. 1996-yil 19-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-399022?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

14. “Davlat tili to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1989-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-109394?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

15. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

16. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-yil 20-oktabr. PF-6084-son. <https://lex.uz/docs/-5058351>

17. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21-oktabr 2019-yil. <http://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

II. Ilmiy adabiyotlar

1. Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi [Matn]: monografiya. – Toshkent, 2021. – B. 12.

2. Akiner Sh. Uzbekistan: Republic of Many Tongues. // Language Planning in the Soviet Union. – London, 1989. – P. 230.

3. Amara, Muhammad Hasan, 1988, Arabic diglossia: Conditions for learning the standard variety, Aljadid 12: 14–23.

4. Ammon, Ulrich. 2001 (ed.), *The dominance of English as a language of science: Effects on other languages and language communities*, Berlin and New York: Mouton de Gruyter.
5. Aunger, Edmund A., 1993, *Regional, national and official languages in Belgium*, *International Journal of the Sociology of Language* 104: 31–48.
6. Baldauf Jr., Richard B., 1994, “Unplanned” language planning and policy. In William Grabe (ed.), *Annual review of applied linguistics* (Vol. 14, pp. 82–89), Cambridge: Cambridge University Press.
7. Barkhuizen, Gary, Knoch, Ute, and Starks, Donna, 2006, *Language practices, preferences and policies: Contrasting views of Pakeha, Maori, Pasifika, and Asian students*, *Journal of Multilingual and Multicultural Development* 27(5): 375–391.
8. Baron D. *The English-only question: an official language for Americans?* - New Haven: Yale University Press, 1990. –P. 201.
9. Bauer, Raymond A. 1968. *The study of policy formation: an introduction*. In Raymond A. Bauer and Kenneth J. Gergen (Eds.), *The Study of Policy Formation*. New York: The Free Press.
10. Benson, Carol, 2004, *Do we expect too much of bilingual teachers? Bilingual teaching in developing countries*, *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism* 7(2&3): 204–221.
11. Berg, Marinus E. van den. 1985. *Language Planning and Language Use in Taiwan: a study of language choice behavior in public settings*. Dordrecht: ICG Printing.
12. Berger, Peter L. and Brigitte Berger. 1976. *Sociology: a biographical approach*. Revised edition. Harmondsworth: Penguin Books.
13. Berger, Peter L. and Brigitte Berger. 1976. *Sociology: a biographical approach*. Revised edition. Harmondsworth: Penguin Books. P. 336.
14. Bergsdorf W. *Herrschaft und Sprache. Studie zur politischen Terminologie der Bundesrepublik Deutschland*. - Neske-Verlag, 1983. –P. 34.
15. Bernard Spolsky. *Language Management*. Cambridge. Cambridge University Press. 2009. P. 322.
16. Berry, Jack. 1977. "The making of alphabets" revisited. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in the Creation and Revision of Writing Systems*. The Hague: Mouton, pp.3-16.
17. Billigmeier, Jon-Christian. 1987. *Alphabets*. The Encyclopedia of Religion. New York: Macmillan. Vol. 1, pp. 216-222.
18. Birdsong, David and Paik, Jee, 2008, *Second language acquisition and ultimate attainment*. In Bernard Spolsky and Francis M. Hult (eds.), *Handbook of educational linguistics* (pp. 424–436), Boston: Blackwell.

19. Blommaert, Jan, 2005, Situating language rights: English and Swahili in Tanzania revisited, *Journal of Sociolinguistics* 9(3): 390–417. 396.
20. Bongaerts, Theo, van Summeren, Chantal, Planken, Brigitte, and Schils, Erik, 1997, Age and ultimate attainment in the pronunciation of a foreign language, *Studies in Second Language Acquisition* 19(4): 447–465.
21. Bright W. and Ramanujan A.K. Sociolinguistic variation and language change // *Proceedings of the 9th International Congress of Linguistics*. - The Hague, 1964. –P. 1107-1113.
22. Bruchis M. One Step Back, Two Steps Forward: on the Language Policy of the Communist Party of the Soviet Union in the National Republics (Moldavian, a Look Back, a Survey and Perspectives. 1924–1980). – New York, 1982. – P. 12.
23. Campbell L. American Indian languages: the historical linguistics of Native America. - New York: Oxford University Press, 1997. –P. 107-155.
24. Campbell L. Sociolinguistics in the USA. - New Zealand: University of Canterbury, 2000. -P. 107.
25. Cohen M. Pour une sociologie du langage. – Paris, 1956. –P. 30.
26. Cooper, Robert L. 1979. Language planning, language spread, and language change. In James E. Alatis and G. Richard Tucker (Eds.). *Georgetown University Round Table on Languages and Linguistics 1979*. Washington: Georgetown University Press, pp. 23-50.
27. Dadaboyev H., Usmonova Sh. *Xorijiy sotsiolingvistika (O'quv qo'llanma)*. – Toshkent. Universitet 2014. 150.
28. Das Gupta, Jyotirindra. 1970. *Language Conflict and National Development: group politics and national language policy in India*. Berkeley: University of California Press. P. 173-4.
29. Das Gupta, Jyotirindra. Language planning and public policy: analytical outline of the policy process related to language planning in India. In Roger Shuy (Ed.), *Report of the Twenty-Third Annual Round Table Meeting on Linguistics and Language Studies*. Washington: Georgetown University Press. 1973. pp. 157-165.
30. Davies, Alan, 2003, *The native speaker: Myth and reality*, Clevedon, UK, Buffalo, Toronto, and Sydney: Multilingual Matters Ltd., Phillipson, Robert, 1992, *Linguistic imperialism*, Oxford: Oxford University Press.
31. Désirat Cl., Hordé H. *La langue française au XX-e siècle*. -Paris, 1976. – P. 17-18.
32. Djite, Paulin G., 2008, *The sociolinguistics of development in Africa*, Clevedon, UK, Buffalo, and Toronto: Multilingual Matters Ltd. (2008)
33. Dorian, Nancy C. 1987. The value of language-maintenance efforts which are unlikely to succeed. *International Journal of the Sociology of Language*, 68: 57-67.

34. Edwards J. Multilingualism. – London and New York: Routledge, 1994. – P. 83–84.
35. Egginton, William, 2002, Unplanned language planning. In Robert B. Kaplan (ed.), *The Oxford handbook of applied linguistics* (pp. 404–415), Oxford: Oxford University Press. (2002).
36. Ellsworth, John W. and Arthur A. Stahnke. 1976. *Politics and Political Systems: an introduction to political science*. New York: McGraw-Hil.
37. *Encyclopédie* of Diderot and d'Alembert in an article by M. Faiguet. – Paris, 1765. –P. 249-250.
38. Enever, Janet, 2007, Yet another early-start languages policy in Europe: Poland this time! *Current Issues in Language Planning* 8(2): 208–221.
39. Engle, Patricia. 1975 • Language medium in early school years for minority language groups. *Review of Educational Research*, 45: 283-325.
40. Ferguson Ch. A. Baby talk in six languages. in Gumperz and Hymes, 1964. –P. 103-114.
41. Ferguson, Charles A. 1962. The language factor in national development. In Frank A. Rice (Ed.), *Study of the Role of Second Languages in Asia, Africa, and Latin America*. Washington: Center for Applied Linguistics of the Modern Language Association of America, pp. 8-14. First published in *Anthropological Linguistics*, 1962, 4(1): 23-27.
42. Ferguson, Charles A. 1966. National sociolinguistic profile formulas. In William Bright (Ed.), *Sociolinguistics: proceedings of the UCLA Sociolinguistics Conference, 1964*. The Hague: Mouton, pp. 309-324.
43. Ferguson, Charles A. 1968. Language development. In Joshua A. Fishman, Charles A. Ferguson, and Jyotirindra Das Gupta (Eds.), *Language Problems of Developing Nations*. New York: John Wiley and Sons, pp. 27-35.
44. Fisher J.L. Syntax and Social Structure: Truk and Ponape // *Sociolinguistics*. -The Hague - Paris, 1966.-P. 168-183.
45. Fishman, Joshua A. 1982. Attracting a following to high-culture functions for a language of everyday life: the role of the Tshernovits language conference in the "rise of Yiddish". In Robert L. Cooper (Ed.), *Language Spread: studies in diffusion and social change*. Bloomington: Indiana University Press in cooperation with the Center for Applied Linguistics, Washington, pp. 291-320.
46. Furfey P.H. Men's and women's language. "American Catholic Sociological Review".-Vol. 5, 1944. –P. 218-223.
47. Garcı́a, Ofelia, Skutnabb-Kangas, Tove, and Torres-Guzmań, Maria E., 2006 (eds.), *Imagining multilingual schools*, Clevedon, UK, Buffalo, and Toronto: Multilingual Matters Limited.

48. Germani, Gino. 1980. Industrialization and modernization. *Encyclopedia Britannica, Macropedia* 9: 520-527.
49. Giles, Howard, Taylor, Donald M., and Bourhis, Richard, 1973, Towards a theory of interpersonal accommodation through language: Some Canadian data, *Language in Society* 2(2): 177–192.
50. Gill, Saran Kaur, 2005, Language policy in Malaysia: Reversing direction, *Language Policy* 4(3).
51. Gill, Saran Kaur, 2006, Change in language policy in Malaysia: The reality of implementation in public universities, *Current Issues in Language Planning* 7(1): 82–94.
52. Gipper ff. *Soziolinguistik oder Sprachsoziologie?* // *Soziolinguistik* / Hrsg. von A. Scharb. - Wien, 1976. –P. 100.
53. Gorman, Thomas P. Language allocation and language planning in a developing nation. In Joan Rubin and Roger Shuy (Eds.), *Language Planning: current issues and research*. Washington: Georgetown University Press. 1973. pp. 72-82.
54. Gumperz. J.J. Dialect differences and social stratification in a North Indian village // *American Anthropologist*. –Vol. 60, 1958. –P. 668-682.
55. Hall, Robert A. Jr. *American linguistics, 1925-1950*. *Archivum Linguisticum*, 1951. 4(1): 1-16; (2): 41-43.
56. Haugen, Einar, 1987, *Blessings of Babel: Bilingualism and language planning: Problems and pleasures*, Berlin, New York, and Amsterdam: Mouton de Gruyter. (Haugen 1987: 35ff.).
57. Haugen, Einar. Language planning, theory and practice. In A. Graur (Ed.), *Actes du Xe Congres International des Linguistes: Bucarest, 28 Aout - 2 Septembre 1967*. Bucarest: Editions de L'Academie de la Republique Socialiste de Roumanie. Vol. 1. 1969. pp. 701-711.
58. Haugen, Einar. Linguistics and language planning. In William Bright (Ed.), *Sociolinguistics: proceedings of the UCLA Sociolinguistics Conference, 1964*. The Hague: Mouton. 1966. pp. 50-71. 52.
59. Haugen, Einar. Planning for a standard language in modern Norway. *Anthropological Linguistics*, 1959. 1(3): 8-21.
60. Haugen. *Blessings of Babel: Bilingualism and language planning: Problems and pleasures*, Berlin, New York, and Amsterdam: Mouton de Gruyter. 1987. P.27.
61. Henze, Paul B. 1977. Politics and alphabets in inner Asia. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in the Creation and Revision of Writing Systems*. The Hague: Mouton, pp. 371-420.

62.Hoenigswald H.M. A proposal for the study of the folk-linguistics // Sociolinguistics. -The Hague - Paris, 1966. –P. 16-20.

63.Hu, Yuanuan, 2007, China's foreign language policy on primary English education: What's behind it? Language Policy 6(3–4): 359–376.

64.Huntington, Ellsworth. 1924. Climate and Civilization. Third edition. New Haven: Yale University Press.

65.Jernudd, Bjorn and Neustupny, Jiri V., 1987, Language planning: For whom? In L. LaForge (ed.), Proceedings of the international colloquium on language planning (pp. 69–84), Quebec, Canada: Presses de l'Universite Laval.

66.Jernudd, Bjorn H. and Jin V. Neustupny. Language planning: for whom? Comments presented at the International Colloquium on Language Planning in Ottawa (Canada), May 1986.

67.Jernudd, Bjorn H. and Jyotirindra Das Gupta. Towards a theory of language planning. In Joan Rubin and Bjorn H. Jernudd (Eds.), Can Language Be Planned?: sociolinguistic theory and practice for developing nations. The Hague: Mouton. 1971. pp. 195-215. 211.

68.Jernudd, Bjorn H. The (r)evolution of sociolinguistics. In Christina Bratt Paulston and G. Richard Tucker (eds.), The early days of sociolinguistics (pp. 131–138), Dallas, TX: Summer Institute of Linguistics. 1997. P. 136.

69.Kaplan, Robert B. and Baldauf, Richard B., 1997, Language planning from practice to theory, Clevedon, UK: Multilingual Matters Ltd. P. 298.

70.Karam, Francis X. Toward a definition of language planning. In Joshua A. Fishman (Ed.), Advances in Language Planning. The Hague: Mouton. 1974. pp. 103-124.

71.Kheimets, Nina G. and Epstein, Alek D., 2005, Languages of science in the era of nation-state formation: The Israeli universities and their (non)participation in the revival of Hebrew, Journal of Multilingual and Multicultural Development 26(1): 12–36.

72.Kloss H. German-American language maintenance efforts. Language loyalty in the US, ed. by Joshua Fishman et al. -The Hague: Mouton, 1966. –P. 206-252.

73.Kloss, Heinz, 1969, Research possibilities on group bilingualism: A report, Quebec: International Center for Research on Bilingualism.

74.Kloss, Heinz. 1967. "Abstand languages" and "ausbau languages". Anthropological Linguistics, 9(7): 29-41.

75.Koeper, H. F. 1980. Sullivan, Louis. Encyclopedia Britannica. Macropedia Vol. 17, PP- 794-797.

76. Kopeliovich, Shulamit. Reversing language shift in the immigrant family: Case study of a Russian-speaking community in Israel, unpublished Ph.D. dissertation, Bar-Ilan University, Ramat-Gan. 2006.

77. Kotler, Philip and Gerald Zaltman. 1971. Social marketing: an approach to planned social change. *Journal of Marketing*, 35 (July): 3-12.

78. Kotler, Philip and Sidney J. Levy. 1969. Broadening the concept of marketing. *Journal of Marketing*, 33 (January): 10-15.

79. Kroch, Anthony. 1978. Toward a theory of social dialect variation. *Language in Society*, 7: 17-36.

80. La Constitution de la France - <http://www.legifrance.gouv.fr/html/constitution/constitution2.htm#vide>.

81. Labov W. The social motivation of a sound change // *Word*. –Vol. 19, 1963. –P. 273-309; Labov W. Phonological correlates of social stratification. In Gumperz and Hymes, 1964. –P. 164-176.

82. Labov, William, 1966, *The social stratification of English in New York City*, Washington DC: Center for Applied Linguistics.

83. Labov, William. Some principles of linguistic methodology/*Language in Society* 1972. 1(1): 97–120.

84. LaPiere, Richard T. 1965. *Social Change*. New York: McGraw-Hill. P. 26.

85. Lasswell, Harold D. 1936. *Politics: who gets what, when, how*. New York: McGrawHill. 3.

86. Lewis, E. Glyn, 1972, *Multilingualism in the Soviet Union*, The Hague: Mouton. P. 71.

87. Lewis, E. Glyn, 1980, *Bilingualism and bilingual education: A comparative study*, Albuquerque and Oxford: University of New Mexico Press and Pergamon Publishers. P. 144.

88. Lewis, E. Glyn. 1982. Movements and agencies of language spread: Wales and the Soviet Union compared. In Robert L. Cooper (Ed.), *Language Spread: studies in diffusion and social change*. Bloomington: Indiana University Press in cooperation with the Center for Applied Linguistics, Washington, pp. 214-259. P. 252.

89. Lippi-Green R. *English with an accent: language, ideology, and discrimination in the United States*. -London: Routledge, 1997. –P. 229.

90. Mackey, William F. 1983. Language status policy and the Canadian experience. In Juan Cobarrubias and Joshua A. Fishman (Eds.), *Progress in Language Planning: international perspectives*. Berlin: Mouton, pp. 173-206.

91. Markee, Numa Piers Philip. Unpublished prospectus for a dissertation in applied linguistics: an appropriate technology model of communicative course

design. Submitted to the Applied Linguistics Program, University of California at Los Angeles. 1986. 8.

92. Martin S. Speech levels in Japan and Korea. "Language in Culture and Society", ed. by Dell Hymes. - New York, 1964. -P. 407-412.

93. Mazrui, Ali A. and Pio Zirimu. 1978. Church, state and marketplace in the spread of Kiswahili: comparative educational implications. In Bernard Spolsky and Robert L. Cooper (Eds.), Case Studies in Bilingual Education. Rowley: Newbury House, pp. 427-453.

94. McCarthy, E. Jerome. 1968. Basic Marketing: a managerial approach. Third edition. Homewood: Richard D. Irwin. P. 31-33.

95. Mengliyev B., Hamrayeva Sh. Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish. Qo'llanma. - T.: Globeedit. 2020. 50 b.

96. Miller, George A. Language engineering. Journal of the Acoustical Society of America, 1950. 22(6): 720-725.

97. Moser, Claus, 1999, Improving literacy and numeracy: A fresh start, London: Department of Education and Employment.

98. Nekvapil, Jiri, 2006, From language planning to language management, Sociolinguistica 20: 92-104.

99. Nekvapil, Jiri, 2007, On the relationship between small and large Slavic languages, International Journal of the Sociology of Language 183: 141-160.

100. Neustupny, Jiff V. Towards a paradigm for language planning. Language Planning Newsletter. 1983. 9(4): 1-4.

101. Neustupny, Jiri V. and Nekvapil, Jiri, 2003, Language management in the Czech republic, Current Issues in Language Planning 4(3 & 4): 181-366.

102. Noss, Richard. Language Policy and Higher Education. Vol. 3, part 2 of Higher Education and Development in Southeast Asia. Paris: UNESCO and the International Association of Universities. 1967.

103. O' Riagain, Padraig, 1997, Language policy and social reproduction: Ireland 1893- 1993, Oxford: Clarendon Press. 1997.

104. Opler M.E. and Hoijer H. The raid and war-patch language of the Chiricahua Apache // American Anthropologist. -Vol. 42, 1940. -P. 617-634.

105. Prator, Clifford H., 1968, The British heresy in TESL. In Joshua A. Fishman, Charles A. Ferguson, and Jyotirindra Das Gupta (eds.), Language problems of developing nations (pp. 459-466), New York: John Wiley and Sons. P. 473.

106. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr. 2011. - 160 b

107. Robert L. Cooper. Language planning and social change. Cambridge University Press. Cambridge. 1989., Transferred to digital printing 2000. P. 320.

108. Robertson, Ian. 1981. *Sociology*. Second edition. New York: Worth.
109. Rogers, Everett M. 1983. *Diffusion of Innovations*. Third edition. New York: Free Press. 69.
110. Rogers, Everett M. and F. Floyd Shoemaker. 1971. *Communication of Innovations: a cross-cultural approach*. Second edition. New York: Free Press.
111. Rosier, Paul and Holm, Wayne, 1980, *The Rock Point experience: A longitudinal study of a Navajo school program*, Washington DC: Center for Applied Linguistics.
112. Rostow, Walt W. 1960. *The Stages of Economic Growth: a non-communist manifesto*. Cambridge: Cambridge University Press.
113. Rubin, Joan and Bjorn H. Jernudd (Eds.). *Introduction: language planning as an element in modernization*. In Joan Rubin and Bjorn H. Jernudd (Eds.), *Can Language Be Planned? sociolinguistic theory and practice for developing nations*. Honolulu: The University Press of Hawaii. 1971(b). pp. 8-24.
114. Rubin, Joan. 1977(a). *Indonesian language planning and education*. In Joan Rubin, Bjorn H. Jernudd, Jyotirindra Das Gupta, Joshua A. Fishman, and Charles A. Ferguson (Eds.), *Language Planning Processes*. The Hague: Mouton, pp. 111-129.
115. Rubin, Joan. 1977(b). *Language standardization in Indonesia*. In Joan Rubin, Bjorn H. Jernudd, Jyotirindra Das Gupta, Joshua A. Fishman, and Charles A. Ferguson (Eds.), *Language Planning Processes*. The Hague: Mouton, pp. 157-179.
116. Sapir E. *Male and female forms of speech in Jana*, 1929. Reprinted in "Selected Writings of Edward Sapir", ed. by David G. Mandelbaum. - Berkeley, 1949. -P. 206-212.
117. Silverstein, Michael, 1998, *Contemporary transformation of local linguistic communities*, *Annual Review of Anthropology* 27: 401–426.
118. Spolsky, Bernard, 1974, *The Navajo Reading Study: An illustration of the scope and nature of educational linguistics*. In J. Quistgaard, H. Schwarz, and H. Spong-Hanssen (eds.), *Applied linguistics: Problems and solutions: Proceedings of the Third Congress on Applied Linguistics, Copenhagen, 1972* (Vol. III, pp. 553–565), Heidelberg: Julius Gros Verlag.
119. Spolsky, Bernard, 2004, *Language policy*, Cambridge: Cambridge University Press.
120. Spolsky, Bernard. 1987. *Maori bilingual education and language revitalization*. Ramat-Gan: Bar Ilan University. Unpublished paper.
121. Stewart, William. 1968. *A sociolinguistic typology for describing national multilingualism*. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Readings in the Sociology of Language*. The Hague: Mouton, pp. 531-545.

122. Tauli, Valter. The theory of language planning. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in Language Planning*. The Hague: Mouton. 1974. pp. 49-67.
123. Te Puni Kokiri, 2001, *The use of Maori in the family*, Wellington: Ministry of Maori Development., Te Puni Kokiri, 2002, *Survey of the health of the Maori language in 2001*, Wellington: Ministry of Maori Development.
124. Thorburn, Thomas. Cost-benefit analysis in language planning. In Joan Rubin and Bjorn H. Jernudd (Eds.), *Can Language Be Planned? sociolinguistic theory and practice for developing nations*. Honolulu: The University Press of Hawaii. 1971. pp. 251-262.
125. Venezky, Richard L. 1977. Principles for the design of practical writing systems. In Joshua A. Fishman (Ed.), *Advances in the Creation and Revision of Writing Systems*. The Hague: Mouton, pp. 37-54. First published in *Anthropological Linguistics*, 1970,12(7): 256-270.
126. Weinreich, Max, *History of the Yiddish language* (trans. Joshua A. Fishman and Shlomo Noble), Chicago: University of Chicago Press. 1980.
127. Weinstein, Brian. *Language planning in Francophone Africa*. *Language Problems and Language Planning*. 1980. 4(1): 55-77.
128. Weston, Louise. 1977. *The Study of Society*. Second edition. Guilford: The Dushkin Publishing Group.
129. Williams, Colin H., 2008, *Linguistic minorities in democratic context*, Basingstoke and New York: Palgrave Macmillan.
130. Zaripov R.E. *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. 2021.- 36 b.*
131. Zaripov R.E. *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. Fal. Fan. Dok. (PhD)... Diss. – Toshkent. 2021. B. 150.*
132. Агзамходжаев А., Саидов А. О статус государственного языка // *Правда Востока*. 28 июня 1989 г.
133. Баскаков А.И. Социолингвистический анализ языковой ситуации в регионе Средней Азии и Казахстана. – Нукус: Билим, 1992. – С. 29.
134. Баскаков А.И. Типы языковых конфликтов в регионе Средней Азии и Казахстана. // *Язык в контексте общественного развития*. – М., 1994. – С. 157.
135. Бичурин И. История народов обставних в Средней Азии древний времена. Том I. – Москва: ИВЛ, 1950. – С. 105.
136. Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // *Новое в лингвистике*. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.

137. Гарилов Т.А., Гаркавец А.У. Национально-русское двуязычие в Урало-Поволжье. Средней Азии и Казахстане. // Исследования языковых систем в синхронии и диахронии. – М., 1991. – С. 61.
138. Губогло М.Н. Современные этноязыковые процессы в СССР. – Москва: Наука. 1984. – С. 79.
139. Гумилёв Л.Н. Древний тюрки. – Москва: Наука, 1967. – С. 90–91.
140. Европейская Хартия региональных или миноритарных языков. University of Minnesota. Human Rights Library. - <http://www1.umn.edu/humanrts/euro/Rets148.html>.
141. Зак Л.М., Исаев М.И. Проблемы письменности народов СССР в культурной революции. // Вопросы истории. 1966, tt 2. – С. 4.
142. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – 48 с.
143. Каримов Б., Мираъзамов К. Миллат равнаки ва тил муаммолари. – Тошкент: ФАН, 1993. – Б. 3.
144. Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социалингвистика. Германия. Испания. –М.: Наука, 1991.– С.7.
145. Кузнецов Г.Д., Чехоева С.А. Национальные школы РСФСР в современных условиях. // Советская педагогика, 1982. – № 2. – С. 12.
146. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс) - [//lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf](http://lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf).
147. Кутузов А.Б. Курс «Корпусная лингвистика». – Москва, 2008. – 26 с.
148. Население СССР. – М., 1990. – С. 37.
149. По‘латов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 520 б.
150. Печать в СССР в 1984 году. – М., 1985. – С. 110–112.
151. Рашидов Ш.Р. Русский язык – язык взаимного общения и сотрудничества всех наций и народностей Советского Союза // Русский язык в национальной школе. 1975. – № 6. С. 13.
152. Словарь социалингвистических терминов // Отв. ред. Михальченко В.Ю. – М., 2006. – С. 312.
153. Степанов Г.В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. - М., 1976. –С. 22.
154. Фозилов Э.И. «Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида»ги Қонунини амалга ошириш юзасидан белгиланган тадбирларнинг бажарилиши ҳақида // «Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида»ги Қонунини олий ва ўрта махсус таълим юртларида амалга оширилиши. – Тошкент: ТДТУ, 1991. – Б. 7.

155. Хамроева Ш. О‘збек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: филол. фанлари бо‘йисча фалсафа докт. дисс. – Бухоро, 2018. – 165 б.
156. Ханазаров К.Х. Сближение наций и национальные языки в СССР. – Ташкент, 1963. – С. 176.
157. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика: Теория, проблемы, методы. – Изд. 4-е. – М., 2012. – С. 148.
158. Шеварднадзе Э.А. Интернационалистическое воспитание масс. // Коммунист. – М., 1977. – № 13. – С. 49.
159. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. - М., 1975. - С. 336.
160. Эшмуминов А. О‘збек тили миллий корпусининг синоним со‘злар базаси. Филол.фан.бо‘йисча фалсафа доктори (PhD)...дис.. – Тошкент, 2019.– Б.50-51.

III. Elektron resurslar

1. <http://interkomitet.uz/qomita-haqida/milliy-madaniy-markazlar/o-zbekiston-qozoq-milliy-madaniy-markazi/?lang=uk>
2. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1241.htm>
3. <http://tai.uz/?page=about#institut>
4. <http://uzschoolcorpara.uz/>
5. http://www.demoscope.ru/weekly/ssp/sng_nac_89.php?reg=7
6. <http://www.tlfg.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm>
7. <http://www.unesco.org/culture/en/endangeredlanguages>
8. <http://www.unesco.org/culture/languages-atlas>
9. <http://www.uznatcorpara.uz/>

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BO‘LIM. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarish dialektikasini ilmiy-falsafiy o‘rganish masalalari

1.1. Zamonaviy O‘zbekistonda "O‘zbek tili" va "Davlat tili" tushunchalari hamda ular aloqadorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili

1.2. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarish dialektikasining ijtimoiy-falsafiy mezonlari

1.3. Mustaqillik yillarida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarishda ma‘naviy-ma‘rifiy omillarning ahamiyati.....

II BO‘LIM. Jamiyatning yangilanishi va o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarish jarayonining strategik tamoyillari

2.1. Jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishi jarayoni va davlat tili sohasidagi strategiyaning zamonaviy tamoyillari

2.2. Yangi ma‘naviy makon yaratilishi – o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko‘tarishning muhim omili.....

2.3. Yangi O‘zbekistondagi ma‘rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo‘nalishlari

III BO‘LIM. Ma‘naviy taraqqiyot jarayonida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirishning muhim omillari

3.1. Yangi O‘zbekistondagi ma‘rifiy islohotlar va davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirishni ustuvor yo‘nalishlari Jamiyatimiz ma‘naviy hayotidagi innovasion jarayonlar – davlat tilining tarbiyaviy maqomini oshirish omili.....

3.2. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini oshirish - ma‘rifatli jamiyatni barpo etish muhim tarkibiy qismi

3.3. Milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi tamoyillarini o‘zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishdagi ahamiyati

IV BO‘LIM. O‘zbek tilining tarbiyaviy maqomini oshirishning ijtimoiy-ma‘naviy mexanizmi va uni optimallashtirish imkoniyatlari

4.1. Ijtimoiy sohaga doir islohotlar – davlat tili tarbiyaviy maqomini oshirishning optimal mexanizmi

4.2. Jamiyatimizning hozirgi ma‘naviy taraqqiyoti jarayonida o‘zbek tilini obro‘y-e‘tiborini yanada yuksaltirishda lingvoma‘naviyatshunslilikning ahamiyat...

4.3. Ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlar jarayonida davlat tili qadrini ko‘tarish imkoniyatlari

UMUMIY XULOSALAR FOYDALANILGAN

ADABIYOTLAR RO‘YXATI